

**O'ZBEK
TILINING
IZOHLI
LUG'ATI**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
MA'NAVIYAT VA DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH
MASALALARI DEPARTAMENTI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI

O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATI

80 000 dan ortiq soʻz va soʻz birligini

6 JILDLI

TAHRIR HAY'ATI:

E. BEGMATOV, A. HOJIYEV, A. MADVALIYEV, N. MAHMUDOV (rahbar),
T. MIRZAYEV, F. MUSAYEVA, Y. ODILOV, D. XUDAYBERGANOVA

Abduvahob Madvaliyev,
Durdona Xudayberganova
tahriri ostida

TOSHKENT– 2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
MA'NAVİYAT VA DAVLAT TILINI RIVOJLANTIRISH
MASALALARI DEPARTAMENTI
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**

O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATI

BESHINCHI JILD

T – V

To'ldirilgan va qayta ishlangan nashr

UO'K 811.512.133'374.3(038)

KBK 81.2O'zb-4

O' 16


O'zbek tilining izohli lug'ati: 80 000 dan ortiq so'z va so'z birikmasi. J. V. T-V / Mas'ul muharrirlar A.Madvaliyev, D.Xudayberganova. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. –720 bet.

Ushbu ko'p jildli "O'zbek tilining izohli lug'ati" uning lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida tayyorlangan dastlabki nashri hisoblanadi. Lug'at hozirgi o'zbek adabiy tilida keng iste'molda bo'lgan 80 mingdan ortiq so'z va so'z birikmalarini, fan, texnika, san'at va madaniyat sobalariga oid terminlarni, bir necha shevada qo'llanadigan so'zlarni, ba'zi tarixiy va eskirgan atamalarni o'z ichiga oladi. Lug'atda berilgan so'zlarning amalda qo'llanishi XX asr hamda XXI asrning dastlabki davri o'zbek adabiyoti va matbuotidan olingan misollar bilan dalillangan. Lug'at o'zbek tilshunosligi va turkiyshunoslik bo'yicha mutaxassislar, tarjimonlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, oliy ta'lim muassasalarining o'qituvchilari va talabalari, shuningdek, keng o'quvchilar ommasi uchun mo'ljallangan.

UO'K 811.512.133'374.3(038)


KBK 81.2O'zb-4

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.



ISBN 978-9943-8834-8-2

© G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022



TAADDI [a. تَعْدَى – hujum, tajovuz qilish; jabr-zulm; zo‘ravonlik; qonunbuzarlik] *esk. kt.* 1 Shafqatsiz ezish; zulm, jabr. *Biz... Musulmonqulning zulm va taaddisi... bag‘oyat oshib borganligini muzokara... qilishdik.* A.Qodiriy, O‘tgan kunlar. *Bir nechasi aytdi: -Hozir Ultonning taaddisidan qochib, bo‘lak chegaraga borib turganimiz ma‘qul. “Yodgor”. [Suqsur kaniz:] Qalmoqlardan ko‘p taaddi ko‘rganmiz, Xudo qilganiga rozi bo‘lganmiz... “Alpomish”.*

2 ko‘chma Dag‘dag‘a, do‘q, po‘pisa. [Sultonmurod] *Taaddi bilan baland kela boshladi: -Sizlar kim? Nima haqlaring bor? Sh.Toshmatov, Erk qushi.*

Taaddi qilmoq Do‘q, po‘pisa qilmoq. *Ko‘tarilib, mening ko‘nglim qavartma. Jo‘na deb, Shomirot, taaddi qilma! “Yodgor”. -Har kim musofir boylarga taaddi qilsa, boshi – o‘limda, moli – talovda, o‘z ixtiyorida yura bersin, – dedi [Qalmoqshoh]. “Alpomish”.*

TAAJJUB [a. تَعْجَب – hayron bo‘lish, hayratlanish, ajablanish] 1 *sft.* Kishini hayratda qoldiradigan, ajablantiradigan, g‘alati. *Taajjub narsa. Taajjub ish. — Bu taajjub hol odamlarda gumon tug‘dirmay qolmadi.* M.Ismoil, Farg‘ona t.o. *Redaksiyaga aql bovar qilmaydigan taajjub bir xat keldi. “Mushtum”.*

2 *ot* Ajablanish, hayronlik. *Qo‘ldosh yuzida taajjub alomati paydo bo‘ldi.* H.Shams, Dushman. *Xotinning taajjubi oshdi.* S.Ayniy, Qullar. *-Yusuffonov?! – dedi qorovul ham taajjub, ham xursandlik bilan.* N.Fozilov, Hayot o‘rgatdi. [Safar] *Taajjub va hayrat ichida kelib, mehmonxonaga kirdi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

3 Kishining ajablanish holatini, hayronligini bildiradi; ajab, qiziq. *Taajjub, uning maktubi yuragimda na sevinch uyg‘otdi, na bir achinish! O.Yoqubov, Tilla uzuk. Lekin taajjub: odamlarning iliq muomalasi, ayniqsa, Sherbekning mehribonligi negadir uning ko‘nglini buzdi.* S.Anorboyev, Oqsoy.

Taajjub qilmoq Taajjublanmoq. **Taajjubga solmoq** Ajablantirmoq. *Meni taajjubga solgan narsa shuki, nima uchundir hech kim qachon va qanday mukofot olganimni so‘ramasdi.* Shukrullo, Javohirlar sandig‘i. **Taajjubga tushmoq** Ajablanish holatida bo‘lmoq; ajablanmoq. *Me‘mor o‘zini Usta Abdug‘afur negadir yuqori qavatga chaqirtirganidan taajjubga tushdi.* Mirmuhsin, Me‘mor.

TAAJJUBLANARLI Kishini taajjubga soladigan, ajablantiradigan; hayron bo‘larli, ajablanarli. *Buning hech taajjublanarli joyi yo‘q. — Xususan,*

bunday yumushlar xizmatkorlarga buyurilsa, bu hech qanday taajjublanarli hol hisoblanmaydi. Oybek, Tanlangan asarlar.

TAAJJUBLANMOQ Hayratda qolmoq, hayron bo'lmoq, ajablanmoq. *Birdan boshqa bir ovoz eshitildi: kimdir tez-tez gapiradi, dam erkakcha, dam xotinja so'zlaydi, dam chaqaloq bo'lib "inga" laydi... Yo'lchi taajjublanib, Yoramga qaradi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Olaxo'ja Meli polvonning oldiga keldi. Buzilayotgan yerni quchoqlab, yotib oldi. -Iyi, iyi! - deyishdi taajjublangan odamlar.* P.Tursun, O'qituvchi.

TAAJJUBLI Taajjublanarli, ajablanarli, hayron qolarli, g'alati, qiziq. *Taajjubli hol. — Yana taajjubli joyi, xonada har sonya imillab, ipdek eshilib kechadi, go'yo Pakana vaqt jilovini ushlab olgan-u, istagan paytida bo'shatadi.* A.Dilmurod, Mulk.

TAALLUQ [a. تعلق — aloqa, bog'liqlik; sodiqlik, bog'lanib qolish; ishq-muhabbat; tegishlilik] 1 *kam go'll.* Aloqadorlik, daxldorlik; aloqa, bog'lanish, munosabat. *Bu ishning sizga ham taalluqi bor. — Asad qori... so'nggi hikoyaning ham o'ziga taalluqi yo'qday, bez bo'lib o'tiraverdi.* M.Ismoil, Farg'ona t.o.

2 *esk.* Uylanish; aloqadorlik; xotin, rafiq. *Otabekning ikkinchi taalluqi [Zaynab] to'g'risida kelin bolamizga bildirilmasa xo'p edi.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

TAALLUQDOR [a. + f. تاللفاد — taalluqli, aloqasi bor, aloqador, bog'liq] 1 *ayn. taalluqli.* Ishga taalluqdor hujjat.

2 *ko'chma esk. ayn. xotinli.*

Taalluqdor qilmoq Uylantirmoq, xotin olib bermoq. *Janoblari bul ishka haq berurlarmi, yo'qmi, ammo azizlar-*

ning ruxsatlarini olmasdanoq Otabekni Toshkanddan ham taalluqdor qilmoqchi bo'lib, bul ma'niga ba'zi harakatlarni qilib qo'ygan erdik. A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

TAALLUQLI 1 Biror narsa yoki kimsaga aloqasi, bog'lanishi bo'lgan; daxldor, aloqador. *Ishga taalluqli hujjatlar. — Mahkamov boshliqning og'ziga ko'z tikib, ishga taalluqli biror muhim gap kutardi.* "Mushtum".

2 Biror narsa yoki kimsaga qarashli, tegishli, mansub. *G'ijduvonga revkom kelib: -Amir, uning bilan qochgan odamlarga tegishli mollardan va, umuman, podshohlikka taalluqli narsalardan boshqa narsalar musodara qilinmasin, — dedi.* S.Ayniy, Qullar.

TAALLUQSIZ Aloqasi, bog'lanishi, daxli bo'lmagan; aloqasiz, munosabatsiz. *Ishga taalluqsiz hujjat. — ...Prusting estetik nazariyasi san'atni keng ma'noda, reallikdan ajratishga, real hayotga bog'lamaqlikka, tor ma'noda esa ijtimo'iy hayotga bog'lamay, obyektiv voqelikdan muayyan makon va zamonga taalluqsiz subyektiv hissiyotlar dunyosiga sho'ng'ib ketishga da'vat etadi... "Sharq yulduzi".*

TAAMMUL [a. تامل — ko'rib chiqish; kuzatish; mulohaza; o'ylash, fikr, mulohaza yuritish] *esk. kt.* Andisha, fikr, mulohaza.

Taammul qilmoq O'ylamoq, o'ylab qolmoq. *Xatib domla mulla Obidning ko'zidan bir ma'no o'qish uchun tirishgandek biroz taammul qilib qoladi.* A.Qodiriy, Obid ketmon.

TAARRUZ [a. تعرض — duch kelish; xalaqit berish; to'g'onoq bo'lish, yo'lini to'sish; qarshilik, e'tiroz] *esk. kt.* Biror

narsaga, ishga, harakatga ko'rsatilgan qarshilik, to'sqinlik. *Masalan, yangi maktab va muallimlarini va anda o'qulaturgon kitoblarni ma'nani taftish etib, andagi nuqsonlarni bayon etmoq tanqiddur. Taarruz va dushmanlik emas. Behbudiy, Tanlangan asarlar.*

TAASSUB [a. تَعَصُّب – tarafdorlik, mutaassiblik; biror kimsa, narsa yoki g'oyaga behad berilish, ko'r-ko'rona ergashish; fanatizm] 1 Biror kimsa yoki narsaga taqlid qilish, ergashish. *Lekin ushbu tamaddun asrida ilmsiz quruq taassub ila ham yashab bo'lmay.* Behbudiy, Tanlangan asarlar.

Taassub qilmoq Taqlidan ergashmoq. *Sen Kumushxonga taassub qilaman deysanmi? Hamza, Paranjilari.*

2 E'tiqod, maslak va sh.k. ga ko'r-ko'rona berilish; fanatizm. *Mulla Obid boy va domlalarining qutqusi bilanmi yoki o'zining diniy taassubi orqasidanmi, baharhol, yerni rad qildi. A.Qodiriy, Obid ketmon. Taassub xazinasi deb ayblang'on soddadillardan boshqada chopon qolmadi... Cho'lpon, Chopon va paranjilari.*

TAASSUF [a. تَائِب – afsuslanish, achinish, qayg'urish, kuyinish] Ko'ngilsiz, nomaqbul voqea, hodisa, ahvol va sh.k. dan tug'ilgan achinish; afsus. *Taassuf qilmoq. Taassuf bildirmoq. — G'oyat taassuf! — dedi Tal'at afandi, barmoqlarini qovushtirib qirsillatarkan. H.G'ulom, Mash'al. Otabek uyahuv aralash kulumsirab, qutidorga qaradi: —Taassufki, eslay olmayman! — dedi u. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. —Rahmatli vallahat odam edilar, — taassuf bilan gapirardi kimdir. "Yoshlik".*

TAASSUFLANMOQ Taassuf qilmoq, afsuslanmoq, achinmoq. *Biz uning [Lutfillaning] ayanchli holiga... taassuflandik. Mirmuhsin, Sozanda. Har holda, kitobxon Alimardondan nafratlanishdan ko'ra, unga achinadi, unga rahmi keladi, shunday iste'dod egasining o'tkinchi "qadriyatlariga" qurbon bo'lib ketganiga, u bilan birga Anvar va Muqaddamlarning ham turmush zarbalariga duchor bo'lganiga taassuflanadi. "O'tkir Hoshimov zamondoshlar nazdidan".*

TAASSUROT [a. تَائِبُوت – ta'sirchanlik, hassoslik; qayg'u, g'am-anduh, xafagarchilik] Ko'rilgan, his etilgan hodisa, kishi yoki narsa to'g'risida ko'ngilda, xotirada qolgan iz, tug'ilgan fikr va his-tuyg'ular majmuyi. *Safar taassurotlari. Yaxshi taassurot qoldirmoq. — Bu kunning ko'rkamligidan olgan taassurotini Ali ichiga sig'dirolmadi: —Zap yaxshi kunmi! — dedi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Bolalar yangi o'qituvchining darsi to'g'risida o'z taassurotlarini o'rtoqlasha boshladilar. P.Tursun, O'qituvchi.*

TAB [f. تَب – isitma, bezgak] s.t. Taft, harorat.

Tab bosdi qilmoq Taftidan, hovuridan tushirmoq, taskin, tasalli berib yoki biror narsa bilan ovutib, taftini, hovurini bosmoq. *O'zimning gapimga o'zim pushaymon yeb, o'lganimning kundan "tab bosdi" qilib, shartnomaga qo'l qo'ydim. G'.G'ulom, Tirilgan murda. Tab tortmaslik* Biror narsa qilish yoki aytishdan qaytmaslik. *Qizlar —balo... Kechalari ham dalaga chiqishdan tab tortmaydi. Oybek, O.v. shababalar. Zuhra ham tab tortmay: —Turt-*

masdan gapirsangiz bo'lmaydimi, ur-gandan turtgan yomon, — dedi. Oydin, Hikoyalar.

TABAA [a. تَبَع — qarashli, tobe; fuqarolar, vatandoshlar, yurtdoshlar; millat, milliy mansublik; fuqarolik] *esk. kt.* Fuqaro, fuqarolar. O'z xo'jayinlari... irodasi bilan... ingliz tabaasi Shayx Fayz Muhammadxon solgan sunniylar-ning yagona machitiga inom bo'lib joylashdi. A.Hakimov, Ilon izidan. U Amir Muzaffar zamonida tuhmatga uch-rab, Buxorodan Samarqandga qochib borgan, u yerda uy-joy qilib, Rossiya davlatining tabaasi bo'lib yashashga majbur bo'lgan. S.Ayniy, Esdaliklar.

TABAALIK *esk. kt.* Fuqarolik.

TABAASOZLIK *esk. kt.* 1 Birovga taqlid qilish, ergashish, taassub.

2 Kimsaning ko'ngliga qarab ish qi-lish, ko'ngilsozlik. *Tabaasozlik qilmoq.*

TABAQ [a. طَبَق — qopqoq; likop, patnis; lagancha] 1 *esk. kt. ayn. tovoq.* Osh misoli tabaqda ko'z yoshi, Kurmagi ko'p, gurunchidan toshi. Muqimiy. Lo-chira-yu patirlar, shirinliklar, tabaq-larda et-u kulchatoy, kosalarda sho'r-valor... Mirmuhsin, Me'mor.

2 Chop qilingan bosma matnni o'l-chash birligi, bosma tabaq. *q. bosma.* Bu lug'at taxminan 25 tabaq hajmida bo'lib, o'n mingga yaqin so'zni o'z ichiga oladi. "O'TA".

TABAQA I [a. طَبَقه — qatlam, qavat; daraja] Eshik, deraza va sh.k. ning ochilib-yopiladigan har bir bo'lagi. *Yak-ka tabaqqa deraza. Qo'sh tabaqqa eshik.* — [Hasanali] Zanjirni tushirib, darvo-zaning bir tabaqasini ochish hamono, shu tabaqaga suyanib turgan Otabek Hasanalinining oyog'iga yiqilib tushdi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

TABAQA II [a. طَبَقه — qatlam, qavat; tabaqqa, daraja] Muayyan xalq ichidagi ijtimoiy qatlam, guruh, toifa. *Savdogar-lar tabaqasi.* — *Shahar xalqining har bir tabaqasi deyarli Musulmonqul dak-kisini yeb kelgan.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar. *Taxta atrofida o'tirganlar ora-sida aholi turli tabaqalarining vakillari bor edi.* Gazetadan.

TABAQALANISH 1 *Tabaqalan-moq* fl. har. n.

2 Tabaqalarga ajralish, shunday ja-rayon. *Aholining tabaqalanishi.* — *Fa-qat jamiyatda hukm surgan tengsizlik, tabaqalanish — odamlarni bir-birlari-ga bo'ri... qilib qo'ydi.* M.Ismoil, Far-g'ona t.o.

TABAQALANMOQ *Tabaqalarga bo'linmoq.* *Ashurali esa o'ylanib qoldi: "Xo'sh, odamlar nimasiga qarab tabaqa-lanishi mumkin?"* N.Rahmat, Go'rkov.

TABAQALASHTIRMOQ 1 *Taba-qalarga bo'lib yubormoq, tabaqalarga ajratmoq.*

2 Ma'lum belgilarga qarab farqla-moq, differentsiatsiya qilmoq. *Tabaqa-lashtirilgan ta'lim.*

TABAQALI I *Tabaqasi bor, tabaqa-si bo'lgan (eshik, deraza va sh.k. ha-qida). Ikki tabaqali darvoza.* — *Ular kichkina hovlining bir tabaqali pastak-kina eshigidan kirganlarida, ayvondagi o'choq oldida o'tirgan ayol o'rnidan turdi-da, hovliga yuz o'girdi.* P.Tursun, O'qituvchi.

TABAQALI II *Muayyan tabaqaga mansub. Past tabaqali. Yuqori tabaqali.* — *Qorbobo Qovoqboyevdan teparoqqa g'ilaylandi: -Janob Qovoqboyevga oliy tabaqali mehmon sifatida gapirsam...*

kiringni yuvib o'tirgan xotining anavi yoqda qolib, manavi yoqda nima qilib yuribsan, qovoq, deyishga majburman. A.Obidjon, Oliy tabaqali mehmonlar.

TABAQACHILIK Jamiyat tabaqalarining o'ziga xos belgilari, tartib-qoidalari va ularga asoslangan ijtimoiy munosabatlar. *Milodiy XI asrdan boshlab vishnuizm da sektantlik yo'nalishlari paydo bo'ladi, bu yo'nalishlardan ayrimlari tabaqachilikka, ajratishlarga qarshi chiqib, bxakta ta'limoti bilan yaqindan bog'lanib qolgan edi. "O'zME".*

TABAR [f. *تبر* – bolta] 1 shv. Bolta. *Mullalar o'qiydi zer-u zabarni. Ustalar ishlata tesha, tabarni. "Ravshan".*

Tabar musulmon tar. Bolta bilan bo'ysundirilib, musulmon bo'lgan. *-Mening tarixdan bilishimcha, janubda din qadim zamonlardan beri sust bo'lgan, ba'zi manbalarda bu o'lka odamlarini "tabar musulmonlar" deyishadi, – u qizning diqqat bilan quloq solayotganidan ilhomlanib, so'radi: – Tabarni tushunarsiz, "bolta" degani? Sh.Xolmirzayev, Oy yorug'ida. -Qo'ying, ena, shu bo'l-mag'ur gaplarni! Hozir tabar musulmon degan gap yo'q, – dedi Omon. N.Normatov, Bisot.*

2 tar. Oyboltaning bir turi, qadimiy jang quroli. *Sipoh bilan gaplashmoqchi bo'lsang, qo'lingda tabaring bo'lsin, deganlar. Mirmuhsin, Me'mor.*

TABARGUL bot. Chuchmomaguldoshlar oilasiga mansub, xushbo'y oq gulli, uzunchoq bargli, tuganak piyozli, kuzda gullaydigan manzarali ko'pyillik o'tsimon o'simlik. *Manzarali tabargul navlaridan guldastalar yasashda foydalaniladi. "O'zME".*

TABARRUK [a. *تبرك* – xayr-barakali bo'lishini tilash; duo, fотиha olish, rozilik olish; muborak, muqaddas] 1 Ulug' hurmatga sazovor, g'oyat hurmatli, mo'tabar va aziz. *Tabarruk chol. – Qishloqning tabarruk onaxonlari uyda beshikka gavrabo'sh yopishayotgan ekan. E.Usmonov, Yolqin. Tabarruk inson Shoahmad aka ayitganidek, "Hamma millat bolalari bir bola" edi. R.Fayziy, Ta'zim.*

2 Yaqin, mo'tabar kimsa yoki narsani eslatadigan, undan esdalik, yodgorlik bo'lib qolgan. *Otamdan qolgan tabarruk kitob. – [Navoiy:] Endi, siz bu tabarruk qilich bilan davlatimizni, saltanatimizni, mamlakatimizni va uning san'atini himoya qiling! Uyg'un va I.Sulton, Alisher Navoiy.*

3 Ilohiy kuchga ega bo'lgan; muqaddas; aziz-avliyolarning nazari tushgan. *-Makkatulloda, tabarruk yerda erimga Qur'on o'qitarman, gunohlarini xudodan yig'lab tilarman, degan niyat qanot bo'ldi, – dedi Hoji xola. M.Ismoiliiy, Farg'ona t.o. Elimiz nonni va donni tabarruk hisoblab, peshonasiga surtadi. Gazetadan. Ona! Dunyodagi eng aziz, eng laziz va tabarruk, eng muhtaram kalom bu! "Saodat".*

TABARZIN tar. Dastasi oddiy boltaga nisbatan uzunroq bo'lgan oybolta, qadimiy qurol turi. *Eron, Xuroson, Movarounnahr hamda Hindiston tarixiga oid manbalarda tabarzin tez-tez ko'zga tashlanadi. "O'zME". -Ha, do'stim... lashkar uchun javshan (sovut), dubulg'a, sipar (qalqon), tabarzin (jang boltasi), nayzalar ham juda sifatli bo'l-mog'i kerak, – dedi Yitik. J.Fozil, Ayriqliq ostonasi.*

TABASSUM [a. تَبَسُّم – jilmayish; il-jayish] Yuz, ko‘z va lablar bilan kulumsirash holati, shunday holat ifodasi; jilmayish. *Hayotning yuziga shirin tabassum yugurdi.* M.Ismoil, Farg‘ona t.o. *Otabek ham istehzoli tabassum orasida Homidga ko‘z qirini tashladi.* A.Qodiriy, O‘tgan kunlar. *Uning lablaridagi tabassumni ko‘rgan Zulfiqor ashulani yana balandroq oldi.* Mirmuh-sin, Me‘mor. *Shoiraning ko‘zlari tabassumdan yonib turar edi.* O‘.Hoshimov, Nur borki, soya bor. *Bolajon deyilsa – tabassum tayyor, Mehr-u shafqat tayyor, tarahhum tayyor.* A.Oripov, Yangi she‘rlar.

Tabassum qilmoq Kulumsiramoq; jilmaymoq. *Yulduzxon Muhiddinga qarab, ma‘noli tabassum qildi.* R.Fayziy, Cho‘lga bahor keldi.

TABDIL [a. تَبْدِيل – o‘zgartirish; ayirboshlash, almashtirish] 1 O‘zgarish, almashinish; o‘zgartirish, almashtirish. *Hozir ta‘til vaqti bo‘lgani uchun qishloqlarda tabdili havo qilib yuribmiz, – dedi domla.* G‘.G‘ulom, Shum bola.

Tabdil etmoq (yoki qilmoq) O‘zgartirmoq. *...O‘ylab ko‘ring, taqdirni tabdil etib bo‘ladimi?! M.O‘rinxo‘jayev, Unutilmas kunlar.*

2 ad. Asar matnini muallif yoki tarjimon davridagi tildan joriy tilga moslashtirish. *Har qanday qadimiy kitob tabdili, unga izohlar berish murakkab ijodiy ish bo‘lib, teran bilim, mashaqqatli mehnatni talab qiladi.* Gazetadan. *Tabdil nashrlar keng kitobxonlar ommasini uchun tushunarli bilgan bilan ham muhim hisoblanadi.* Gazetadan. *Iyunning o‘n beshida, chorshanba kuni Boku teatr texnikumidagi talabalarimizning uchinchi o‘yunlarini ko‘rdik. Bu daf‘a tarjima*

emas, tabdil qiling‘on bir asar, Ja‘far Jabborzodaning “Oydin” nomli fojeasi qo‘yilg‘on edi. Cho‘lpon, Oydin.

3 ad. Bir yozuvdan ikkinchi yozuvga o‘girish; transliteratsiya.

TABEL [nem. Tabelle – jadval < lot. tabella – kichkina yupqa taxta] 1 esk. Biror narsani hisobga olish varaqasi; jadval.

2 Ishchi va xizmatchilarning ishga kelish va ketish vaqti qayd qilinadigan maxsus daftar yoki taxta. *Tabellarda yozilsa “Ro‘zibish kampir”, Tabelchiga xo‘mravib asta qaraydi.* G‘.G‘ulom.

3 Maktab o‘quvchilarining darsdan ulgurishlari (baholari) qayd qilinib boriladigan varaq. *Akarning tabelidagi “xulq” deb yozilgan grafada hamma vaqt “5” bahosi bo‘lardi.* S.Anorboyev, Oqsoy.

TABELCHI 1 Korxona va muassasalarda ishga kelish-ketishni hisobga olib boruvchi, tabel yurituvchi xodim.

2 tar. Kolxoz va sovxozlarda ishchi va kolxozchilarning ishga chiqqan-chiqmaganligini va qancha, qanday ish bajariganligini qayd qilib va hisobga olib borish uchun tayinlangan shaxs. *Men ham oldiniga tabelchi, so‘ng sekretar bo‘lganman.* Sh.Rashidov, Bo‘rondan kuchli. *Ba‘zan shunchalar qiziqib ketamizki, tabelchi Bahrom tog‘a “hay-hay” lamasalar, chopiq ham, yagana ham, chilpish ham qoladi-ketadi.* O.Hojjiyeva, Ro‘molcha.

TABELCHILIK Tabelchi ishi, kasbi. *Tabelchilik qilmoq.* — Bosh tabelchilikka tushdim. Ammo shuniyam ko‘risholmadi, ichasan deb bo‘ynimga ayb qo‘yishdi-ya. A.Obidjon, Sotti satang hayotidan.

TABIAT [a. طَبِيعَة – tabiat, borliq; tabiiy, tug'ma xislat; odat] 1 Butun mavjudotni o'z ichiga olgan olam, borliq. *Tabiat zap qiziq narsa-da. Unda hamma narsa mavjud, hamma narsaning o'z o'rni, o'z mavqeyi bor.* N.Fozilov, Diydor. *Tabiatning hech kimga bo'ysunmaydigan, birovdan ruxsat ham so'rab o'tirmaydigan qonunlari bor.* O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Kuzda tabiatning jonli va faol vakili – odam organizmi ham tiniqadi.* Gazetadan.

2 Insoniyat va hayvonotdan o'zga olam. *Tabiat bilan odam bolasi qiyos-lansa, bir-biriga o'xshashi aqlni hayratga soladi.* Gazetadan. *Ketdi qirdan tur-na ham, Bo'shab qoldi tabiat...* A.Oripov, Yurtim shamoli. *Tabiatda uchraydigan minerallarning ba'zilari sanoat ahamiyatiga ega.* Gazetadan.

3 O't-o'lan, o'simlik va b. narsalar band etgan tovarak-atrof, qir-adir, o'rmon va sh.k. lar. *Otabek tabiatning shu ko'rkam va latif ko'rinishiga maftun bo'lib, biroz yotgandan keyin, "Ul ham bo'lsa edi", deb o'yladi va uzoq tin olib qo'ydi.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar. *Tabiat sokin, ufq jimirlaydi...* A.Muxtor, Chinor. *Tabiat o'z tilida roz aytib shivirlar ekan, yigit bundan o'z quvonchining madhini o'qirdi.* M.Ismoil, Farg'ona t.o. *Kechagi changbosti yomg'ir tabiatga husn berib ketganidek, odamlarning ham bahridilini ochib yubordi.* N.Fozilov, Diydor.

4 Yer sathining ma'lum bir jihatini aks ettiruvchi belgi, xususiyat yoki holati. *Bu yerning go'zal tabiati va zilol suv manbalari odamlarga orom bag'ishlaydi.* Gazetadan. *"Boburnoma"ni va-raqlar ekansiz... tabiat manzaralari*

chizilgan lavhalarga duch kelasiz. "Fan va turmush".

5 Inson ruhiyatiga xos asosiy, tur-g'un xususiyatlar majmuyi; xarakter, fe'l. *-O'zi juda og'ir va aqlli yigit, bu-ning ustiga qiziq tabiati ham bor, – dedi Usta Olim.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar. *U [Vali aka] tabiatining og'irligiga qara-may, o'rnidan sapchib turib ketdi.* M.Ismoil, Farg'ona t.o. *Mirzakarim-boyning qizi Nurinisoning tabiatida yengillik bilan makr ustun turar edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Doim zaxda o'tirib ishlaganimdanmi yoki o'zimning tabiatimda zaiflik bormi – ishqilib, ko'p vaqtdan beri bedarmon tortib yurib-man.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

Tabiati ko'tarmaydi (yoki **tort-maydi**) Mijoziga to'g'ri kelmaydi, ko'ngli tortmaydi. **Tabiati past** Ziqla, qizg'anchiq, xasis. [Qodirqul:] *Bu boy-ning tabiati shunaqa pastmi?* Hamza, Boy ila xizmatchi.

6 ko'chma Narsaga xos biror belgi, xususiyat. *Planetalarining fizik tabiati.* — *Turkiy tillarda cho'ziq unilarning tabiati... ko'pdan mutaxassislarning diq-qatini jalb qilib keldi. "O'TA".*

7 Kayfiyat, ruhiy holat. *Tojiboyning Gulsumga jazmanligi to'g'risidagi gap-lar esiga tushib, tabiati biroz xira bo'ldi.* P.Tursun, O'qituvchi. *Ahmad o'z xonasi-ga kirsar, Tolib aka yo'q ekan. Uning ta-biati ravshan edi.* F.Musajonov, Himmat.

8 Did, farosat. *Tabiati nozik odam.* *U odamning tabiatini qarangki...*

9 Yaratuvchi, ato etuvchi, boshqaruv-chi ilohiy kuch-qudrat timsoli. *Tabiat bu diyorga shunday sehrli kuch ato et-ganki, uning tuprog'ida har qanday o'stmlik bahra oladi.* Gazetadan. *Aslida*

tuproqni odil tabiat Taqsim aylagan-ku yer yuziga teng. A.Oripov, Yillar armoni.

TABIATAN Tabiatiga ko'ra, tabiatiga, mijoziga mos o'laroq. *U kishi tabiatan xushfe'l odam bo'lsalar ham... birdan tutaqib ketardilar.* M.Ismoilii, Farg'ona t.o. *Botir yigirma uch yoshlarda bo'lib, tabiatan sho'x, ichida gap saqlamaydigan yigit edi.* I.Rahim, Ixlos. *Qiz bolalar tabiatan nozik, nafis, latofatlidir.* "Saodat".

TABIATLI Ayrim so'zlar bilan birikib, shu so'z anglatgan ma'nodagi tabiatga egalikni bildiradi (q. **tabiat** 5). *Og'ir tabiatli odam. Yengil tabiatli ayol.* — Olimov qirg' besh yoshlardagi... muloyim tabiatli... kishi edi. H.Nazir, So'nmas chaqmoqlar. *Yusuifiy murakkab tabiatli odam edi.* Sh.Rashidov, Bo'ron-dan kuchli. *Kiyinishidan nozik tabiatli, baland didli ekanligi ko'rinib turardi.* Shuhrat, Shinelli yillar.

TABIATSEVAR Tabiatni sevadigan, undan zavq oladigan. *Chaqaloq tug'ilganda tabiatsevar bu xalq [turkiylar] chor-atrofdan ulgu olib, biron ism qo'yadi. Masalan, o'g'il bo'lsa, To'rg'ay yoki Bo'ribiy, qiz bo'lsa Yulduz yo Oychechak.* Z.Mamadaliyeva, Tangritog'ga o'rlayotgan o'g'lon. *Mustaqillik yillarida tabiatni muhofaza qilishga bo'lgan e'tibor mamlakatimizga kelayotgan xorijiy tabiatsevarlar safining kengayishida muhim ahamiyat kasb etmoqda.* Gazetadan.

TABIATSHUNOS [tabiat + f. شانس — o'rganuvchi] 1 Tabiatni o'rganuvchi, tekshiruvchi shaxs. *Marhamat Qudratga, yosh tabiatshunoslar to'garagi tuzishda ko'maklashgin, degan edi.* H.Nazir, So'nmas chaqmoqlar.

2 Tabiatshunoslik, tabiiyot mutaxassisi.

TABIATSHUNOSLIK Tabiat hodisalari va qonuniyatlari haqidagi fan, tabiiyot. *Tabiatshunoslikni alohida fan sifatida o'rganish g'oyalari Forobiy, Ibn Sino risolalaridan ma'lum. Abu Rayhon Beruniy esa tabiatshunoslikni mustaqil fan sifatida rivojlantirishga hissa qo'shgan...* "O'zME".

TABIB [a. طبيب — shifokor, davolovchi; vrach] 1 esk. Bemorlarni davolovchi mutaxassis; vrach. *Kasalning tuzalgisi kelsa, tabib o'z oyog'i bilan keladi.* Maqol. *Tabib — tabib emas, boshidan o'tgan — tabib.* Maqol. — *Buxoroyi sharifda Abu Ali ibn Sino degan bag'oyat ulug' tabib o'tgan!* M.Ismoilii, Farg'ona t.o.

2 Tibbiyot ilmidan muayyan mutaxassis tayyorlovchi o'quv yurtida ta'lim olmagan, o'z harakati, hayotiy tajribasi orqali bemorlarni davolash bilan shug'ullanuvchi shaxs. *Tabib, qo'y jigirini xom kabob qilib, bujug'un sepib yeng, degan edi...* dardi shifo topmabdi. M.Ismoilii, Farg'ona t.o.

TABIBGARCHILIK s.t. Tabiblik. *Tabibgarchilik qilmoq. — Biz — endi tabibgarchilikdan xabarimiz yo'q odam.* G'.G'ulom, Tirilgan murda.

TABIBILON zool. Suvilonlar oilasiga mansub, kichkina boshi bo'ynidan biroz ajralib turadigan, bo'yi ikki metr-gacha bo'lgan ilon turi.

TABIPLIK 1 Tabobat, bemorlarni davolash bilan shug'ullanish. *Ibn Yamin tabiblik asboblarini, nodir kitoblarini olib, Farg'onaning Avval qishlog'iga yo'l oldi.* K.Yashin, Hamza.

2 Tabib ishi, kasbi. *O'tar bobo xon saroyida qirq yil xizmat qilib, tabiblik va sartareshlik tufayli o'rttirgan besh-o'n tangasini... uy solishga sarfladi.* S.Siyoyev, Yorug'lik.

TABIBCHILIK s.t. Tabiblik. *Mulla ibn Yamin... Qo'qonda... tabibchilik bilan shug'ullangan.* "O'TA".

TABIY [a. طَبِئِيّ – tabiatga oid, tabiatda bo'ladigan; odatiy, me'yoriy] 1 Tabiatning o'zida mavjud bo'lgan, inson ta'siri bo'lmagan; zid. **sun'iy**. *Tabiiy boyliklar. Tabiiy sharoit. Tabiiy gaz.* — *Tuz tabiiy konlardan va sho'r suvlardan olinishi ma'lum.* "Fan va turmush". *Uning fikricha, sun'iy shoxlatilgan g'o'zaning yuzta sun'iy ko'sagidan ko'ra shoxlatilmagan g'o'zaning o'nta tabiiy ko'sagi afzalroq – og'ir va paxtasining tolasi uzun bo'lishi kerak edi.* A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. *Is-siqko'l sohillarini tabiiy shifobaxsh maskan, deya bejiz aytishmaydi.* Gazetadan.

2 Tabiatning o'z asl holati, qonun-qoidalari bilan bog'liq bo'lgan, bog'liq holda yuz beradigan. *Tabiiy tanlanish. Tabiiy o'zgarishlar.* — *"Boburnoma"ni varaqlar ekansiz, o'rni-o'rni bilan tabiat manzaralari chizilgan lavhalariga, tabiiy hodisalar tasviriga duch kelasiz.* "Fan va turmush". *Bu tabiiy ofat [yer qimirlashi] kishilarning irodasi mustahkam, bir-biriga madadkor... ekanligini yana bir bor isbotladi.* Gazetadan.

Tabiiy boyliklar Jamiyatning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish maqsadida xo'jalikda foydalaniladigan hamda insoniyatning yashashi uchun zarur bo'lgan, uni o'rab turgan tabiiy muhitning barcha tabiat komponentlari,

energiya manbalari. **Tabiiy fanlar** Tabiat hodisalari va qonuniyatlari haqidagi fanlar majmuyi. *Nega o'rta asrlarda tabiiy fanlar jahonni hayratga solarli darajada taraqqiy etib, Beruniy, Xorazmiy, Ibn Sino kabi allomalar yetishib chiqdi?* S.Karomatov, Oltin qum.

3 Aslida (yaratilishida) bor bo'lgan. *Labidagi tabiiy xoli o'ziga yarashgan.* — *Tabiiy holati buzilmagan tuproqning unumdorligi tuproqning tabiiy unumdorligi deb ataladi.* "Fan va turmush".

4 kesim vzf. Odatga, mantiqqa to'g'ri (keladigan), bo'ladigan hol. *Yangi yil arafasida har bir qalbdan eng dilbar orzular oshib-toshadi, bu – tabiiy.* "Sao-dat". *Katta ish bajarayotganda, odam mayda-chuyda kamchiliklarga yo'l qo'yishi tabiiy.* F.Musajonov, Himmat. *Kishi og'ir damlarda qadrdon do'stlarini yodga olar ekan, yurtini qo'msashi tabiiy.* Nazarmat, Jo'rlar baland sayraydi.

5 mod. s. Albatta, o'z-o'zidan, shubhasiz, aniq. *Tabiiy, Xushro'ning fe'lini yaxshi bilgan ota-ona uning ra'yini olmasdan turib, bir ish qilmoqdan qo'r-qardilar.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar. *So'-zamol, badavlat... qari tog'aning birdan ko'z yumib, sukutga botishining sababini, tabiiy, Yo'lchi tushunmadi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Kech. Tabiiy, bu choq kishilar orom og'ushida.* N.Safarov, Olovli izlar.

TABIYLIK Tabiiy holat, shunday holatga egalik. *Tabassurning tabiiyligi.* — [Kumush] *Latif burni yonidagi qora xolining tabiiyligiga ishonmagandek qashib ko'rdi.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar. *Dadamat akaning butun vujudidan qat'iyyat, tabiiylik va samimiyat ufurib turardi.* F.Musajonov, Himmat.

TABIYOT [a. طبعیات – tabiat hodisalar; tabiiy fanlar] 1 Tabiat hodisalar va qonuniyatlari haqidagi fan; tabiat-shunoslik. *Bedil "Irfon" dostonida fal-safa, tarix, tabiiyot, adabiyot va ilohiyotning xilma-xil masalalariga to'xtalgan. "O'zME".*

2 Maktabda tabiat to'g'risida o'qitiladigan predmet nomi. *Tabiiyotdan "5" baho oldim. Tabiiyot o'qituvchisi.* — Sovxoz direktorining kabinetiga maktab tabiiyot o'qituvchisi Ehsan E'tiborov kirib keldi. Sh.Xolmirzayev, Kulgan bilan kuldigan.

TABL [a. طبل – katta nog'ora; do-vul] tar. Nog'ora; teri qoplab ishlangan va urib chalinadigan maxsus cholg'u. *Bu sukunatni faqat mirshablarning on-da-sonda dapdaplal chalinadigan tabl sadosi buzar... edi. A.Hakimov, Ilon izidan.*

TABLA I [a. طبله – osma qulf; quti] 1 shv. Otlar turadigan og'ilxona. *Qo'tanda qo'y, tablada ot, soyabon arava Zohiran soyil-u qashshoq kabi xor bo'lmay o'!* Zavqiy. *Shoxdorxonning sakson tablada bedov oti bor edi. "Go'ro'g'li".* Choparlar kelib ketgandan keyin tablada ot sag'risi toshib, yoli qulog'idan oshib, yulduzni ko'zlab, taraqqos boy-lab o'ynay berdi. "Alpomish". *Xon Hasanxon g'ayrat qilib, Gul tablaga chopib borib, Egarlab mindi otini. "Gulnor-pari".*

2 ayn. tabl.

TABLA II [a. طبله – nog'ora; urma cholg'u] Hind urma musiqa cholg'usi. *Tabla yakkanavoz hamda turli mumtoz musiqa (jumladan, raga) ansambllarida asosiy jo'rnavoz cholg'u sifatida keng qo'llanadi. "O'zME".*

TABLETKA [fr. tablette – kulcha] Tugmachasimon qattiq dori. *Xinin tabletkasi. Tabletka yutmoq.* — Yaxshiyam xotin kasalmand, yaxshiyam uning dori-darmon qutichasi bor. *Ishqilib, ichidan biron-yarim tabletka topsa bo'ladi. L.Bo'rixon, Sirli muallim.*

TABLITSA [pol. tablica < lot. tabula – taxta; jadval] q. jadval.

TABLIG' [a. تېلېغ – bildirish, xabar berish; ortiqcha so'zlarni ishlatish] ad. Mumtoz adabiyotda mubolag'a turi, tassavvur qilish mumkin-u, amalga oshirish qiyin bo'lgan bo'rttirilgan tasvir usuli. *Agar mubolag'a aql-u odatga muvofiq bo'lsa – tablig', aqlga sig'sayu odatdan tashqari bo'lsa, ig'roq, agar odatdan tashqari bo'lib, aqlga ham sig'masa, g'uluv deydilar. E.Ochilov, Barhayot siymolar.*

TABLO [fr. tableau – surat, tasvir, kartina; e'lonlar taxtasi] Tekshirish obyekting ahvoli yoki musobaqaning borishi va natijalari, tijorat xabarlar va e'lonlari yozib ko'rsatib turiladigan signal taxtasi. *Temiryo'l tablosi.* — Kuyib-pishib darvozaga kim to'p kiritdiyu, qaysi anqov darvozabon o'z darvozasiga kelgan to'pni ushirlamay qoldi – bularning hammasini... tablo hisobga olib turadi. G' Mahkamov, Tablo qissasi.

TABOBAT [a. طبابت – shifokorlik kasbi, tabiblik; davolash] Tibbiyot (asosan, sharq xalq tibbiyotiga nisbatan ishlatiladi). *Nonushta pirovard bo'lguncha, domla sharq tabobati va uning mashhur kishilari to'g'risida so'zladi. A.Qahhor, Sarob. Xalq tabobatida azaldan yalpizdan turli-tuman kasalliklarni davolashda foydalanib kelingan. Gaze-tadan. Husayn bo'sh vaqtlarida... ba'*

zan tabobatga doir kitoblarni mutolaa qilar edi. M.Osim, Ibn Sino qissasi. Baytalning ustidagi xurjunning ikki ko'zi tabobat anjomlari bilan to'lgan edi. Mirmuhsin, Me'mor. [Muhiddin ota:] -Gapingiz to'g'ri, bo'tam, hozirgi tibbiyotning o'zligi - o'tmish tabobatidan yuz o'girganida. T.Malik, Shaytanat.

TABOBATXONA esk. Shifoxona, kasalxona.

TABOBATCHILIK kam qo'll. Tabobat, tibbiyot ishlari. Isiriq qadim zamonlardan beri turli xalqlar tabobatchiligida ishlatilib kelgan. "Fan va turmush". O'tmishda xalqimiz tabobatchilikda ko'pgina turli giyohlar, dori-darmonlar ishlatganlar. A.Rahimjonov, Bosh og'riq.

TABOQ ayn. *tabaq*. -*Xo'b, xo'jayin, xo'b*, - dedi Po'lag'ur, - kechki payt kolxozning novcha muftisi mendan ikki yuz odimni hisoblab olsin, faqat hozir menim nonimni ikkita, oshimni uch taboq qilishg'a fatvo bersangiz, bas. A.Qodiriy, Quyosh bilan ham kurashaman.

TABOR [f. تَبَر - qarindosh, avlod; nasl-nasab]: *xesh-u tabor q. xesh. Jamoalar ichinda bir gadodek e'tiborim yo'q, G'arib-u bekas-u aftodaman, xesh-u taborim yo'q. Zavqiy. Begona bo'lmasakda, biz - xesh-tabor uni [tog'ani] rahmatli bobomiz o'tqazib ketgan dabdaba otidan qarindoshlarcha ayab-avaylab pastga tushirib, toqqina qilib "G'azanzar" deb ataymiz. E.A'zam, Bizning tog'a.*

TÁBOR [chexcha - tabor] 1 Chexlar, polyaklar, ruminlar, vengerlarda: qarorgoh, yuk ortilgan aravalar - o'g'ruq.

2 O'tmishda kazaklarda - o'g'ruqi bor qo'shin qarorgohi, o'rdasi.

3 Bir qismi qarindoshlik rishtalari bilan bog'liq bo'lgan ko'chmanchi lo'lilar guruhi. *Gujum ovul odamlarining bog'lari etagida joylashgan, uning ostida dunyo kezib yurgan sayyohlar... va hatto yaqindan beri allaqayoqlardan kelib qolgan lo'lilar tabori... uysiz daydilar to'pi uya qurib olgandi. S.Vafo, Yovuz kuy.*

TABORAK [a. تَبَارَك - duo, fотиha olish] Qur'ondagi suralardan birining nomi. Yig'lab uyga kirarkanman, buvim meni quchoqlab qarshi oldi: -Yig'lama, bolam, taborakni o'qi, - deydi yelkamni qoqib. Oybek, Bolalik. Hofiz qori edi. Ayonki, o'limi oldidan so'nggi bora taborakni yod o'qimoqda, bundan so'ng unga Ollohga murojaat-u munojot etmak nasib qilmas, shundan-da, to'lib, yig'lab o'qimakda edi. M.Mansur, Juddolik diyori.

TABRIK [a. تَبْرِيك - baxt, omad, ezgulik tilash; qutlash] Biror yaxshi (qutlug') kun, sana yoki erishilgan yutuq, yaxshilik munosabati bilan bildiriladigan qutlov so'zlari; muborakbod. Mehmonlar bilan vakillarning qizg'in tabriklari, xayrli tilaklaridan keyin kechaning rasmiy qismi tugadi. P.Tursun, O'qituvchi. Yuzlari quvonchdan qizargan Obid Yo'ldoshevich tabriklarga past tovush bilan rahmat aytardi. P.Qodirov, Uch ildiz. Anvar samimiy va riyo aralash tabriklardan ancha o'ng'aysizlangan edi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

Tabrik qilmoq (yoki etmoq) q. **tabriklamoq**. Anvar o'zini tabrik qiluvchi ulamo va ashraflar yuzidan ochiq

ravishda riyo, shaytanat va tama' o'gir, kambag'allardan sodda samimiyat ko'rar edi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. Mulla Abdurahmon... Anvarni tabrik etish uchun og'iz ochishga qodir emas va har zamon qarshisidagi "bema'ni"ga qarab qo'yar edi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

TABRIKLAMOQ Tabrik aytmoq; muborakbod qilmoq, qutlov so'zlarini aytmoq. *Nabijon birinchi davlat imti-honini topshirgan kuni Muborak uni katta guldasta olib kelib tabrikladi. S.Zunnunova, Ko'k chiroqlar. Ziyo shohichi... qutidorni Otabekdek bir yigitni kuyov qilish bilan tabrikladi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Eshikdan kira solib... baland ovozda Ahmadni tabrikladi. F.Musajonov, Himmat.*

TABRIKNOMA [tabrik + noma] Tabrik so'zlari yozilgan maktub, tabrik xati. *Tabriknoma yo'llamoq. Tabriknomaning o'qib bermoq. — Men ham tanish-notanish do'stlarimdan yangi yil tabriknomalarini olayotirman. N.Safarov, Olovli izlar.*

TABRIZ [f. تبریز — Erondagi shahar — Tabriz nomidan] O'zbekistonda o'sadigan uzum navlaridan biri va shu uzumdan tayyorlangan mayiz.

TABU [polinezcha tapu — taqiqlash] Diniy e'tiqod, irim, qo'rqish va sh.k. ta'sirida ma'lum so'z, harakat kabilardan tiyilish, ularni cheklash, man etish; ishlatilishi, qo'llanishi cheklangan, man etilgan so'z, narsa, harakatning o'zi (mas., chayon so'zini qo'llamay, uning o'rni eshak, oti yo'q so'zlarini ishlatish). ...supurgini tik qo'ymaslik, axlatdan hatlamaslik, otashkurakni oyoq ostida qoldirmaslik kabi irimga asos-

langan etnografik tabular ham bor. "Fan va turmush". Jamoa yo'l boshchilari va koshinlar o'z hukmronliklarini mustahkamlash yo'lida tabu odatidan foydalandilar. "Fan va turmush".

TABURET(KA) [nem. Taburet < fr. tahouret] Suyanchig'i bo'lmagan, kvadrat yoki gardish shakldagi o'rindi; kursi. *Matqovul aka bordi-yu, G'ulomjon tutgan taburetkaga o'tirmadi, qo'llarini qovushtirib izzat saqladi. M.Ismoil, Farg'ona t.o. Uyning butun jihozi: taxta karavot-u oddiy bir stol bilan ikkita taburetkaga va yerda eski namat to'shog'liq, xolos. J.Sharipov, Xorazm.*

TAB' I [a. طبع — tabiat, tabiiy holat; xislat] esk. kt. ayn. ta'b.

TAB' II [a. طبع — nashr etish, bosib chiqarish]: **tab' etmoq** esk. Nashr etmoq, bosmaxonada bosmoq yoki bostirmoq, chop qilmoq.

TADBIR [a. تدبیر — boshqarish, idora qilish; tartibga solish; tejamkorlik; chora, iloj, yo'l-yo'riq; harakat tarzi]

1 Amalga oshirish, ro'yobga chiqarish uchun yo'l-yo'riq va chora. *Hosildorlikni oshirish tadbirlari. — ...haqiqat oldida u hayron va bunga qarshi tadbir o'ylash bilan garang edi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Bu tadbirning kelib-kelib to'lamatdan chiqqanini aytmayisizmi! S.Anorboyev, Oqsoy.*

2 Maqsadni amalga oshirish yo'lidagi ish, xatti-harakatning o'zi. *Bu shunchaki oddiy tadbir bo'lmay, u yer yuzida tinchlikni mustahkamlash ishi bilan chambarchas bog'lanib ketadi. "Fan va turmush". Har bir tadbir talabalar tarbiyasini takomillashtirishga... yo'naltirilgan. Gazetadan. Hosil tugish davrida*

chekanka qilish muhim agrotexnik tadbirlardan biri hisoblanadi. Gazetadan.

3 Ma'lum maqsadda tashkiliy ravishda amalga oshiriladigan (bajiriladigan) ish, ishlar. *Toshkent shahar kinolash-tirish boshqarmasi va kinofilmlar prokati "Zulmatdan ziyoga" nomi bilan katta madaniy tadbir o'tkazishga hozirlik ko'rmoqda.* Gazetadan.

TADBIRIY Tadbirga oid, tadbirga qaratilgan. ...*hayvonlar eksponatlarini boyitish kabi juda ko'p tadbiriy choralar rejalashtirilgan.* Gazetadan.

TADBIRKOR [a. + f. تدبیرکار – tadbir qiluvchi, tadbir izlovchi] 1 ayn. **tadbirli**. *Omon mustaqil fikrli, cho'rtkesar, uzoqni ko'ra oladigan, tadbirkor, yaxshi do'st edi.* S.Karomatov, Oltin qum. *Tadbirkor Xalil akaning qarshisida Ahmad bir lahzga o'zini juda lapashang his etdi.* F.Musajonov, Himmat.

2 Ishlabchiqarishni yoki boshqa faoliyatni tashkil etuvchi, moliyalashtiruvchi, tijorat yoki sanoat korxonasini foyda olish maqsadida boshqaruvchi shaxs, mulkdor. *Hozir ularning [Kafka, Joys va Bekketning] iboralaridan, hikmatlaridan, majozlaridan tadbirkorlar ham, faylasuflar ham, siyosatchilar-u jurnalistlar ham, olimlar-u voizlar. qalloblar-u tovlamachilar ham xuddi bu hikmatlarni birgalikda yaratishganday bemalol foydalanishadi.* N.Eshonqul, Mendan "men" gacha. *Amriqo yoki boshqa biron boyroq arab mamlakatini ko'zlab turgan tadbirkor, korchalon janoblardan bo'lsa-ku, yana ham yaxshi, nur ustiga nur.* E.A'zam, Ke-chikayotgan odam.

TADBIRKORLIK 1 Tadbirkorga xos xatti-harakat, faoliyat, xislat; udda-

buronlik. *Tadbirkorlik bilan ish tutmoq.* — *Bu ishda yana Babich bilan Semyonning tadbirkorligi qo'l keldi.* Sh.G'ulomov, Inson qo'li gul.

2 Sarmoya sarflab, tovar va xizmatlar yaratish bilan foyda topishga qaratilgan iqtisodiy faoliyat turi; biznes. *Avvaliga tadbirkorlik endi-endi boshlangan kezlari, faqat oldi-sotdi bilangina shug'ullanib anchagina sarmoya ham to'plab oldim.* A.Yo'ldosh, Begona shaharning namozshomlari.

TADBIRLI Tadbir bilan, puxta o'ylab ish qiladigan. *Tadbirli odam.* — *Norbibi yosh bo'lsa ham, ancha tadbirli, dovyurak qiz edi.* H.Shams, Dushman.

TADBIRSIZ O'ylamasdan, reja va tadbir ko'rmasdan ish tutuvchi; palapartish, shu tarzda. *Tadbirsiz odam.* — *Toshkent xalqi qipchoqlarning jabr-u zulmi va tadbirsiz idorasi ostida yotib, juda to'ydi.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

TADORIK [a. تدارك – to'g'rilash, tuzatish, to'g'ri yo'lga qo'yish; chora, iloj] Tayyorgarlik, hozirlik. *Safar tadoriklari.* — *Chol to'y tadorigini ham ko'rib qo'ygan edi.* S.Ahmad, Oydin kechalar. *Bayram tadorigimi, tongotar fayzimi... ba'zan mijja qoqtirmaydi seni.* S.Akbary, Seni ulug'layman. *Bu oxirat tadorigidan mutaassir bo'lgan ko'ngli bo'sh mahkumlarning ko'ziga yosh kelib, bo'g'ziga yig'i tiqildi.* N.Jaloliddin, Tegirmon.

TADQIQ [a. تدقیق – sinchiklab, batafsil tekshirish, sinash; aniqlash] Chuqur, sinchiklab o'rganish ishi. ...*ularda davr tuyg'usi, zamon dardi va voqelik tadqiqi chuqurlashtirib borayotir.* Gazetadan

Tadqiq qilmoq (yoki tekmoq) Ilmiy asosda, sinchiklab, chuqur tekshirmoq,

o'rganmoq. *Til hodisalarini tadqiq qilmoq.* — *Maqsad* — “*Al-Tohir*” yulduziga iloji boricha yaqinlashib, uning o'zini va tevarak-atrofini tadqiq qilishdan iborat edi. O.Mo'minov, Xiyo-bondagi uch uchrashuv. ...xullas, bu joylarni tadqiq etib, aniq bir fikrga kelish kerak, — deya Sheraliga qarab so'zini yakunladi. S.Karomatov, Oltin qum.

TADQIQIY Ilmiy tekshirishga oid; ilmiy tekshirishga asoslangan. *Tadqiqiy ish. Tadqiqiy metod.* — [Habibiy] Push-tunlarning qadimiy adabiy-tarixiy yozma yodgorligi — “Yashirin xazina” kitobini topib, ilmiy sharh va tadqiqiy materiallar bilan dari tilida nashr qildirgan. “O'zME”.

TADQIQOT [a. تَدْقِيقَات — “tadqiq” s. ko'pl.] 1 Tadqiq ishi, tekshirish, o'rganish ishi. Buxoro yaqinidagi Qizbibi me'moriy kompleksida keng planda tadqiqotlar olib borildi. “Fan va turmush”.

Ilmiy tadqiqot instituti Ilmiy tekshiruvlar o'tkazish va tajriba olib borishga ixtisoslashgan maxsus davlat muassasasi. *Seysmologiya ilmiy tadqiqot instituti olimlari respublikamiz territoriyasini [hududini] seysmik jihatdan rayonlash-tirib chiqishdi va ularning mikroseysmik xaritalarini tuzishdi.* S.Shomurodov, Zilzilashunoslar. **Tadqiqot o'tkazmoq (olib bormoq)** Izlanish, tekshirish olib bormoq. *To'g'ri-da, inson ustida tadqiqot o'tkazib, u mukammal tizimni o'zgartirish asnosida uning ayni damda bo'lg'usi ota, ona yoxud farzand ekanligi nazarda tutilsa...* I.Sulton, Genetik.

2 Ilmiy tekshirish ishining natijasi. *Yangi kashfiyot va tadqiqotlarni ishlab chiqarishga joriy qilmoq muhimdir.*

TADQIQOTCHI Tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxs. *Maqsud Shayxzoda Alisher Navoiy ijodining yirik tadqiqotchilaridan biri bo'ldi.* Gazetadan.

TADQIQOTCHILIK Tadqiqot bilan mashg'ul bo'lish, tadqiqot ishlari. *Geologiya sohasidagi tadqiqotchilik. Tadqiqotchilik bilan shug'ullanmoq.*

TADRIJ [a. تَدْرِيج — darajama-daraja joylashtirish; asta-sekin rivojlantirish, kuchaytirish] 1 kt. Miqdoriy yoki sifat o'zgarishlaridagi darajama-darajalik, asta-sekinlik. ...shu usul ham she'rda hisni, manzarani va ta'sirni poyama-poya tadjij bilan kuchaytirishga xizmat qiladi... M.Shayxzoda, Furqatning badiiy mahoratiga doir.

2 Tabiat va jamiyat hodisalarining harakat va rivojlanish shakllaridan biri; evolyutsiya. *Ularning o'z shaharlari, jamiyat, qonuniyat, tadjij va hokazo tuzilmalari bor.* H.Shayxov, Tutash olamlar.

3 ad. Mumtoz she'riyatda, asosan, g'azallarda muayyan obraz yoki tushunchani o'xshatishlar vositasi bilan darajama-daraja rivojlantirib borishdan iborat badiiy usul. *Tadjij, odatda, poetik ma'no yoxud obrazni o'xshatishlar vositasi bilan peshma-pesh o'sish jarayonida ko'rsatishga xizmat qiladi.* “Adabiyotshunoslik asoslari”.

TADRIJAN [a. تَدْرِيجًا — tadjijiy ravishda] kt. kam qo'll. Izchillik bilan, asta-sekinlik bilan, evolyutsion tarzda, tadjijiy ravishda; daraja-badaraja. *Tadjijan rivojlanmoq.* — ...saodat binosini birdaniga qurib bo'lmaydi. Shuning uchun islom dini belgilagan yo'l bashariyatni tadjijan umumiy birodarlikka noyil qiladi. Fitrat, Najot yo'li.

TADRIJIY Sekin-asta, daraja-ba-daraja sodir bo'ladigan; evolyutsion. *Tabiatning tadrijiy takomili. Tadrijiy rivojlanish.* — Lirik syujet poeziyada lirik qahramon xarakterining shakllanishini va tadrijiy rivojlanishini ifodalaydi. N.Karimov, Hamid Olimjonning poetik mahorati.

TAEKVONDO [koreyscha: tae – oyoq + kvon – qo'l + do – yo'l: oyoq va qo'llarning harakat yo'li, usuli] *sprt.* Erkak va ayollarning o'z vazn toifalarida (yakka va jamoaviy), belgisi qoidalar asosida, oyoq va qo'llar bilan zarbalar berishdan iborat sport kurashi turi. *Xalqaro taekvondo federatsiyasi.* — *Yaqinda respublika taekvondo federatsiyasi tomonidan o'tkazilgan sport yo'riqchilarining malaka sinovi [baholanishi] ana shu savollarga javob berdi. Gaze-tadan.*

TAEKVONDOCHI Taekvondo sporti bilan shug'ullanadigan kishi. *O'z vazn toifasida dunyoning birinchi raqamli taekvondochisi bo'lib turgan Jasur Boyqo'ziyev Janubiy Koreyada tashkil etilgan "Koreya Open" turnirida g'oliblik shohsupasiga ko'tarildi. Gazetadan. Ikkinchi uchrashuvda yana bir mezbon taekvondochi 17:5 hisobida taslim etildi. Gazetadan. Yarim final bel-lashuvda yurtdoshimiz final yo'llanma-sini qo'lga kiritdi va hal qiluvchi bahs-da rossiyalik taekvondochi ustidan g'alaba qozondi. Gazetadan.*

TAFAKKUR [a. تفكر – fikr yuritish, o'ylash, fikrlash] 1 Obyektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokama-dagi faol in'ikos jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati; fikrlash. *Til tafakkur bilan bevosita bog'liqdir.* — *Insoniyat*

yuksak xayolot va tafakkur kuchi bilan yaratgan barcha ma'naviy-badiiy boyliklar orasida og'zaki ijod namunalari alohida ajralib turadi. "Fan va tur-mush".

2 O'ylash, fikr yuritish, muhokama; o'y. *Bir soatlik tafakkur bir yillik toat-dan afzal. Oybek, Navoiy. Oraga uzoq, vazmin xomushlik tushdi. Malika bir nuqtaga tikilib, tafakkurga cho'mdi. T.Jalolov, Oltin qafas.*

TAFFOT shv. Ko'ngilni behuzur qiluvchi issiq shamol; garmsel. *Tush mahali edi. Bu payt Buxoroda kun juda og'ir kechardi. "Ko'chaga chiqma, taffot keldi", deyishardi onalar farzandla-rini garmseldan asrash niyatida. S.Ka-romatov, Bir tomchi qon. Goho yoz oylari bu yerda taffot esadi. S.Anorbo-yev, O'zbekiston oltini.*

TAFOVUT [a. تفاوت – ayirma, farq; ixtilof] Narsa, hodisa va sh.k. orasidagi noo'xshashlik, farq, ayirma. *Aqliy mehnat bilan jismoniy mehnat o'rtasidagi tafovut.* — *Lavozim va xizmatimizdagi tafovut: men – shtab boshlig'i, Narzi – oddiy askar, pulemyotchi. N.Safarov, Olovli izlar. Nafisa uning andazasiga sal ham to'g'ri kelmas edi: tafovut fil bilan qumursqacha! Shuhrat, Jannat qidirganlar.*

TAFRIQ (A) [a. تفرقه / تفریق – farqla-nish, o'xshamaslik; ajralib, tarqalib ke-tish, bo'linish] *esk. kt. 1 Farq, tafovut; farqlanish.*

2 Farq, ajralish yoki ajratish tufayli yuzaga kelgan nizo; nifoq, adovat. *Bu ma'nosiz g'avg'o podshoning farmoni bilan ro'y berdi. Xalq orasiga taffotqa solmoqdan o'zga ish yo'qmi, ajabo! Oybek, Navoiy. Har narsaning ofati*

o'ldig'i kabi zamonlarning o'tuvi ila is-lomiyatning ittifoqina ko'z tegdi. Mu-sulmonlar orasiga tafaqqa tushdi. A.Av-loniy, Turkiy guliston yoxud axloq.

3 ad. Tasvirlanayotgan narsa, tushun-chalarni bir-biridan farqlashga asoslan-gan she'riy san'at.

TAFRIT [a. تفریط – sustkashlik; is-rof qilish, kamaytirish] ad. Badiiy ada-biyotda kichraytirib tasvirlash usuli.

TAFSIL [a. تفصيل – bichish, bichiq, andoza; atroflicha, ochiq bayon qilish] Ish-harakat, voqea-hodisa va sh.k. ning har bir ayrim nuqtasi, mayda-chuyda tafsiloti; shunday tafsilotlarni o'z ichiga olgan bayon, batafsil izoh. *Hatto kundoshini parishonxotir qilgan bu gap Otabekka qanday ta'sir qilishi ko'p tafsilga muhtoj emas.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar. *Ulardagi har bir obraz, manzara va tafsil bilan qiziqdim.* M.Qo'shjonov, Diydon.

TAFSILIY Butun tafsilotini o'z ichiga olgan; batafsil, izohli. *Tafsiliy hikoya.* — *Yo'lda menga voqeani tafsiliy ravishda so'zlab berdilar.* Oydin, Uyaldi shekilli, yerga qaradi. *Biz qissamizning hajmi sig'dirmaganlikdan, uning [Abdurahmonning] shahardagi safil hayotiga tafsiliy to'xtay olmaymiz.* A.Qodiriy, Obid ketmon.

TAFSILLAMOQ Butun tafsiloti bilan, to'la, batafsil tushuntirmoq, mufassal bayon qilmoq, izohlamok. *Voqeani tafsillamoq. Tafsillab aytib bermok.*

TAFSILLI Butun tafsilotini o'z ichiga olgan; mufassal. *Tafsilli javob.* — *Ahmad Husayn uzoq so'zladi, dehqonlarning hayotini yorqin, chuqur tafsilli hikoya qildi.* Oybek, Nur qidirib.

TAFSILOT [a. تفصیلات – “tafsil” s. ko'pl.] Ish-harakat, voqea-hodisa va sh.k.ning tafsili, mayda-chuydasi. *O'sha jang tafsilotini eslaganimda, barcha qu-ruldosh do'stlarim ko'z o'ngimda bir-ma-bir gavdalanadi.* T.Rustamov, Man-gu jasorat. *U Zamirani taniganidan beri, oralaridan nima o'tgan bo'lsa, hammasi mayda-chuyda tafsilotlariga-cha, xayolida tinmay takrorlanardi.* P.Qodirov, Uch ildiz.

TAFSIR [a. تفسیر – sharh, izoh, matn-ning ma'nosini ochish; tushuntirish, sharhlash, izohlash] kt. 1 Biror gap, voqea-hodisa, matn va sh.k. ga berilgan mukammal izoh, sharh, tushuntirish. *Qur'onning tafsiri. Muammoning tafsiri.*

Tafsir qilmoq Matnning ma'nosini izohlamok, sharhlamoq. *O'zbekiston hududidan chiqqan Abu Mansur Motu-ridiy mashhur tafsirchilardan hisobla-nadi. U Qur'on oyatlarini ahl as-sunna val-jamoa nuqtayi nazaridan tafsir qil-gan.* “O'zME”.

2 tar. Qur'onning madrasalarda alohida fan sifatida o'rganiladigan mufassal sharhi. *Ahmadxo'ja o'z xatida Madrasayi oliyada tafsir, hadis, ilmi kimyo kabi turli ilmlar o'qitilishini yoz-gan edi.* M.Muhammadjonov, Turmush urinishlari.

TAFSIRLAMOQ Ma'nosini tushun-tirib, izohlab bermok, sharhlamoq, tafsir qilmoq. *Olim Bedilni tafsirlashga ki-rishdi.*

TAFSIRCHI Biror narsaning ma'-nosini tushuntirib, izohlab beruvchi shaxs. *Qur'on tafsirchilari.* — *Berunt-y bu naqldan so'ng Arastu kitobi tafsir-chisining so'zlarini ham mukammal*

bayon qiladi. A.Qayumov, Beruniy va adabiyot.

TAFT [f. تفت – isitma, harorat] 1 Issiqlik manbai yoki qizib turgan narsadan urayotgan issiq harorat. *Tandirning tafti. Olovning tafti. Gulxan taftida isinmoq.* — *Kech kirib, havoning tafti qaytdi.* S.Ahmad, Qadrdon dalalar. *Moviy osmon tiniq va beg'ubor, hali taxtga minmagan quyoshning tafti badanni kuydirmaydi.* F.Musajonov, Himmat.

2 Issiqlikdan ko'tarilayotgan bug'simon narsa; hovur. *Egatlardan jimir-jimir taft ko'tariladi. Qushlar ko'rinmaydi...* S.Nurov, Narvon.

3 ko'chma Shaxs yoki narsaning harorat darajasi holati; temperatura. *Suvning taftini bilgisi keldi, shekilli, g'o'dir barmoqlarini botirdi.* R.Rahmonov, Vosil aka. *Shu tariqa tajriba ham to'plana bordi, cho'l yerlarining tafti, maromini ham o'rganib olishdi.* Gazetadan.

4 ko'chma Ijobiy ta'sirli, hayotbaxsh harorat, o't. *Hovlida odam borki, jon bor: Devordan tortib dov-daraxtgacha... oshxonadan tortib donxonagacha, ro'zg'or buyumlarigacha – bari odam tafti bilan tirik.* R.Fayziy, Hazrati inson. *Bu satrlarning taftidan Zuhra begimning qalbiga yana ilqlik yugurdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

5 ko'chma Kishi ruhidagi yoqimsiz holat, g'ubor. *Ovqatdan oldin yuvib chiqasizmi – sovuq suv odamning taftini bosadi.* A.Qahhor, Ayajonlarim. *Odam taftini odam oladi, deganlari shu-da, inim.* R.Rahmon, Mehr ko'zda. *Diqqati oshib, dili qorong'i bo'lib ketgan kezlari chelakni shaftoliga to'ldirib, yotog'imizga kelib qoladi. Bizni koyib-*

koyib, taftini yozib ketadi. S.Ahmad, Onajonlar.

6 ko'chma O'zini yuqori olish, manmanlik kayfiyati. *Halima o'sha Oyjamol opa kelib ketgandagi mojarodan keyin ancha taftidan tushgan, o'zgara boshlagan edi.* J.Abdullaxonov, Gulchehra.

TAFTISH [a. تفتيش – izlash, tintish, qidirish; tekshirish, nazorat qilish] 1 esk. Bo'lib o'tgan ish, hodisa va sh.k. yuzasidan yoki haqiqiy ahvolni aniqlash maqsadida o'tkaziladigan tekshiruv, tergov, so'roq. *Rejali yillik taftish. Taftish komissiyasi.* — [Navoiy:] *Taftishlar shuni ko'rsatadiki, Yodgorbek qo'zg'olonida bu odamning ham qo'li bo'lgan. Uyg'un va I.Sulton, Alisher Navoiy. -O'g'lingiz sizdan yashirib, Hamza hojning bedin maktabiga qatnarmish deb eshitaman, shu rostmi? -Taftish qildim, taqdir, qatnar ekan.* K.Yashin, Hamza. *Taftish oqibatida misli ko'rilmagan qalbliliklar fosh etiladi.* O.Yoqubov, Osiy banda.

2 esk. Qidiruv, tintuv. *O'g'rilar tutilsin, dorga osilsin! Har bir xonadon taftish qilinsin.* J.Sharipov, Xorazm.

3 Biror muassasa yoki mansabdor shaxs moliyaviy-xo'jalik faoliyatining to'g'riligi, qonuniyligini aniqlash maqsadidagi tekshiruv. *Birinchi taftish yuzaki o'tkazilgani haqida e'tirozlar tug'ilgach, respublika agrosanoat komitetidan mutaxassis chaqirishdi. "Mush-tum".* Bojxonada taftish qaydnomasi yozilmagani uchun bu yerda ish oson bitar, deb o'ylab yanglishgan edim. T.Malik, Shaytanat.

Taftish komissiyasi Biror muassasa yoki mansabdor shaxs moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirish uchun tuziladi-

gan guruh. *Taftish komissiyasi xulosalari. Taftish qilmoq (yoki etmoq)* Tekshiruv o'tkazmoq (*taftish* har uchala ma'nosida). *Partbyuro Og'ajonning arizasini taftish etish yuzasidan komissiya tuzdi.* S.Karomatov, Oltin qum. *Eshmamat Ashurovning ish faoliyati taftish qilinganda, ming so'mga yaqin kamomad aniqlandi, ish haqidani 2138 so'm ortiqcha olingan.* "Mush-tum". [Cho'lpon] *Biroq Asadullaxo 'jayevga, davradagilarga bir-bir qattiq tikilar; ularning so'zlaridan, yuz-ko'zlaridan ma'no qidirar; ilg'aganini o'zicha taftish etishga urinardi.* N.Jaloliddin, Tegirmon.

TAFTISHCHI Taftish qiluvchi, tekshiruvchi. *Xalq nazorati postidagilar Ilhomchaning egri qo'lligi haqida militsiyaga signal berishibdi. Ammo taftishchilar kelganda, Ilhomcha allaqachon qochib ulgurgan edi.* H.G'ulom, Senga intilaman. *Pixi qayrilgan taftishchilar qasd qilganda ham, biron marta kamomad topolmaganlar.* Y.Shamsharov, Toshqin. ...*agar anovi besh-olti yuz taftishchilardan yigirma-o'ttiztasi uning xo'jaligiga bostirib kelib, hamma yoqni ostin-ustun qilib, tekshir-tekshirni boshlasa, Sarkor nima qila oladi?* O.Yoqubov, Osiy banda.

TAFTLI Harorati bor; iliq, issiq. ...*qo'llari ham o'zinikidek dag'al, qo'pol emas, taftli, haroratli, mayin, nozik – bunday qo'lni ushlasa, erining bir yillik hordig'i chiqib ketadi...* N.Eshonqul, Ochilmagan eshik. *Qandayin qaynoq, hovurli edi u nonlar. Onaginamning bag'riday taftli edi-ya...* I.Sulton, Bog'i Eram.

TAFTSIZ 1 Harorati yo'q. *To'ki-layotgan barglar esa qandaydir ulkan*

idishdan uzluksiz to'kilib turgan taftisiz mitti yulduzchalarga o'xshardi va havoda uzoq pirpirab turib qolardi. N.Eshonqul, Xazonrez.

2 ko'chma Fayzsiz. *Hozir esa negadir bu taftsiz, zavqsiz manzaradan ko'ngli g'ashlandi: o'zini diqqat bilan kuza-tayotgan Ismoil Aliga malollangandek tikildi.* N.Eshonqul, Yalpiz hidi.

TAG [f. تگ – ost, tub; ostki qism] 1 Narsaning ostki, pastki qismi, tubi. *Chelakning tagi teshilibdi. Tuf-lining tagi loy bo'libdi.* — *Qo'g'azordagi vodokachka tiklanadigan bo'lsa, tagi bilan qo'porib tashlaymiz.* A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari.

2 Biror holatda bo'lgan, joylashgan narsaning ost tomoni, pastki tomon (yer, bo'shliq yoki boshqa narsa). *Stolning tagiga bekinmoq.* — *To'g'on tagidan o'tgan suv shalolasi kanalni teshib yuborishi yoki qirg'oqlarni o'pirib ketishi mumkin.* S.Siyoyev, Yorug'lik. *Ko'kragini baland tutdi-da, yaktak cho'ntagidan nosini olib, bir chimdimini til tagiga tashladi.* Oydin, Hikoyalar.

3 Tik holatli narsalarning ost qismi atrofi, yon-beridagi yer sathi. *Doim devor tagida turadigan stol ikki karavot o'rtasiga olingan.* O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Kun tikkaga kelguncha to'xtamay yurib, tik cho'qqining shundoq tagiga keldik.* O'.Usmonov, Sirli sohil.

4 Narsa yoki shaxsning boshqa bir narsa, sath va sh.k. ga tegib o'rnatilgan tomoni; ost. *Ko'rpachaning tagi. Xat stol ustidagi kitobning tagida.* — *Maktubni o'qib, yostiq tagiga qo'ydi.* K.Yashin, Hamza. *U biroz oldinda, tagidagi saman yo'rg'aning bir tekis*

yurishiga mos sal chayqalib, xayolga cho'mib o'tiribdi. O.Yoqubov, Er bo-shiga ish tushsa.

5 Narsaning o'z sirtiga qarama-qarshi bo'lgan tomoni; ich. *Domla yer ostidan paranji tagida jilpanglab turgan sho'x ayaga bir boqdi-da, nikoh xutbasini boshlab yubordi. "Mushtum". Pidjagining tagidan kiyilgan oq sadaf tugmali rangdor, katak ko'ylak arzon kostyumga juda mos kelgan.* P.Qodirov, Uch ildiz.

6 Yer, suv kabilarning ost, ich tomoni; ost, ich. *Bilmadim, ko'kka uchdimi, yer tagiga kirdimi...* Oybek, Tanlangan asarlar.

7 Asli, zoti (ota-bobolari), kelib chiqishi. *Tagimiz kambag'al. Otamizning kasbi hammollik edi.* P.Tursun, O'qituvchi. *U ham tagi ko'rgan oiladan chiqqan.* Mirmuhsin, Umid. *Mening otim Olim. Tagi Chorvoqdanman.* S.Karomatov, Bir tomchi qon.

8 Zamir; asos. *Ahmad... buning tagida bir gap borligini payqadi.* Mirmuhsin, Me'mor. *Elmurod qassobning "siyosat" to'g'risidagi savoli tagida uning o'z g'arazi va tashvishi yotganini payqadi.* P.Tursun, O'qituvchi.

9 Oxir-oqibat, natija. *Sabr tagi – sar(iq) oltin.* Maqol. — *Mehnat tagi – rohat, degan qadimgilar.* Oybek, O.v. shabadalar. *Ustod Qavom bu ishning tagi yomonligini... bilardi.* Mirmuhsin, Me'mor.

10 (3-sh. egalik qo'shimchasi bilan – tagi) Narsaning muayyan holati, miqdori [*ko'p yoki oz (kam) so'zi hilan qo'llanadi*]. *Keyin birini ilitib, birini pishirib yeb, ikkisini cho'ntagiga solib ketdi.* *Tagi ko'p bo'lsa ham koshki edi.*

"Mushtum". *O'g'lim, bu ikki otga yara-shikli narsalarning ham tagi kamdir. "Erali va Sherali"*.

Burni (yoki tumshug'i) tagida Shundoqqina oldida, yonginasida. *Burnimizning tagida ekan-u bu la'natilar, yana qidirib yuribtmiz.* A.Ubaydullayev, Qonli izdan. *Poyezddan tushgandan keyin shunday tumshug'imiz tagida ekan-san-ku, biz bo'lsak qayoqlarga borib yuribtmiz.* E.Raimov, Ajab qishloq. **Do'p-pining tagida odam bor q. do'ppi.** **Ko'z tagiga olmoq** Erishish (o'ziniki qilish) uchun mo'ljallab qo'ymoq. *Ko'z tagiga olib qo'yganing bormi o'zi?* M.Qoriyev, Oydin kechalar. *Oldin institutni bitiray, keyin o'zim mo'ljallab, ko'z tagiga olib yurgan qiz bor.* "Mush-tum". **Tagi ko'rinmoq (ko'rinib qolmoq)** Tugab qolmoq, ado bo'lmoq. *Ko'p o'tmay zaxiralarning tagi ko'rindi, o'qdonlar bo'shadi.* A.Muxtor, In-songa qulluq qiladurmen. *Bu yoqda un-niyam tagi ko'rinib qoldi.* Z.Mamadalijeva, Qari qizning qismati. *Ro'z-g'orning ham tagi ko'rinib qolgan.* *Qaynona-kelin bir-birimizga qarab mung'ayib o'tiramiz.* S.Ahmad, Umrin bayoni. *Beknazarning vaqti ziq, hamyonining tagi ko'rinib borar, binobarin, qiz bilan bekinmachoq o'ynab yuraverish-ga imkoni ham chekli edi.* "Sharq yul-duzi". *Ochiq-oshkor bayon etmasa-da, shu shaharga yetganida hamyonining tagi ko'rinib qolgani, shuning uchun ishlab, sarmoya jamg'arishni mo'ljallayotganini shama qildi.* "Sharq yul-duzi". **Tagi ochildi** Nima ekanligi, mazmuni, mohiyati ma'lum bo'ldi. *Endi tagi ochildi. Nima demoqchisan?* Hamza, Tanlangan asarlar. **Tagi past q. past.**

Otasini ko'ndiramiz, uning tagi past, jazosi pul-da... J.Sharipov, Xorazm. **Tagi** zil Oqibati yaxshi bo'lmagan; ishonchsiz; halokatli. *Hazilning tagi zil.* Maqol. — Muhammad Arg'unning tagi zil ma'lumotlari Shohruhni ham, Ulug'bekni ham oyoqqa turg'azdi. Mirmuhsin, Me'mor. **Tagida qolmoq** Katta miqdorda ega bo'lmoq. *Duoning tagida qolmoq. Boylikning tagida qolmoq.* — -Bo'ldi, o'g'lim, endi hech yig'lamayman, o'rinqosarim bor ekan. Xudo xohlasa, zo'r bog'bon bo'lasan, endi ikkovimiz ham savobning tagida qolamiz. X.To'xtaboyev, Jannati odamlar. **Tagiga** (yoki **tagini**) **oldirmoq** Tagini kuydirib, o'ta qovurib qo'yimoq. Bizni kutaverishib, oshini tagiga oldiribdi. H.Nazir, Yonar daryo. ...sholini sochmasdan tuyolmaydi, suv qaynatsa ham, tagiga oldirib qo'yadi. A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. **Tagiga suv ketdi** Faoliyati barham topdi, yo'qlikka yuz tutdi, tamom bo'ldi. O'rtada har xil merosxo'rlar ko'paydi. Boylikning tagiga suv ketdi. Oybek, Tanlangan asarlar. U kunlar Nazirqul uchun eng baxtiyor kunlar edi. O'shanday beozor kunlarning tagiga suv ketdi. S.Ahmad, Hukm. **Tagiga suv quymoq** 1) tuhmat, g'alamislik bilan bironing faoliyatiga barham bermoq. *Aqli odamning dushmani ko'p bo'ladi, elliginchi yillarda payt poylab turib, yana tagimga suv quyishdi.* A.Obidjon, Sotti satang hayotidan. -Ha, muttahamlar o'z muddaolariga yetishdi, tagimga suv quyishdi. Uyg'un, Alamzadalar; 2) yo'q qilmoq, nobud qilmoq. -Odam chatoq, — dedi Suyar Suyun barkashdek yapasqi to'nka ustiga bafurja o'tirarkan, Sezgirning bo'y-

niga qo'l tashlab. — Tabiatda neki yaxshi, asl narsa bo'lsa, albatta, tagiga suv quyadi. M.Safarov, Ayrishox. **Tagiga yetmoq** 1) ish-harakat, gap-so'z va sh.k. ning mohiyatini anglamoq, bilmoq, asl mohiyatini bilmoq, sirini ochmoq. *Botirali odamlar og'zidagi mish-mishlarning tagiga yetishni istardi.* H.G'ulom, Mash'al. *Haqiqatning tagiga yetguncha orada noqulay gaplar bo'lib o'tdi.* Gazetadan. Mahkam aka gapning tagiga endi yetdi, kulib yuborishiga sal qoldi. R.Fayziy, Hazrati inson. Kuz o'shanda ham xuddi shunday sirli tuyulardi. *Sababini o'ylardi-yu, tagiga yeta olmasdi...* N.Eshonqul, Xazonrez; 2) yo'q qilmoq. O'g'lim Hamzaning ham tagiga yetib, oz qoldi meni dog'da qo'yib ketishiga. K.Yashin, Hamza. **Yer tagidan qaramoq** Boshni quyi solgan holda qaramoq (ko'z tashlamoq). *Bu gap Badiaga yer tagidan qarayotgan Zulfiqor Shoshiy ustidan go'yo sovuq suv quygandek bo'ldi.* Mirmuhsin, Me'mor.

TAGDOR [تگدور — tagi, nasl-nasabi bor; biron asosga ega] 1 Nasl-nasabi, zoti yaxshi; asilzoda. *Bu bir xil asil, tagdor xonzodami, deb o'rnidan turib... bir so'z aytadi.* "Ravshan".

2 Tagma'noga ega, zamirida (tagida) maxsus ma'no bo'lgan. *Bechora yigit tagdor gapga tushunmay angrayib qoldi.* S.Siyoyev, Avaz. *Dilshod tagdor qilib kuldi.* M.Ismoil, Farg'ona t.o. *Afandining tagdor ishorasiga qoyil qolgan shoh shu zahoti unga sarupo kiydirishni buyurdi.* "Mushtum". *Alisherning tagdorroq ohangda bergan savoli Pal Palichni yashnatib yubordi.* A.Yo'ldosh, Begona shaharning namozshomlari. *Fyodor Mixaylovichning o'tinch to'la*

ovozi, tagdor so'zlari shundayiga ham odamovi bo'lgan qizni yotoq bo'lmasiga qamadi. X.Do'stmuhammad, Yolg'izim – Siz. Omonali yana bir tagdor qarash bilan uning [oqsoqolning] unini o'chirgach, negadir to'rdagi miltig'i to-monga ko'z qirini tashlab qo'ydi. N.Norqobilov, Tog'dagi yolg'iz odam. Xongireyning tagdor gaplari – kichkina bolaning go'llik bilan topgan bahonasi. T.Malik, Shaytanat.

TAGDO'ZI [tag + f. *دوزی* – tikish; tikilgan] Tagi bir rangdagi ipak bilan sidirg'asiga to'ldirilgan, u yer-hu yeriga gul tikilgan (do'ppi haqida). Uning boshida yap-yangi tagdo'zi do'ppi. Oybek, Tanlangan asarlar.

TAGLI 1 Tagi, tubi bor. ...oyog'ida qora charm tagli oq piyma-etik. "Mush-tum".

2 ayn. tagdor. Tagli odam.

TAGLI-JOYLI Nasl-nasabi yaxshi va o'z joyi, yetarli mol-mulkiga ega. Tagli-joyli odamlar-da, supaga bir gila-m solib qo'yibdi, naq ikki yog'idan uch qarichdan tushib yotibdi... "Mushtum".

TAGLIK 1 Biror buyumning tagini, ost qismini yasash uchun bop material.

2 Narsaning tagiga qo'yish uchun ishlangan qurilma, moslama. Tagligi chog'roq xarsanglardan, devorlari tosh-dan ko'tarilgan g'arib kulba, mana necha o'n yildirki, davr to'fonlarini pisand etmayg'o'ddayib turardi. N.Norqobilov, Quyosh tutilgan kun. Kurkalarini sug'orishda... ruxlangan chelaklardan foy-dalaniladi, chelak yog'och taglikka qo'yiladi. "O'zbekiston parrandachiligi".

3 Chaqaloqning tagiga solib qo'yiladigan yumshoq mato. Tagiga nam

o'tganini sezib, boshqatdan yo'rgakla-moqchi bo'ldi. Buni sezgan Salima ir-g'ib o'rntidan turib, taglik keltirib berdi. R.Fayziy, Hazrati inson.

TAGLI-TUGLI ayn. tagli-joyli. Af-tidan, tagli-tugli odam bo'lsangiz ke-rak, keling, sizga taqsirim deb murojaat qilay. N.Eshonqul, Qora kitob.

TAGMA'NO Oshkora ifoda etilma-gan, ishora qilingan yashirin mazmun. Shu o'rinda, ustoz, hali bironta munaq-qid e'tibor bermagan va Qodiriyning chinakam buyuk adib ekanini tasdiqlay-digan bitta tagma'no bor. O'.Hoshimov, O'zbeklar. Hikoyachi muallifning har bir hodisa, har bir ifoda zamirida yashi-rinishi mumkin bo'lgan tagma'noga ishora qilaverishi o'quvchini so'z tagidan so'z qidirishga majbur etadi. Q.Yo'l-doshev, Yoniq so'z.

TAGOB1 Xo'raki va vinobop o'rta-pishar uzum navi; shu xil uzumdan tayyorlangan mayiz yoki vino. Bundan chiqdi... tagobidan mo'lroq ichib yubo-ribdi-da. S.Siyoyev, Erkaklar ertagi.

TAGSIZ 1 Tagi yo'q. Tagsiz chelak.

2 ko'chma Juda chuqur, tubsiz. Tag-siz dengiz. — Fakultet – Munisxon bilan ikkovining orasidagi tagsiz cho-hga tush-gan omonat ko'pri edi. A.Qahhor, Sarob.

3 ko'chma Bepoyon, benihoya. Tag-siz osmonda sochilib yotgan sanoqsiz yul-duzlar guzarining to'rt yeriga yoqib qo'yilgan kunjara mash'alni ermak qilayot-gandek jivirlashadi. M.Ismoil, Far-g'ona t.o.

4 ko'chma Asossiz, puch. -Bu gap-larimni yolg'on demoqchimisan? -Al-batta, tagsiz gaplar! S.Ayniy, Qullar.

TAGSINCH Sinchli imoratning poydevoriga yotqiziladigan va ustiga simchlar qadaladigan uzun, baquvvat yog'och. *Malla kishi ichkariga kirganda, haligi eski parpasha paranjı ayvon tagsinchi-da yotar edi.* M.Ismoilıy, Farg'ona t.o.

TAG-TAXT Kimsaning asli, nasli-nasabi, zoti, kelib chiqishi. *O'zining "tag-taxti"ga bino qo'ygan odamlar.* A.Muxtor, Opa-singillar.

TAG-TAXTLI Boylar, o'ziga to'q odamlar nuqtayi nazaridan nasl-nasabi yaxshi; tagdor. *Ostonangizga arziydigan tag-taxtli mastura qizlar qurib ketibdimi?* A.Muxtor, Opa-singillar.

TAG-TOMIR: tag-tomiri bilan 1 Tagi-tomirini qoldirmay; butunlay. *Traktor... yovvoyi jiyda, changal, turang'i, tol, do'lana singari buta va mayda daraxtlarni tag-tomiri bilan qo'porib tashlar edi.* A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari.

2 ko'chma Hech asari qolmay (asar qoldirmay); butunlay. *Oyqiz raisning... dilida zang bosib yotgan... chirik fikrlarni tag-tomiri bilan sug'urib tashlashni istardi.* Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli. *Iloyo, tag-tomiri bilan qurib ketsin bu gazandalar!* I.Rahim, Chin muhabbat.

TAG-TUB 1 ayn. tag-taxt. [Bahri:] *Turg'unning tag-tubini bundoq surish-tirdingmi?* N.Safarov, Hayot maktabi.

2 ayn. tag-tomir. *Daraxtlarni tag-tubi bilan qo'pormoq. Zararli illatlarni tag-tubi bilan yo'qotmoq.*

TAG-TUBLI ayn. tag-taxtli. *Necha xotin olib yolchimagan tupp-tuzuk, tag-tubli odamlar ko'p.* P.Tursun, O'qituvchi.

TAG-TUG ayn. tag-tub. *Tag-tugi bilan qo'pormoq. — Rostini aytsam, men shu vaqtgacha hech bir ayolning*

tag-tugini surishtirgan emasman. Oybek, Tanlangan asarlar.

TAG-TUGLI ayn. tag-taxtli. *-Qiz bola bo'yga yetganda, ota uyi unga torlik qiladi. Ota-onalar uni "tag-tugli" joy topib berishga shoshiladilar, — dedi Kumush.* T.Jalolov, Oltin qafas.

TAGXAT Rasm, eksponat ostidagi izoh. *Kashandalikning oqibati yaxshilikka olib bormaydi, deyiladi tagxatda.* Gazetadan. *Tagxatda uning [ohaktoshdan yasalgan ayol haykalining] Hisor tog'laridan topilganligi aytilgan edi.* M.Safarov, Ayrishox.

TAGXONA ayn. yerto'la. *Hovlining o'rtasida pastdagi qavat — tagxonadan salqinlik urib tursin uchun tynuk o'rnatilgan.* M.Ahmedov, O'rta Osiyo me'morchilik tarixi.

TAGCHARM Poyabzalning ost qismiga ishlatiladigan qalin charm. *Shippaging tagcharmi ko'chgan yerlarini tikdi...* S.Karomatov, Oltin qum.

TAHAJJUD [a. تَهَجُّد — bedor, uyg'oq, bedorlik]: **tahajjud** namozi Xuf-ton namozidan keyin yoki tunda bir necha soat uxlab turib o'qiladigan nafl namozi; **tungi** namoz. [Abduqahhor] *Qamoqxonada besh vaqt namozdan tashqari tahajjud namozini o'qishni ham odat qilgan edi.* T.Malik, Oxirat.

TAHAMMUL [a. تَحَمُّل — zimmasiga olish; boshdan kechirish; toqat, sabr, chidam; to'zim] esk. kt. *Qiyinchilikka bardosh berish; chidash; chidam, sabr, toqat. Har qanday tashqi dushman uning [Husayn Boyqaroning] yeriga bosis kirsa, har qanday bek isyon ko'tarsa, u qayg'urmas, yolg'iz g'azablanar, ham tahammul va sabot bilan safar choralarni ko'rar edi.* Oybek, Navoiy.

Tahammul qilmoq (yoki etmoq)

1) bardosh bermoq, chidamoq, sabr-toqat qilmoq; sabr-toqat bilan kutmoq. *Bek... yana yarim soatga tahammul qilsangiz, oshni yeb, yo'lga tushasiz.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar; 2) kifoyalanmoq. *Tushda ishtaha bo'lmay, qovun bilangina tahammul qilganlaridan, qorin och, buning ustiga-ustak, jazirama o'tob.* I.Qalandarov, Shoxidamas, bargida.

TAHAYYUR [a. تحير – hayron bo'lish, tong (qoyil) qolish; lol bo'lish; dovdirash] *esk. kt.* Juda ham hayron bo'lish, nima qilishni, nima deyishni bilmay qolish; hayronlik, hayrat. *Bu so'zni eshitishi bilan chol taajjub va tahayyurda qoladir.* A.Qodiriy, Kichik asarlar.

TAH-BATAH [f. ته بته – ostma-ost; qavatma-qavat] *kam qo'll. ayn. qatma-qat.* Ko'ngilni g'uncha yanglig' tah-batah qon aylading, ketding. Muqimiy. Oy, yulduzlar tah-batah, Yoyilganda oqshomgi salqin... R.Bekniyoz, Moviy to'lqinlar.

TAHDID [a. تهديد – do'q-po'pisa; xavf-xatar; do'q qilish, do'rqitish] *kt.* 1 Qo'rqituv, do'q, po'pisa. *Gulnoring zaharlanganini Mirzakarimboy va o'g'illari qat'iyon rad qilib, ma'suma qurbonning ota-onalarining tillarini do'q, tahdid bilan muhrlashga tirishdilar.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Nusratilla mehmonning ko'ziga qarab turib, tahdid bilan aytdi: -Chiqib keting!* A.Muxtor, Opa-singillar. [Kafka] *Bolaligida otasining o'zini ayblashidan, tahdididan, kamsitish-u tanbehidan cho'chib, kitobni yashirin o'qirdi... ko'ngil siri oshkor bo'lib, jazoga tortilishidan*

yurak hovuchlab yashardi. N.Eshonqul, Mendan "men" gacha.

Tahdid qilmoq Tahdidli xatti-harakat qilmoq, do'q-po'pisa qilmoq. *U Hamidani chaqirib olib, Haydarga ta-yoq bilan tahdid qilib qo'ydi.* M.Osim, Tilsiz guvoh. -Yo'qol, ko'zimga ko'rinma! – bek ovozi ko'tarib tahdid qildi. H.G'ulom, Mash'al. *U [Kafka] yoshligidanoq odamning odamga tazyiq va tahdid qilishiga, zulmning, zug'umning har qanday ko'rinishiga toqat qilolmasdi.* N.Eshonqul, Mendan "men" gacha.

2 Biror falokatning, qo'rqinchli voqeaning sodir bo'lish xavfi; xatar, xavf. *Tahdid solmoq. — Bilaman, hayotim tahdid, xatarda.* U.Qo'chqorov. *Bu punkt-da barqaror bo'lgan armiya kuchlari dushmanning so'l qanotini katta tahdid ostida goldirgandi.* Oybek, Quyosh qoraymas.

TAHDIDLI Tahdid soluvchi, qo'rqinchli, xavfli; tahdid ifodalovchi. *Zamira boshini ko'tarib, uning ko'zidagi zaharli olov bugun juda tahdidli ekanini ko'rdi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Bashirjon qog'ozdan ko'z uzib, cholga tahdidli tikildi.* N.Aminov, Yolg'onchi farishtalar. -Ovozingni chiqarma! – onam ohista, tahdidli shivirladilar. X.Do'stmuhammad, Beozor qushning qarg'ishi.

TAHLIKA [a. تحلكه – halokat, o'lim; yo'q bo'lish, zavol] Biror falokat, halokat, baxtsiz hodisaning sodir bo'lish xavfi tug'ilgan tashvishli holat, shundan qo'rqish (cho'chish) hissi. *Sel tahlikasi eson-omon o'tdi. — Ahmad Husaynni ko'rish bilanoq har gal qo'rquv va tahlikani unutsa-da, yuragining bir chekkasi hamisha g'ash bo'lar*

edi. Oybek, Nur qidirib. *Besh kunligim bormi, yo'qmi, uni tahluka ostiga qo'yib nima qilaman.* S.Karomatov, So'nggi barxan. ...*boyagi tahluka xayolidan uzoqlashib, qalbida iliq tuyg'ular uyg'ondi.* P.Qodirov, Bobur. *Nozikoy o'zidan ko'ra ancha-muncha dadilroq bo'lgan Musharrafning favqulodda qattiq-qattiq gapirishlarida, ko'z qarashlarida xavotir, tahluka sharpasini ilg'ay boshlagan edi.* X.Do'stmuhammad, Qichqiriq. *Uning [xotinimning] kasalmand yuzini ikki oy qo'rquv, tahluka, xavotir tark etmadi.* N.Eshonqul, Yalpiz hidi.

TAHLIKALI Biror falokat, halokat, baxtsiz hodisaning yuz berish ehtimoli, xavfi bo'lgan, tahlukaga soluvchi, xavfli. *Tahlukali kunlar o'tib, qiz o'ziga keldi-yu... gul yaprog'idek yuzining cho'tir bo'lganini payqab, yana o'zini yo'qotdi.* S.Shamsiyeva, Shifokor. *Andijon ko'chalari tahlukali bir sukutga cho'mgan.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

TAHLIL [a. تحليل – halolash; tarqalish; parchalash, eritish; tekshirish; hal qilish, ochish] 1 Narsa, hodisa va sh.k. larni mohiyat, qonuniyat va b. jihatlardan tekshirish, o'rganish ishi. *Ilmiy tahlil. Estetik tahlil.* — *Fan uchun tajriba va faraz, qiyos va tahlil juda zarur.* A.Rahmonov, Hurmat-ehtirom. *Adabiy tanqid esa ilmiy tadqiqot va tahlil yo'li bilan yaratgan yangiliklarini o'zi joriy qiladi.* U.Normatov, Talant tarbiyasi.

2 Biror narsa, ma'lumot va sh.k. ni ma'lum nuqtayi nazardan o'rganish, baholash. *Ertasi kun cho'lni yana qadamlash boshlandi. Yana o'lchash, suratga olish, tahlillarni daftarga ko'chirish davom etdi.* R.O'roqov, Qarshi cho'lida.

Menimcha, bu to'g'rida [maktub haqida] hech qanday tahlilning lozimi bo'lmas kerak. Chunki buning ahamiyati hammamizga ma'lum. N.Safarov, Tanlangan asarlar.

3 Biror narsaning tarkibini belgilash va uning mohiyatini tadqiq etish. *Kimyoviy tahlil. Lingvistik tahlil. So'zning morfem tahlili. Sintaktik tahlil.*

Tahlil qilmoq (yoki **etmoq**) Tahlil ishini bajarmoq, tahliliy ish o'tkazmoq (**tahlil** har uchala ma'nosida). *Notiq o'z so'zining asosiy qismini yubilyarning ijodiy-ilmiy faoliyatini chuqur tahlil qilishga bag'ishladi.* "O'TA". Ammo mana shu ziddiyatlarni chuqurroq tahlil qilishga hali xalqning ongi yetmasdi. K.Yashin, Hamza. *Ishlarni tahlil qilib, kerakli tashkilotlarga qo'ng'iroq qildi.* S.Nurov, Narvon. *So'zni sintaktik tahlil qilganda, sintaktik hodisalar, sintaktik birliklar, ularning tiplari, ifoda materiali va shu kabilar belgilanadi.* "O'TA".

4 *din.* Dafn marosimi oldidan marhum tepasida davra olib, tilovat qilish.

TAHORAT [a. طهارة – tozalik, poklik, suv bilan yuvib tozalanish; hojatdan so'ng suv bilan tozalanish] *din.* *Ibodat qilish, namoz o'qish, qur'on tilovat qilish oldidan bet, qo'l, oyoq va b. a'zolarni yuvish, poklanish, shunday poklangan holat. Tahorat qilmoq (olmoq).* — *So'fi azonni aytdi, garchand tahoratim bo'lmasa ham, kirib jamoat bilan namoz o'qidim.* G'.G'ulom, Shum bola. *Eshon aya ichkariga o'rin solib, obrez oldiga obdastada tahorat suvi qo'yib, mehmonxonaga chiqdi.* S.Ahmad, Hukm. *Hozir tahorat oldim. Namozni jumani o'qib olay.* S.Ahmad, Hukm. *O'ng qanotda saf tortgan oldi*

ochiq otxona, omborxona, somonxona-yu sayisxonalar tarafdan tosh terilgan yo'lka bo'ylab oltmish besh yoshlardagi devqomat, vajohatli bir odam kelmoqda. Yelkasida uzun oq yaktak, qo'lida mis obdasta – xilvatda tahorat olib qo'ymoqqa. E.A'zam, Jannat o'zi qaydadir.

Tahorat ushatmoq (yoki **sindir-moq**) Yozilmoq, bo'shalmoq; hojatga bormoq. *Mehmonlar o'rinlaridan turib, uvushgan oyoqlarini uqalab, kerishib, kim qo'l yuvishga, kim tahorat ushatishga tarqaldi. Oybek, Tanlangan asarlar.*

TAHORATXONA [tahorat + xona] 1 Tahorat olish, yuvinib poklanish uchun moslangan maxsus xona. *Masjid tahoratxonasi.*

2 s.t. Hojatxona, xaloxona. *Nikohnikohda, osh-oshda qolib, kuyovni qidirib ketganlar. Nihoyat, yarim kechada hammomning tahoratxonasi yonidagi bir og'ilning oxuridan qoniga belashib yotgani holda topganlar. A.Qodiriy, O'tgan kunlar.*

TAHQIQ [a. تحقير – bajarish, amalga oshirish; o'rganish; tekshirish, tergov; biror narsaning haqiqatini izlash, tekshirib ko'rish, aniqlash] *esk. kt. Tekshirish, surishtirish; aniqlash. Tahqiq, taftish bitgan kuniyoq o'zim ogohlantirurman. Oybek, Navoiy. Afsus, janoblarini Toshkentda uchratolmadim. Ta'qib, tahqiq kuchaydi... A.Hakimov, Ilon izidan.*

TAHQIR [a. تحقير – xo'rlash, oyo-g'osti qilish, yerga urish; haqoratlash, mensimaslik, kamsitish] *kt. Xo'rlash, haqorat qilish, kamsitish; haqorat. Oysha xolaning tahqiri va yolg'izlik alami bilan kuyinib turgan Mayna barmoq*

uchi bilan betiga tushgan yosh tomchilarini sidirib, o'zida qandaydir yengib bo'lmas bir kuch sezdi. Sh.Toshmatov, Erk qushi. Keksa ona ochlik-muhtojlikda, tahqir va tubanlikda kun sayin so'lib, boyning bostirma yonidagi qora hujrasida qizining o'z qo'lida jon berdi. A.Muxtor, Opa-singillar. Kelinchak erining gap ohangidagi tahqirni sezib, ko'ksida nimadir singanday, qulog'i shang'illab ketdi. Erining dag'alligidan xo'rliq kelib o'choqqa, lopillab yonayotgan olovga faromush tikildi. N.Eshonqul, Yalpiz hidi.

Tahqir qilmoq (yoki **etmoq**) Haqorat bo'luvchi, xo'rlik keltiruvchi gap-so'z aytmoq, ish qilmoq. *U qaynataqaynonaning muttasil tahqir qilishiga chiday olmasdi. Sh.Rashidov, Qudratli to'lqin. Bartbir, har qanday yolg'on kimnidir tahqir etadi. A.Muxtor, Tong bilan uchrashuv.*

TAHQIRLAMOQ Tahqir qilmoq, xo'rlamoq. *...shu soxta ma'lumot asosida tergov boshlanishi... meni qattiq tahqirlamoqda. O.Yoqubov, Izlayman. Tolib aka har qanday andishani yig'ishtirib qo'yib, Ahmadni har qadamda tahqirlay boshladi. F.Musajonov, Himmat.*

TAHQIRLI Tahqir, haqorat ifodalovchi, tahqirlovchi. *Tahqirli kulgi. Tahqirli piching. — Mirzakarimboyning bunday muomalasi Yo'ichiga tahqirli bo'lsa ham... kutilmagan bir hodisa emas edi. Oybek, Tanlangan asarlar.*

TAHQIROMUZ [tahqir + f. آميز – o'xshash, kabi] Tahqir mazmunidagi, haqorat ifodalaydigan. *Tahqiromuz gap. — [Amerika ofitserida] O'zining ulug'vorligi, davlati bilan kibrlanadigan*

odamlardagina bo'ladigan tahqiromuz tabassum paydo bo'ldi. Shuhrat, Shinelli yillar. Ayol eriga bepisand, tahqiromuz qaradi. N.Aminov, Suvarak.

TAHRIR [a. تحریر – ozod qilish; tuzatish, tahrir qilish; yozish, asar yozish] 1 Yozma ishni, asarni tuzatishlar kiritib yaxshilash, tuzatish. *Maqola tahrirga berildi. Asar tahrirdan chiqdi. Kitob professorning tahriri ostida bosildi.* — *To'plamdagi... ayrim maqolalar tahrirga muhtoj.* F.Abdullayev, Ikki xil yordam.

Tahrir hay'ati Kitob, jurnal, gazeta va sh.k. ning nashrini tayyorlovchi, unga ilmiy-metodik rahbarlik qiluvchi kishilar guruhi. *Lug'atning tahrir hay'ati a'zolari. Tahrir qilmoq* Tahrirdan o'tkazmoq. *Zamira oqshomlari Ochil bilan birga ishlashni, u yozgan, tahrir qilgan narsalarni oqqa ko'chirishni tasavvur etib, yuragi gursullab ura boshladi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Saidiy hikoyani bir haftada tamom qilib, Ilhomga ko'rgan bergan edi, ikki kundan so'ng uni Abbosxonning qo'lida tahrir qilingan holda ko'rdi.* A.Qahhor, Sarob.

2 esk. Yozish, ijod qilish. *“Nuqta lab ustida bejodur”, dedim, aydi kulib: “Sahv qilmish kotibi qudrat magar tahrirda”. Furqat. Arizani shu majlisda, mulla Abdurahmon huzurida yozilishi muvofiq ko'rilib, mufti tahrirga o'tirdi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

TAHRIRIY Tahrirga oid. *Tahririy ish. Tahririy tuzatish. Tahririy xato.*

TAHRIRIYAT [a. تحریریت] Nashriyot organlarining nashr ishlarini olib borish, qo'lyozma matnlarini ishlab, nashrga tayyorlab berish va nashr

jarayonida terilgan matnlarning to'g'ri-noto'g'riligini tekshirish ishlarini amalga oshiradigan bo'limi va shunday bo'lim xodimlari. *Saksonni qoralab qolgan bu insonni, tahririyatdagi xonamga kirib kelganlarida, dastlab tanimadim. Gazetadan. Xolis odamlarning aytishiga qaraganda... ertalab soat o'nlarda oyog'ida bazo'r turgan muallim rayon gazetasi tahririyatiga kirib kelgan. A.Yo'ldosh, Puankare. Tahririyat ikki qavatli binoning quyi qavatida joylashgan ekan.* N.Jaloliddin, Tegirmon.

TAHRIRCHI s.t. Tahrir qiluvchi, tahrir ishlarini bajaruvchi; muharrir; musahhih. *-Hmm, u yerda Vahob Ro'zi-matov ham bor. Yaxshi tahrirchi. Tilni yaxshi biladi. Uning Mirkarim Osimdan keyin O'zbekistonda ikkinchi stilist degan nomi bor. Yaxshi-da, shunday fidoyilarning borligi ham! – deb birdan xitob qildi domla.* Sh.Xolmirzayev, Saylanma.

TAHSIL [a. تحصیل – ega bo'lish, egallash; yig'ish, to'plash; hosil qilish, o'rganish (ilmni)] 1 O'qish, bilim olish. [Abdishukur] *Tahsilini chala qoldirib, madrasadan chiqdi. Tahsil uchun Istambul yoki Misrga jo'nash orzusi mahlag' yo'qligidan amalga oshmadi. Oybek, Tanlangan asarlar. Ammo madrasalarda dunyoviy ilmlardan tahsil bermasak, xarob bo'lg'aymiz. S.Siyoyev, Avaz.*

2 O'qish mavsumi, dars-mashg'ulotlar davri. *Tahsil boshlanishi bilan har bir to'da mullavachchalar patnis yasab... domlarning oldiga olib kirar... edilar. M.Muhammadjonov, Turmush urinishlari.*

Tahsil qilmoq (yoki etmoq) Mutolaa qilmoq, mustaqil ravishda o'qi-

moq, o'rganmoq; bilim olmoq. *Iskan-daro bir necha yil maktabda qur'on tahsil qilib, o'qish-yozishni o'rgangan-dan so'ng uyda qolgan.* Oybek, Nur qidirib.

3 Bilim, ma'lumot. Siz ibtidoiy va o'rta tahsilni tamom qilgansiz. A.Qahhor, Sarob. *Shuncha tahsil va tarbiya berganlaringiz uchun rahmat.* M.Ismoil-y, Farg'ona t.o. *Lekin madrasa tahslli ularni qoniqtirmasdi. Shuning uchun ular "Taraqqiyot", "Xurshid"... hamda "Vaqt" singari gazeta va jurnallarni yarim tunda... mutolaa qilishga kirishar* *edilar.* K.Yashin, Hamza.

Tahsil olmoq (yoki ko'rmoq, top-moq) Ma'lum o'quv yurtida yoki hiror mutaxassis rahbarligida o'qimoq, bilim, ma'lumot olmoq. *Husaynbek afandi asli xorazmlik boylardan bo'lib, Turkiyada tahsil olgan... edi.* J.Sharipov, Xorazm. *G'iyosiddin Buxoroning devonbegi mad-rasasida tahsil ko'rib yurgan paytlarida otasi uni oq qiladi.* S.Ahmad, Hukm. *Hakimxon Vodiliy avval Buxoro, keytn Samarqandda tahsil topgan mullo odam ekan.* Mirmuhsin, Me'mor.

TAHSIN [a. تَحْسِين – yaxshilash, takomillash; tuzatish; bezatish; ma'qul-lash, maqtash] **1** Mamnuniyat bilan, ma'qullab berilgan yuqori baho; maqtov, tasanno. *Ko'pchilikning tahsin va rah-matiga sazovor bo'lib, yaxshi odam de-gan nomga munosib bo'lish oson emas.* Shukrullo, Yaxshi xulq – yaxshi husn. *G'ulomjon qozining ko'z qarashida allaqanday iliqlik, hatto tahsin sezdi.* M.Ismoil-y, Farg'ona t.o.

Tahsin o'qimoq (yoki aytmoq) Ko'kka ko'tarib maqtamoq, yuksak ba-holamoq, tasanno o'qimoq. *Shahodat*

mufti uning aqliga tahsin o'qiy-o'qiy, nos chekib, o'z joyiga o'ltirdi. A.Qodi-riy, Mehrobdan chayon.

2 und. s. kam qo'll. Balli, ofarin. *-Tahsin-tahsin! – deydi Xatib domla [mulla Obidga] hasadli taajjub bilan. -Toza ham pulni qirdik, deng... Tahsin-tahsin!* A.Qodiriy, Obid ketmon.

TAJALLI(Y) [a. تَجَلَّى – ko'rinish, jilvalanish, jilolanish] **1 esk. kt.** Jilva, jilo; jilolar. *Husning tajallisidin betob mohro'lar, Andoqki zohir o'lmas xur-shid, chiqsa kavkab. Nodira. Butun olam karam va karomat nuri bilan boqiydir, xoliqiyatdan taralgan ezgulik nurining tajallisi bilan munavvardir.* N.Komilov, Tasavvuf.

2 din. Allohning zuhurlanishi, na-moyon bo'lishi (zot tajallisi, sifot tajallisi, fe'l tajallisi kabi uch turga bo'linadi). *Iloh tajalliysidan barcha mavjudot nurafshon bo'ladi, odam odamiylik haqiqatini bi-lib olib, o'z bahosi – qadr-u qiymati, sha'n-u sharafini anglab yetadi.* N.Ko-milov, Tasavvuf.

Tajalli etmoq Aks etmoq. *Toki so'-fiyning ko'ngli ham musaffolanib, bil-lurday shaffof holga kelmasa, unda Al-loh tajalli etmaydi va g'ayb asrorini bilish mumkin bo'lmaydi.* N.Komilov, Tasavvuf.

TAJAMMUL [a. تَجَمُّل – soxta, yol-g'ondakam, boodoblik, xushmuomalalik; bezanish, go'zallashish; chidam, sabr-toqat] *esk.* Kerakli narsalar, ziynat bu-yumlari. *Qiznikida hamma tajammulni tayyorlab, Komilbekning otasidan tor-tib nikoh qiladigan qozi-yu quzzotlar-gacha kuyovni kutib o'ltirar ekanlar.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

TAJASSUM [a. تَجَسُّم – ma'lum shaklga kirish, shakllanish, gavdalanish; kattalashish] *esk. kt.* Gavdalanish, ifoda belgisi, holat. *Voqealar obrazlardagina konkret tajassumiga, tipik chizgilarga ega bo'ladi.* "Yoshlik". *Fikrni teranlashtirish evaziga g'oya yanada boyiydi va poetik tajassumiga erishadi.* "O'TA".

Tajassum topmoq Gavdalanmoq, ifoda belgisiga ega bo'lmoq. *Shu ma'noda peyzaj lirikada insoniy histuyg'u va kechinmalarning yorqin tajassum topishi uchun fon vazifasini o'taydi.* "O'TA".

TAJASSUMLANMOQ *esk. kt.* Gavdalanmoq, mujassam holda namoyon bo'lmoq. *Inson tabiatining porloq, xira, rangsiz, qora va hokazo jonsiz jilvalari ko'z oldida tajassumlanadi.* Oybek, Navoiy.

TAJANG 1 Kayfi buzuv, jahli (asabi) qo'zigan holatli. *Yuzlari lo'ppigina, serg'ayrat, tajang xotinga qarab turib, Nuratbek onasini esladi.* S.Nurov, Narvon. *...har safar qaytishda xunob bo'lar, so'kinar va Ahmadjonni ham tajang gumon qilib, unga tasalli berar edi.* A.Qahhor, Oltin yulduz. *N. Rafasni shunchaki injiq, shuhratparast, tajang idora xodimlaridan deb o'ylagandi.* N.Eshonqul, Go'r o'g'li yoxud Hayot suvi.

Tajang bo'lmoq Asabi qo'zg'ab jahllanmoq, o'ta kayfi buzilmoq, tajangligi tutmoq. *Rais Rixsivoy akadan ahvolni bilgach, yana tajang bo'ldi.* R.Fayziy, Cho'lga bahor keldi. *Bugun Botiralinining uyidagi jonlantishdan tajang bo'lib o'tirgan maxdum bobillab berdi.* H.G'ulom, Mash'al.

2 Bekorga jahli chiqaveradigan, jig'ibiyron bo'laveradigan; jahli, ach-

chig'i tez. *Tajang odam. — Aka-uka usta qo'lida uch yil ishlashdi — tezroq va tajang Abutolib uch yil deganda usta Najmiddin Buxoriyning roziligini olmay, o'z hovlisida xumdon qurib, koshin-u idish yasay boshladi.* Mirmuhsin, Me'mor. *Zohir shayx... og'asi kabi arzimagan narsaga lovullab ketadigan tajang, jahldor emas...* S.Siyoyev, Avaz.

3 Shunday belgi-xususiyatga ega bo'lgan shaxs ismiga qo'shib aytiladigan (ishlatiladigan) so'z, laqab. *Nurilla Narvoniy bir "ichakuzdi" qilish uchun eshigiga "Hasratxon" deb yozilgan nimqorong'i xonaga Eshpo'lat tajangni olib kiribdi.* "Mushtum".

TAJANGLANMOQ kam qo'll. Tajang bo'lmoq. *Solihboyning qaynab turgan g'azabi... tajanglanib baqirishida emas, balki gaplarining qat'iyligida ifodalanadi.* F.Jo'rayev, Obid Jalilov.

TAJANGLASHMOQ Tobora tajang bo'lmoq, tajangligi oshmoq. *Chol battar tajanglashib, endi og'zini so'zga juftlagan edi, vaqtichog' Unsın ko'chadan qushday uchib kirdi.* Oybek, Ulug' yo'l.

TAJANGLIK 1 Tajang holat. *-Tatar qaytdimi? — deb so'raydi mulla Obid. -Qaytdi, tajangligi oshib, yana dalaga ketdi! — deb kuladi Mardonboy.* A.Qodiriy, Obid ketmon. *U tajanglik bilan qo'llarini yana o'ynatdi.* P.Tur-sun, O'qituvchi. *Ovozida tajanglik, asabiylık bor edi.* M.Ismoilıy, Farg'ona t.o.

2 Tajang shaxsga xos xususiyat, xislat. *O'qituvchi tajanglik, qo'pollik, shoshqaloqlik, besabrlik kabi nomatlub sifatlardan butunlay musaffo bo'lishi shart.* R.Usmo-nov, Odobnoma. *Quyuv qoshlari os-tida ikki ko'zi yonib turadi, jindak ta-*

jangligi ham bor – bir so'z yetarli, ikki so'z ortiqcha. Mirmuhsin, Umid.

TAJNIS [a. تجنيس – o'xshash, bir xil shaklga ega so'zlarni ishlatish] 1 Til birliklarining shakldoshligiga asoslanadigan so'z o'yini.

2 *ad.* Og'zaki va yozma adabiyotda: shakldosh (omonim) so'zlarni qo'llash, so'zlarni shakldosh qilishdan iborat badiiy san'at turi (tuyuq janrida keng qo'llanadi). *Bu misolda [Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot. Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot. Nasihatim yodingda tut, farzandim, Yolg'iz yursa, chang chiqarmas yolg'iz ot.] xalq baxshisi tajnis san'atini qo'llagan. Chunki omonim so'zlarning she'rda turli ma'no anglatib o'zaro qo'fiyalanishi tajnis deb ataladi. "O'zbek xalq og'zaki ijodi".*

TAJOHUL [a. تاجول – bee'tibor munosabatda bo'lish; o'zini bilmaslikka olish]: **tajohuli orifona** *ad.* Mumtoz she'r yaratda o'xshatish usullaridan biri: shoir biror manba (yor, mahbub va sh.k.)ga nisbatan bir yoki bir necha to'g'ri, haqqoniy o'xshatish qo'llab, go'yo xatoga yo'l qo'yganday, o'xshatishlarning to'g'ri-noto'g'riligi haqida boshqalardan so'raydi.

TAJOVUZ [a. تاجوز – o'tish, kesib o'tish; chegaradan o'tish, haddan oshish; qonunbuzarlik] 1 *siyos.* Bir yoki bir necha davlatning boshqa mamla-katlarni bo'ysundirish, ularning yerlari-mi bosib olish maqsadida qurol kuchi bilan bostirib kirishi. *Imperializmning har qanday xurujlari, isyonlari, sui-qasd-lari, tajovuzlari bu ruhni o'ldira olmay-di.* P.Qodirov, Uch ildiz.

2 *ko'chma* Umuman, zo'rlik, zo'ra-vonlik xatti-harakati, hamlisi. *Nazira*

yomon niyatda qilinayotgan tajovuzni sezib qolganday, qo'llari g'ayritabi-y kuchga kirib, Yigitalini itarib yubordi. D.Nuriy, Osmon ustuni. *Hamma chiroy-li qizlar kabi, u ham yigitlarning "ta-jovuzi"ga ko'p uchradi.* P.Qodirov, Uch ildiz.

Tajovuz qilmoq Shunday ish, xat-ti-harakat qilmoq, zo'ravonlik, tajovuz-korlikni amalga oshirmoq. *...xalqning erkiga tajovuz qilishga qarshi mardo-navor kurash olib bordi. "Saodat". Qa-yoqdandir kovlashtirib, "Bir vaqtlar Sayfiddinov falonchi qizning nomusiga tajovuz qilgan", degan gapni topdi.* Mirmuhsin, Jibljajbon.

TAJOVUZKOR [a. + f. تجاوزكار – tajovuz qiluvchi] 1 Tajovuz, bosqin-chilik, tashlanib qolishga moyil. *Keksa-lik sarhadini endigina hatlagan bu jonivor avvalgi holatining aksi o'laroq ko'pam hayotga ishtiyoqi yo'q va vaqt o'tgan sari... qandaydir jizzaki va tajo-vuzkor bir maxluqqa aylanib bormoqda edi.* N.Norqobilov, Tog'dagi yolg'iz odam.

2 Bosqinchilik siyosatini qo'llovchi (*q. tajovuz 1*). *Tajovuzkor davlatlar.*

TAJOVUZKORLARCHA Ta-jovuzkorlar kabi, tajovuzkorlik bilan. *Tajovuzkorlarcha harakat.*

TAJOVUZKORLIK Boshqalar-ni yerlarini bosib olish maqsadlariga qaratilgan zo'ravonlik harakati. *Tajo-vuzkorlik siyosati.* — *Belgi, odatda, turlicha ma'noni ifodalaydi. Hududga da'vogarlik, tajovuzkorlik, nopisandlik va hatto mazaxli belgilargacha bo'ladi.* N.Norqobilov, G'animler.

TAJOVUZKORONA *ayn. tajo-vuzkorlarcha.* *Urush degan baloning*

inson hayoti va ruhiyatidagi tajovuzkorona "aksi" – "Ikki eshik orasi" romanida mohirona "chizib" berildi. "Yoshlik".

TAJIRIBA [a. تجربة – sinov, eksperiment; test; malaka, mahorat; sinov, imtihon; mashq, tayyorgarlik] 1 Muayyan maqsadda amalga oshiriladigan, bilish, aniqlash, sinash va sh.k. ga qaratilgan ish, faoliyat. *Tajriba o'tkazmoq. Tajriba natijalari. Tajribada sinab ko'rmoq.* — *Tajriba uchun ajratilgan uch gektar yer tizma tog'larday bir-biriga ulanib ketgan adir etagida edi.* J.Abdullaxonov, Oriyat. *Klark Mahdining yurak urishini tekshirib ko'rdi-yu, tajribani bas gildi.* S.Siyoyev, Yorug'lik. [Olim:] *Fan aniq shu degan ko'rsatmani bermaydi, balki farazlarni o'rta tashlab, tajriba olib boradi, shu tajribaga ko'ra ma'lum xulosani aytadi.* N.Eshonqul, Go'r o'g'li yoxud Hayot suvi.

2 Amaliy ishda, hayotda o'zlashtirilgan, o'rnatilgan bilimlar, malakalar, uquvlar majmuyi. *Hayotiy tajriba. Pedagogik tajriba. Ilg'orlarning tajribasini o'riganmoq. Tajribalarni o'rtoqlashmoq.* — *Bizning vazifamiz ilmni xalq tajribasi bilan boyitish va shu bilan birga xalq tajribasini ilmning elagidan o'tkazishdir.* A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. *Biz ilg'or mash'allarimizning tajribasini ommalashtirishimiz kerak.* F.Musajonov, Himmat. *Shayboniyxon chorshanba kuni hayot-mamoti hal bo'lishini sezib, bor iste'dodini, butun tajribasini ishga sola boshladi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

3 fls. Obyektiv dunyoni, voqelikni amaliy jihatdan hissiy-empirik bilish jarayoni; obyektiv dunyo va ijtimoiy

amaliyot qonunlarining kishi ongidagi in'ikosi. *Hissiy tajriba. San'atkorning estetik tajribasi.*

4 Bir masala, yo'nalishda dastlabki tarzda ish, harakat va uning mahsuli. *Yosh ijodkorning birinchi tajribasi.* — *O'z g'azallariga o'zi taxmis bog'lash tajribasini ham adabiyotimiz tarixida Navoiy boshlab berdi.* "O'TA".

TAJIRIBADOR [a. + f. تجربه دار – tajribaga ega] *kam qo'll. ayn. tajribali. Tajribador yilqichilar.*

TAJIRIBAKOR [a. + f. تجربه کار – tajriba qiluvchi, tajriba o'tkazuvchi] 1 ayn. **tajribali**. *Tajribakor odamlar.* — [Qodir:] *Brigadirlikka eng yaxshi, ilg'or, tajribakor, ishning ko'zini biladigan, jonkuyar odamlarni saylamogchimiz.* Uyg'un, Navbahor. *Tansiq va o'rtoqlari tajribakorlar ko'zi va diqqati bilan oldin dalani kezib chiqdilar.* Oybek, O.v. shabadalar.

2 Tajriba o'tkazuvchi, tajriba bilan shug'ullanuvchi. *Lebedev – jahon fani tarixida yorug'lik bosimini birinchi bo'lib aniqlagan mashhur tajribakor olim.* "Fan va turmush".

TAJIRIBAKORLIK Katta, ko'p tajribaga egalik, tajriba asosida ish ko'rish, tajribaga oid ish-faoliyat. *-Soqol tajribakorlikdan oqaradi, – dedi u namozdan qaytib kelgan cholg'a.* G'.Rasul, Adolat. *Ayniqsa, rais Mirhaydarning bu bobda chuqur tajribakorligiga ishonar edi.* Oybek, O.v. shabadalar.

TAJIRIBALI Katta tajribaga ega, ko'p tajriba, malaka orttirgan. *Tajribali o'qituvchi. Tajribali rahbar.* — *Nigora Akramni tajribali, bilimdon vrach deb hurmat qilardi.* S.Anorboyev, Oqsoy. *Darhaqiqat, paxtani tushuna oladigan,*

yerni biladigan tajribali raissan. Sh.Ra-shidov, Bo'rondan kuchli.

TAJIRBASIZ Ish tajribasiga, malakaga ega bo'lmagan; g'o'r, xom. *Tajribasiz agronom. — Men hammani bir-bir sinab ko'rganimdan keyin, Hasanni hammadan tajribasizroq, soddaroq topib, shuni ovlashga kirishdim. S.Ayniy, Qullar.*

TAJIRBASIZLIK Tajribaga ega emaslik, tajriba ko'rmaganlik. *Siyosiy tajribasizlik. Tajribasizlik oqibatidagi kamchilik. — Mana, kechagi voqeani oling. Samolyotlar hujumi vaqtida komandirlar tajribasizlik qilishdi, jangchilar shoshib qolishdi. I.Rahim, Chin muhabbat.*

TAJIRBAXONA Tajriba o'tkaziladigan xona. [*Elchin*] *Keyin birdan... xarobgina bostirma yonida ota-onasini ko'rib, titrab ketdi. Volidayn tajribaxonada kiyadigan oq liboslarida edilar. T.Malik, Shaytanat.*

TAJIRBAVIY Tajribaga oid, tajribaga asoslangan. *Tajribaviy va nazariy fizika.*

TAJIRBACHI ayn. *tajribakor 2. Tajribachi talaba.*

TAJVID [a. تجويد] — qoida va talablar asosida Qur'onni qiroat, ohang bilan o'qish] *din. Qur'on oyatlarini o'qishda nutq tovushlari talaffuzining to'g'riligiga e'tibor berish, Qur'onni qiroat, alohida ohang bilan o'qish; Qur'on o'qish ilmi. Maktabimiz to'rt yil mud-dalli bo'lib, ikkitagina o'qituvchimiz bor edi. Biri Alijon ismli domla bo'lib, bu kishi diniy darslar, tajvid (Qur'onni o'qish qoidalari), fors tili va husnixat o'rgatar ekan. A.Akromov, Maktabda.*

TAJZIYA [a. تجزيه — bo'laklash, bo'lak-bo'lak qilish] *ad. Bayt misralarining har birini ikki bo'lakka ajratib, misralardagi birinchi bo'laklarni ham, ikkinchi bo'laklarni ham o'zaro qo'fiy-lash san'ati. Masalan: Qaro zulfiing firo-qida parishon ro'zgorim bor, Yuzung-ning ishtiyoqida ne sabr-u ne qarorim bor. (Bobur).*

TAK 1 taql. s. Childirma, nog'ora kabi narsalarni chertganda, cho'p bilan urganda chiqadigan tovushni bildiradi. *Faqat g'ijjakchigina kamon tortar, childirmachi har zamonda bir "tak" etib chertib qo'yar... S.Ahmad, Cho'l bur-guti.*

2 Nog'oraning jarangliroq ovoz beradigan toqasi; *q. tum.*

3 und. s. Otni to'xtatish, tinchlantirish uchun ishlatiladigan undalma. *"Tak" dedi-yu, "chuvha" dedi, jo'nadi. Qorajon ham o'z yo'lidan qolmadi. "Alpomish". Tak, tak! Pashsha talayap-timi, hozir hammasini jahannamga yuboramiz. Oybek, Tanlangan asarlar.*

TAKA 1 1 Echkining erkagi; sog'lom nasl olish uchun tanlab olinadigan zotli erkak echki. *Tog' takasi tek tursa, och qoladi. Maqol. — Kenja asta qo'ylar orasidan borib, qora takaning oyog'idan mahkam ushladi. N.Fozilov, Diydor.*

Taka bo'lsin, suti bo'lsin Nima bo'lsa ham, foydasi, nafi bo'lsin. *Mun-tazirman har qanday buyrug'iga yer o'pib, "Taka bo'lsa, suti bo'lsin", tydi-rib yumshataman. "Mushtum". Taka soqol q. takasoqol. [Bo'ri polvon] Keng ham do'ng peshonasini... cho'ziq jag'i, taka soqolini siladi. T.Murod,*

Yulduzlar mangu yonadi. Uning [cholning] uchli taka soqoli, sinchkov ko'zlari yigitga kimnidir eslatdi. "Yoshlik".

2 Turkman qabilalaridan birining nomi. *Taka turkman.* — ...ko'chada yurgan kimsa borki, o'qqa uchdi, taka yovmit qilichiga yo'liqdi. S.Siyoyev, Avaz.

TAKA II shv. Yostiq. To'shakning ustidan to'qqiz takani ham qo'yib, Rayhon arab uxlab yotibdi. "Go'ro'g'li". Jig'olibek endi takaga yonboshlagan edi, o'g'li Ganjimbek kirib keldi. "Go'ro'g'li".

TAKA III Bangladesh Xalq Respublikasining pul birligi.

TAKABBUR [a. تَكْبُر — o'zini ulug', katta tutuvchi, kibrli; mag'rur, manman] O'zini katta oluvchi, kekkaygan, gerdaygan; mutakabbir, dimog'dor. *Takabbur odam.* — Juda takabbursan-da, Zumrad. Otdan tushsang ham, egardan tushmayсан. S.Siyoyev, Otlıq ayol. Otasining davlati, kattaog'iz, hovliqma va takabbur onasining erkalashi qo'shilib, qizga ortiqcha g'urur bergan. Oybek, Tanlangan asarlar. Bu olam shunaga qurilgan o'zi, Hidlashib ko'rishar hatto hayvonot, Qur'oniy kalomdir "Assalom" so'zi, Do'xaxi sanalur takabbur har zot. A.Oripov, Yangi she'rlar.

TAKABBURLANMOQ kam qo'll. O'zini kibrli tutmoq; kibrilanmoq. *Takabburlanish aqlli odamning ishi emas.* — Jur'at esa takabburlanib, o'zi aytayotgan o'sha hokimlarga hasadi keldi. A.Said, Ko'chada qolgan odam.

TAKABBURLIK 1 Mag'rurlik, manmanlik, takabburona holat. *Takabburlik bilan gapirmoq.* — Teshaboyning

takabburligini ko'rib, Hasan so'fi ham indamay qo'ya qoldi. M.Ismoilıy, Farg'ona t.o.

2 Takabbur odamlarga xos xislat, xatti-harakat, qiliq. *O'qituvchiga kibr-u havo va takabburlik aslo yarashmaydi, chunki yosh avlod undan ibrat oladi.* R.Usmonov, Odobnoma.

TAKABBURONA Takabburlik bilan, kibrilanib. *Uni takabburona qarash bilan kuzatib turgan Abdimalik: -Tinchlikmi, og'ayni? — deya hol so'ray boshladi.* Sh.G'ulomov, Bo'z yer uyg'ondi. *Kotib odamshavanda kishi edi, tezda qorovul buning guvohi bo'ldi. U sheringa biroz takabburona tikilar, lekin har qanday kishining ko'ngliga yo'l topadigan ulfatijon yigit edi.* N.Eshonqul, Yalpiz hidi.

Takallum qilmoq (aylamoq) So'z-lamoq, gapirmoq; suhbatlashmoq. *U yerda do'stlikni ulug'lab inson, Takallum qiladi qumri misoli.* A.Oripov, Yurtim shamoli. *Ishqingiz umidimga onadir, Takallum aylab kelsangiz netar.* S.Ochil, Kamola yetgan ishq.

TAKALLUF [a. تَكْلُف — sun'iylik, soxtalik; kuchi yetmagan ishni zimmasiga olish] Hurmat-ehtirom va e'zoz-ikrom bilan qilingan muomala, mulozamat. *Takalluf bilan qarshi olmoq.* — Men sizning ko'rpachangizda ko'p o'l-tirganman, endi menga ortiqcha takallufingizning hojati yo'q. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. *Qiz ortiq takalluf kutib turlomadi, to'g'ri eshikni ochib, ichkariga kirdi, o'zini Po'latjonga qarab otdi.* Oy-din, Asl yor.

Takalluf qilmoq (yoki ko'rsatmoq) Hurmat-ehtirom bilan muomalada bo'lmoq. *Nusratbek... yangi hamrohiga ib-*

rat bo'lar degan maqsadda juvonga takalluf qildi: -Choy damlab kelaymi, chanqagandirsiz? S.Nurov, Narvon. Xola mehmonlarga takallufko 'rsatib, orasida Mirobidni ham chaqib olardi. V.G'ofurov, Vafodor.

TAKALLUFLI Takallufni o'rminga qo'yuvchi, sertakalluf; takalluf ifodalovchi. *Takallufli mezbon.* — Nigora qo'rqqanidan takallufli jilmaydi: -Qoplon, Qoplon, axir biz sen bilan tanishmiz-ku! S.Anorboyev, Oqsoy.

TAKALLUFOT esk. kt. Takalluf; takalluf. Nozik muomala... va takallufotlar pardasi ostida... xiyonatlar sezdi. Oybek, Navoiy.

TAKALLUFSIZ Tortinmasdan, takalluf kutmasdan; betakalluf. [Maqsad:] Bundan keyin ham menga kechagi Anvar kabi takallufsiz muomalada bo'lishlaringiz va hurmatlar bilan meni ranjitmasliklaringizdir. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. Do'smat takallufsiz, ortiq qistatmay, ichkari kirdi. H.Shams, Dushman.

TAKALLUFSIZLIK Takallufsiz qilingan ish, harakat, muomala; ish, muomaladagi shunday ifoda. -Xo'jayin, — odatdagicha takallufsizlik bilan dedi u, — bu kun bir talay ish qildik. Qaynatangiznikidan kelgan yigit juda yaxshi ish-ladi. Oybek, Tanlangan asarlar. Qizimning boqishida, gap ohangida jinday takallufsizlik sezilib turardi. E.Usmonov, Yolg'in.

TAKALLUM [a. تَكَلُّم — so'zlash, so'zlashish, suhbat] kt. Suhbat, gaplashish; so'zlash. Hamza endi mo'ylabi sabz urgan... xayolchan, takallumi ifodali, mantiqli... o'z so'zli yigit bo'lib yetilgan edi. K.Yashin, Hamza. To'lg'onoyning

takallumini bir eshitib, Amatjon og'asiga horma aytib keladi... S.Siyoyev, Avaz. Bolajon deyilsa — tabassum tayyor, Mehr-u shafqat tayyor, tarahhum tayyor. Alla aytar hatto kamgap ayol ham, Bolajon deyilsa — takallum tayyor. A.Oripov, Yangi she'rilar. Hov, akam juda usta ekan! Bir shirin so'zlar, takallumlar bilan uni [sutchini] avrar, ikki o'rtada bir emn-erkinlik paydo qilar ediki, qariya uning samimiyligidan mutaassirlana boshlagan... edi. M.Mansur, Judolik di-yori.

TAKA-PUKA Cho'chish, qo'rqish, vahimaga tushish holatli; bezovta. Birozdan so'ng Shoqosim otlarni to'xtatib, Yo'lchiga qichqirdi: -Tushuntir mundoq, o'zi nima gap... ko'zlaring taka-puka. Oybek, Tanlangan asarlar. Hammaning yuragi taka-puka — nafas chiqarmay, to'ng'izlarning o'tib ketishini kutishardi. J.Sharipov, Xorazm.

Taka-puka bo'lmoq Vahimaga tushmoq, bezovtalanmoq. Bu yerda xonning behisob qo'shinini ko'rib, yuragi taka-puka bo'lib ketdi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. Shu bois harakatlari noqulay, yasama, ichi taka-puka edi. "Sharq yulduzi". Hafizaning qo'rqib, taka-puka bo'layotganini Shoqosim sezib turardi. Mirmuhsin, Umid.

TAKARRUR [a. تَكْرُر — takrorlanish, qaytalanish] esk. Takroriylik, qaytariluvchanlik. Ana shunday vaqtlarda mamasana, chechan kishilar chiqib "tarix" takarrur qilayotir" deb shovqin-suron qilib yuboradurlar. Cho'lpon, Tarixning zararlik takarruri.

TAKASALTANG Hech narsaning g'am-tashvishini qilmaydigan, ishyoqmas, bekorchi. Bir maqsadi yo'q, muj-

mal-u mijg'ov takasaltang, Ish bo'lsa cho'chib, qo'rqadi yalqov takasaltang. Habibiy. *O'ziga o'xshash bir-ikki takasaltang bilan uzzukun bog'ida yotib... yo tag'in allaqayoqlarda sudralishib, vaqt o'tkazadi.* H.Nazir, *O'tlar tutashganda.* -*Bilaman, o'rtoq, ko'pchilik meni otasi-ning erkatoyi, takasaltang, ishyoqmas deb o'ylaydi, - deb qoldi hamon kayfiyatsiz Dilshod.* A.Yo'ldoshev, Daryo.

TAKASALTANGLIK Takasaltang-(lar)ga xos yurish-turish, holat. *Takasaltanglik joniga tegmoq. — ...ud-daburon bir yigit keldi, uni o'zimiz saylab, o'zimiz ko'tarib qo'yibmiz-u, tag'in o'sha-o'sha takasaltanglik qilib yuribmiz.* O.Yoqubov, Larza.

TAKASOQOL 1 Soqol echkinging soqoliga o'xhah. (*yana q. taka*).

2 *bot.* Sigirquyruqdoshlar oilasiga mansub, keng tarqalgan ko'pyillik begona o't. *Non o'rniga olg'i, takasoqol, ravoch... qo'y-echkilar bolalagan-da shirach "to'rvachasi"ga sog'ib, olovga birpas qo'ysak, bebaho pishloq tayyor!* A.Asil, Alqor, nega ko'zing to'la yosh? *Ajriqlar, shamaklar, pechaklar, takasoqollar, oqboshlar, kelinsupurgilar mol yeydigan bo'lib yetilgan payt.* O.Hojiyeva, Muborak. *Oqbosh, takasoqollari, Anqiydi jfyda bollari...* O.Hojiyeva, Turkiston yo'llarida.

TAKA-TAKA: taka-taka qilmoq Ag'dar-to'ntar, alg'ov-dalg'ov qilmoq, shu tarzda tinchlikni buzmoq. *Tog'larni taka-taka qilib yurgan uning [Abdulkarim temirchining] bojasi bo'ladi.* Sh.Toshmatov, Erk qushi. *Maqsud Nizomov akasiga orqa qilib... hamma yoq-ni taka-taka qilib yuritdi. "Mushtum".*

TAKA-TUM taql. s. Nog'ora to-vushini bildiradi. *Tom boshida karnaylar na'ra tortib, nog'oralar takatumga olib, boyning "shuhratini" butun shaharga yoymoqda edi.* M.Muhammadjonov, Turmush urinishlari.

TAKBAS [a. تكبیس – zich qilib bosish, siqish; uqalash, yumshatish]: **takbas qilmoq** Sarxonaga tamaki solmoq, tamaki bosmoq, shunday qilib chekmoq. *Xo'randalarning ichida takyaga yangi kelgan kosibbachchalar ham bor edi. Bular solma osh qilib, bir chilim, yarim chilim takbas qilib ketuvchi yosh-yalanglar edi.* G'.G'ulom, Shum bola.

TAKBIR [a. تكبير – kengaytirish, kattalashtirish; maqtash; xudoni ulug'lab, "Allohu akbar" iborasini aytish] *din.* Allohni ulug'lash bilan bog'liq ibora ("Allohu akbar" – Alloh eng buyukdir) ni talaffuz etish, tilga olish. *Xatib domla... oq bo'yra ustidagi tobut yoniga boradi va sallasining peshini tushirib, takbir uchun qo'l ko'taradi.* A.Qodiriy, Obid ketmon.

Takbir tushirmoq (yoki **keltirmoq**) "Allohu akbar" so'zini takror-takror aytish. *Samad bo'qoq indamay, chetga burilib ketdi. Shukur so'fi shom namozi uchun takbir tushira boshladi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. -*Siz nechun "Mozori kalon"da takbir tushirib, tangriga hamd-u sano o'qish o'rni-ga saltanat yumushlariga bosh tiqasiz.* O.Yoqubov, Tanlangan asarlar. *Shayx sidiq'a to'qilgan turkona sholchada takbir keltirib o'tiribdi.* S.Siyoyev, Yasaviyning so'nggi safari. *Ismoilbek takbir tushirib, yolg'iz o'zi o'qiy boshladi.* T.Malik, Shaytanat.

TAKFIN [a. تَكْفِين — kafanlash, kafanga o'rash] Murdani kafanlash, kafanga o'rash. *Kechasi bilan takfin choralari ko'rib... ul janobni dafn qilindi.* A.Qodiriy, Kichik asarlar.

TAKFINLAMOQ Murdani kafanlamoq, kafanlab tobutga solmoq.

TAKFIR [a. تَكْفِير — kofirlikda ayblash] esk. Kofirlikda ayblash, kofirga chiqarish. *Soching kufri xud imonimni oldi, vah, ne aysh o'lg'ay Ki, ul zunnorini bo'ynumga bog'lab qilsalar takfir.* Alisher Navoiy. *Takfirni takbir etmadim, aqdirni tadbir etmadim, Ey Ishq ila kelgan imon! Ko'nglimga tush, ko'nglimga tush!* S.Ibrohim.

TAKILLAMOQ “Tak”, “tak” ovozi chiqarmoq. *Oyoqdan zax o'tib, tish takillay boshladi.* T.Alimov, Xirgoyi. *Devor soat qolgan umrini o'lchayotgan singari bir alpozda takillaydi.* S.Siyoyev, Yorug'lik. *Dilshodning tishlari takilladi, peshonasiga muzday ter tepchidi.* A.Yo'ldoshev, Daryo.

TAKIR-TUKUR taql. s. “Tak”, “tuk” va shunga yaqin ketma-ket chiqadigan tovushlarni bildiradi. *Mayna uyda yolg'iz o'tirib, uy tomini chertayotgan yomg'irning takir-tukurini tinglardi.* Sh.Toshmatov, Erk qushi.

Takir-tukur qilmoq Takir-tukur tovush chiqarmoq. *Qulog'iga tunuka tomining takir-tukur qila boshlagani eshitildi.* Gazetadan.

TAKKON shv. Tabib. *Qimiz dori, degan necha takkonlar, Chayib bergin sava bilan ko'nakni.* “Alpomish”.

TAKLIF [a. تَكْلِيف — buyruq, topshiriq, vazifa; ishga taymlash; takalluf; majburiyat] 1 Muhokama qilish, amalga oshirish yoki qabul qilish uchun taqdim

etilgan fikr, masala, maslahat va sh.k. *Taklif kiritmoq. Ko'pchilikning taklifi bilan qaror qabul qilmoq. — La'lixon kolxozga rais bo'lsin, degan taklif ovoza qo'yilganda, hamma bir qo'lini ko'tarsa, Bodom xola ikki qo'lini babbaravar ko'tardi.* S.Ahmad, Qadrdon dalalar. *Mening taklifim shuki... Mirza-yevga o'xshaganlarga institutda o'rini yo'q.* O'Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Taklifi o'rinsiz chiqqanini sezdi-yu... gapni kulgiga burdi.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

2 Tashrif buyurish, qadam ranjida qilish va sh.k. haqidagi iltimos, so'z, chaqiriq. *Taklif bileti. — Rahmat, Olimxon aka, Men uyga boray, — Hakimboyvachcha taklifni oddiy manzirat deb bilgani uchun ketmoqchi bo'ldi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *A'zam taklifni kutib turmay, bo'sh yashik ustiga o'tirdi.* R.Fayziy, Cho'lga bahor keldi.

Taklif qilmoq (yoki etmoq) Taklif bildirmoq, taklifini aytmoq. *...Me'morini ko'rishi bilan darhol o'ng qo'li ko'ksida, salom berib, ichkariga taklif etdi.* Mirmuhsin, Me'mor. *Keyinchalik Sanobarni o'sha avtobus shofyori ustidan bo'ladigan sudga taklif qilishdi.* M.Xayrullayev, Ko'ngil. *Ustad Qavom non ushatib... dasturxondagi shirinliklardan olishga taklif qildi.* Mirmuhsin, Me'mor.

3 iqt. Muayyan vaqtda va muayyan narxlar bilan bozorga chiqarilgan va chiqarilishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdorini ifodalovchi tushuncha.

TAKLIFNOMA [taklif + noma] Majlis, to'y va sh.k. ga taklif etib yozilgan xat; taklif, chaqiruv qog'ozi. *Yig'i-*

lish qatnashchilariga taklifnoma yubormoq. — To'yga odamlarni xat orqali chaqirtirmoqchi bo'lib, taklifnomalar yozdirdi. "Latifalar".

TAKOMIL [a. تکامل — kamolga yetish; mukammallik; bir butun qilib birlashtirish] 1 Rivojlanish, kamol topish. *Tadrijiy takomil.* — Shoir [Hamid Olimjon] ijodiy takomilining o'ziga xos davrlari bor. Gazetadan.

2 Mukammal, kamolga yetgan holat; kamolot, yetuklik. *Ha, Nigora bekamko'st go'zal. U tabiat go'zalligining takomili, inson latofatining ayni mujassami edi.* S.Anorboyev, Oqsoy.

Takomil topmoq Kamolga yetmoq. *Sen ona! Sen bitmas hayot bulog'i. Hayotni yaratgan muhtaram omil. Ulug' kelajakning yosh nihollari Sendan tarqamoq yozib, topar takomil.* Zulfiya.

TAKOMILLASHMOQ Kamol topmoq, mukammallashmoq. [Daminjon:] *Ha, bo'lmasam-chi! Mashina degan doim o'zgarib, takomillashib turadi.* A.Hayitmetov, Po'lat barmoqlar.

TAKOVAR [f. تكلور — yo'rg'a ot] esk. Tez yuradigan yo'rg'a ot. *Takovaringg'a bag'ir qonidin xino bog'la, Itingg'a g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il.* Alisher Navoiy. ...*hazrat dunyo kezar... bamisli sharpa, go'yoki tagida chaqmoq — takovar; bir kech Hirot jonib, bir kecha — Mashhad.* Sh.Rahmon.

TAKRIR [a. تکریر — takror, qaytariq] ayn. **takror.**

TAKROR [a. تکرار — qaytariq, takrorlash] 1 ayn. **qaytariq** 1. *Matndagi takrorlar.* — Kimdir "takror bo'lmasin!" deb qichqirdi. A.Qahhor, Asarlar. *Ayrim hollarda ana shunday takrorning biri hech qanday funksiyani bajarmay-*

di, natijada bunday pleonazm tавтологийага teng bo'ladi. "O'TA". Biroq Abdurahmon Shum bolaning yangi sharoitdagi qaytarig'i va takrori emas, u yangi qahramon. S.Siyoyev, Yorug'lik.

2 Ikkinchi yoki ko'p marta; qayta, qayta-qayta. *Takror aytmoq. Takror ogohlantirmoq.* — *Loaqa siyosat yuzasidan bir nima jarimaga tortilsalar, istiqbolda bu kabi g'alayonlar takror bosh ko'tarmagay.* Oybek, Navoiy. *Chol takror so'ragach, u javob berdi: -Toshkentda ish topsam, balki qolarman.* Oybek, Tanlangan asarlar.

Takror bo'lmoq Takrorlanmoq, qaytarilmoq. *Har bahor ham shu bo'lar takror, Har bahor ham shunday o'tadi.* H.Olimjon, O'rik gullaganda. **Takror qilmoq** Takrorlamoq, qaytarmoq. *U, so'zlarini bilmasa ham, ovozinining bori-cha, butun yuragi, sevinch va quvonchini bag'ishlab, yoqimli ohangni takror qilardi.* Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli.

3 *tlsh. ayn. takroriy so'z q. takroriy.*

TAKRORAN *rvsh.* Ikkinchi yoki ko'p marta; takror holda, yana, qaytadan. *-Dushman vaqtincha tantana qilmoqda, — dedi takroran Chernetsov.* I.Rahim, Chin muhabbat.

TAKRORIY Takror qilinadigan, takror bajariladigan, takror holdagi. *Takroriy qurt boqish. Takroriy ekish.* — *Me'mor xotini va qizining bir necha bor takroriy uqtirishlari natijasida uch so'yabon arava, olti otni kiraga olib...* Mirmuhsin, Me'mor.

Takroriy so'z *tlsh.* So'zning ko'p-lik, davomlilik kabi ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiluvchi takror shakli. Mas., katta-katta (daraxtlar), yosh-

yosh (bolalar), ho 'ng-ho 'ng (yig'lamoq) va b.

TAKRORLAMOQ Ikkinchi yoki ko'p marta takror qilmoq, qaytarmoq. *Yana bir takrorlang, faqir radifini uqib olmoqchiman.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Yusufbek hoji, to Eskijo 'vaga yetguncha, o'zining yuqoridagi so'zini ko'y, guzar xalqiga takrorlab kelmoqda edi.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

TAKSA I [nem. *Taxe* – e'lon qilish, baholash < lot. *taxare* – baholamoq, baho, narx qo'ymoq] Davlat yoki o'z-o'zini boshqarish organi tomonidan aniq belgilangan tovar bahosi yoki mehnat va ko'rsatilgan xizmat haqi miqdori. *Yaxshi sovxozlarning "taksa"-si ellik mingdan yetmish minggacha bo'lgan.* O'.Hoshimov, O'zbek ishi.

Taksa bichmoq (yoki qo'ymoq) Qat'iy baho, narx belgilab qo'ymoq. *Shahar sho'rosi butun xususiy uylarning ijara haqiga taksa bichib qo'ydi.* A.Qahhor, Sarob.

TAKSA II [nem. *Dachshund*] Tanasi uzun, oyoqlari kalta va qiyshiq bo'lgan, inda yashovchi jonivorlarni ovlashga moslashgan ov iti.

TAKSI [fr. *taxi*] Kirakash yengil avtomobil yoki yuk avtomobili. *Yengil taksi. Yuk tashuvchi taksi. Uyga taksida qaytmoq.* — *Taksi ularning [Rahmonalilarning] eshigi oldiga kelib to'xtashi bilan orqama-orqa yana bir taksi keldi.* S.Ahmad, Iqror. *Bino yoniga taksi kelib to'xtadi, ichidan Iroda tushdi...* F.Musajonov, Himmat.

TAKSICHI Taksi haydovchisi, shofyor. *-Qayoqqa, birodar? – shopmo 'ylov taksichi mashinaning qiya derazachasidan mo'raladi.* O'.Hoshimov, Qal-

bingga quloq sol. [Maksimich] *Taksi-chiga "ketmay turing!" ishorasini qildi-da, Roziya bilan birga Sattorga qarab yurdi.* P.Qodirov, Erk. [Rauf:] *Bu shaloq daxmazani epaqaga keltirish uchun naq bir oy unnadim. Shodivoy degan taksichi do'stimdan biroz qarz ko'tarishga ham to'g'ri keldi.* N.Rahmat, So'qmoqlar va saboqlar.

TAKSOFON [taksa + yun. *phone* – tovush] Ichiga tanga, jeton tashlash bilan yoki magnitli karta kiritish orqali ishlaydigan (gaplashish mumkin bo'lgan) telefon apparati. *Taksosfonda raqami 3 xonadan iborat bo'lgan (101, 102, 103 va b.) maxsus xizmat idoralari bilan pulsiz gaplashish mumkin.* Gazetadan.

TAKSOMETR [taksa + yun. *metreo* – o'lchayman] Taksi avtomobilning qancha yo'l bosganligini va qancha haq to'lash kerakligini ko'rsatuvchi hisoblagich. [Goderdze:] *Keyin gap-so'z bo'lib yurmasin, ko'pam shubhalanishmasin deb, mashinaning eshigiga shaxmat chizdirib oldim. Har ehtimolga qarshi eski taksometr ham o'rnatdim.* N.Rahmat, So'qmoqlar va saboqlar.

TAKSOMOTOR ayn. taksi. *Taksomotor parki.*

TAKSONOMIYA [yun. *taxis* – tartib bilan joylashish + *nomos* + qonun] Butun borliqning murakkab, odatda, iyerarxik tuzilmali sohalarini (jonli tabiat, Yerning tuzilishi; geografiya, geologiya, tilshunoslik, etnografiya va sh.k. ning obyektlarini) tasniflash va tartibga solish nazariyasi, shu haqdagi fan. *Taksonomiyaning asosiy vazifasi organizmlar tabiiy tasnifini ishlab chiqarishga imkon beradigan taksonomik*

kategoriyalar va ular iyerarxiyasi to'g'risida ratsional ta'limot yaratishdan iborat. "O'zME".

TAKSOPARK [taksa + ingl. park – ihot qilingan] Odam tashish xizmati bilan shug'ullanadigan, taksilar turadigan maydon va ularni ta'mirlaydigan ustaxonalaridan iborat tashkilot. *Bu taksopark Zohidga yaxshi tanish edi. T.Malik, Shaytanat. Hamdam ertalabdan Sayfi Turdiyevni yo'qlab taksoparkka borgan, uning ishga kechroq kelishi-ni bilib, idoradan Zohidga qo'ng'iroq qilgan edi. T.Malik, Shaytanat.*

TAKT [nem. Takt < lot. tactus – sal teginish; sezish, ushlab ko'rib his qilish] 1 Musiqa vazn birligi: musiqa asarining baravar vaqt davom etadigan har bir bo'lagi. *-Hovlidagi bir tup atirgul ham shu qo'shiqning taktiga tushib, asta tebranmoqda... – dedi qiz. J.Abdullaxonov, Tong yorishgan sohilda.*

2 *tex.* Biror mexanizm ish siklining bir bo'lagi.

3 *tlsh.* Nutqning bo'g'indan katta (bir necha bo'g'indan iborat), frazadan kichik bo'lgan fonetik birligi.

TAKTAK *bot.* Boshqodoshlar oilasiga mansub, yerosti qismi kichikroq piyozga o'xshash tuganak hosil qiladigan ko'pyillik o'tsimon o'simlik, begona o't; tog'arpa. *Oysha xola ham tandirga yantoq, taktak unidan non yopishga urinayotganini o'yladi. Sh.Toshmatov, Erk qushi. Hademay o'sib chiqadi qizg'aldoglar. Ular yonidan yovvoyi arpa – taktaklar ham bosh cho'zib so'ppayadilar. Sh.Xolmirzayev, Saylanma.*

TAKTIK Taktikani yaxshi biladigan, taktikaga mohir.

TAKTIK Taktikaga oid, taktika prinsiplariga va qoidalariga mos; taktikaga asoslangan, taktikadan kelib chiqadigan. *Taktik qoida. Taktik razvedka. — Taktik janglar, mashg'ulotlar tugagach, kursantlar frontga jo'nadi. A.Rahmat, Front yo'llarida. Gureyevning bu taktik usuli ham Sheraliga yoqmasdi. S.Karomatov, Oltin qum.*

TAKTIKA [yun. taktike – qo'shin tuzish, saflash mahorati] 1 Harbiy san'atning jangga tayyorgarlik ko'rish va jang olib borish nazariyasi va amaliyotini o'z ichiga olgan tarkibiy qismi. *Dastlabki urinishlari behuda ketgan nemislar taktikani o'zgartirdilar. N.Safarov, Olovli izlar. ...alohida o'qchi batalyon... armiya qismlarining tajribalarini, dushman taktikasini o'rganib, janglarga hozir bo'lib turishi kerak. I.Rahim, Chin muhabbat.*

2 Ko'zlangan maqsadga erishmoq uchun olib boriladigan kurashning muayyan sharoitga mos yo'l va vositalari, shakl va usullari. *Taktika bilan ish olib borish, mehnatkash xalqqa tayanib... ulardan ko'ngilli druvinachilar safiga tortish kerak. H.Nu'mon va A.Shorahmedov, Ota.*

TAKXONA *shv. q. tagxona. Qisqasi, takxona ayvonidan ko'tarilgan zina-poya bilan ikkinchi qavatga chiqdik. Sh.Xolmirzayev, Saylanma. Shunda yana qo'rqib to'xtadim: bu kimsasiz uy, uning biqinida yoki takxonasida nima yo'q deysiz? Sh.Xolmirzayev, Saylanma.*

TAKYA I [a. تَكْيَا – boshpana, turarjoy, suyanchiq]: **takya qilmoq** Suyanmoq, tayanmoq. *Uning [Azizbekning] qatoridagi ikkinchi kishi boshiga katta salla o'rab, qamchi sopi bilan egarning*

qoshiga takya qilgan... edi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Ikki tirsagini tizzalariga qo'yib, qo'llarini engagiga takya qildi. S.Karomatov, Oltin qum.

TAKYA II [a. تَكْيَة – darveshlar dar-gohi; boshpana, turarjoy, manzil] **1** Odamlar to'planib ulfatchilik qiladigan joy. *Takyada o'tirib, endi bitta choy ichib bo'lgan edim, qotmagina bir yigit kelib: -Qurbon ota siz bo'lasizmi? – dedi. A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. Quv yoxud makkor bo'lganida rahmatli otasining Makka va Madinada takya qurdirish niyatida o'ttiz ming tillo vasiyat qilib qoldirganini uyezd hokimiga aytarmidi?! X.Do'stmuhammad, Beozor qushning qarg'ishi.*

2 tar. Bangi va ko'knorilar to'planadigan joy; ko'knorixon. *O'n yil ichida u [Mamarayim] kirmagan ko'cha qolmadi. Nayakini o'rgandi, qoradori yedi, takyalarga kirib, ko'knori ichdi. M.Ismoil, Farg'ona t.o.*

TAKYAGOH **1 ayn. takya II, tak-yaxon** **2.**

2 esk. kt. Suyanchiq, madadkor, homiy. *Bu majburiyatni o'zimga e'tiqod qilganimdan emas, balki sizningdek otalarim, og'alarimga takyagoh deb ishon-ganimdandir. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.*

TAKYAXONA [takya + xona]

1 tar. Musulmon mamlakatlarida boy odamlar tomonidan qurilgan, musofir, kambag'al, uysiz kishilarga vaqtincha yotoq, boshpana sifatida bepul xizmat ko'rsatadigan mehmonxona. *Bag'dod xalifasi Xorun ar-Rashid vaqt-vaqti bilan tunlari darvish libosini egniga olib, qalandarxonalar, takyaxonalarda yu-*

rish odati bor edi. Sh.Xolmirzayev, Saylanma.

2 ayn. takya II.

3 din. Shia yo'nalishiga mansub musulmonlar ibodatxonasi, masjidi.

TALA shv. dala. *Tala uzoq uyqudan uyg'onib, serharakat qo'llarning zarbi ostiga tushdi. Cho'lpon, Katta to'yga tayyorgarlik.*

TALAB [a. طلب – izlash, qidirish; so'rash, iltimos; xohish] **1** Qat'iyat bilan qilingan so'rov, iltimos. *Lekin nima qilsin, rahbarning buyrug'i, talabi. H.Shams, Dushman. Zamira ko'pchilikning talabi bilan o'rnidan turar ekan, qizil atlas ko'ylagining rangi yuziga urganday, qip-qizarib ketdi. P.Qodirov, Uch ildiz.*

2 Bajarilishi, bo'lishi shart va taqozo etiladigan narsa (narsalar). *Oliy o'quv yurtiga kirish talablari. Standart talablariga javob bermoq. — Biroq jangning eng mas'uliyatli paytida ustav talabini bajarish imkonini bo'lmadi. I.Rahim, Chin muhabbat. Mantiq talabi shu erur, shohim. S.Siyoyev, Yorug'lik.*

3 Ehtiyoj, istak. *Uning talabi katta. Madaniy mollarga talab kuchaymoqda. — Hozircha u bu hujjat bilan mamlakat talabini qondirishga – maorif frontiga boradi... P.Tursun, O'qituvchi. Tinchlik – inson talabi, Dildagi muddaodir. Y.Hamdani.*

4 iqt. Xaridor, iste'molchining bozorda muayyan tovarlarni, ne'matlarni sotib olish istagi. *Muayyan tovarga yoki tovarlar to'plamiga barcha xaridorlar bildirgan talab yig'indisi bozor talabi deyiladi. "O'zME".*

5 s.t. Talabgor, xohlovchi. *Talab bormi? U bilan kurashishga talab*

chiqmadi. — Qilich kelib yalab-yalab, Ikki yov urushga talab. "Shirin bilan Shakar".

6 sft. Otlarga birikib, o'sha otdan anglashilgan narsani istaydigan, unga muhtoj, talabgor ma'nosini bildiradi (Bunday birikmalarning aksariyati qo'shma so'zga aylangan). *Suvtalab* ekinlar. *Izohtalab* ibora. *Chopiqtalab* g'o'zalar. — O'ktamning qovjir-oq lablari choytalab edi. Oybek, O.v. shabadalar. *Chunonchi, Alpomish, Manas — umr bo'yi tirnoq ko'rmay, farzandtalab bo'lib yurgan chol va kampirning o'g'illari. G'.Salomov, Tarjima nazariyasiga kirish.*

Talab qilmoq (yoki etmoq) 1) qat'iy tarzda xohish-istak, talab bildirmoq; so'ramoq. ...*kekirikka ham pora talab qiladigan nafs nahanglarning kuni bitdi. "Mushtun". ...Zamiraning qotillariga o'lim jazosi berilishini talab qilaman! S.Zunnunova, Gulxan; 2) taqozo etmoq, shart qilib qo'yimoq. Shayboniyxon bugun qo'llamoqchi bo'lgan usul — yashin tezligida harakatlanishni talab qiladi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. Xalq hayotini g'oyatda teran tasvirlay bilish muallifdan katta iste'dod talab etadi. Gazetadan; 3) shv. talabgor bo'lmoq, istamoq. Suyangan farzandim, sen Yodgorjonim, Bolam, talab qilma Aymoq yurtiga. "Yodgor".*

TALABA [a. طلب — so'rovchilar, talab qiluvchilar; o'quvchilar] Oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurti o'quvchisi. *Madrasa talabalari "a'lo", "avsat" va "adno" nomi bilan uch guruhga bo'lingan edi. M.Muhammadjonov, Turmush urinishlari. Yigitalining hamxonasini — hozir institut talabasi... G'olibjon*

uyga borib kelaman, deytoganday bo'luvdi. D.Nuriy, Osmon ustuni. Bilim yurti talabalarining hayoti har tomonlama sermazmun o'timoqda. Gazetadan. Shu oqshom ToshMIning oltinchi kurs talabasi bemorlarni qop-qop makaronlar uyilgan, eski muzlatkich g'uvullab turgan, uch salafan qopda non bo'lgan xonada qabul qildi. A.Yo'ldosh, Puan-kare. Talaba qizlar o'shanda Zamon ot-boqarnikiga yig'ilgan, pishiriq-mishiriqni boshlab yuborgan ayollar qiy-chuv qilishayotgan oqshomda kelishgandi. N.Eshonqul, Yalpiz hidi. Nafaqaga chiqqan erinmas muxbir Va yoki havaskor sinchi — talaba. Jami bisotingni tekshirar bir-bir, Qusur topa olsa katta g'alaba. A.Oripov, Everest va ummon.

TALABALIK Oliy yoki o'rta ta'lim muassasasida ta'lim olish davri. *-Talabalik yillari tog'ga chiqib, maysalarni ko'rganda bolaligi tutib ketgan, may-salarga mastona-mastona ag'nagandi, lekin bu ag'nash unga bedaga ag'nganchalik zavq bermagandi. N.Eshonqul, Yalpiz hidi. U talabalik paytlaridagi eng yaqin do'sti — Husainovni ko'rib kelishga otladi. A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam.*

TALABGOR [a. + f. طلب گار] 1 Talab qiluvchi; istovchi, xohlovchi. *Bakovul davraga chorladi: -Nasim polvonga talabgor bo'lsa — chiqsin! T.Murod, Qo'shiq. Talabgorlar ko'p, ammo sizga o'xshagan katta olimlar ishtirok etishini tayinlashgan edi. Mirmuhsin, Umid. Kelib har shahr-u qishloqdan talabgor, Olurlar qancha bo'lsa ilm darkor. Habibi. Ernazar polvonning miyasiga qon tepib, to'nini yechib*

tashladi-da, mahsichan o'zi davraga tushdi. Turkman polvon qo'qqisidan qarshisida paydo bo'lgan talabgorni ko'rib, og'zi lang ochilib qoldi. N.Norqobilov, Quyosh tutilgan kun.

2 esk. ayn. **da'vogar** 2.

TALABNOMA [talab + noma] Biror narsani talab qilib yozilgan xat, hujjat. *Talabnoma yozmoq. Talabnoma bilan mol olmoq.* — Uchastkalardan kelib turgan talablar, dokladnomalar... yangi-yangi chizmalar so'ralgan talabnomalarning sanog'i bo'lmaydi ba'zan. J.Abdullaxonov, To'fon. *Qo'liga qo'shimcha zarur materiallar yozilgan talabnomani tutqazdim.* H.Nazir, Ko'k-terak shabadasi.

TALABCHAN 1 Bajarish, amalga oshirishni qat'iy turib talab qiluvchi, bu yo'lda og'ishmaydigan. *U dekaning ish yuzasidan har qanday yaqinlikni yig'ishtirib qo'yishini, talabchan, qattiqqo'l... hech kimni ayab o'tirmasligini yaxshi bilardi.* O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *O'rtoq Rahimjonov o'z kasbiga muhabbat bilan qaraydigan, mas'uliyatni his qiladigan, talabchan agromomdir.* Gazetadan.

2 Yuksak talablar qo'yuvchi, yuqori darajani ko'zlab faoliyat ko'rsatishni talab qiluvchi. *Rasmning tagiga: "O'jar shogirdan talabchan ustozga" deb yozilgan. "Guldasta". Talabchan, mehnatkash shoir Hamid Olimjon qisqa umri ichida juda katta madaniy meros qoldirdi.* N.Safarov, Olovli izlar.

3 Talab jihatdan va baholash saviyasi yuqori. *Talabchan kitobxonlar.* — "Bir yilning to'qqiz kuni" filmi talabchan tomoshabinlarimizning yuksak didiga mosdir. Gazetadan. *Ha, yildan yil-*

ga ish salmog'i ortib boryapti, odamlar esa talabchan bo'lib ketishyapti. "Mushtum".

4 ko'chma Ko'p talab qiladigan. *Bodring — issiqsevar, yorug'sevar va namga talabchan o'simlik. "Fan va turmush".*

TALABCHANLIK Talabchan bo'lish, talabni bo'shashtirmay ish tutish. *Talabchanlik yo'qligidan bir yil mobaynida atigi uchtagina maktab tekshirilgan edi.* Gazetadan. *O'z-o'ziga qattiq talabchanlik bilan uyg'unlashib ketgan kamtarlik odamning oliyjanob xarakteridan tug'iladi.* X.Yodgorov, Hayot to'lqinlari.

TALAF [a. تلف — zarar, ziyon; buzilish, shikastlanish; halokat; yo'qotish] Yo'q bo'lish, halok, nobud bo'lish. *Arzimagan sabablar bilan talaf bo'lgan jonlarni hamisha ko'z oldingda tut!* A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

TALAFFUZ [a. تلفظ — so'zlash, aytilish] Tovush yoki so'zning aytilishi, aytilish xususiyati. *Unli tovushlarning talaffuzi. So'zni to'g'ri talaffuz qilish.* — "Olin-olin" emas, "oling-oling" — "berite, kushayte" degan so'z, — dedi Elmurod. — *Ha, talaffuzi qiyin ekan. Mayli, o'rganish mumkin. Ishqilib, menga o'zbekcha o'rgatasiz, — dedi Mixaylov.* P.Tursun, O'qituvchi. *Kishi ismlari imlosiga xos bo'lgan yana bir xususiyat shundaki, ba'zi so'zlar ismga ko'chgach, so'zning talaffuzida ham ayrim o'zgarishlar yuz beradi.* E.Begmatov, Kishi ismlari imlosi.

TALAFOT [a. تلفات — "talaf" s. ko'pl.] 1 Urushda berilgan qurbonlar; yo'qotishlar. *Dushman katta talafot ko'rib, chekinishga majbur bo'ldi.* A.Rah-

mat, Ellik bir bahodir. ...jangda eng katta talafot piyodalar orasida bo'lur; buni bilursenmi? P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

2 Yo'qotish, ajrab qolish; zarar. Yer silkinishi hozir ham juda katta talafotlarga sabab bo'lmoqda. Gazetadan.

TALAMOQ 1 Zo'rlik bilan yopirilib tortib olmoq, olib qo'yimoq. *Qo'qonni talab, bizning ustimizga qo'shin tortib kelayotgan... Sulton Ahmad mirzo esa bizning podshomiz bilan bir otadan bo'lgan og'a-inilar.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

2 Talashib-tortishib xarid qilmoq. *Yangi kitobni birpasda talab ketishdi. — Birpasda xaltamdagi qovun qoqilarni talab ketishdi.* N.Fozilov, Poliz oqshomi.

3 Ko'p bo'lib, birgalashib tashlanmoq, yopishmoq. *Arilar talamoq. — Bolalar baravariga Rahimni talay boshlashdi.* H.Nazir, Yonar daryo.

4 Kishi yoki narsaga davomli (takror-takror) hujum qilmoq, shu tarzda yulib-yulqimoq. *Huv anavi yalanglikka qaranglar!.. Unda odamzod suyagi yotibdi. Bechorani qashqir talagan bo'lsa kerak.* Mirmuhsin, Me'mor.

5 *ko'chma s.t.* Qattiq urishib bermoq, yulib-yulqib yopishmoq. *Kichkina bir qizchadan dakki yegan ayol Er-gashoyni talab berdi.* N.Safarov, Oli-yaxon Sultonova.

6 *ko'chma s.t.* Tatalamoq, tirmamoq, g'ash qilmoq. [*Alisherning*] *Ko'nglini shubha, g'azab, pushaymon hislari talalar edi.* M.Osim, Zulmat ichra nur.

Ichini it (yoki mushuk; ari) talamoq q. ich 6. *Hamma o'z ishi bilan*

band. Birgina Nizomjonninggina ichini ari talayapti. S.Ahmad, Ufq.

TALANT [yun. talanton — tarozi; pul-hisob birligi] 1 Yuqori darajali tug'ma qobiliyat; iste'dod. *Birovlarga suyakalib emas... o'z mehnati, talanti bilan obro' olishi kerak.* Mirmuhsin, Umid. *Noyob talant egasi bo'lgan Yusufjon qiziq o'z xalqining aziz farzandlaridan biridir.* T.Obidov, Yusufjon qiziq.

2 Yuksak qobiliyatga, katta iste'dodga ega bo'lgan shaxs. *Bizda yaxshi talantlar juda ko'p. — Abdulla Qodiriy, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor kabi tug'ma talantlardan har qancha o'rgan-sang arziydi.* M.Jo'ra, Noshirnoma.

3 Yunoniston va b. ayrim qadimgi davlatlarda og'irlik va pul o'lchovi birligi. *Qadimgi Rimdagi kumush yombilar bir-talant og'irligida chiqarilgan.* "Fan va turmush".

TALANTLI Yuqori darajali qobiliyatga, talantga ega bo'lgan; iste'dodli. *Talantli bola. Talantli sozanda. — Ichi qora, hasadgo'y kishi aqlli va talantli kishilardan o'rganish o'rniga, ularga baxillik qiladi.* R.Usmonov, Odobnoma. *Xalq o'zining talantli farzandi Hamid Olimjonga haykal qo'yyapti.* N.Safarov, Olovli izlar.

TALANTSIZ Talanti yo'q; iste'dodsiz. *Modomiki, talantsizlar yovuz niyatda bir-biri bilan til topishar ekan, talantlilar ham yaxshi niyatda birlashmog'i kerak.* O'.Hoshimov, Daftar ho-shiyasidagi bitiklar.

TALA-TALA Hamma yoqdan tort-qilab talash, o'zlashtirish; talon-toroj, tort-tort. *Tala-tala bo'lmoq. Tala-tala qilmoq. — Ancha olis zamonlar edi.*

Bosqinlar-u tala-tala avj olgan. Sh.H. Ismat, Oqbosh.

TALATO'P Ur-yiqit, sur-sur va sh.k. besaranjom, notinch holat; to's-to'polon. *O'n ming uyli Qo'ng'iroq tala-to'p bo'lib, Kashal eliga, Qalmoq yurtiga... ko'cha boshladi. "Alpomish". Sodiqjon boyvachchaning hovlisi birpasda talato'p bo'lib qoldi. Zubayda yerda yotardi... K.Yashin, Hamza. Surbet jonivor shunda ham insofga kelmasa, ana unda ko'ring talato'pni. N.Norqobilov, Ovul oralagan bo'ri. Dunyoga o'zimcha mehlrlar sochdim, Talato'p joylardan ming farsah qochdim. A.Oripov, Everest va ummon.*

TALA-TO'POLON Shov-shuv, shovqin-suronli holat. ...ularni qishloq chegarasigacha tala-to'polon bilan kuzatishdi, keyin haligi ashulani aytib, qishloqqa qaytishdi. H.Shams, Dushman. Rais qo'ng'iroq chala berib, tala-to'polonni sal bosdi-da, ikkinchi jinoyat-chiga -Azmidindinga o'tdi. H.G'ulom, Mash'al.

TALAY Ancha, ko'p, ko'pgina. *Shu ko'yi boshiga tushgan kulfatlarni bir chekkadan aytishga chog'landi-yu, tashqaridan talay odamlar o'zlariga boqib turishganini ko'rdi. Sh.Xolmirzayev, Qil ko'prik. Domla talay vaqtigacha uxlay olmadi. A.Qahhor, Sarob.*

Bir talay q. birtalay. Olma, o'rik, olchalar To'kkan gullarin, Mevalari bir talay, Ekkan bo'ylarin. Z.Diyor. Ertasi kuniga mezbondan bir talay mehmon chaqirishgan edi. A.Qahhor, Mirzo.

TALASH 1 Talamoq fl. har. n. *Bosqinchilar shahar-u qishloqlarni talash bilan qanoatlanmay, ko'hli qizlarni cho'rilikka olib ketishar edi. P. Qodirov,*

Yulduzli tunlar. Bu kun - bozor kuni, Xo'jaylidan chiqqan bozorchilarni talash uchun yo'lto'sarlar shaylanib kelayotgan bo'lsalar kerak. J.Sharipov, Xorazm.

2 Biror narsani qo'lga kiritish yo'lidagi ziddiyatli olishuv, jang. *O'zaro toj-taxt talashlari Abdulatifni yovuz insonga, otasining qotiliga aylantiradi. Mirmuhsin, Me'mor. Jang boradi olisda, Yer talash, osmon talash. "Sharq yulduzi". Qutlug' Nigor xonim... o'g'lining bu talashlarga, adovatlarga aralashmasdan, o'z mulkida osoyishta hukm surishini istardi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar.*

3 O'ziniki qilish uchun yopishish, tirishish harakati (kam, yetishmayotgan narsalarga nisbatan). *Vagonda joylar talash. Chuvur-chuvur. H.Nazir, Yonar daryo. Butun boshliq kolxozda bitta universal talash. I.Rahim, Chin muhabbat.*

4 Janjal, nizo. *O'zaro talashlar, fitnalar, fasod - Mehnatni, savdoni, qo'shiqni ezdi. M.Shayxzoda. Ushbu dorga osilguvchi betavfiq, Avboshlarga, osiy-larga bo'lib bosh, Xalq ichiga soldi nifoq va talash. I.Sulton, Noma'lum kishi.*

5 Tortishuv; bahs, munozara. *Yana o'rtada xomushlik hukm surib, Hasana-li ishni tuzukroq ochish va yo shu ko'yi qoldirib keta berish talashida edi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Qay hunarni tanlashga Bolalar gotsdi boshi. Hammasini o'rgansak, Qaynar fikr talashi. Q.Muhammadiy. Kuni bilan uning boshida fikrlar talashi avjga mindi. Mirmuhsin, Chiniqish.*

Tong talash Tong otish. *Tong talash payt... oy yotog'iga otlanayotgan... palla. R.Fayziy, Kishilarimiz qissasi.*

TALASHMOQ 1 Talamoq fl. birg. n. Shayboniyxonning quyunday otliqlari ularning... ko'chlarini talashdi, ko'plarini ayovsiz o'ldirishdi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

2 O'ziniki qilish uchun tirishib yopishmoq, aytishmoq, olishmoq. Joy talashmoq. — Talashib, tortishib, ko'p-roq olgan bir ayol o'z nasibasidan Buvinisoning kosasiga ozgina solib berdi. P.Tursun, O'qituvchi. Yigit, boshliq bilan pul talashib, aytishib qolgani esiga tushib, yana zardasi qaynadi. M.Man-surov, Yombi.

3 Da'volashib urish-janjal qilmoq, nizolashmoq, urishmoq. Taxi talashmoq. — *-Nega podsholar urishadi? -Yer-suv talashib urishadi!* P.Tursun, O'qituvchi. ...qaynsinglisining uy-joyini talashib nima qilardi? -Bunisi o'ziga ayon. Gazetadan.

4 Bahslashmoq, tortishmoq. Devorga orqasini berib, yonma-yon turgan o'rta yoshdagi ikki ayol nima haqidadir talashmoqda edilar. N.Safarov, Oliyaxon Sultonova. Bahslashadilar, har kim o'z yonidagi bilan talashadi. A.Qodiriy, Uloqda.

Bir qorindan talashib tushgan q. qorin 7. Bo'y talashmoq Bo'yi baravarlashmoq. Erta-indin makkajo'xoringiz o'zingiz bilan bo'y talashib qoladi. S.Karomatov, Hayot qanday yaxshi. Yo'l yoqasida bo'y talashib o'sgan teraklar cho'l shamolida ohista shovullaydi. "O'zbekiston qo'riqlari". Gap talashmoq O'zinikini ma'qullab gap aytishmoq. Ikki qizcha maktabdan kelayotib, gap talashib qolishdi. H.Nazir, Cho'l havosi. Jon talashmoq 1) jon olib, jon bermoq; qattiq kurashmoq. Olisda qonli

urush bormoqda, shaharlar yonmoqda, odamlar yovuz dushman bilan jon talashmoqda edilar. S.Ahmad, Ufq; 2) o'limoldi talvasasida bo'lmoq. Qon talashmoq 1) to'q qizil, ko'kish qizil rangga kirmoq. U qon talashib turgan cho'l ufqiga sokin termilgan... yotaverdi. S.Siyoyev, Avaz; 2) biror zarb ta'sirida ko'kish rangda qon to'planmoq (kishi tanasi yoki uning biror a'zosisida) yoki qonga to'lmoq. Qon talashgan ko'zlar. — ...qon talashgan yuzlari tirsillab yoritilib ketguday. "Mushtum".

TALASH-TORTISH Qattiq bahs, munozara, tortishuv. Ko'p talash-tortishdan so'ng, u yigirma protsentdan emas, o'n uch protsentdan berishga rozi bo'ldi. A.Qahhor, Sarob.

TALASHUV 1 Talashmoq fl. har. n. Talashuvning hojati yo'q.

2 Janjal, tortishuv. Olimxonning "fazilatlarini" sanoqsiz: u, ellikboshi bo'l-gani uchun, hamma to'y, ma'rakalarga burnini tiqadi, mahallaning odamlari orasida yuz bergan har xil janjal va talashuvlarga boshi bilan kirib ketadi. Oybek, Tanlangan asarlar.

TALBIS [a. تلبیس — kiyintirish; qop-lama; hiyla, makr, soxta, yolg'on] esk. kt. 1 Soxta, qalbaki, yolg'on. Talbis va-siqa.

2 Ayyorlik; hiyla, nayrang. Shu kungacha aytgan yolg'onlaring, qilgan talbislaring, yegan harom-xarishlaring bas. S.Ayniy, Qullar.

TALITIN Charmning bir turi. Shu tobda boshida qora cho'girma, egnida uzun ipak to'n, oyog'iga talitindan mah-si kiygan Avaz o'rnidan turib... she'r o'qiy boshladi. J.Sharipov, Xorazm.

TALK [nem. Talk < a. طلق – mineral nomi] Oq yoki yashilga moyil qat-qat tuzilgan yumshoq mineral (texnikada va tibbiyotda, odatda, kukun holida ishlatiladi). *O'zbekistonda oltingugurt, fosforit, talk, dala shpati... kabi mineral xomashyolar ham bor.* M.Zokirov, Be-baho xazinalar.

TALLIY [lot. thallium < yun. thallos – yashil novda] Mendeleyev davriy sistemasining III guruhiga mansub kimyoviy element; kumushrang-oq metall.

TALLON 1 O'n ikki yoshli ot.

2 ko'chma Juda qari, munkillagan chol. *Buni haydang, qo'ya ko'rmang! Bu chatoq bir shumki, Qosh-u mijjangni terib, Ko'sa-yu tallon qiladir.* Hamza.

TALMEH [a. تلميح – shama, ishora] ad. Sharq mumtoz she'riyatidagi badiiy san'atlardan biri; bunda shoir o'z she'rida avvaldan ma'lum va mashhur bo'lgan qissa, voqea yoki asarga ishora qiladi, natijada o'z fikrini muxtasar bayon etadi. *Lutfiy devonida tashbeh, tal-meh, tazod, iyhom, xususan, irsoli masal san'ati namoyon bo'lgan.* "O'zME".

TALMOVSIRAMOQ 1 Dovdiramoq, o'zini yo'qotib qo'yimoq. *Sabogul bu savollarning birontasiga javob topolmas, talmovsirar, najot yo'lini izlab, ko'z yoshiga zo'r berardi.* S.Karomatov, Oltin qum. *Yodgor o'zi haqidagi hukmni o'zi o'qigan mahbus kabi talmovsirab qolgan edi.* O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Juvonni ko'rib Shamsi Saloh qizarib ketdi, talmovsiradi; negadir oyog'i kuygan tovuqday tipirchilab qoldi.* N.Eshonqul, Yalpiz hidi.

2 Ataylab o'zini shunday holatga solmoq, shunday holatda tutmoq. O'r-

talaridagi sirdan dasturxonchining xabardorligidan hayron bo'ldi, o'zini bilimslikka olib talmovsiradi. R.Fayziy, Hazrati inson. *Cholning talmovsirayotganini ochiqdan ochiq sezib turardi u.* Mirmuhsin, Tungi chaqmoqlar.

TALMUD [a. تلمود < qad. yah. lameyd – ta'limot] Yahudiylarning Tavrot-dan keyingi o'rinda turuvchi diniy, maishiy, huquqiy qonun-qoidalar kitobi. *Talmud iudaizm diniga xos aqidalar, ibodat va marosim talablari, axloqiy, huquqiy me'yorlarni o'z ichiga oladi.* "O'zME".

TALMUDCHI Masalaning mohiyatini tushunmasdan, uni ko'r-ko'rona, yuzaki yodlab olgan shaxs; qiroatxon, harfxo'r. *Saydalining nazdida ularning ikkisi ham talmudchi. Uchinchisi esa eng yosh xodima – Yoqutxon, doston va termalarni kompyuterda teruvchi operator qiz.* J.Kengboyev, Ortiqcha odam.

TALMUDCHILIK Qiroatxonlar-cha fikr yuritish; harfxo'rlik.

TALON 1 O'zganing mulkini talab tortib olish; talash. *Agar birontamizning qurog'imiz uzilsa, chuvvos ko'taramiz. Ayniqsa, uzilgan quroq boshqa mahalladan bo'lsa, men va o'rtoqlarim, u tushar-tushmas, talashib-tortishib, talon qilib olishga shoshilamiz.* Oybek, Bola-lik. *Ko'rdi ko'p zilzila, selni, toshqinni, Ko'rdi ko'p talonni, ko'rdi bosqinni.* A.Obidjon, Ketmagil. *Yerning aylanishi – ana qonli iz Asablar, yuraklar bo'lmoqda talon!* O.Matjon.

TALON II [fr. talon] 1 Biror narsani olish, biror joyga kirish huquqini beradigan nazorat varaqchasi. *Benzin taloni.* — Pekin – Moskva poyezdining vagon-restoranida Pekinda berilgan ta-

longa ovqatlanib o'tiribmiz... Z.Said-nosirova, Oybegim mening.

2 Hujjat (chek, order va sh.k.) ning ajratib olinadigan yoki, aksincha, u ajratib olingach, daftarda qoldiriladigan qismi, dublikati.

TALON-TOROJ [talon + f. تاراج – o'g'irlash, talash; o'lja] Hamma yoqdan tortqilab talash, o'zlashtirish, tala-tala, tort-tort. *Talon-toroj yurtini vayron etdi, mamlakat zavol topdi. S.Karomatov, So'nggi barxan. Talon-toroj, bosdi-bosdilar tovsillab, Samarqand yonida Buxoroning ham bir qadar osoyishta turgani tufayli yillar tez kechayotganday tufayli edi. Mirmuhsin, Me'mor.*

TALONCHI Talon qiluvchi, talovchi, bosqinchi. *Kim yaxshi ko'radi u talonchi itlarni? I.Sulton, Burgutning parvozi. Vahshiy talonchilardan qattiq nafratlangan Yusufjon... fursat poylab, ulardan o'ch olishga intilardi. T.Obidov, Yusufjon qiziq.*

TALONCHILIK Talon, talon-toroj ishi, harakati. *Bashariyat tarixi zulm, haqsizlik, talonchilik davrini poymol etib, erk va adolatning nurli asriga g'olibona yurayotir. Oybek, Tanlangan asarlar.*

TALOQ I [a. طلاق – qo'yib yuborish; xotin bilan ajralish] 1 *din.* Nikohni buzish, bekor qilish haqidagi er tomonidan aytiladigan so'z; bu so'zning aytilishi xotinni barcha xotinlik majburiyatidan to'la ozod qiladi. *"Taloq" so'zini eshitgan Kumushning ko'zi yarg etib ochilib, yana yumildi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar.*

Taloq qilmoq "Taloq" so'zini aytib, nikohni buzmoq. *Xotin qilish qo'lingizdan kelmasa, taloq qiling! A.Qahhor, Mayiz yemagan xotin. Taloq xat(i)*

q. xat 6. Uch taloq Uch marta taloq; uzil-kesil ajralish (bu holda shariat qoidasiga ko'ra, xotin to boshqa erga nikohlanib, yana ajralmaguncha, o'z eri bilan yarashuvi mumkin emas). *Usta Abdurahmon qizlarni ko'p uradi. Bir kuni Niso buvi: -Ursangiz, o'sha do'koningizga olib borib uring, – deganida, usta: -Ha, joning achiydimi, bundan keyin men urayotganda, kulib turmasang, uch taloqsan... – deb yubordi. A.Qahhor, Boshsiz odam.*

2 *Qiz, xotin kabi so'zlar bilan qo'lanib (odatda, qo'shma so'z sifatida), shu so'zga nisbatli so'kishni, haqoratni bildiradi. Men axir singlitaloqni jo'rttaga qoptirdimmi? A.Qodiriy, Obid ketmon. Tirnoqcha joyimni sen xotintaloqqa bermaganim bo'lsin. Oybek, Tanlangan asarlar. ...he, gap bilguncha ish bilgin, bachchataloq! A.Qodiriy, Mehrobdan chayan.*

TALOQ II ayn. qorajigar 1. *Qo'y so'yilishi bilan qorin qismiga yopishib turgan talog'ini asta ko'chirib olamiz. K.Mahmudov, O'zbek tansiq taomlari.*

TALOQNOMA [taloq + noma] Taloq qilinganlik to'g'risida er tomondan yozilgan maktub, hujjat. *Bu ish-laringiz foydasiz chiqqach, ismimdan taloqnoma yozib, ikki yillab rafiqamdan ayirib turishga muvaffaq bo'ldingiz, bu orada gunohsiz bir yigitni ham o'ldirdingiz. A.Qodiriy, O'tgan kunlar.*

TALOQSIZ Taloq qilinmagan, taloq xati berilmagan yoki olinmagan (**q. taloq I**). *"Kishining xotinini taloqsiz chiqarib ol-da, bugun erga ber!" dedi [Otabek] va telbalaracha nima uchundir kulib qo'ydi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar.*

TALOTUM [a. تالوت - o'zaro to'qnashish, urilish; tarsaki tushirish; to'qlinlarning bir-biriga urilishi] To's-to'polon, g'avg'o. *Butun bir qishloqni talotum qilgan Ravshan ismli oyoqyalang ushlandimi?* S.Karomatov, *Bir tomchi qon. U, esini tanibdiki, jangari sarbozlarni ko'p ko'rgan, och-nahor yurgan, talotum ichra suyagi qotgan.* A.Dilmurod, *Tanlangan asarlar.*

TALPANGLAMOQ Lapanglamoq, lapanglab yurmoq. [Normat] *Biydi moni itarib tashlab, talpanglab chiqib ketdi.* N.Eshonqul, *Shamolni tutib bo'lmaydi. Hozir eslolmayman-u, ammo aqlim yetadi, har holda, emaklab yoki talpanglab yurib borib, ariqqa yoki shundoqqina tuproq yerga necha martadir yiqilib tushgan, har safarida chirillab yig'lab, senga talpingan bo'lsam kerak.* I.Sulton, *Ota qasidasi.*

TALPINMOQ 1 Qanot qoqib, qo'llarni qanot kabi yoyib, oldinga intilmoq. *Uchishga talpinayotgan qushdek yuragi hapriqayotgan Zulfiqorning hayajonini Me'mor yaxshi sezib turardi.* Mirmuhsin, *Me'mor. Dadasiga talpinib turgan Kimsanni Zebiniso eriga uzatdi-da... to'rt tomonga qaray boshladi.* N.Safarov, *Saodatning qissasi. Meni lol qoldirgan mislsiz suluv kelin sakrab turib, bir qo'liga tos, bir qo'liga qumg'on olib, sap-sariq chol tomon talpindi.* O.Yoqubov, *Xotiralar.*

2 Umuman, old tomon harakat qilmoq, tashlanmoq. *Men o'zimni vagon-dan otdim, meni ko'rib, Salomat ham oldinga talpindi.* O.Yoqubov, *Izlayman. Yigitali... hushidan ketayozgan qizchani mahkam bag'riga bosib, tashqariga talpindi.* D.Nuriy, *Osmon ustuni. Mashina*

o'jarlik bilan oldinga talpinadi qumlik-dan, changdan. "O'zbekiston qo'riqlari".

3 ko'chma Erishish, yetishish yo'lida, harakatida, maqsadida bo'lmoq; intilmoq. *Avaz Mutribni... bir mehr bilan suyadi, unga hamisha qalban talpinadi.* S.Siyoyev, *Yorug'lik. Bunday paytlarda yashil ko'kat qanchalik ko'zni quvontirsa, sho'rxok ta'bni shunchalik xira qilar, bamisoli biri hayotga talpinsin, ikkinchisi uni bo'g'moqchi bo'lardi.* R.Fayziy, *Cho'lga bahorkeldi... shon-shuhratga, amalga talpinayotgan kimsalarning qilmishi ko'nglini ozdirdi, g'azabini qaynatdi.* S.Siyoyev, *Yorug'lik.*

TALPINCHOQ Doim kimgadir yoki nimagadir intiladigan. *U talpinchoq bo'lib qolgan o'g'ilchasini bir kundayoq sog'inib qolar, ishdan kelishi bilan uni ko'tarib o'ynatar, shu bilan butun hordig'i chiqib ketardi.* O'.Hoshimov, *Dunyoning ishlari. Keyin... ozgina mojar bo'ldi - nomiga, oqibati - shaharda kichkina, qishloqda kichkina to'y bo'ldi. Keyin to'ng'ich qizlari tug'ildi. Shiringina, talpinchoq.* E.A'zam, *Pakananing o.k. Talpinchoq bolakayga u [qo'l] quchoq ochmas ekan, Olamni tor qilmasmi go'dakning o'ksikligi?* H.Xudoyberdiyeva.

TALQIN [a. تلقين - o'qitish, o'rgatish; o'gitlash; aniq qilib tushuntirish; o'qib, bilib o'zlashtirib olish] 1 din. Diniy va'z, ta'lim. [Shum bola:] *Biz avval xonaqohga kirib bordik. Qalandarboshi eshikdan... talqin boshlab kirdi.* G'.G'ulom, *Shum bola. Shuning uchun yolg'iz ibodat, duo, talqinlar kifoya qilmaydi. Qat'iy harakat kerak! Harakat!* N.Safarov, *Sharq tongi.*

2 Mazmun, mohiyatini tushuntirish; sharh. *Dilovarim, dalalarim, ehrom-larim oltindan, So'z topolmam, baland turar ta'riflardan, talqindan.* E.Oxunova, Ikki okean osha. *Rasuljon xayrlashib ketgandan keyin ham, uning talqinini har kim o'zicha izohlab, uzoq bahslashib o'tirishdi.* J.Abdullaxonov, Xonadon.

3 Obraz yoki musiqiy asarning o'y-novchi, ijro etuvchi tomonidan yoritilishi, ijrosi. *Majdiddin obrazi Obid Jalilov talqinida shu qadar salmoqli chiqqanki, usiz spektaklni tasavvur qilish qiyin.* F.Jo'rayev, Obid Jalilov.

Talqin qilmoq (yoki etmoq) 1) diniy va'z-nasihat qilmoq; 2) tushuntirmoq, izohlamoq, talqinini bermoq. *Ammo, baribir, suiqasdni har kim har xil talqin etardi.* Mirmuhsin, Me'mor. *Demak, u Shokir akaga taqlid qilishdan qochib, rolni o'zicha talqin etgan.* M.Xayrullayev, Ko'ngil.

4 *mus.* Shashmaqomda asosiy kuyning mustaqil qismi. *Talqini bayot. Talqini navo.* — *Sozanda bir juft nag'ma chalib, talqinga o'tdi. Hofiz yigit... ovozi shirali, yuraklarni sel qilib, tinglovchilarni yerga qaratib qo'yardi.* S.Siyoyev, Avaz.

5 *shv.* Qo'shiq, ashula. *Erta sahar tushar tongning salqini, Paxtazorda xotin-qizlar talqini.* "Qo'shiqlar".

TALQINCHI 1 *din.* Va'z-nasihat o'quvchi; voiz, va'zgo'y.

2 Talqin qiluvchi, sharhlovchi. *De-konstruksiya matnga talqinchi yoki muallif tomonidan fikriy chegara belgilashga yo'l qo'yilmaydi...* Q.Yo'ldosh, Postmodernizm: mohiyat, ildizlar va belgilar.

3 *shv.* Qo'shiqchi, ashulachi, xonanda. *Xorazm musiqa uslubida talqinchi va go'yandalar ijodi aniq bir janr bilan chegaralanmagan bo'lsa-da, ularning o'z yo'llari va o'ziga xos uslublari mavjud.* "O'zME".

TALTAYMOQ 1 Mag'rurlanib o'zini yo'qotmoq, kekkaymoq. *Kamtar bo'l, taltayma, kekkaymagil tik! Do'st uchun zahar yut, shirin jonni tik!* Y.Mirzo. *Muvaffaqiyatlar har qancha katta bo'lga-nida ham, rahbarning taltayib va kibr-lanib ketishga haqi yo'q.* Gazetadan.

2 Oyoq-qo'llarni yozib, yalpayib o'tirmoq, yotmoq, yastanmoq. *Taltayib o'tirmoq.* — *O'ktam tong otgandan so'ng qalin, yumshoq to'shakda taltayib yotgisi kelmadi.* Oybek, O.v. shabadalar.

3 Siylagan, hurmat-izzat qilgan yoki erkalagan sari haddan oshmoq, suyulmoq. *Taltayib o'sgan bola. Erka tutsa onasi, taltayadi bolasi.* Maqol. — *Me'mor bo'lsa ikki shogirdning sal quyushqondan chiqib, taltayishayotganidan ensasi qotib kelardi.* Mirmuhsin, Me'mor. *Undaqa taltaymang. Indamaganim sayin quyushqondan chiqib ketyapsiz.* Oybek, O.v. shabadalar.

TALTANGLAMOQ *shv.* Lapang-lamoq, lapanglab yurmoq. [*Mirg'ob Murdayev*] *Namiqqan gugurtning ikkita cho'pi pand bergach, mo'ylovi ostidagi tamakini uchinchi urinishda nihoyat cho'g'lantirib, tutunni taltanglab pufladi.* A.Obidjon, Eng iste'dodli o'lik.

TALVASA [a. تلوسة — hayajon, iz-tirob, tashvish] Esankirash, sarosima va sh.k. bilan yuz beruvchi bezovtalik, hayajonli holat. *Mana endi... talvasa bilan qalbi tubiga bекitib kelgan sirini ochib qo'ydi...* Shuhrat, Umr pog'onalari. [*Yor-*

qinoy] *Dadasining oq qilishini achchiq ustidagi talvasa deb bilardi.* R.Rahmon, Mehr ko'zda. *Yaradorlar... iztirob va isitmaning zo'ridan talvasa bilan birdan sachrab turar, so'ng hushsiz yiqilar edi.* Oybek, Quyosh qoraymas.

Jon talvasasi 1) o'lim oldidagi bezovtalik, jon talashish. *Ularning uchi [uchtasi] o'lgan, biri esa, hali jon talvasasida edi.* O.Otabekov, Kam bo'lmagur, o'g'il; 2) qattiq bezovtalik, qo'rquv, hayajon. *U [erkak] ayolning bilagidan ushladi. Ayol jon talvasasida: -Voydod, odam bormi!? - deb qichqirib yubordi.* F.Nasriddinov, Tundagi voqea. *...sayyod domidan hurkigan ohuday jon talvasasida qochib qoldi.* J.Abdullaxonov, To'fon.

TALVASALANMOQ Talvasaga tushmoq, talvasada qolmoq, qattiq hayajonlanmoq. *Bo'lmadi, o'rnidan turidda, o'rinsiz hadiksirab talvasalanayotgan... yigitning so'zini bo'ldi.* T.Alimov, Sovg'a. *Bonu talvasalanib o'tirgan enagasiga qaradi: -Enajon! Quticham, zebziynallarim qayda? O.Yoqubov, Ulug'bek xazinası.*

TALX [f. تلخ - achchiq; yomon] Taxir, achchiq. *U dalani sog'inar... bug'doyzor gashti, andak talx isli so'lgan bedalar uchun jonini berishga tayyor edi.* S.Siyoyev, Avaz. [Chalob] *Quduq suviga chalingan bo'lsa kerak, biroz talx.* S.Nurov, Narvon. *G'arbiy shamol... urug' bog'lagan yovshanlarning talx hidini olib keladi.* S.Siyoyev, Yassaviyning so'nggi safari.

TALXA [f. تلخه - zardob, safro; achchiq alaf urug'i] ayn. **kakra** 1.

TAL'AT [a. طلع - tashqi ko'rinish; qiyofa; yuz, bet] 1 esk. kt. Yuz, chehra;

qiyofa. *Oh tortsam, sarg'aydi guldayin tal'at... "Gulshanbog".* *Nechukkim, menga nurli tal'ating jannat bilan tengdir.* E.Vohidov, Muhabbat.

2 Tal'at (erkaklar ismi).

TAMA [a. طمع - kuchli istak, tilak, orzu; hirs, ochko'zlik] (*oxirgi a - cho'ziq*) 1 Birovdan bir narsa undirish hissi, o'ziniki qilish, olishga bo'lgan intilish. *...undagi shuhratparastlik, tama oldida podshohlarga tiz cho'kishdan ham... qaytmasligini ko'pchilik bilardi.* Mirmuhsin, Me'mor. *Mansabingdan manfaat, dasturxoningdan tama izlab yondashgan - do'st emas.* R.Usmonov, Umr saboqlari.

2 Umidvorlik, umid, ilinj. *-Balki begingizning tamalari xon qizidadir, - dedi istehzo bilan Homid.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

Tama qilmoq 1) birovdan biror narsa kutmoq, birovdan o'lja olishga intilmoq, ko'z tikmoq. *Bir-birlaridan hech narsa tama qilmay do'stlashishlari ikkovini ham chinakam baxtiyor qilardi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Maxdum bu yerda o'qiyotgan ikki mullavachcha uchun Qorabuloqdagi vaqfdan ham tama qilmoqda edi.* M.Ismoil, Farg'ona t.o.; 2) umidvor bo'lmoq, umid qilmoq; tolib bo'lmoq. *Shuncha azamat yigit turganda, sen bola, posyolkaning old qiziga tama qilib kelsang-a!* P.Qodirov, Qadrim.

TAMADA [gruz. tamadoba - to'y, ziyofatga kattalik (boshchilik) qilish] O'tirishlarda, ziyofatda ichkilik quyib, qadah so'zi (tost) aytuvchi; soqiy, kosagul. *Marusya kelib o'tirishi bilan Haydar so'z boshladi: -Meni tamada qilib qo'yishdi.* I.Rahim, Hayot buloqlari.

TAMADDI [a. تَمَعّ – rohatlanish, huzurlanish; foydalanish huquqi] 1 Biror narsa yeb olish, ovqatlanish. *Nonushtada Egamberdi bobo nonini das-turxonga qo'ysa, peshindagi tamaddida u belbog'ini yozardi.* N.Qobul, Unutilgan sohillar.

2 Yengil taom; yegulik. *Bir odamning bir kunlik tamaddisi bir kap qo'g'irmoch bo'lib, yomon kunlarni ne has-ratda o'tkazishardi.* N.Safarov, Olovli izlar. *Kalla, bu – so'yilgan hayvonning boshi, undan sho'rvalar, yaxna tamad-dilar tayyorlanadi.* K.Mahmudov, O'z-bek tansiq taomlari. *Karamdan tay-yorlangan turli tamaddilar inson salo-matligiga juda foydali, uni bardam va tetik qiladi.* Gazetadan. *Bahorning chu-voqli kunlari kotib uni baliq oviga olib borar, odamlar begim kunlari tong payt-lari tamaddi to'la ro'zg'or xaltasini zo'rg'a ko'targancha ko'lga qarab ke-tayotgan qorovulni va... xas shlyapani oliftalarcha chakkasiga qo'ndirgan ko-tibni ko'rib qolishardi.* N.Eshonqul, Yalpiz hidi. *Tamaddi paytlar ular de-yarli gaplashmasdilar.* N.Eshonqul, Yal-piz hidi.

Tamaddi qilmoq Biror narsa yeb olmoq, ozgina, yengilgina ovqatlanib olmoq. *Biroz tamaddi qilganlaridan ke-yin, gapning mavzusi o'zgardi.* F.Musa-jonov, Himmat. *-Yigitali... ko'cha bet-kayidagi kichkina kafeda tamaddi qildi, o'zimiz ham tamaddi qilib olaylik, – dedi Maxsum peshin namoziga hozirlik ko'rayotib.* S.Anorboyev, Oqsoy. *N. de-yarli har kuni bu yerdagilar bilan tamaddi qilar, har xil tomoshalariga ke-lar, repetitsiyalarida ishtirok etar, spek-takllarni bitta qo'yamay ko'rar, drama-*

turg bilan hatto ba'zan navbatdagi pye-sa muhokamalarida ishtirok etar, fikr bildirar edi. N.Eshonqul, Go'r o'g'li yoxud Hayot suvi.

TAMADDILANMOQ Yengil-yel-pi ovqatlanmoq, biroz ovqatlanib ol-moq. *...ayam oshxonada ovqatlanishim-ga ruxsat bermay qo'ydi. Qornimiz och-sa, tamaddilanib olish uchun meni boshqa joylarga boshlab boradigan bo'ldi.* A.Obidjon, Oltin yurakli Avto-bola. *Abdulla sariq bilan inoq edik, uyi maktabga yaqin bo'lgani uchun ba'zan katta tanaffusda ularnikiga kirib, oz-moz tamaddilanib olardik, ba'zida dars-dan so'ng hovlilarida birga o'ynab, uyga kechroq qaytardim.* A.Obidjon, Ajinasi bor yo'llar.

TAMADDUN [a. تَمَدُن – madaniy-lashish; madaniyat; sivilizatsiya] kt. q. **madaniyat.** *Havaskori taraqqiy va tamaddun qahramon yoshlar.* S.Xonday-liqiy, Navbahor. *...hayot abadiydir... u yoki bu sayyoraga ko'chib o'tadi va o'sha yerda yangi tamaddun barpo eta-di.* H.Shayxov, Tutash olamlar. *Sharq adabiyoti va sharqona miniatyura uy-g'onish davri tamaddunining ikki qa-notidir.* Gazetadan.

TAMADDUNLASHMOQ esk. kt. q. **madaniylashmoq.**

TAMAGIR [a. + طمعگیر – biror narsa olishga intiluvchi; ochko'z, man-faatparast] Birovdan o'lja olishga, tama qilishga o'rgangan, tama qiluvchi. *Tamagir odam. Tamagir bo'lmoq. – Solih maxdum xasis, tamagir, har hol-da... uni yaxshilar qatoriga qo'yib bo'lmaydi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Uchinchi bir turkum odamlar borki, hatto uyiga mehmonga borib qolsang*

ham, qo'lingga qaraydi. Bunday odamni tamagir, poraxo'r, deyaver. Y.Shukurov, Qasos. Men o'zim vakili bo'lgan firma manfaati uchun tun-u kun tinmay chopib yurish... kechalari yo'l yurish, tamagir DAN xodimlari bilan talashib-tortishish, bojxonalarda tomog'im bo'g'ilib qolguncha bahslashish... – bari-barisiga tayyorman. A.Yo'ldosh, Puan-kare.

TAMAGIRLIK Birovdan bir narsa kutish va shuning ilinjida bo'lish; shu maqsaddagi xatti-harakat. *Tamagirlik bilan qaramoq.* — Abulfazlning fikricha, hamma balo – ruhoniylarning tamagirliigi-yu fothlarning diniy xurofot yordamida bosqinchilik siyosatini amalga oshirishida. P.Qodirov, Avlodlar dovoni. *Tamagirlik inson hamiyatini yerga uradi.* Gazetadan.

TAMAKI [a. تمباك yoki f. تمار < isp. tabaco] 1 Ituzumdoshlar oilasiga mansub, yirik bargli o'tsimon o'simlik. G'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozdan uyg'onib ketdi. Singillari tamaki tergani ketyapti. M.Hazratqulov, Chiroq o'chmagan kecha.

2 Shu o'simlikdan quritib tayyorlanadigan chekimlik. *Achchiq tamaki. Kuchsiz tamaki. Tamaki mahsuloti. Tamaki chekmoq.* — Emin unga tamaki xaltasini uzatdi: -Xumoringni yoz, oshnam, qo'lbola tamaki. I.Rahim, Chin muhabbat. [N. ning] Kir-chirga belangan kiyim-boshining rangi ko'rinmay qolgan, xona tamaki hidiga va qoldig'iga to'lgandi. N.Eshonqul, Go'r o'g'li yoxud Hayot suvi.

TAMAKIDON Tamaki solib qo'yiladigan idish. *Tamakidondan tamaki olmoq.* — [Qorovul] Bir kuni bitko'z

yigitning oldidan... o'tib keta turib, bir dona sigaret so'radi; tamakidoni xonada qolgan, yigitni ko'rib juda xumorgilib chekkisi kelgandi. N.Eshonqul, Yalpiz hidi.

TAMAKIFURUSH Tamaki savdosi bilan shug'ullanuvchi kishi. *Ko'p o'tmay Isoq chol to'y harakatiga tushib qoldi. Qishloqning eng oldi boyvachchasi Samandar tamakifurushning mashinasini kira qilib, shaharga zir qatnadi. Z.Qurolboy qizi, Qadimiy qo'shiq.*

TAMAKIKOR Tamaki ekuvchi va yetishtiruvchi dehqon yoki xo'jalik. *Urgut tamakikorlari rejani o'z vaqtida bajardilar.* Gazetadan.

TAMAKIKORLIK Tamaki yetishtirish, tamakichilik.

TAMAKIZOR Tamaki ekilgan yer, maydon. *Bechora singillari shudring arimasdan tamakizorga oralaydi. M.Hazratqulov, Chiroq o'chmagan kecha.*

TAMAKICHI 1 ayn. tamakikor.

2 ayn. tamakifurush.

TAMAKICHILIK ayn. tamakikorlik. *Sovxoz tamakichilikdan "atigi" 380 ming so'm zarar qildi. "Mushtum".*

TAMAKOR kam qo'll. ayn. tamagir. *Tamakor odam.* — Uning [mulaning] tamakor ko'zlari yuzimizga emas, cho'ntagimizga qadalgan edi. Gazetadan. *Sen so'ngsiz farahga yor eding, faqat Buzdi halovating tamakor inson. M.Mirzo, Saylanma.*

TAMAL [a. تملی – doimo, hamisha; chidam, bardosh] Negiz, asos, poydevor. *Tamal solmoq (qo'ymoq).* — Haqiqat tamalini qulatmoqqa ko'tarilgan qo'llarni kesmoq zarur. Oybek, Navoiy.

Tamal toshi(ni) qo'ymoq Asos solmoq, boshlamoq. *Farg'onada uchta*

yangi zavod qurilishiga tamal toshi qo'yildi. Gazetadan.

TAMALANMOQ *kam* qo'll. Tama qilmoq, umidvor bo'lmoq.

TAMALLUQ [a. تَمَلُّق – xushomad, sermulozamatlik; yaltoqilik] *esk.* Had-dan ortiq takalluf ko'rsatish, sermulozamat bo'lish; xushomad qilish, yaltoqilik, tilyog'lamalik. Ikki mehmon taraf-laridan o'ziga qilingan favqulodda tamalluq va mulozamat, tabiiy, uni o'ylashga majbur qiladi. A.Qodiriy, Obid ketmon.

TAMAN *shv. ayn. juvoldiz.* Ming ignani yig'sang taman bo'lmas, ming ammami yig'sang onang bo'lmas. Maqol.

TAMANNO [a. تَمَنَّا / تَمَنَى – tilak, istak, orzu] Noz-ishvali harakat. Yor tamannosi. — Ajoyibdir tamannosi, tamannosi bor ma'nosi. "Qo'shiqlar". O'z husniga o'zining rashki kelayot-ganday, tamanno bilan sochini tarayap-ti. S.Siyoyev, Yorug'lik. Juvon tamanno ila Dilshodning yoniga kelib, lo'li lah-jasida gapirgancha, uni qo'l telefonida suratga ola boshladi. A.Yo'ldoshev, Daryo.

Tamanno qilmoq (yoki etmoq, aylamoq) 1) noz-ishva, karashma qilmoq. Buvijon, ko'z erkaklarga go'zal-likni tamanno qilish uchun berilgan. Mirmuhsin, Yugurdak; 2) *esk.* istamoq, tilamoq, so'ramoq. Ko'z nurimizning duoyi jonini subhi shom... tamanno etmoqdamiz. A.Qodiriy, O'tgan kunlar; 3) orzu qilmoq. Qayga men boshim uray ham qayda g'avg'o aylayin, Qaysi bir lutf-u karamlarni tamanno aylayin. S.Abdulla.

TAMANNOLANMOQ *ayn. ta-manno qilmoq* 1. q. **tamanno.** Ulardan biri – suvsar yoqali palto kiygani tamannolanib kelar edi. M.Mansur, Judo-lik diyori.

TAMANNOLI Noz-ishvali, karash-mali. *Tamannoli nozanin. Tamannoli ko'zlar. Tamannoli qiliqlar.* — Halim-jon ketgach, Shomilning ishorasi bilan juvon mashinadan tushib, Elchin sari kela boshladi. Juvon g'oyat go'zal, yu-rishi ham o'ziga yarasha tamannoli edi. T.Malik, Shaytanat.

TAMACHI *ayn. tamagir.* Tamachl odam.

TAMBA Eshikni bekitish uchun orqasidan tiralgan yoki tiraladigan tax-ta, yog'och va sh.k. Eshikka tamba qo'ymoq. — Zulfizar katta darvoza tomon otildi. Tambasini olib tashlab, o'zini qamishzor qo'yniga urdi. K.Ya-shin, Hamza. U [Olapar] endi o'rnidan turganida, darvoza tambasi sharaqlab, hovlidan xo'jayinning o'g'ilchasi chiq-di. M.M.Do'st, Darvoza yonidagi it.

TAMBAL *s.t.* Tanbal. Sen tambal-ga bergan tomog'im harom bo'lsin... J.Abdullaxonov, To'fon.

TAMBALAMOQ Tamba qo'ymoq, tamba tirab bekitmoq. *Darvozani tam-balamoq.* — Ko'cha eshikni ichidan tambalab, hovli tomon yurdi. D.Nuriy, Osmon ustuni. Hovlingga kira solib, eshikni tambalab qo'yding, sen o'zing uyda bo'lganingda eshikni hech qachon tambalamasding. N.Eshonqul, Go'r o'g'li yoxud Hayot suvi.

TAMBUR [fr. tambour – gum-bazning asos (aylana) qismi; दौर] 1 t.y. Temiryo'l vagonining kiraverish-

dagi dahlizchasimon bo'lmasi. Alohida vagonga qo'shimcha soqchilar qo'ydi. O'zi ham shu vagon tamburiga ko'chib o'tdi. H.G'ulom, Mash'al. Men sassiq tamburlar, tiqilinch umumvagonlar, avtobuslarning tor o'rindiqlari, shiftiga qadar mol ortilgan tijorat ulovlari – bari-barisini yomon ko'raman. A.Yo'l-dosh, Begona shaharning namozshomlari.

2 arxit. Binolarning tashqi eshiklari oldiga qurilgan kichik xona, dahliz.

TAMIZ [a. تميز – imtiyoz, ustunlik; imtiyoz berish; farqlash; sog'lom fikr; fahm-farosat] O'z biligi, aqli, farosati bilan tegishli ish tutish qobiliyati; fahm, farosat. *Tamizi yo'q odam.* — *Tamizi bo'lsa, o'shanning o'zi kaltak, — dedi-da, birpas quloq berib o'tirdi.* R.Fayziy, Hazrati inson. *Bu fakt va dalillar oldida o'jarlik qilish aql va tamizdan emas.* A.Hakimov, Ilon izidan.

TAMIZLI O'z biligi, aqli, farosati bilan tegishli ish tutuvchi; fahmli, farosatli. *Tamizli bola.* — *Hali hech kim ko'rmagan bo'lsa ham, Muxtorxon domla yoqtirgani uchun, juda aqlli, tamizli ayol chiqishi muqarrar bo'lgan kelinni hamma g'oyibona yaxshi ko'rib qoldi.* A.Qahhor, To'yda aza.

TAMIZSIZ Tamizi yo'q; betamiz, befarosat. *Tamizsiz odam.* — *Farosat-siz, tamizsiz, bo'lsa gar insofsiz shogird, Men ustozing debon, ustoziga da'vo qilur derlar.* Chustiy.

TAMKIN [a. تمكين – imkoniyat yaratib berish; imkoniyat, haq-huquq berish] **1** Salobat, savlat, savlatlilik. *Bordon ichidan uzun bo'yliq, qora so-*

qolliq, ustida malla to'n... bir kishi chiqdi; tamkin, viqor bilan bitta-bitta yurib kelib, zina yonida xong'a qarshi to'xtadi... A.Qodiriy, Mehrobdan chayan.

2 Salobati bor, og'ir-vazmin. *-Qo'rq-mang, — dedi Asrorqul tamkin ovozd, u sirtidan vazmin ko'rinardi.* N.Qilichev, Yorongul.

3 Sabr, qanoat; og'irlik, vazminlik. *Kimda tamkin bo'lmasa topmas kamol, Ne berur osmonda hovliqqa shamol? Chustiy. Janglarda zafardor — Xalqimga bo'lib yor, Har ishda madadkor, Tamkin-u qarorim.* Habibiy.

TAMLI s.t. ayn. ta'mli. *Tamli ovqat.* — *Birinci marta o'z mehnatim... bilan tayyor bo'lganidanmi yoki had-dan ortiq ochiqqanimdanmi, har holda, u kungi qo'ziqorin qovurdog'i go'sht qovurdog'idan ham tamliroq tuyuldi.* S.Ayniy, Esdaliklar. *Bu Amudaryoning tamli balig'i, Baliqning laqqasi, o'bdan yog'lig'i.* Mirtemir.

TAMOM [a. تمام – to'liq, mukammal; to'lalilik; yaxlitlik; oxir, intiho, nihoya] **1** Oxir, poyon, nihoya. *Ish tamomiga yetdi. Hikoyani tamomiga yetkazmoq.*

Adoyi tamom bo'lmoq q. adoyi. **Gap tamom** Bo'ldi, gap tugadi, boshqa gapga o'rin yo'q. *Shu bilan "gap tamom" degandek... sayr qilish uchun daraxtlar ostidagi yo'ldan ichkari tomon yo'naldi.* K.Yashin, Hamza. **Tamom bo'lmoq 1)** oxiriga, poyoniga, nihoyasiga yetmoq, tugamoq. *Dars tamom bo'ldi.* — *Oltin o'tda bilinadi, — dedi Sobiraxon, — urush tamom ham bo'lar, o'yin-kulgi uchun to'planganimizda, bu kunlar ertakday bo'lib ham*

qolar. A.Qahhor, Xotinlar; 2) bitmoq, qo'ldan chiqmoq, tayyor bo'lmoq. *Qurilish tamom bo'ldi*; 3) ishlatilib, sarflanib, istifoda qilinib odoq bo'lmoq, tugamoq. *Pul tamom bo'ldi. Vaqt tamom bo'ldi.* — Zanjirli reaksiya g'oyat darajada tezlik bilan rivojlanadi va parchalanuvchi materialning hammasi tamom bo'lguniga qadar davom etadi. "Fan va turmush"; 4) ko'chma dardalam tortib, kulfat chekib, kuyib yoki yonib ado bo'lmoq, tugamoq. *Mayli, bolam, boshga tushganni ko'z ko'rar, deyдилar. Meni qo'yib, o'zingni ham bir o'ylab qo'y. Bu tashvishlardan tamom bo'lding-ku, bolam!* O.Yoqubov, Ayt-sam, tilim kuyadi, aytmasam — dilim; 5) sinmoq, abgor bo'lmoq. *Yegan yeb keldi. Ichgan ichib keldi. Ammo Abdovose' shu bitta to'y bilan tamom bo'ldi. "Mushtum". Tamom qilmoq* 1) oxiriga, poyoniga, nihoyasiga yetkazmoq. *Ahmedov kapsanchilarni kolxoz tuzishga chaqirib, so'zini tamom qildi. Savol-javobga o'tildi.* A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari; 2) bitirmoq, qo'ldan chiqarmoq, tayyor qilmoq. *Maktab qurilishini sentyabrgacha tamom qilamiz*; 3) ishlatib, sarflab, foydalanib odoq qilmoq; tugatmoq. *Resurslarni tamom qilmoq.* — *Pul desang — sanog'i yo'q... Sanab tamom qilib bo'lmaydi.* M.Ismoilij, Farg'ona t.o.; 4) o'quv yurtida o'qib chiqmoq, bitirib chiqmoq, o'quv yurtini tugatmoq. *Universitetni tamom qilgan kishi*; 5) ko'chma ado qilmoq. *O'g'lining tashvishi kampirni tamom qildi*; 6) ko'chma o'ldirmoq. *To'qsonovning merganlik havasi qo'zib, darrov Dadaboyning yelkasidagi sochma miltiqni oldi-da, tipirchilayotgan itni bir otishda*

tamom qildi. P.Tursun, O'qituvchi; 7) ko'chma sindirmoq. *Bitta to'y uni tamom qildi.*

2 **Tamomila**, butunlay, batamom. *Tamom esdan chiqarmoq. Tamom ishonmoq.* — *Elmurod ma'yus bir necha qadam bosdi. "Yo'q, — dedi ichida, — bu men bilgan, men sinagan Fotima emas. Endi o'zgarib, tamom boshqa bo'lib qolgan".* P.Tursun, O'qituvchi. *Yarim kechaga borganda, dushman tamom holdan toyib, chekinishga majbur bo'ldi.* A.Qahhor, Oltin yulduz. *Zaynab ham tamom ipaklarga ko'milib yasangan... A.Qodiriy, O'tgan kunlar.*

3 **olm.** Butun, barcha, tamomi. *Tamom xalq majlisiga yig'ildi.* — *Yusuf-bek hojining Normuhammad qushbegiga yuborgan chopari Kirovchi yaqinida unga yetgan va qushbegini tamom sipohlari bilan Toshkentga qaytargan edi.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar. ... *Qalampirmunchoqni gulobga ivitishib, kelinning tamom badaniga surtishar emish.* K.Yashin, Hamza.

4 **kesim** vzf. Yakuniga yetganlik, bitganlikni bildiradi. *Tamom, xo'jayin, ana, shay qilib qo'ydim.* K.Yashin, Hamza. *Shahzodaxon eriga ko'zlarini o'qdek qadab, tantanavor qarab tura-verdi. Bir zarb o'lsa, tamom.* K.Yashin, Hamza.

5 **yukl.** vzf. Ta'kid, kuchaytiruv bildiradi. *Dadam ichib keldimi, tamom, darrov qildan qiyiq chiqarib, oyijonimni do'pposlashga tushardi.* E.Raimov, Ajab qishloq. *Shundan qo'rqdimi, tamom, o'limdan qo'rqqani bo'ladi. O'limdan qo'rqqan kishi qahramon bo'lolmaydi.* A.Qahhor, Oltin yulduz.

TAMOMAN *rvsh.* To'liq ravishda; butunlay, to'la, butkul. *Xatar tamoman yo'qoldi. Qarzdan tamoman uzildi. — Safar bo'zchi ginani tamoman ko'nglidan yuvib tashlagan edi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. Qizning anor yuzlari, tiniq dudoqlari, nozik beli uni tamoman behud etgan edi. S.Karomatov, Hijron.*

TAMOMI(Y) *Hamma, barcha, bari. Tamomi(y) xalq maydonga yig'ildi. — Faqat xotinligina emas, yer-suvni, tamomi davlat va ashqol-dashqollari bilan tortib olmoqchi. U.Ismoilov, Saylanma.*

TAMOMILA *rvsh.* Butunlay, tamoman. *Ahvol tamomila o'zgardi. — Zamira esa uning tamomila aksi. S.Karomatov, Oltin qum. Biroz mushohada qilib ko'rgach, to'satdan... unda o'zimiz bilgan oddiy dovul emas, tamomila boshqa hodisa tilga olinganini, to'fonning sirayam to'fon emas, balki muhabbat dolg'alari ekanini tushunib goldim. I.Sulton, Sofiya.*

TAMOMLAMOQ 1 *Oxiriga, ponyoniga, nihoyasiga yetkazmoq. Ma'ruzani tamomlamoq. — Hoji o'zidan oshirib so'zlagan bu so'zlarini shu gap bilan tamomladi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar.*

2 *Bitirmoq, qo'ldan chiqarmoq, tayyor qilmoq. Yana bir g'ayrat qilib, GESni bitirib olsak, kolxozchilar kanalni tamomlab, suvni bizga keltirib bersalar, marra — bizniki. Oydin, Mardlik — mangulik.*

3 *Ishlatib, sarflab, foydalanib odoq qilmoq, tugatmoq. Mablag'larni tamomlamoq. Zaxiralarni tamomlamoq. — Qiziq, biz paxta yetilmay... hosilni*

qarz-qurz, bo'nak bilan tamomlaymiz. M.Ismoilov, Farg'ona t.o.

4 *O'quv yurtini bitirmoq, tugatmoq. Institutni tamomlashim bilan orzum amalga oshdi. Men endi kinoaktrisanam. "Mushtum".*

TAMOYIL [*a. تمایل* — egilish, qiyshayish; o'zgaruvchanlik; moyillik] *esk. kt. 1 Mayl, moyillik. Vahshiy xalqlarda qonxo'rlikka tamoyil zo'r bo'ladi. Bu — shubhasiz haqiqat! Oybek, Tanlangan asarlar.*

2 *Biror sohada tartib, qoida tusini olgan narsa, tadrijiy yo'nalish. Xalq afsonalarida realistik tamoyil shu tarzda tobora kuchayib bordi. "Fan va turmush". ...bozorlarimizda o'sha azaliy udumlarimizni, tamoyillarimizni tiklash, bozorni milliy qadriyatlarimizning ko'zgusi sifatida namoyon qilish lozim. Gazetadan.*

TAMOSHO [*a. تماشا* — birga yurish, sayr qilish] *q. tomosha. Agar ukalari Salimboyvachcha ham ulfatlarini boshlab chiqsa, tamoshoni unda ko'rasiz. Oybek, Tanlangan asarlar.*

TAMSIL [*a. تمثيل* — o'rnak, namuna olish; misol qilib keltirish; tomosha, o'yin; o'xshab ketish;] *ad. Mumtoz adabiyotda: baytning birinchi misrasida ifodalangan fikrga dalil sifatida ikkinchi misrada hayotiy bir hodisani misol qilib keltirishga asoslangan badiiy san'at. Shoirning [Attorning] aksar asarlari ko'pdan ko'p ichki hikoyatlar, masal va tamsillar bilan boyitilgan. N.Komilov, Tasavvuf.*

TAMSIZ *s.t. ayn. ta'msiz. Tami, mazasi yo'q; bemaza, totsiz. Tamsiz ovqat.*

TAMTAM I 1 Qaddi-qomati ke-lishgan va zebo. *U niyatiga yetdi. Qishloqning tamtam qiziga uylanyapti. S.Ahmad, Ufq. ...oy qizlar, tamtam ke-lingchaklar Vatan mudofaasiga jo'nashdi...* G.Nurullayeva, Yurak yonmog'i kerak.

2 *ko'chma salb.* O'ziga, kiyimboshiga zeb bergan; bashang, olifta. *Nomi Mo'tti bo'lsa ham, ko'p yigitlarni laqillatganidan "lo'tti" deb nom olgan bu qiz shahardagi eng tamtamlarning biri ekan. S.Ahmad, Mo'tti. Juda olifta, tamtam yigit ekan, shimimning taxi buzilmasin debmi, ayvonga ham chiqmay... kursida o'tirib, fотиha o'qibdi. H.Nazir, Ko'kterak shabadası.*

TAMTAM II [*fr. tam-tam < hind. —* tovushga taqlid so'z] Katta mis barkash shaklidagi, tayoqcha bilan urib chalinadigan musiqa asbobi; gongning bir turi. *Cho'chima, raqqosa! Tamtam sasidan. H.Sharipov.*

TAMTAMLIK I O'ziga oro berish, bashanglik. *Ko'rar ko'zga yuzim gulgun, go'yo kam-kam kuyib kuydim, Sizga kam-kam kuyoldim deb, o'zni tamtamlikka yo'ydim. T.Sodiqova, El ichinda...*

2 Hashamatlilik; dabdababozlik. *Ib-rohim Adhamning tamtamlik taxtidan tushib, odmi bandaga do'na borish, o'zini dabdababozlik, yollarga befarqlik kasalliklaridan xalos etish istagida chekkan azoblari...* A.Obidjon, Ajinası bor yo'llar.

TAMTAROQLI [*f. مطراق —* dab-daba, hashamat; serbashamlik] Dab-dabali, balandparvoz. *Tamtaroqli iboralar. — Panshev uning tamtaroqli so'zlarini tarjima qilgandan keyin,*

pristav mutavallini qo'ltiqlab, taxt yoniga bordi. M.Osim, Elchilar.

TAMUG' *esk. Jahannam, do'zax. Oqni qaro deganlar ul tamug'ga kirmishlar. Ahmad Yassaviy. Qo'rqutma meni tamug'dan, ey zohidi yax, Jannat manga bo'lgusi debon urma zanax. Alisher Navoiy. Nomusini bad kishilar-ning ayog'lari ostinda ko'rib turklik qoni qaynag'ay, musulmonlik hamiyati toshg'ay, tamug' olovlari kabi sachrag'ay. Fitrat, Yurt qayg'usi. Dengizlar-ni ko'rding, eng chekka yurtini, Tamug'da ko'zing yoritib, so'ng ko'z yordi haq. V.Fayzulloh, Qoyadagi daftar.*

TAMG'A I Narsa, mol, mahsulot va sh.k. ni ajratish, hisobga olish yoki ularning kimga tegishlilikini ko'rsatish uchun qo'yiladigan, bosiladigan belgi. *Fabrika tamg'asi. — Okopdan qarab turgan Normat ularning [samolyotlar-ning] qanotlaridagi qizil yulduz tamg'alarini ko'rib qoldi. I. Rahim, Chin muhabbat. Toshkent tamg'asi bosilgan chinni buyumlarni O'rta Osiyo respublikalarining barcha xonadonlarida uch-ratish mumkin. U.Ma'rupov, Ustoz.*

2 Qadimda mahbuslarning tanasiga belgi qo'yish, bosish uchun qizdirib ishlatilgan asbob va shu asbobni bosishdan hosil bo'ladigan belgi, iz. *Bolaning bilagiga yopishib qolgan tamg'ani Nabi polvon, eritilgan surg'uch ustiga bosilgan pechatdek, zo'rg'a uzib oldi. S.Ayniy, Qullar.*

3 Ot, mol va sh.k. ning tanasiga yoki tana a'zolaridan biriga belgi bosish uchun qizdirib ishlatiladigan asbob va shu asbobni bosishdan qoladigan belgi, iz. *Otga tamg'a bosmoq. Qo'yning qulog'idagi tamg'a.*

4 Ochish, buzish va sh.k. ga qarshi qo'yiladigan belgili narsa, surg'uch. *Haydarqul oddiy o'g'rildan emas, u men tamg'a bosib qo'ygan choshdan arpa o'g'irlagan.* S.Ayniy, Qullar.

5 ayn. **gerb.** Saodat behisob tangalar orasida o'z tangasini tanib turibdi; uning... *tamg'asi* suv ostida Saodatning ko'ziga o'zgacha yarqiramoqda. I.Rahim, Ixlos.

6 ko'chma Nimadandir qolgan, uning belgisi bo'lgan narsa, asar, iz. *Azob-uqubatlari tamg'asi.* — Ularda [tarixiy obidalarda] ko'p zamonlar va dinlarning tamg'asi bor. Z.Akramov, Hindiston lavhalar. Xotinining istarasi issiq chehrasiga nimaningdir dahshati qora tamg'asini bosib ketgan edi. M.Ismoil, Farg'ona t.o. Menga tanish bo'lgan xonadonlar, devor, tomi qulagan uylar... Bu urushning badburch tamg'alari... N.Safarov, Olovli izlar.

7 ko'chma Qilmish, xatti-harakat va sh.k. ga ko'ra taqilgan yorliq, belgi. *La'nat tamg'asi.* — Orada allaqancha davr bu ajoyib an'anaga eskilik tamg'asi bosilib, unutilayozgan edi. N.Hayitqulov, Yer tafti.

8 tar. Qadimda chetdan kiritilgan molga belgi solishda olingan boj.

Tilingga tamg'a bosilganmi? Tiling yo'qmi? Nega gapirmaysan?

TAMG'ADOR 1 tar. Qadimda chetdan kiritilgan molga tamg'a bosish va boj olish bilan shug'ullangan lavozimli shaxs.

2 Tamg'a bosilgan, tamg'ali. *Chegarachilar qo'ng'iroq qilishib, tong sahada tog'dan engan bug'ular suruvi tugal holda orolga o'tishganini xabar*

qilishibdi. Ularni ulkan, tamg'ador shoxdor bug'u ergashtirib yurgan ekan. M.Safarov, Ayrishox.

TAMG'ALAMOQ Tamg'a bosmoq, tamg'a solmoq. *Mollarni tamg'alamoq.* — Yaxshigina qo'riqlang, xabardor bo'ling, elab choshlaganidan keyin tamg'alab, menga xabar bering. *Fursatimni topib kelib, birgalashib xirmonni ko'taramiz.* S.Ayniy, Qullar.

TAMG'ALI 1 Tamg'a bosilgan, tamg'a solingan. *Qizil yarimoy tamg'ali sanitariya aravachalari, mashinalar...* I.Rahim, Chin muhabbat.

2 ayn. **gerbli.** Do'kondorlar uning kaftiga allaqanday tamg'ali marka pulni jirkantib tashlar, yo bo'lmasa, ko'zlarini o'graytirib, qo'llarini siltab, "ket!" deb jerkib berardilar. P.Tursun, O'qituvchi.

TAMSHANMOQ 1 Biror narsa yeyayotgan, chaynayotgandek, og'iz ochmay, lablarini qimirlatmoq; og'zidagini totib ko'rayotgandek bo'lib, lablarini ochmay chaynamoq. *Elmurod qo'l cho'zib, moshkichiridan jindek og'ziga soldi-da, bo'ynini qisib, yerga qaragan ko'yi, sekin tamshandi.* P.Tursun, O'qituvchi. *Og'zidagi turshakni u lunjidan bu lunjiga o'tkazib, tamshanib chaynab o'tirardi.* Mirmuhsin, Dorbozlar.

2 Totgisi kelib, lab-lunjini qimirlatmoq. *Umida quruqshab borayotgan og'zini ochib tamshanar...* edi. D.Nuriy, Osmon ustuni. *Shayxning barzangi xizmatkori mo'l-ko'l taomni ko'rib tamshandi.* S.Siyoyev, Avaz. *Normamat xo'rozqandga to'ymagan boladay tamshanib qoldi.* "Yoshlik".

TAN [ف. تَن – gavda, badan, tana] 1 Odam gavdasining ko'krak qafasi va qorin bo'shlig'idan iborat qismi: tana. *Bir kuni uning boshini tanidan judo qilsalar ajab emas...* Mirmuhsin, Me'mor. *Kishi tanidagi a'zolarining ham qulog'i bor: o'zining bardamligini eshitgan a'zolar yana sog' turib, xizmatni bajaraveradi.* Mirmuhsin, Me'mor.

2 Kishining butun borlig'i, vujud. *Sog'tanda sog'aql.* Maqol. *Tani sog'liq – tuman boylik.* Maqol. — *-Xudoyo tavba deng, jon boshqa, tan boshqa, – dedi domla.* P.Tursun, O'qituvchi. *Anorgulning qo'lidagi dutor "O'rtoqlar" kuyini tanlarga larza berib tarona qildi.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar. *Axir tut faqat qorin to'ydiradigan taom bo'lmasdan, kishi taniga dori-darmon hamdir.* N.Safarov, Olovli izlar.

3 Tana, vujudning sirt qismi; badan. *Gard yugmasin taningga, Loy tegmasin baringga.* Q.Muhammadiy. *Bu gapni eshitib, Elmurodning tani jimirlab ketdi.* P.Tursun, O'qituvchi. *Yigit uning oq marmardek yalang'och taniga boqmay, yerga qaradi.* Mirmuhsin, Yo'qolgan javohir.

4 ko'chma O'lik tana; jasad. *Soldat tani, qo'shni vzvodan, shekilli. Snayperning o'qi kallasiga tegibdi, qora qonga bo'yali yotibdi sho'rlik.* T.Rustamov, Mangu jasorat. *Mazlumlarning tanidan Qurgan saroylar...* G'amda o'tdi xalq umri *Ko'p yillar, oylar.* G'ayraty.

5 Shaxs bildiruvchi so'zlar yoki egalik shaklidagi so'z bilan qo'llanib, tegishlilik, ulush kabi ma'nolarni bildiradi. *Har kim o'z tanini oldi. Xarajatning yarmi mening tanim. Men ham to'rtidan bir tan.* — *-Bo'pti, Davron, ziyofat*

menga tan, – dedim. – Hammasini o'zim pishiraman. P.Qodirov, Qadrim.

6 Dastlabki baho, tannarx; dastlabki mablag', sarmoya. *Tanidan yuz so'm kamiga sotmoq. Yeb-ichib, tanini qilmoq.* — *Muhammadrab sakkiz ming so'mni oyiga o'n uch protsent foyda berish sharti bilan olib, ikki oydan beri na foydasini beradi, na tanini.* A.Qahhor, Sarob.

7 ko'm. vzf. kam. qo'll. Tomon, yon. *Kim zo'r bo'lsa, jazosini beraman, Kambag'al Nazarning tani bo'laman.* F.Yo'ldosh, Mamatkarim polvon.

Bir jon bir tan bo'lmoq q. jon. Tan bermoq 1) ishonch hosil qilmoq. *Ilgari men, ochig'i, bularning qo'lidan shunchalik ish kelishiga inonmagan edim, endi tan berib qo'ydim.* H.Nazir, Mayoq sari.uning bilmagan narsasi yo'qligiga hamma tan berib ulgurgan edi. A.Muxtor, Tug'ilish; 2) qoyil bo'lmoq, qoyil qolmoq. *O'ktam ko'zlarini qisib, boshini tebratib, qovunni maqta di: -Didingizga tan berdim.* Oybek, O.v. shabadalar. *Ajoyib shahar Bokuni bunyod etgan xalqqa va uning iste'dodiga tan berdik.* N.Safarov, Olovli izlar. **Tan olmoq** 1) bo'yniga olmoq, iqrar bo'lmoq. *O'z xatolarini tan olmoq.* — *Adolat har kuni kechqurun Usmonjonni ko'rish orzusida uyiga oshiqar, uni sog'inar, lekin buni tan olishga o'zidan o'zi uyarlardi.* S.Zunnunova, Gulxan; 2) tanimoq, hisoblashmoq; e'tirof qilmoq. *Zarifa uncha-muncha yigitni tan olib yaqinlashishga shoshilmadi.* S.Karomatov, Oltin qum. *Raisni tan olmay qo'yishlariga ham sal qoldi.* Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli. **Tanini bag'ishlamoq** Tegishga, niko-

higa o'tishga rozi bo'lmoq. Uning nikohiga tanini bag'ishlagan odam kiradi... Men emas. K.Yashin, Hamza. Bormay turib bag'ishlasin tanini, So'ngra ko'rsin xotin mehribonini. "Gulshanbog". Taqdirga tan bermoq Qismatidagi biror narsaga, holatga rozi bo'lmoq, ko'nmoq. Yarash polvon keksa momolarning tiliga kirib, xotinini turkona muolaja qildirdi. Foyda chiqmadi. Keyin er-xotin taqdirga tan berdilar. S.Siyoyev, Otliq ayol.

TANA I [f. تَنَة – gavda, badan, tan; poya] **1 ayn. tan 1–4.** Erta ko'klam bo'lgani uchun, bahor quyoshi tanalarga yog'day yoqadi. E.Raimov, Ajab qishloq. Bir qilich zarbi bilan boshini tanasidan judo qildi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. Shundan keyin biroz tanasi yayrab, tarang tortilgan asablari bo'shshib, "Xayriyat!" deb qo'ydi. K.Yashin, Hamza. Chopib bordim qoshiga, Sulayib yotar tanasi, Olti gaz nari joyda Vafodorim kallasi. "Oysuluv".

2 Jonivorlarning jismi, jussasi. Ilonning qanday suv ichishini kamdan kam ko'rish mumkin. U tanasini goh shishirib, goh puchaytirib, og'ir nafas olardi. "Fan va turmush".

3 Daraxtning, o'simlikning tag, poya qismi. Hovuzning to'rt tomonida yo'g'on-yo'g'on qayrag'ochlar, tanalari quloqchga sig'maydi. J.Sharipov, Xorazm.

4 tex. Turli asbob, mashina va sh.k. ning bo'laklarini tutib turuvchi qismi. Kranning tanasi.

Tanangga o'ylab ko'r (yoki qara) Yaxshilab o'ylab, muhokama qilib ko'r. Jahlimdan tushganimdan keyin shunday

tanamga o'ylab qarasam, bechora o'rtog'imdan unchalik qattiq gina qilishning hojati yo'q ekan. A.Qahhor, Xotinlar.

TANA II [f. تَنَة] Bir-ikki yoshli urg'ochi buzoq. Tor yerga tana boshi sig'mas. Maqol. — Ha, o'sha yili dadam bilan kolxoz tanalarini boqdik. S.Anorboyev, Yo'lda yo'ldosh bo'lganlar. Ketayotir navkarlar So'na quvgan tanaday. "Oysuluv". Yoldor to'dasi, boshqa mol quriganday, uning [Karimning] tanasini bo'g'izlab ketgandi. N.Norqobilov, Oqbo'yin.

TANAFFUS [a. تَنَفُّس – nafas olish; nafas, dam] **1** Dars, ish, mashg'ulot va sh.k. orasida beriladigan qisqa dam. O'quvchilar tanaffusga chiqdi. Tanaffus e'lon qilmoq. — Bu sukut boksyorlarning shiddatli raundlari o'rtasida nafas rostdashga beriladigan tanaffusga o'xshardi. F.Musajonov, Himmat. Ertalab quyosh bilan baravar turish, qosh qorayguncha ish. Bir mahal ovqatga tanaffus. I.Rahim, Chin muhabbat.

2 ko'chma Ish-harakat, voqea-hodisalar o'rtasidagi uzilish, to'xtash bo'lgan vaqt. U ashulalarni tanaffus qilmay aytardi. "Yoshlik". Biroz tanaffusdan so'ng programmada... xokkey o'yini ko'rsatila boshlandi. O'.Usmonov, Sirli sohil.

TANAKOR [f. تَنَكُور – tanakor, bura] **1** Bor kislotasining natriyli tuzi (sir tayyorlashda, kimyoviy idish va shishalar ishlab chiqarishda, metallarni kavsharlashda ishlatiladigan shisha-simon tiniq kristall modda).

2 ko'chma Birlashtiruvchi eng zarur narsa haqida. Sevgi – muqaddas narsa.

Oilaning totuv, shirin bo'lishiga u tanakor bo'lsin. S.Nurov, Yangicha to'yalar.

TANATOLOGIYA [yun. *thanatos* – o'lim + *logos* – fan, ta'limot] O'lim haqidagi ta'limot; uning sababini o'rganuvchi, ushbu jarayonning sodir bo'lishini, organizm to'qimalaridagi o'lish va u bilan bog'liq o'zgarishlarni o'rganuvchi fan.

TANAVOR [f. *تأْوَر* – to'la, bo'liq, semiz; kuchli] Poyabzalning boshlig'i va qo'ng'i uchun ishlatiladigan teri va undan bichib olingan andoza. ...kosiblar hafta davomida o'zlari tikkan kavush, mahsilarini sotib, eng avval ko'nchilardan tanavor sotib olishardi. Gaze-tadan. Moskvaning charmfurushlik bozorida tagcharm boshqa rastada, tanavor charm boshqa rastada sotilishini gapirib berdi. M.Osim, Elchilar.

TANAZZUL [a. *تَنْزُل* – asta-sekin pasayish, tushish; tubanlashish] Orqaga qarab ketish; inqiroz, tushkunlik, regress. Iqtisodiy tanazzul. Tanazzulga tushmoq. Tanazzulga yuz o'girmoq. — Bu ish tezda bartaraf etilmasa, saltanat obro'siga putur yetadi, tanazzulga olib boradi, deb o'ylardilar. Mirmuhsin, Me'mor. Yo'q, taxtni shahzoda muqim egallab, ish tanazzulga yuz tutsa... yaxshi zamonlar kelguncha bu kitoblar ona qursog'ida yotgan boladay xotirjam yotadi. O.Yoqubov, Tanlangan asarlar. Qaysi bir sohada muvozanat buzilsa, o'sha yerda jamiyatni tanazzul kutadi. N.Eshonqul, Mendan "men" gacha. Qotib qolgan yoki bir xil qolipdagi qarash va fikr bilan yashash bir kuni jamiyatni ham iqtisodiy, ham ma'naviy tanazzulga olib keladi. N.Eshonqul, Mendan "men" gacha.

TANACHA 1 Tana II s. kichr. *Tanacha boqmoq.* — Bizning dargohga yaqin joyda ikki yashar chamali bir ola tanacha beboshvoq o'tlab yurar edi. G'.G'ulom, Shum bola.

2 fiziol. Kichkina, faqat mikroskop orqali ko'rsa bo'ladigan jism, hujayra. *Oq tanachalar. Qizil qon tanachalari.* — Qon – ichida juda ko'p qon tanachalari bo'lgan tiniq, deyarli rangsiz suyuqlikdan iborat. "Anatomiya".

3 bot. Nish; nihol.

TANBAL [a. *تَنْبَل* – erinchoq, yalqov, dangasa; esi past, dovdir] O'taketgan dangasa, yalqov. *Tanbal odam.* — "Umr dono uchun juda qisqa, tanbal uchun keragidan ortiq uzun! Odam bo'lsang, shu qisqasini tanla!" deb matal o'qidi. Shuhrat, Jannat qidirganlar. Dala shiy-poni qurilishiga boshliq bo'lib birkitilgan kishi ancha bo'shang va tanbal edi. Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli. *Ular... bu yangi posyolkaning ilk qo'nalg'achilari edi; cho'lning shavqsiz va jazira hayotiga o'rganib qolgan va shundan boshqacha hayotni tasavvur ham qilisholmaydigan... tanbal va hali mutlaqo bo'z yigitlar edi.* N.Eshonqul, Yalpiz hidi.

TANBALLANMOQ ayn. *tanballashmoq.* —Endi bunaqa tanballanib yotavermang, yigitcham, — dedi u menga tabassum qilib. — Ertalab "Yo'pirim!" deb boshingizni azot ko'taring, shoshmasdan emaklab borib, tokchani ushlagancha o'rningizdan turing. A.Obidjon, Ajinasi bor yo'llar.

TANBALLASHMOQ Tanhal bo'lib, yalqovlanib bormoq, tanbal, ishyoqmas bo'lib qolmoq, dangasalashmoq. Bekorchilikka o'rganib tanballashib

qolibsan. — Sirtlon rosmama yetilgan, ancha yildan beri uni biron yirtqich dog'da qoldirmagan edi. "Yo itim tanballashib g'afolat bosdi, yoki raqibi zo'r". A.Asil, Alqor, nega ko'zing to'la yosh?

TANBALLIK Ishyoqmaslik, dangasalik. *Uning otasi ham... tanballik, sovuqqonlik kishini oxiri xarob qilishini o'g'liga takror-takror aytar edi. Mirmuhsin, Me'mor. Paxtakorga tanballik yarashmaydi, uka... A.Muhiddin, Chap cho'ntak.*

TANBEH [a. تنبيه — uyg'otish, hushyor qilish; ogohlantirish; eslatma, izoh] 1 Nojo'ya xatti-harakat uchun berilgan ta'zir, koyish, ogohlantirish yoki jazo. *Yengil tanbeh. Qattiq tanbeh. Tanbeh bermoq. Tanbeh olmoq. — Kexsa bog'bonning samimiy so'zlari ham ta'na, ham tanbeh edi. Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli. Tog'aning tanbehlariga qaramay, jiyan o'z yo'lidin qaytmadi. "Sharq yulduzi". — Biz tegganimiz yo'q-ku, ota! — dedi bolalardan biri, cholning tanbehini qattiq olib. H.Nazir, So'nmas chaqmoqlar. [Kafka] Bolaligi-da otasining o'zini ayblashidan, tahdididan, kamsitish-u tanbehidan cho'chib, kitobni yashirin o'qirdi... ko'ngil siri oshkor bo'lib, jazoga tortilishidan yurak hovuchlab yashardi. N.Eshonqul, Mendan "men" gacha.*

Tanbeh bermoq Koyish, o'git tarzidagi gap-so'z aytmoq. *Hamshira tanbeh berib, boshimni yostiqqa qo'ydi. "Guldasta". Boshliq bo'lganingizdan keyin gapirish emas, tanbeh berishga ham haddingiz sig'adi... S.Nurov, Narvon. Tanbeh olmoq* 1) tanbehli gap-so'z eshitmoq; 2) ish-xizmatda

og'zaki yoki yozma tarzda rasmiy jazo olmoq. *Men... sahar-mardonda tepani aylanib chiqaman deb, komandirdan qattiq tanbeh olgan edim. T.Rustamov, Mangu jasorat. Tanbeh yemoq ayn. tanbeh olmoq. Tanbehini bermoq* Jazo bo'ladigan ish yoki gap-so'z qilmoq; jazosini bermoq. *Manman kishining bunda bo'ynin sug'urib, Agar ko'rsam, tanbehini beraman. "Bahrom va Gulandom". Tanbehini yemoq* Adabini, ta'zirini yemoq. *Odam tiqilinch bo'lgan bu vagonda joy topolmasdan, eshikning oldida o'tirib, toza tanbehini yedim. M.Muhammadjonov, Turmush urinishlari. Sobirning qiyofasida tanbeh yeb, tavba qilish emas, o'z istagidan qaytmaslik hissi barqaror edi. F.Musajonov, Himmat.*

2 Kamchilik, xato kabilarni qayd etuvchi gap-so'z, fikr-mulohazalar. *...bu ishdan ham ayrilib qolmay, deb astoydil ishladi, xo'jayinidan biron tanbeh eshitmadi. Y.Xaimov, M.Rahmon, Hayotmamot. Ularning maslahati, yo'l-yo'rig'i va tanbehleri aksariyat hollarda o'rinli bo'lib chiqayotganligi bejiz emas. Gazetadan.*

3 Ish-xizmatdagi tartib-qoidaga binon beriladigan rasmiy jazo. *Ishdan kechikishlari uchun tanbeh olmoq. Tartibga rioya qilmaganligi uchun komandir tanbeh e'lon qildi.*

4 *sprt.* O'yin qonun-qoidasiga zid xatti-harakat uchun hakam tomonidan aytilgan gap, so'z; ogohlantirish.

TANBEHLAMOQ 1 Tanbeh bermoq, adabini, ta'zirini berib qo'yimoq, koyimoq.

2 Ogohlantirmoq; uqtirmoq. *Uni* yiqilgan yo'g'on daraxtlar orqasiga o'tqazar, lablarini qisib, qo'llari bilan tanbehlaridi: "Yig'lama!" Oybek, Qu-yosh qoraymas. Yoz kunlari [O'zbek oyim] ayvonning to'riga yaslanib, Hasanalining xotini bo'lgan Oybo-dogqa, cho'ri qiz Hanifaga xamirni achitmaslikni, palovni qirmoch oldir-maslikni tanbehlabgina o'tirar edi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

TANBEHOT Tanbeh s. ning ko'pl. Samarqanddagi rasmiy hukumat muas-sasalari har vaqt gazeta idfasig'a "un-day yozma - bunday yoz, e'lon va buyruqlarimizni tezroq bostur", deb tanbehot va ta'limot berib, senzur ustig'a senzurliq qilib turardilar. H.Muin, Tanlangan asarlar.

TANBUR [a. طنبور - torli chertma musiqa ashobi; ud] Dastasi uzun, uch yoki to'rtta sim torli, noxun bilan chertib chalinadigan musiqa ashobi. *Tanbur chalmoq. Tanburni sozlamog. — Barot* polvon "dodxoh kelibdi, shekilli", deb samovar tomonga qaragan edi, dutor, tanbur, g'ijjak, nay, doira ko'tarib kelayotgan mashshoqlarga ko'zi tushdi. M.Ismoil, Farg'ona t.o. ...butun atrof-javonibni, qorli tog' cho'qqilari-yu yam-yashil libosga burkangan qir-adirlarni tanbur navosi, sato nolasi tutadi. X.Do'stmuhammad, Yolg'izim - Siz.

Eshakning (yoki ho'kizning) qulo-g'iga tanbur chertmoq (yoki chalmoq) Gapni uqib olmaydigan (olmagan) shaxsga nisbatan qo'llanadi. -Ho'kizning qulog'iga tanbur chertdimmi, nodon xotin! - qizarib ketdi Yormat. - Kimga bo'lar edi, boy otam o'ziga so'rayapti.

Oybek, Tanlangan asarlar. *Yig'ilishdagi gaplar ho'kizning qulog'iga tanbur chertganday bo'пти-da...* A.Muhiddin, G'anisher.

TANBURCHI Tanbur chaluvchi sozanda. *Mohir tanburchi. — Alohid*a uylarda yoki maktab bog'ida [domla] ular bilan bir laganda osh yeb, dutor-chi, tanburchi va ashulachi yigit-qizlar-ni shu yerga chaqirtirib, maishat qilish-ga berildi. P.Tursun, O'qituvchi.

TANDA 1 Mato to'qish uchun uzunasiga, bo'ylama tortilgan ip, o'rish. *Tandasi ham, arqog'i ham sof ipakdan tayyorlangan atlas. — Etagi* olislarga cho'zilib ketgan cho'l to'quvchi dast-gohidagi tandaga, yangi obod bo'lgan joylar esa shu tandaning asta-sekin to'qilib kelayotgan sergul matosiga o'xshardi. S.Ahmad, Cho'l burguti. *Bo'zchilar tanda* yoyib, ipni ko'k bo'yoqqa bo'yaydilar, bir tomoni dag'al, qilli, g'o'laday og'ir asbobni tanda ustidan yuritib, ipni silliqaydilar. Oybek, Bolalik xotiralarim.

Tanda qo'yimoq 1) mato to'qish uchun uning o'rishini tartibi bilan tortib chiqmoq; 2) ko'p marta borib kelmoq, biror joyga serqatnov bo'lib qolmoq. *Inoyat* oqsoqol Marg'ilon bilan Chor-terak orasiga tanda qo'yib qolgan. S.Ahmad, Ufq. *Menam* shunisiga dog'man-da, uka. Keyingi vaqtlarda Turdi g'ilay idoraga tanda qo'ygan. A.Ko'chimov, Halqa. *Allaqanday* o'lak-sa uloqchasi og'riganda uning [Salom do'xtirning] eshigiga tanda qo'yadigan odamlar iti dardga chalinganda parvo qilishmasdi... N.Norqobilov, Oqbo'yin. ...qani edi, shunday og'ir kunlarda eri bilan yarashish epini qilganida, loaqal

tergovxonaga tanda qo'yishdan najot yo'qligini, Ashurni Zobitov emas – o'zlari, qolaversa, qonun ozodlikda qoldirganini tushunib yetganida edi... X.Do'stmuhammad, Chayongul. Avval Boliqul bobonikida bir oycha yotib yurdi. Keyin biznikiga kelib, bobom bilan oshna tutinib qoldi-yu, shu yerda tanda qo'yib qoldi. S.O'nar, Bibisora.

2 ko'chma O'rish iplari kabi tortilgan nur, tola va sh.k. haqida. Quyosh ham shoshqaloq bo'lib qoldi – tandasini darrov yig'ishtirib oldi. Oybek, O.v. shabadalar.

TANDACHI Tanda qo'yuvchi usta.

TANDIR [a. تَنْدِير – tandir, pech; o'choq] Non, somsa, kabob kabilarni yopib pishirish, tayyorlash uchun loydan yasalgan qurilma. Tandirga o't yoqmoq. Tandirda non yopmoq. Tandirdan yangi uzilgan issiq non. Uyida chaksa uni yo'q, tom boshida qo'sh tandir. Maqol. — [Starshinaning] Tandirdan chiqqan shirmoy non kabi bo'rtib turgan yuzida sho'x tabassum paydo bo'ldi. M.Muhamedov, Qahramon izidan. Har gal non yopishganda, unga atab jajjigina kulcha yasar, to qo'llari kuyib, tandirdan uzib bermaguncha, Mansur poylab o'tirardi. O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol.

Supradagi unga qaramay, tandirga o't qalaydigan Bor yoki yo'q ekanini surishtirmay, ahvoli bilan hisoblashmay hotamlik qiladigan, errayim. Rais supradagi unga qaramay, tandirga o't qalaydigan xilidan. S.Ahmad, Hodivoy. **Tandirdan uzilgan** 1) issiq, qaynoq. Ajabo, nega muncha iliq, haroratli bu tuproq? Hidi-chi? Unda tandirdan endi uzilgan non, xir-

mondagi yangi paxta va yana qandaydir yurakka yaqin, tanish hidlar bor. M.Safarov, Ayrishox; 2) yangi, so'nggi. Mana, kitob qo'limizda. Har tomonlama ko'nglimiz to'ldi, tasanno! Nashriyotda bu go'zal mahsulotlarga mehnati singganlarning barchasiga tashakkurlar ayta-ayta, endigina "tandirdan uzilgan" kitoblarimizni bag'rimizga bosganча xayrlashdik. Gazetadan.

TANDIRKABOB Qo'y, echki go'shtiga ziravorlar sepib, archa barglarini qo'shib, tandirda tayyorlanadigan taom. Katta-katta fan ulamolarining tandirkabob chaynab, oliy mehmonning og'ziga tikilib o'tirishi erish tuyulardi. E.A'zam, Kechikayotgan odam. Tandirkabob hidini olgan Sezgir ochiq eshikdan mo'raladi. M.Safarov, Ayrishox. G'uzordan tandirkabob, Denovdan mayiz keldi. Marg'ilondan qandolat, Seuldан salat keldi. S.Sayyid, Qurbon Eshmat kelmadi.

TANDIRSOZ ayn. **tandirchi**. Ma'rakadan qayta turib, yo'lda Mahkam ota negadir tandirsoz ustani esladi. I.Zoyir, Qismat o'chi. Sharpa ko'z ilg'ar masofaga yaqinlashganda, uning yuz tuzilishi tandirsoz ustaga monand, kiyinishidan darveshga o'xshardi. I.Zoyir, Qismat o'chi.

TANDIRXONA Tandır joylashgan maxsus xona. Tezaklar taxlangan tandirxonaga qarab-qarab qo'yganida ko'zlarida qo'rquv zohir bo'lishigina samimiy edi uning. A.Qorjovov, Sandiqda saqlangan sir.

TANDIRXO'RLIK Tandirkabob yeyish. Hozir ular Sodir uchastkavoyning uyida tandirxo'rlik qilishyapti. N.Norqobilov, Tog' odami.

TANDIRCHI Tandir yasovchi (tayyorlovchi) usta. *Qo'qonning Isfara guzarida Muso tandirchi o'g'li Abdulhayni uylantiryapti. H.G'ulom, Toshkentliklar. Parfi so'tak bilan Farmon kal orqalariga qaytib, Pirmuhammad tandirchi yoniga kelishdi. Mirmuhsin, Me'mor.*

TANFURUSH [tan + f. فروش – sotuvchi] Erkaklar bilan jinsiy aloqa hisobiga kun ko'ruvchi buzuq xotin; fohisha, g'ar. *Fuod afandi tanfurushlar gumashtasi bo'lib, qora qabih bir maxluq edi. M.Ismoilij, Farg'ona t.o. "Nega men... oddiy bir tanfurush qiz qarshisida yuksak xayollarga berilib o'tiribman?..." degan fikrga bordi [Sobit]. H.Temirov, Qora qasr asirasi.*

TANFURUSHLIK O'z tanini, nomusini sotib kun ko'rish; fohishalik. *Qizlar 10–15 chog'li mijozning "dillarini xushnud aylab", tanfurushlik korxonasi uchun har kuni ikki-uch ming dollar hisobida daromad keltirishar edi. N.Hoshimov, Zebuzar.*

TANGENS [lot. tangens – tegib turuvchi] mat. To'g'ri burchakli uchburchakda o'tkir burchak qarshisidagi katetning boshqa katetga nisbatidan iborat trigonometrik funksiya.

TANGO [isp. tango] To'rt taktida o'ynaladigan muloyim raqs va shu raqs musiqasi. *Tangoga raqs tushmoq. — "Cher" takliflarga chek qo'yish maqsadida uni o'zi tangoga olib tushmoqchi bo'ldi. P.Qodirov, Uch ildiz.*

TANHO [f. تنها – bir, yagona, yakka-yolg'iz] 1 Boshqa kimsadan, narsadan xoli, yakka, yolg'iz. *Hamma yoqni saqlar muz tog'idan g'ov, Jimlikka tikilgan bir tanho o'tov. G'.G'ulom.*

Qiz bilan yigit suhbatining tanho guvohi – osmonda suzib yurgan oy – qarshisidagi qora bulut parchasiga ay-yorlarcha sekin kirib yashirindi. F.Musajonov, Huri. Uyqum qochgach, ko'chalarni tanho aylanib, shirin orzular og'ushida tong otguncha kezib yurgim kelardi. O.Yoqubov, Ikki muhabbat. Dunyoda topganing Vatandir tanho, Senga xalqing o'zi suyanch, avvalo. A.Oripov, Everest va ummon. Inson degan qulug' so'zning tengi yo'q hech bir, U tanhodir, falaklarning quyoshi misol. A.Oripov, Yangi she'rlar.

2 Kimsasiz, hech kim yo'q. *Tanho kechada farzand bilan ota o'rtasida bo'lib o'tgan u uchrashuvni faqat ko'kda suzib yurgan oyning kemtik o'rog'i kuzatib turardi. S.Ahmad, Qadrdon dalalar.*

3 Biror jihatdan yakka-yu yagona, tengi, o'xshashi yo'q. *Gilos shirinmi yo sen! Shirinlikda tanho sen. R.Bobojon. Husn bobida tanho desam, hunar bobida ham tanho ekansan. O'.Umarbekov, Odam bo'lish qiyin.*

4 ko'm. vzf. Ayirish, chegaralash bildiradi; faqat. *U dargohda rang bor, olov bor, Tanhogina sen yo'qsan, gulim. R.Parfi, Ko'zlar. Qani endi, butun borliqqa tanho o'zing hukmron bo'lsang. F.Musajonov, Himmat.*

TANHOLIK 1 Yakka-yu yagonalik, tanho ekanlik. *Go'zallikda tanholik. — Predmetni aniqlash yoki shaxsning tanholigini ta'kidlash uchun qo'llangan "o'z" so'zi o'zlik olmoshi deb ataladi. "O'zbek tili".*

2 Yolg'izlik holati; yolg'izlikdagi hayot; yolg'izlik. *Unsin tumorcha shaklli hovlida aylanadi, tanholik va hasrat*

uning yuragini ezadi. Oybek, Tanlangan asarlar. *Oynisa yolg'iz qoldi. U umrining ko'p qismini shunday yolg'izlikda, xavotirlikda o'tkazgan, tanholikka ko'nikkan bo'lsa ham, bu galgisi nihoyatda og'ir tuyuldi.* H.G'ulom, Toshkentliklar. *Keyingi kunlarda Avazni yana tanholik o'rtay boshlagan edi.* S.Siyoyev, Avaz.

TANILMOQ 1 Tanimoq fl. majh. n. U, niqob ochilib, tanilib qoldi.

2 Nom chiqarmoq, dong taratmoq, ma'lum-mashhur bo'lmoq. *Bu hofiz butun olamga tanilgan.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Shunday qilib, u tez fursatda el-yurt orasida "Hakimcha tabib" nomi bilan tanildi.* K.Yashin, Hamza. *Oradan ko'p yillar o'tdi, Tamaraxonim mashhur aktrisa bo'lib tanildi.* H.Nosirova, Men o'zbek qiziman.

TANIMOQ 1 Tanish bo'lmoq, bilmoq. *Men uni ikki yildan beri taniyman. Bu yerda u hech kimni tanimaydi.* — *Adolatni taniganlar unga hayron bo'lib, baqrayib qarab qolar, ba'zi bировlar yuzini o'girar...* edi. S.Zun-nunova, Gulxan. *Nurinisoni yaqindan taniganlar u bilan har vaqt juda ehtiyot bo'lib muomala qilar edilar.* Oybek, Tanlangan asarlar.

2 O'ziga tegishli yoki tanish kimsani, narsani ko'rinishidan yoki boshqa biror belgisidan bilmoq, ajratmoq. *Ovozidan tanimoq. Ko'zidan tanimoq.* — *Darvozabon bekni tanib, qo'l qovushtirdi.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar. *Eshelonning keyingi to'xtashida vagon tirqishidan qarab turgan Isroil Azimov bu stansiyaning tanib, "Penza" dedi.* I.Rahim, Chin muhabbat. *Loy va tuproqqa qorishgan jangchilarni tanimoq qiyin edi.* Oybek,

Quyosh qoraymas. *Hay, u qizni o'zing ko'rsang taniysanmi?* S.Siyoyev, Avaz.

3 Farqiga boradigan, yaxshi-yomonni ajratadigan bo'lmoq, ajrata bilmoq. *Oting borida yo'l tani, aqling borida el tani.* Maqol. — *Sen azaldan odam taniysan. Ko'nglingga bir narsa kelmasin-u, og'ayni, Shoabdufattoh Xo'jayev — o'g'il bola yigit.* A.Qahhor, Og'aynilar. *Gilam taniydigan odam ikki mingga indamasdan oladi.* A.Qahhor, Asarlar. *Jo'ra boshqa otlarga bir zum ko'z tashlab: — Agar ot tanisang, risoladagi saman — shu, — dedi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

4 Haq-huquqi, obro'yi, mavqeyi va sh.k. bilan hisoblashib muomala qilmoq, tan olmoq. *Biz Musulmonqulni tanimaymiz! Bizning boshlig'imiz Xudoyor-xondir!* A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

Esini (yoki aqlini) tanimoq Esi kirib, ulg'ayib, ongli ravishda ish qiladigan va ko'rgan-kechirganlarini eslay oladigan bo'lmoq. *Biz, raisimiz aytmoqchi, endi esini tanigan boladaymiz: ko'p narsaga qiziqamiz, ko'p narsani bilgimiz keladi.* A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. *Mirpo'lat Temirovich gapning po'stkallasini aytdilar, esimni taniganimdan beri bu — ikkinchi marta etik kiyishim.* S.Mahkamov, Shogird. **Haqini tanimoq** O'z haq-huquqini bilmoq, haq-huquqini o'z qo'lga olmoq. *Davlatyor ta'riflagandek, "haqini tanimagan" bu bechora [Xudoyqul] shu ravishda hayot kechirar edi.* P.Tursun, O'qituvchi. **Odamni tanimaslik (yoki tanimay qo'ymoq)** Juda mag'rurlikka berilib (havolanib), hech kimni men-simaslik, pisand qilmay qo'ymoq. *Shunday qilib, kunni o'tkazaverdi. Burun-*

giday odam tanimaydigan bo'lib ketdi. "Bahrom va Gulandom". Ravshan Musayev sovxozning 4-bo'limiga boshqaruvchi bo'ldi-yu, uncha-muncha odamni tanimay qo'ydi. "Mushtum". Oq-qorani tanigan Yaxshi-yomonni ko'rgan, ko'p narsani, dunyoning bordi-keldisini bilgan. Siz oq-qorani tanigan adamsiz, Abdishukur. Oybek, Tanlangan asarlar. Xat tanimoq O'qish-yozishni bilmoq, savodli bo'lmoq. Ana, sizning mehribon Oyimxon opangiz. Rayonga borib, uch oy o'qib keldi. Ha, sal-pal xat taniydigan bo'пти. P.Tursun, O'qituvchi.

TANIQ Tanib olish uchun qo'yilgan yoki tabiiy mavjud bo'lgan belgi, nishon. Yo'qolgan otingizning qanday tanig'i bor? — Mahmudshoh hayron bo'lib: — Agar sizning qullaringizga o'xshasa, birorta tanig'i bordir? — debdi. "To'qliboy".

Taniq bermoq Taniganligini bildirmoq, ma'lum qilmoq; guvohlik bermoq. Qishloqda Mulla Mamajonni ilgaridan taniydirgan kishilar: — Bu yillar [1928–1929] falon mozorning daxmasida shayxlar bilan birga edi, — deb taniq beradilar. G'.G'ulom, Tirilgan murda.

TANIQLI 1 Tanib olish uchun qandaydir belgisi yoki belgilari bo'lgan; tanish. Taniqli ko'cha. — Tamg'a kabi taniqli, Har yerda bir iz... Uzoqlarda jiladi Uch-to'rt xotin-qiz. H.Olimjon.

2 Ko'pchilikka ma'lum, ko'pchilik taniydigan; atoqli, mashhur. Taniqli shoir. — Ko'pchilik oldida aytishib o'tirish ikkingizga ham yarashmaydi, ...ikkingiz ham el-yurtda taniqli odamlarsiz. 1.Rahim, Ixlos. Mirkarim aka eski

shaharga taniqli odam. Y.Shomansur, Qora marvarid.

TANITMOQ 1 Tanimoq fl. ort. n. Yuzlarini tanitmaslik maqsadida, turli shakldagi mo'ylov-u soqol va yuz-u sochning tusini o'zgartiradigan moy surtmalar g'amlashgan. "Mushtum".

2 Ma'lum qilmoq, bildirmoq, aytmoq (o'zini, kimligini). Otasiga uchrab, o'zimni tanitdim, qimtinib-tortinib, arzimni aytdim. "Mushtum".

3 Ma'lum-mashhur qilmoq. Ana shu saksoyullar, ana shu barxanlar-u qo'y-qo'zilar mening odamligimni tanitdi... M.Salom, Kechirim. Mehnat, xalq ishiga sadoqat Safarovni barvaqt elga tanitdi. "O'zbekiston qo'riqlari".

TANISH 1 Tanimoq fl. har. n. Bir-birini tanish. Xat tanish. Oq-qorani tanish. — Yangi kiyimlar kiyib, chindan ham tanish qiyin bo'lib qolgan El-murodni ko'rib... ko'zlari olayib ketdi. P.Tursun, O'qituvchi. Agar jinoyatchi qo'lga tushsagina, Umar uni tismollab tanishi mumkinligini tushundi tergovchi. S.Yunusov, Kutilmagan xazina.

2 sft. Kimsaga avvaldan ma'lum, kishilar taniydigan, biladigan. Tanish odam. Tanish ovoz. Tanish ish. Tanish imzo. Bu yerlar unga bolalikdan tanish. — Ziyodilla tanish dala yo'lidan xayol surib borardi. H.G'ulom, Mash'al. Uning qo'lida Zulfiqorga tanish kichik xanjar yaltirab turardi. Mirmuhsin, Me'mor.

3 ot Kimgadir ma'lum bo'lgan, u taniydigan va ma'lum darajada munosabat-alokasi bo'lgan shaxs. Qani, yur, temiryo'lda tanishim bor edi. S.Karomatov, Oltin qum. To'riqni bir tanishinikida qoldirdi-da, o'zi... sha-

harga jo'nadi. S.Anorhoyev, Oqsoy. O'ho'!.. Eski tanishlar to'planadigan kun ekan-da bo'lmasam. "Mushtum".

Ko'z tanish Faqat ko'rganda salom-alik qilishib yuradigan, hali unchalik aloqa-munosabati bo'lmagan tanish. *Murodjon bilan hali tuzugroq tanisha olganimcha yo'q. U ham mening kimligimni yaxshi bilmaydi. Faqat ko'z tanishmiz, xolos. G'ayraty, Uzoqdagi yor.*

TANISH-BILISH Bir-birini taniy-digan va ma'lum jihatdan aloqa-munosabati bor shaxs(lar). *Sumka, to'r-xalta ko'targan odamlar uy-uyiga shoshilishar, tanish-bilishlarini ko'rib, bayram bilan qutlashar edi. O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. -Endi, do'xtir, hozir qaysi institutga borsangiz, tanish-bilishning bolasi kiradi. O'.Hoshimov, Nur borki, soya bor.*

TANISH-BILISHCHILIK Oraga tanish odamlarni solib, ishini bitirish; o'zaro yaqin munosabatlardan o'z manfaati yo'lida foydalanish. *Bugungi kun-da loqaydlik, befarqlik, ikkiyuzlamachilik, tovlamachilik, firibgarlik, urug'-aymoqchilik, tanish-bilishchilik, poraxo'rlik kabi illatlar adliya organlari tizimida ham hali-hamon uchrayotganligiga guvoh bo'lib turibmiz. Gazetadan.*

TANISHLIK 1 Tanish bo'lish, tanish ekanlik. *Ish bilan tanishligi unga qo'l keldi. — Yigitalini hammamiz yaxshi taniymiz... Ammo hozir bu tanishlikning sira ahamiyati yo'q. S.Karomatov, Bir tomchi qon.*

2 O'zaro tanish-bilish holati, tanish-bilishlik munosabati. *Menga qolsa, bu ishda hech bir qo'rqadigan gap yo'q, usta bilan tanishligi bo'lsa, uning uyiga*

mehmon bo'lgandir. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Bu odam bizning uyimizda nima qilib o'tiribdi? U bilan tanishliging bormi? "Mushtum".

TANISHMOQ 1 Tanimoq fl. birg. n. *Ular meni tanishmadi. Toshkentimiz shunday o'zgarganki, uni uzoq ko'rmaganlar hozir tanisha olmaydi.*

2 Kimsa bilan o'zaro tanish bo'lmoq, bir-birini tanib, bilib olmoq. *Bekmurodov bilan o'tgan yili dam olish uyida tanishgan edim. S.Ahmad, Yulduz. Odatda, ko'pchilik qizlarning husni tanishib, suhbatlashib, do'stlashib ketganingdan keyin ochiladi. Shuhrat, Shinnelli yillar. Albatta, o'zing birga borasan, qudalaring bilan tanishmog'ing ham zarur. A.Qodiriy, O'tgan kunlar.*

3 Mufassal o'rganmoq, ko'rib chiqmoq, bilib olmoq. *Ish bilan tanishmoq. Shahar bilan tanishmoq. — U guvala devorli ko'chalarda uyma-uy yurib, kolxozchilarning turmush sharoiti bilan tanishib chiqdi. Y.Shamsharov, Toshqin.*

TANISHSIZLIK 1 kam qo'll. Tanish emaslik, notanishlik. *Ish bilan tanishsizlik.*

2 Tanishlari yo'qlik. *Shahringizga birinchi marta kelishim bo'lgani uchun, tanishsizlik, yolg'izlik meni juda zeriktirgan edi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar.*

TAN-JON, tan-u jon Kishining butun borlig'i, vujudi. *Bu hovliga kelganida, u yayrar, tan-joni orom olardi. Mirmuhsin, Topilgan husn. Ham hadik, ham ehtiros bilan tan-joni yonib ketgan Shahzodaxon Olchinbekning quchog'idan zo'rg'a sug'urilib chiqib oldi. K.Yashin, Hamza.*

Tan-joni sog' Sog'-salomat, sihat-salomat. *Nafisaxon Hafizani quchib: -Yaxshi yuribsanmi, tan-joning sog'mi? - dedi. Mirmuhsin, Umid... eshushi joyida, qaddi-qomati kelishgan, tan-joni sog'... manman degan bitta yigitning ishini bahuzur qiladigan xotin edi-da. A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari.*

TANK [ingl. tank – zirh bilan qoplangan, zanjirda yuradigan harbiy mashina < shu mashina ixtirochisining familiyasi (Tank) dan kelib chiqqan] 1 Zirhlangan, to'p va pulemyotlar bilan qurollangan, har qanday yo'lga moslashgan, zanjirda yuradigan harbiy mashina. *Og'ir tank. Yengil tank. Tank diviziyasi. — Bu yoqqa [qishloqqa] madad uchun yuborilgan nemis tanklarining yo'lini bizning tanklarimiz to'sgan, soylikda tanklar jangi bo'l-mogda edi. A.Qahhor, Oltin yulduz.*

2 Suyuqliklarni saqlash va tashish uchun mo'ljallangan, maxsus jihozlangan katta idish.

TANKA [yap. tanka – qisqa qo'shiq] ad. Yapon she'riyatida beshlikdan iborat she'riy shakl. *U [Takuboku] tankani qadimiy shoirlar yolg'izlik izlab intilgan tabiat olamiidan o'zi yashab turgan odamlar olamiga olib qaytdi. X.Davron, Takuboku va tanka haqida.*

TANKER [ingl. tanker] Suyuqliklarni, suyuq yuklarni tanklarda (q. tank 2) tashiydigan maxsus kema. *Avvalroq xaridorlar kamligi va neft omborlari to'lib ketgani sababli neft tankerlarda saqlanayotgani bildirilgan edi. Gazetadan.*

TANKETKA I [ingl. tankette – kichkina tank] Razvedka, aloqa uchun

xizmat qiluvchi zanjirli yengil jangovar mashina (XX asrning 20–30-yillarida).

TANKETKA II [r. танкетка] Tagcharmi tovonga tomon qalinlashib boradigan, xotin-qizlarbop yengil oyoq kiyimi.

TANKCHI Tank qismida xizmat qiluvchi harbiy xodim. *Tankchilar jangga kirdi. — Tankchilarimizning jaso-ratiga oid juda ko'p jangovar epizodlar ko'z oldimda turibdi. "Yoshlik". Qis-mimizdagi tankchilar batalyoni ko'p ta-lafot ko'rdi. Q.Norqobil, Daryo ortidagi yig'i.*

TANLAMOQ I Biror belgi-xususi-yati, xislati va sh.k. ga ko'ra ajratmoq, belgilamoq. *Qovun tanlamoq. Qo'yning semizini tanlamoq. — Polvon uchinchida'f'a keltirilgan toshlar ichidan... bir toshni tanlab oldi-da, yaxshilab artish-ga va bir tomonini yo'nishga buyurdi. A.Qahhor, Ko'r ko'zning ochilishi. Unga qiz tanlash, qishloqning eng bi-rinchi qizini topib berish onaning ishi emasmi? I.Rahim, Ixlos. ...yosh tolga chiqib olgan yigit boltacha bilan silliq shoxlarni tanlab kesardi. O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol.*

2 Ma'qulini belgilamoq, ma'qul topmoq, o'zi uchun ma'qul deb bilmoq. *Kasb tanlamoq. Eshakning tanlagani – sho'ra. Maqol. Tanlagan yo'lidan qayt-maslik. — Bog'ning eng "tubi"da, ser-daraxt va pastqamlikda kafe bor. Ahmad shu kafeni tanladi. F.Musajonov, Him-mat.*

3 Umuman, belgilab, ajratib olmoq. *-Qayoqqa bo'lardi, uyga-da, – qo'rslik bilan javob berdi chol. – Har kim o'z molini tanlab olsin, degan buyruq chiqibdi-ku! S.Ahmad, Hukm.*

Tanlab (yoki **tanlab-tanlab**), **toz**isiga uchramoq Tanlab-tanlab, eng yomoniga, nobopiga uchramoq. *Qancha odamlardan, qanday yaxshi joylardan sovchi keluvdi, hammasiga yo'q deb, endi... Tanlab-tanlab tozisiga uch-rapti, degani shu-da. M.Hazratqulov, Eshiklar ochiq.*

TANLANISH 1 Tanlanmoq fl. har. n.

2: Tabiiy tanlanish biol. Yashash uchun kurashning natijasi bo'lib, jonli organizmlarning evolyutsion taraqqiyot jarayonida hayotiy sharoitlarga moslashib borishi va yashab qolishidan iborat biologik qonuniyat, jarayon.

TANLOV San'at, ilm-fan va boshqa sohalarida erishilgan yutuqlardan eng yaxshisini aniqlash uchun tashkil etiladigan musobaqa. "Parizod" filmi Ros-siyaning Anapa shahrida o'tkazilgan "Kinoshok" tanlovida gran-prini qo'lga kiritdi. A.Yo'ldosh, Puankare.

TANMAHRAM [tan + a. محرم — ya-qin qarindosh; haramga kirish huquqi bor] Turmush o'rtoq. Yigitlik gulshanini tark etib, qarilik sahrosiga yuz tutayotgan vujudi bir muloyim, bir ma'suma va iymonli tanmahram istaydi. S.Siyoyev, Yassaviyning so'nggi safari. Ota-onalarining armonlari soyasida ulg'aygan qizlar nikohdan so'ng tanmahramlari-dan vatanlari haqida eshitgan nurli hi-koyalarga bir ishonib, bir ishonmay sa-farga otlanishgan edilar. T.Malik, Shay-tanat.

TANMAHRAMLIK Er yoki xotin bo'lish. Ammo Olloh shohid: Sherbo'ta Norbo'tayev Bibisorani tanmahramlikka so'ragan mahalda bergan hamma

va'dalarini bajo keltirdi! O.Yoqubov, Adolat manzili.

TANNARX [tan + narx] iqt. Korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish hamda ishlar bajarish yoki xizmat ko'rsatish uchun qilingan jami joriy xarajatlarining pul shaklidagi ifodasi; mahsulotning ish haqi va ishlab chiqarish xarajatlaridan iborat o'z narxi. Mahsulot sifatining yomonligi, tannarxining qimmatlashgani haqida nega lom-mim demaysiz. "Mushtum". Tup-roqqa qo'shiladigan polimerlarning tannarxi uncha qimmat emas. S.Karomatov, Fan — bizning kompasimiz.

TANNOZ [a. طناز — masxara qiluvchi; noz qiluvchi] 1 O'ziga oro berib, noz bilan yuruvchi; nozli harakatlar qiluvchi. Bir tannoz qiz dabdaba bilan idoraga kelib dedi: -Ment sekretarlikka qabul qilsangiz. "Mushtum". Sertaman-no, kekkaygan tannozlar yoxud nima desang, xo'p deb ko'naveradigan cho'risifat laqmalar darrov me'daga uradi. F.Musajonov, Himmat.

2 Biror foydali ish-yumush bilan shug'ullanmay, o'ziga oro berishdan, o'yin-kulgidan boshqani bilmaydigan, olifta. Beish tannozlardan orttirib ulfat, O'yin-kulgilarga berding ko'ngilni. E.Oxunova, Shu ham baxtmi? Tavba deng, bolam, bo'ydoqsiz, shunday tannozlardan biriga uchrab... "Guldasta". Sovuq suvga qo'l urmas tannozini Yetaklab, qayoqqadir boshlab ketdi. "Mushtum".

TANNOZLIK Tannozlarga xos ish, noz, karashma. Tannozlik qilmoq. — Ayntqsa, boy qizlarining yurishida, harakatida tannozlik, tantiqlik ochiq sezilib turadi. H.Nu'mon va A.Shorah-

medov, Ota. *Qiz hamon boshini quyi solib turar... tannozlik o'rnini endi qandaydir muloyim osoyishtalik egalagan...* J.Abdullaxonov, Oriyat.

TANOB [a. طنب / طنب – ip, arqon; pay; tomon, taraf] 1 esk. Yer o'lchash, uzunlik o'lchash, chiziq tortish va sh.k. larda ishlatiladigan uzun chilvir, reja ip.

Tanob tortmoq (yoki urmoq) Reja ip tortib o'lchamoq. *Matchon to'ra kuzda hosilni yig'ishtirib olgach, qumgacha cho'zilgan bo'z yerlarga tanob urdirib, o'ziga qo'shib oldi.* J.Sharipov, Xorazm.

2 kam qo'll. Umuman, ingichka arqon, chilvir yoki kanop ip, rishta. *Shohning amri bilan ming polvon va kal ikki kecha-kunduz yo'l tortib, Go'sha tog'iga yetib, chortig'lar [chodirlar] tanobini tortib... yotaverdi. "Zulfizar bilan Avazxon". Bekam-ko'st turmush kechirib, er-xotin totuv yashayotgan kezlarda to'satdan bu inoq oila charxi-ning tanobi uzildi.* I.Rahim, Yosh xotin. *Band etib zulfing aro ko'nglimni ozod etganing, Qush uchirgandek erur bog'lab ayog'iga tanob.* Nodira.

3 esk. tar. O'rta Osiyo xonliklarida: tomonlari 60 gazdan iborat bo'lgan maydonga teng yuza (yer) o'lchov birligi. *Tong otguncha bir tanobcha yerning go'zasi suv ichdi.* I.Rahim, Chin muhabbat. *Bog'ning sathini Salim uch yarim tanob, Fazliddin uch tanob mo'ljalladi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

4 esk. tar. O'rta Osiyo, xususan, O'zbekistonda qo'llangan uzunlik o'lchov birligi (17-asrda 39,9 metrga teng bo'lgan).

5 Kashtachilikda murakkab naqshlar kompozitsiyasi asosini tashkil etuvchi

negizi, naqsh shakl beruvchi chiziq. *Naqsh kompozitsiyasini chizishda tanob birinchi darajali chiziq bo'lib, uning ustidan hech qachon gul, novda yoki barg bosib o'tmaydi. "Kashtachilik san'ati tarixi".*

Og'zining (yoki labining) tanobi qochmoq ayn. og'zining bog'ichi qochmoq q. bog'ich. *Murodovani ko'r-ganda og'zining tanobi qochadigan Zunnunov bugun haqiqatan ham xomush ko'rindi.* I.Rahim, Ixlos. *-Bor, yana bir miridan tashladim, – deb yubordi. Inglizning labining tanobi qochib, iljaydi.* K.Yashin, Hamza. **Tanobini tortmoq** 1) yo'l, hajm va sh.k. jihatdan qisqartmoq, kamaytirmoq. *Mingan oti jonivor Yo'lning tanobini tortdi. "Nurali". Umridan baraka topsin. Cho'lning tanobini tortyapti.* S.Ahmad, Qadrdon dalalar. *Ovqatning tanobini tortib qo'yishdi.* I.Rahim, Chin muhabbat; 2) bo'lmag'ur, nomaqbul ish-harakatga chek qo'ymoq, shunday xatti-harakatdan tiyib qo'ymoq. *...xo'jaliklarning badaniga zulukday yopishib olgan mana shunaqa odamlarning tanobini tortish kerak.* A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. *Amakisiga yon bosgan o'g'lidan ham ranjidi. Tanobini tortib qo'ymoq niyatida uyga kelsa, Javhar yo'q.* J.Abdullaxonov, Xonadon. *Ahmad Polvonning tanobini tortib qo'yish faqirning chekiga tushgan!* A.Dilmurod, Pahlavon Muhammad.

TANOBIY [a. + f. طنبی / طنبی – katta umumiy xona, mehmonxona, zal] Umumiy bino, imoratda boshqalariga nisbatan katta, maxsus bezatilgan va mehmonlar kutib olinadigan xona. *Xobgohdan ikki xona narida hashamatli*

tanobiy uyda allaqachon tuzab qo'yilgan dasturxon mirzoga muntazir edi. P.Qodiriy, Bobur. Bobur mirzo tuya kigiz to'shalgan tanobiy xonada darchadan tashqariga qarab, xomush tiki-lib o'tirardi. X.Sultonov, Bir oqshom ertagi. Tanobiy xona mayin musiqa, jarang kulgi, zarofatli gurung ila yash-nay boshladi. S.Siyoyev, Yorug'lik.

TANOBLAMOQ Tanob tortib, yer o'lchamoq. *Ming tanoblab hisoblangan olmazor. G'.G'ulom, Shum bola.*

TANOBCHI 1 *esk.* Tanob tortib, yer o'lchovchi kishi. *Boy, tanobchi olib kelib o'lchatib... ikki tanob chiqartirib olgan edi. Mening taxminimcha, boy o'lchab olgan yer ikki tanobdan ortiq edi. S.Ayniy, Qullar.*

2 *tar.* Soliq olish uchun yer o'lchovchi lavozimli kishi. *Yasovulboshi Sher-nazarboy xonning buyrug'ini ko'ngil-dagiday bajara boshladi, qishloqlarga tanobchilar yubordi. J.Sharipov, Xo-razm.*

TANOSIB [*a. تناسب* – bir-biriga mutanosiblik va uyg'unlik, moslik] 1 O'zaro mutanosiblik va uyg'unlik. *Holbuki, tasvir g'oyat bekam-u ko'stga o'xshardi: keng porloq manglay, beozor dard aks etgan o'ychan ko'zlar; ajib yorug'lik tanosibi... X.Sultonov, Bir oqshom ertagi.*

2 *ad.* Sharq mumtoz she'riyatida: she'r baytlarida ma'no jihatdan bir-biriga yaqin, o'zaro munosabatdosh bo'lgan tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llab (mas., *jon – badan; yuz – og'iz – ko'z; haj – farz – ziyorat kabi*), ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratishdan iborat badiiy san'at turi.

TANOSIL [*a. تناسل* – ko'payish, ur-chish, bolalash] Biologik jinsga oid, jin-siy. *Tanosil a'zolari.*

Tanosil kasalliklari Jinsiy a'zolar kasalliklari. *q. venerik kasalliklar.*

TANOSUH [*a. تناسح* – ketma-ket bir-birining joyiga o'tish, ko'chish] 1 O'zgarish, evrilish. *Xullas, havaskor novchamiz o'zidagi bu tanosuh – evri-lishlardan bezor bo'ladi. E.A'zam, Ke-chikayotgan odam.*

2 Ruhning boshqa vujudga ko'chi-shi. *Menga chin tuyuladi: u chindan ham oldin yashagan, bir, balki bir necha vujudga tanosuh bo'lib, odam zoti-ning turmushini obdon sinab ko'rgan... A.A'zam, Soyasini yo'qotgan odam.*

TANOVAR [*f. تناور* – semiz, bo'liq; barvasta, gavdali] O'zbek xalq raqs kuylaridan birining nomi. *Tanovarni chalmoq. Tanovarga o'ynamoq. — Eg-nida tovlanur oppoq shol, Oyog'ida An-jon mahsisi. Kavishining kosibi halol, Tanovarning sozi, yaxshisi. T.Nizom, Vatan surati. Bu tanovarga o'xshagan she'r kitobida ham o'tib borayotgan kunning poyonsiz dardlariga to'qna-shasiz. I.G'afurov, Qiz yuragi nimalar deydi?*

TANOVUL [*a. تناول* – o'z ichiga olish, qabul qilish; qamrash; yeyish, ichish] Yegulik yeyish, iste'mol. *Ahli yig'in birpas so'zsiz qolib, taom ta-novuliga kirishadi. A.Suyunov, Asrlarni qaritgan yilboshi.*

Tanovul qilmoq Iste'mol qilmoq (yemoq, ichmoq). *-Qani, bu yoqqa, Anvar! – dedi maxdum. – Taomni shu yerda tanovul qilsak ham bo'lur. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. Iftor mahalida tanovul qilmoq uchun ko'ngil*

tusagan narsa, ozmi-ko'pmi, dastur-xonga muhayyo qilinadi. N.Safarov, Navro'z.

TANQA q. tonqa. Shishmagan joyini tanqaday etib haydab yubordi. "Go'rog'li".

TANQAYMOQ Uchi yuqoriga ko'tarilmoq va teshiklari ko'rinib turmoq (burun haqida). *Shayton shu zum g'oyib bo'ldi, Labin burib, tanqayib, Momo Havo qolabardi O'ltirganча, anqayib.* A.Oripov, Quyosh bekati. *Mehmonimiz anqayib, cho'michday burni tanqayib, goh bizga termuldi, goh ko'chaga quloq tutdi.* A.Hamro, Mehmon. *Uning qo'ng'ir qoshlari, osmondan ko'm-ko'k ko'zlari, sal tanqaygan burni, qalin lablari ko'zlarimga issiq ko'rinar, ammo uni qayerda ko'rganligimni eslay olmasdim.* A.Ubaydulayev, Qonli izdan.

TANQID [a. تنقيد – baho berish maqsadida o'rganish, tahlil qilish va shu asosdagi xulosa] 1 Ish-harakat, faoliyat, asar, ta'limot va sh.k. ning yutuqlarini qayd etish, kamchilik va nuqsonlarini belgilash va bartaraf etish maqsadidagi muhokama, tahlil. *Tahlil aylab ters-u o'ngingdan, Ikkinimni qiladi behol. Xo'p do'pposlab, tanqid so'ngida Ijodimga tilaydi kamol.* E.Vohidov, Muhabbatnoma.

2 Biror narsaning to'g'ri, haqqoniy ekanini ilmiy tahlil etish, tadqiq etish. *Tarixiy manbalarining tanqidi. Matn tanqidi.*

3 Adabiy faoliyatning badiiy, ilmiy va b. turdagi asarlarni, shuningdek, ularda aks ettirilgan bayotiy hodisalarni talqin va tahlil qiluvchi maxsus turi. *Shaxsan men adabiy tanqid faqat adabi-*

yot uchun emas, umuman, ma'naviy hayot uchun zarur ekanini... yana ham chuqurroq his etdim. U.Normatov, Talant tarbiyasi. *Adabiy-badiiy tanqid bilan adabiyotshunoslik fanining bir-biriga yaqin tomonlaridan tashqari anchagina farqlari va o'zgaliklari ham bor.* "O'TA".

4 Kamchilik, nuqson, xatolik va sh.k. ni qayd etish, qoralash, shuningdek, ularni hal etish maqsadida bildiriladigan tanbehli fikr-mulobaza, gap-so'z. *Faqat bir narsani – shu tanqidga qarshi zo'r bir dalil topib, yengib chiqishni o'ylashar edi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *Tanqid bo'g'ilgan joyda hech qanday taraqqiyot bo'lishi mumkin emas.* F.Musajonov, Himmat. *Tanqidning foydasi katta, ishimizni o'ng'arib olamiz, men buni, albatta, qilaman.* "Mushtum".

Tanqid qilmoq Tanqid tarzidagi gap-so'z aytmoq, tanqidiy fikr-mulohaza bildirmoq. *U g'o'zalarini o't bosgan zveno boshliqlarining, suv bostirib yuborgan suvchilarning nomlarini yodaki aytib, tanqid qilardi.* O.Yoqubov, Er boshiga ish tushsa. *Bo'taboyning ishlaridagi kamchiliklarni tanqid qilganimda, maktab masalasini ham qistirib o'tsam bo'lar edi.* A.Qahhor, Qo'sh-chinor chiroqlari.

TANQIDBOZ [tanqid + f. باز – yaxshi ko'radigan, berilgan] Bo'lar-bo'lmasga tanqid qilish, hamma narsadan kamchilik izlashni yaxshi ko'radigan shaxs.

TANQIDBOZLIK Bo'lar-bo'lmasga tanqid qilaverish, hamma narsadan kamchilik izlab, quruq tanqidga berilish. *Donish umrida tama ilinjida bi-*

rovni maqtab, birovning oldida egilib-bukilmagan, shaxsiy foydanigina ko'zlab haqgo'ylik, tanqidbozlik ham qilmagan. I.Haqqul, Ahmad kalla.

TANQIDIY 1 Tanqidga oid; tanqid-dan iborat bo'lgan, tanqid mazmunidagi. *Tanqidiy maqola.* — Gap tanqidiy mulohazalarga kelgan ekan, yana bir masalada... bahslashmoqchiman. U.Nor-matov, Talant tarbiyasi.

2 Tanqidchilik ruhidagi, tanqidiylik ruhi bilan sug'orilgan; tanqid ko'zi bilan qarovchi. *O'ktam o'z chopig'iga tanqidiy razm soladi.* Oybek, O.v. shab-dalar.

3 Biror narsaning to'g'ri, haqqoniy ekanligi ilmiy tahlil etilgan, tadqiq etilgan.

Tanqidiy matn Asarning bir necha variantlarini qiyoslash asosida yaratilgan matn. *Abdurazzoq Samarqandiy-ning 1442–1444-yillardagi Hindiston safarnomasi 1960-yili o'zbek tilida va forsiy tanqidiy matni bilan, asarning 1405–1427-yillar voqealari (I jild, 1-qism) 1969-yili o'zbek tilida Tosh-kentda chop etildi.*

TANQIDCHI 1 Adabiy, ilmiy, pub-litsistik asarlarni tahlil qilish, ularning ijobiy va salbiy tomonlarini, yutuq va kamchiliklarini o'rganish va baholash bilan shug'ullanuvchi adabiyotshunos. *Adabiy tanqidchi. Teatr tanqidchisi. Kino tanqidchisi.* — O'ylaymanki, roman haqida hali kitobxonlar, adabiy jamoatchilik, tanqidchilar o'z muloha-zalarini aytadilar. S.Karomatov, Oltin qum.

2 s.t. Umuman, tanqidiy fikr-mulo-haza aytuvchi shaxs.

TANQIDCHILIK 1 ayn. tanqid 3. *Tarjima tanqidchiligi hamma vaqt ijodiy me'yorni aniqlagan holda, ana shu ikki "front"da kurash olib bormog'i lozim.* G'.Salomov, Tarjima nazari-yasiga kirish. *Albatta, adabiy jarayonda badiiy asarlar bilan yonma-yon paydo bo'lib, ularning oradan chiqishi bilan umrini tugatib ketadigan tanqidchilik kitoblari ham bor.* B.Karim, Adabiy tan-qid – jiddiy ijod.

2 Ish-harakat, voqea-hodisa, ta'li-mot, nazariya va sh.k. ga tanqidiy yon-dashish, tanqidiy nuqtayi nazardan qa-rash.

TANQIS [a. تنقيص – kamayish, ozayish, pasayish; yetishmovchilik] **1** Talab, ehtiyojga nisbatan oz, ye-tishmaydigan miqdorda; kamchil, kam-yob. *Tanqis mol.* — Shag'al, qum olt-mish chaqirimdan tashiladi – bilasan, qurilishda eng tanqis narsa shu. A.Mux-tor, Tug'ilish.

2 Biror narsadan siqilgan, kamchili-gi bo'lgan; shu narsaga bo'lgan talabi, ehtiyoji yetarli darajada qondirilmagan. *Suvdan tanqis yerlar.* — [Qodir:] Ish og'ir; turmush og'ir... Ehtimol, kiyim-ke-chakdan tanqisdirlar. Uyg'un, Hayot qo'shig'i.

TANQISLIK Tanqis holat; ye-tishmaslik, yetishmovchilik; kamyoblik. *Biz ko'prik qurish bilan qurilish materiali tanqisligidan uzil-kesil qu-tulamiz.* A.Muxtor, Tug'ilish. *Kasalxo-na. Joy tanqisligi sabab olti kishilik pa-lataning kiraverishida, eshikka yaqin yerga qo'yilgan karavotda Tangritberdi yuztuban yotardi.* Z.Qurolboy qizi, Qa-dimiy qo'shiq.

TANQISCHILIK ayn. *tanqislik*. Nihoyat, oilada bo'ladigan tanqischilik ham o'rtaga tushadigan bo'lib qoldi. Sh.Xolmirzayev, Og'ir tosh ko'chsa. -Chin, o'lishni o'zi bo'lmaydi. Hozir tanqischilik davri. Ashqol-dashqolni qayerdan topyapsiz? T.Murod, Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi.

TANSA [r. танец – doira bo'lib ashula aytib raqs tushish < nem. Tanz – raqs] s.t. 1 Yevropacha raqs (tango, fokstrot, vals va sh.k.). U modani, tansani, teatr va sayillarni yaxshi ko'rardi. S.Ahmad, Qadrdon dalalar.

2 Shunday raqs musiqasi. *Bramsning vengercha tansalari*.

3 Yevropacha raqs kechasi. *Baxtiyor damlar kechaning oxiridagi tansada ham davom qilishi kerak edi*. P.Qodirov, Uch ildiz.

TANSIHATLIK ayn. *tansog'lik*. Yayrayolmas hech qachon tog'larda hattoki kiyik, Bo'lmasa gar tansihatlik birla xotirjamlik. Chustiy. *Tabarruk yoshda ham tetiklik va tansihatlik – saodat*. Gazetadan.

TANSIQ [a. تنسيق – terish, tizish; tartib bilan joylash; muvofiqlashtirish] 1 Kam qilinadigan yoki biror joyda kam bo'ladigan, lekin sevib yeyiladigan. *Tansiq ovqat. Tansiq meva. — Qaziqarta, kabob, palov, beshbarmoq, Qovun-tarvuz, meva, sarimoy, qaymoq, Tansiq hisoblangan har nimaki bor, Dasturxonimizda sizga intizor. Uyg'un*.

2 Umuman, kam topiladigan, kam bo'ladigan, kam uchraydigan; noyob. *Adolat izvoshdagi tansiq mollar, zebziynat buyumlarini ko'rib, shularning hammasi bir brigadaga tegishli ekaniga ishonmadi*. I.Rahim, Chin muhabbat.

-Juda iymansangiz, mana, bir quchoq gul, bera qolasiz... – dedi hazilsimon Komila. -Ana tansiq sovg'a! Oybek, O.v. shabadalar. [*Tantiboyvachcha*] Jondor vagonchi kabi do'stini g'oyat quvontirgan "ajoyib tansiq o'tirish" va dasining bunday ishkal bo'lib chiqqanidan uyaldi. Oybek, Tanlangan asarlar.

TANSOG'LIK Tan-joni sog'lik, sihat-salamatlik. *Polvon bobo, unday chil bermang-e, Hotam polvonga tansog'lik kerak*. T.Murod, Yulduzlar mangu yonadi.

TANTAL [lot. tantalum < yun. Tantalos – yunon mifologiyasida: ma'budlar tomonidan abadiy ochlik va tashnalik azobiga mahkum qilingan Lidiya shohining ismi] Mendeleyev davriy sistemasining V guruhiga mansub kimyoviy element, ko'kish-kulrang, erishi qiyin qattiq metall.

TANTANA [a. طنطنة – jaranglash, jarang; shovqin; g'o'ng'illash] 1 Muhim voqea, hodisa va sh.k. munosabati bilan o'tkaziladigan, o'yin-kulgi, xursandchilik ruhida davom etadigan yig'in, marosim. *Bayram tantanalari. Yangi yil tantanalari. — Tantana, hashamatni sevgan Husayn Boyqaro uyni to'ldirgan va ulug'vor ta'zim... bilan o'tirgan olo-monga faxrlanib qaradi*. Oybek, Navoiy. *Qahramonning qishloqqa qaytib kelishi katta tantanaga aylandi*. Nazarmat, Jo'rlar baland sayraydi. *May – bahor erkasi, g'alaba ramzi, Shahar, qishloqlarda tantana, bayram*. R.Bobojon.

2 Biror maqsad, faoliyat yo'lidagi g'alaba, muvaffaqiyat va uning ifodasi. *Oybek inson aql-idrokining, adolat va*

baxt-saodatning tantanasi yo'lida g'oyat ulkan ijodiy jasorat ko'rsatdi. Gazetadan. Tinchlik uchun kurash, gumanistik g'oyalar tantanasi uchun kurash ishiga yoshlar ham o'z hissalarini qo'shmoqdalar. Gazetadan. Bu qarashda Zebi qandaydir zaharli tantanani sezib, uning ma'nosiga tushundi. Sh.Rashidov, Qudratli to'lqin.

3 To'y, xursandchilik yig'ini, marosimi kabilarga oid xatti-harakat, shodiyona ishlar. Qizidan xabar topib kelgan Yormat uni Shoqosimning kulbasida tortib olib ketgach, boy hovlisida to'y tantanalari boshlandi. Oybek, Tanlangan asarlar. Uyda g'alati bir tantana hukm surardi. S.Zunnunova, Yangi direktor.

4 G'olibona, ko'tarinki kayfiyat. *Hozir u mamnuniyat va tantana bilan kulumsirab, Mahkamning yaxshi volebolchi ekanini aytdi... P.Qodirov, Uch ildiz. Suyar o'zining quvonchini tantana bilan e'lon qildi: -Bugun instruktormizni qoldirdim, dada! A.Qahhor, Asarlar.*

Tantana qilmoq 1) g'alaba qilmoq, ro'yobga chiqmoq. *Mana men ham bugun maqsadimiz tantana qilishiga tishonganim uchun shaharga tushib chiqmoqchiman. H.G'ulom, Mash'al;* 2) tantanali holatda bo'lmoq, tantanasi hukm surmoq. *Tog'da ham, pastda ham... - hamma yerda mehnat tantana qilardi. Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli. Chindan ham poyonsiz cho'lda hayot tantana qilardi. Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli.*

TANTANABOZ [tantana + f. تانز - yaxshi ko'radigan, berilgan] Tantananani, as'asa-dabdabani yaxshi ko'radigan;

quruq tantanalarga berilgan. *Nutqingizda, "Biz siyqasi chiqqan va'dabozlardan, tantanabozlardan... emasmiz", dedingiz. "Mushtum".*

TANTANABOZLIK Quruq tantanalarga berilish. Yig'ilish va konferensiyalar tantanabozlikka aylanmasligi kerak. *Gazetadan. ...oltmishinchi yillarda kelib she'riyatdan madhiyabozlik chekinganda ularning ko'pchiligi yangi narsaga darrov moslasha olmadilar, she'riyatning bayrog'ini tantanabozlik xarobalarida tug'ilgan avlod qo'lga oldi. E.Vohidov, Iztirob.*

TANTANALI 1 Tantana ega, tantana ruhidagi, tantana bilan bo'ladigan. *O'shdagi qarorgohda bu oqshom sizlarning sharafingizga tantanali ziyofat berilur. P.Qodirov, Yulduzli tunlar. Trestdagilar ilg'or binokorlar qatori Yodgorni ham tantanali kechaga taklif qilishdi. O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol.*

2 Tantana ifodali. *Go'yo ulug' bir hodisa sodir bo'lishi kutilayotgandek, yer-u ko'k tantanali qiyofa oldi. S.Anorboyev, Oqsoy. -Aha, demak, hali topganingiz yo'q. - dedi Ismoil tantanali bir ohangda... Oybek, Nur qidirib.*

3 As'asa-dabdabali, ko'tarinki ruh bilan. *Nikoh to'yi favqulodda suronli va tantanali bo'ldi. Oybek, Tanlangan asarlar. Saidg'ozu bu so'zlarni og'zini to'ldirib, alohida rasmiy tusda gapirgani uchun tantanali jaranglardi. S.Anorboyev, Oqsoy.*

TANTANAVOR ayn. tantanali. *Mashshoqlar darhol "Xon chiqar" deyiladigan tantanavor musiqani boshladilar. S.Siyoyev, Yorug'lik. Darvozaning ikkala qanoti ochib qo'yilgan, ich-*

karida tantanavor bir kayfiyat hukmron edi. D.Nuriy, Osmon ustuni.

TANTI 1 O'zgalarga yordam, sarf va xizmatini ayamaydigan, mard; ko'ngli va qo'li ochiq. *Boy va tanti kuyov xarajatlarning yirik va maydaligini surishtirmay, cho'ntaklaridan dasta-dasta pul chiqarar edi. Oybek, O.v. shabadalar. ...Bu tanti yigit o'z o'rtog'i Nizomuddinning zindonda yotishiga aslo yo'l qo'ymaydi, deb hisoblardi u. Mirnuhsin, Me'mor. Tanti, lekin bizga emas... Ziyofatlarini yegan odamlar unga Tanti ot qo'yishgan. Oybek, Tanlangan asarlar. Ivan ichkilik deganda o'zini tomdan tashlaydigan, g'iri chapani, tanti va hazilkash yigit ekan. O.Yoqubov, Osiy banda.*

2 Aldam-qaldam, g'irromligi yo'q, o'zaro munosabat, bellashuv va sh.k. da halol. *Azim tajang qimorboz edi, shuning uchun ham har bir qimorboz singari mard, tanti. M.Ismoil, Farq'ona t.o. Tanti bo'lib uzishaylik, deb Arza beklarga ko'rsatdi. "Gulixironmon".*

3 ko'chma Saxiy, halol. *Mana qator-qator karvon kelar Go'zal Farq'onaning tanti yeridan. Nazarmat, Jo'rlar baland sayraydi. O'kiyam ham O'sarjonga qarab, salmoqlanib dedi: -Xullas kalom, mehnatni ayamanglar, ana unda bu joy xiyla tanti bo'ladi. Oybek, O.v. shabadalar.*

TANTILIK Tanti odamlarga xos ish, xatti-harakat. *Yigit ko'rki esa mardlik, tantilik. Mirtemir. Tantilik shunday bo'lsin: Har kim yiqilsa, shu o'lsin, Yiqitgan alp tirik qolsin. "Erali va Sherali". [Tantiboyvachcha] Keraksiz bo'lsa ham, tantilik uchun har xil ov-*

qatlar, ichimliklar buyurdi. Oybek, Tanlangan asarlar. U [qorovu] kotibning kalondimog' odam ekanligini bilsa ham uning shu tantiligini juda hurmat qilar-di. N.Eshonqul, Yalpiz hidi. [Jamolbek:] -Mardlik qilib kelibdi, biz ham tantilik qilaylik. T.Malik, Shaytanat.

TANTIQ 1 Oртиq erkalatib, taltaytirib yuborilgan, taltaygan. *Mohim - Xorazm xoni... Allomatxonning yagona tantiq qizi, 18 yoshda. S.Abdulla, Tohir va Zuhra.*

2 Bo'lmag'ur qiliqlar qiladigan, qiliqlari kelishmagan, bema'ni. *[Saidalimxon] o'lgudek tantiq. Agar bir erkanlanishga tushib ketsa, kishi qilmagan qiliqlarni qiladi. Oydin, Hazil emish.*

TANTIQLANMOQ Tantiqlik qilmoq, taltayib erkanlanmoq, suyulmoq. *E'zozxon ochilib kuldi-da, nimchasini yechib uzatdi: -Mana, suyunchi, jonim! Tozagul tantiqlandi: -Bu bilan qutulmaysiz. Chaqalog'imga bosh-oyoq sarpo qilasiz. H.G'ulom, Mash'al. Risolat Sabohatga o'xshab tantiqlanmadi, bama'ylixtir o'tiraverdi. F.Musajonov, Himmat. Salom Merganning esa tantiqlangisi, uyquda qoldim deya zarda qilgisi, qisqasi, ayolini zir yugurtirgisi keladi. N.Norqobilov, Ovul oralagan bo'ri.*

TANTIQLIK Tantiq, erka shaxslarga xos qiliq, xatti-harakat, xislat. *Boyadan beri tantiqliklarida ichida kulib kelayotgan Hafiza o'zgardi... Mirnuhsin, Umid.*

TANVIN [a. تنوين - "n" lashtirish, ayrim arabcha so'z (ot) lar oxirini "n" bilan aytish] Arab yozuvida harfning ustiga yoki ostiga qo'yiladigan qo'sh zer, qo'sh zabar, qo'sh pesh.

TANVIR [a. تنوير – yoritish; maorif, ma'rifat; gullash] 1 esk. kt. Yorug'lik, nur.

2 esk. kt. Ma'rifat, maorif. *Matbuotning vazifasi xalqni tanvir va to'g'ri yo'lga tashviq bo'lsa...* A.Qodiriy, Kichik asarlar. *Bu xususiy ish emas, bu ham maorifga va tanviri afkorga xizmat bo'lsa kerak.* H.Muin, Tanlangan asarlar.

Tanvir etmoq 1) elektrlashtirmoq. *Masjidi sharifning qandil va shamdon toqimlari ko'p va xeyle zarif bo'lub, elektrik ila tanvir qilinib... yana ajoyib husn paydo etib, g'arib kayfiyatda jism-u jonga ta'sir etar.* Behbudiy, Tanlangan asarlar; 2) ma'rifat, ziyo tarqatmoq; yoritmoq. *Men mantiq... falsafa kabi inson zakosining muqaddas mash'allari bilan talabalarning ko'ngillarini tanvir etaman.* Oybek, Navoiy.

TANG'IMOQ 1 Mahkam siqib, o'rab, aylantirib bog'lamoq. *Belni tang'imoq. Yarani tang'ib bog'lamoq.* — *Umar shoyi qiyiq bilan peshonasini tang'ib, karavotga yotdi.* I.Rahim, Ixlos. [Tamara] *Biroz o'ziga kelgach, sochlarini boshiga tang'idi-da, G'ofirni divanga taklif qildi.* Q.Maqsomov, Kutilmagan baxt. *Yugurganicha ichkari uyga kirmoqchi edi, oq fartukli, boshiga oq ro'molcha tang'igan yoshgina xotin chiqib, uni to'xtatdi.* Oydin, Chaqaloqqa chakmoncha. *Peshonalar tang'ilgan, yenglar shimarilgan, nigohlar lo'ppi paxtada.* Mirmuhsin, Ildizlar va yaproqlar.

2 Yechilmaydigan qilib, mahkam bog'lamoq; chandimoq. *Otni ustunga tang'ib qo'ymoq.* — *Shu pastqam uyiga arqon bilan tang'ib qo'yganga o'xshaydilar-a.* Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli. *Janish bu gal epchillik bilan haligi qoziq-*

dan lattani oldi-da, uning oyoq-qo'lini tang'ib bog'ladi... H.Shams, Dushman. *Bola botinkasi ustidan bog'langan lattani qattiqroq tang'idi.* R.Fayziy, Sen yetim emassan.

TANG'IQ(LI) Tang'ib, chandib bog'langan, tang'ilgan. *Peshonasi tang'iqli yigit Tinglamoqda aytganin choling.* E.Rahim.

TANG'ISH 1 Tang'imoq fl. har. n. *Peshonani tang'ish.*

2 tib. kam qo'll. Tang'ib bog'lash uchun belgilangan narsa. *Qon vena yoki kapillyarlardan oqsa, qattiqroq bosa-digan tang'ish bilan bog'lash kerak.* N.Ismoilov, Kasallarni parvarish qilish.

TANCHA shv. ayn. sandal I. *Ochiq tanchaga pista ko'mir solib... ikki mufti qo'llarini olovga tovlar edilar.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Gulnor bilan Unsin tanchada o'tirib, bir-biriga mehribon egachi-singilday so'zlasharkan, bolalardan biri yugurib keldi.* Oybek, Tanlangan asarlar. [Ali Qushchi] *Miram Chalabiyga aytib, tanchaning qo'rini yangilatilb, kampirga joy solib berdi.* O.Yoqubov, Ulug'bek xazinasi. *Yettinchi lampaning piligi pasaytirib qo'yilgan, uy ichini tanchadan chiqqan ko'mir hidi, lampamoyisi tutgan.* O'.Hoshimov, Dunyoning ishlari.

TAOLO [a. تعالى – baland bo'lishlik, yuksaklik; gerdayish, kekkayish; musulmonlarning xudoning ismiga qo'shib aytadigan ulug'lash so'zi] din. Eng oliy, eng yuqori ko'tarilgan (xudoning sifatlaridan biri). *Xudoyi taolo.* — *Hasanali sevinchisini topshirgandan so'ng, duoga qo'l ochdi: -Ollo taolo umri bilan bergan bo'lsin!* A.Qodiriy, O'tgan kunlar. *Haq taolonin sinovlari-*

dan, bu mudhish hibs-u zindonlardan qo'rqsang, nechuk ustodning tilagiga rizolik berding? O.Yoqubov, Ulug'bek xazinasi. -Lekin o'g'lim, Xudoyi taolo jamiki jonzotni odam uchun yaratgan. X.To'xtaboyev, Jannati odamlar.

TAOM [a. طعام – yemish, ovqat, yegulik; ovqat yeyish, ovqatlanish] Pishirilgan, yeyish-ichish uchun tayyorlangan narsa; ovqat. Lazzatli taom. Miliy taomlar. Taom tayyorlamoq. Taom tuz bilan, tuz – o'lov bilan. Maqol. Avval taom, ba'daz kalom. Maqol. — Qani, bu yoqqa, Anvar; — dedi maxdum. — Taomni shu yerda tanovul qilsak ham bo'lur. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. To'rdagi yoshi ulug'lar fотиhadan so'ng taomlarga qarashdi. Mirmuhsin, Me'mor.

TAOMIL [a. تعامل – o'zaro aloqa, munosabat; muomala qilish, hamkorlik] Biror jamiyatda, el-xalqda odat hukmiga kirgan tartib-qoida, rasm. Eski taomil. Yangi taomil. Taomilga kirmoq. — To'ying to'ri aziz mehmonlarga ataladi. Urf-odatimiz, taomilimiz shunday. M.Nazarov, Cho'lni yashnatganlar. To'y kunlari ichkarida samovarni ko'pincha erkak kishi qaynatishi eskidan bir taomil bo'lib qolgan. Oybek, Tanlangan asarlar. Janubiy Amerikaga borib qolsangiz, samolyotda ketyapsizmi, kinoteatrga kirdingizmi... darrov saqich konfet bilan siylashadi. Taomil shunaga! "Fan va turmush". Zohid qalin daftar ochib, taomilga ko'ra Namozovni so'roq qila boshladi. T.Malik, Shaytanat. Oiladagi azaliy taomil yakson etilib, padarga gap qaytarildi. N.Norqobilov, Quyosh tutilgan kun.

TAOMLANMOQ kam. qo'll. Ovqatlanmoq, tanovul qilmoq. Ovrupo

odobiga o'rgangan bu xonadonda barcha bir paytda dasturxon atrofiga o'tirar, taomlanish chog'i o'zaro gapirilmasdi. T.Malik, Shaytanat. Manzura tortinib, qimtinib o'tirgani uchun Guluzor begim lutf ko'rgazib, ikki marta "marhamat qiling", dedi. Taomlanib bo'lganlar birin-sirin yon xonaga chiqq boshladilar. T.Malik, Shaytanat.

TAP I taql. s. Ikki narsaning bir-biriga urilishi yoki biror narsaning yerga zarb bilan tushishidan hosil bo'ladigan bo'g'iq tovushni bildiradi. Olma tap etib yerga tushdi. — Botirali o'zini tap etib yerga tashladi. O'q varangladi. H.G'ulom, Mash'al.

TAP II [f. تفت – tez, shoshilinch]: **tap tortmoq** Cho'chimoq, hadiksiramoq. [Zargarov:] Nimadan tap tortaman!.. Olsa, stolini oladi-da. A.Qahhor, Og'riq tishlar. Qudrat tap tortmasa ham, Qo'zi-boy qo'rqib ketdi: jon holatda... papkasini itga qarab oidi. H.Nazir, So'nmas chaqmoqlar. Shokirbek siz o'ylagan kishilardan emas, aslo tap tortmay so'zlay bering. A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

TAPILLAMOQ "Tap-tap" urilmoq, "tap-tap" ovoz chiqarmoq. Rahim Saidov jo'rttaga oyoqlarini tapillatib, eshikkacha bordi. O'.Umarbekov, Yoz yomg'iri. Tun sukunatini faqat vodo-kachkaning tapillashigina buzmoqda. A.Qahhor, Qo'shechinor chiroqlari.

TAPIRA-TUPUR ayn. **tapir-tupur**.

TAPIRLAMOQ Tapir-tapir tovush chiqarmoq. Xo'roz tapirlab, yerdan yarim metr balandlikka ikki-uch marta sapchib jon berdi. S.Ahmad, Taqdir, taqdir, muncha shafqatsizsan?

TAPIR-TUPUR taql. s. Ko'p va betartib tushayotgan oyoq yoki boshqa

narsalardan chiqayotgan "tapir" va shunga yaqin tovushni bildiradi. Birozdan keyin juda ko'p ot taqalarining tartibsiz tapir-tupuri eshitildi. H.G'ulom, Mash'al. Juda yaqin kelib qolgan tapir-tupurdan, bir-biriga aslo o'xshamagan "ba-ba", "ma-ma"lardan butun atrof larzaga kelardi. S.Anorboyev, Oqsoy. Tashqarida tapir-tupur oyoq tovushlari eshitilib, xonaga ikki navkar kirib keldi. O.Yoqubov, Ko'hna dunyo.

TAPPA *Tashlamoq, bosmoq kabi ba'zi fe'llar bilan qo'llanib, shu fe'l anglatgan harakatning tezda, shartta bajarilishini bildiradi. Pirnafas aka o'zini yostiqaqga tappa tashladi. J.Sharipov, Xorazm. Shakarxon uyiga lohas tortib qaytdi-da, ariq bo'yidagi so'riga tappa yonboshlab, chuqur nafas oldi. H.Nazir, O'tlar tutashganda. Kamola... chopqilagancha uylariga kirdi-yu, o'zini tappa karavotga otdi. N.Fozilov, Diydor. Matpano boyvachcha yigitni tappa yerga bosdi-yu, qo'lini orqasiga qayirdi. S.Si-yoyev, Avaz.*

TAPPA-TAXT I "Taxt" s. kuchaytirma (intensiv) shakli; tappa-tayyor. *Hamma narsa tappa-taxt. Safar anjomlarini tappa-taxt qilib qo'ymoq. — Donishmand kal, sipohiylikni o'xshatib, qo'shinni tappa-taxt etib... bostirib bora berdi. "Xushkeldi".*

2 yukl. Kuchaytirishni bildiradi; naq, rosa. *Gulsaraning buvisi Tappa-taxt kirdi yuzga. Sochlari qordek oppoq, Yuzy o'xshar kunduzga. Q.Muhammadiy. Vodokachka binosi qurilishini tugatish uchun tappa-taxt uch kunlik ish qolgan edi. Gazetadan.*

TAPPI Chorva mollari tezagidan rapida shaklida yasab quritilgan yo-

qilg'i. *Quruq tappi. Tappi yasamoq. Tappi yoqmoq. — U [Zebo] bog' va polizga qarardi, hovli supurib, uylarni yig'ishtirardi, non yopib, sigir sog'ardi, kir yuvib, tappi qilardi. Sh.Rashidov, Qudratli to'lqin. Bu besabr jimlik va qorong'ilikda, jinchiroq pirpiragani sari, tappi yopib tashlangan baland devorlar bilan uch tomondan o'rab olingan hovli yuzi xuddi yerga cho'kib ketayotganday edi. A.Muxtor, Opa-singillar. [Qishloqda] O'choqqa tappi qalab ovqat pishiriladi, qumg'onda choy qaynatiladi. Z.Qurolboy qizi, Qadimiy qo'shiq. Oradan uch oy o'tar-o'tmas kechqurunlari yonidan o'tishga hayiqib turiladigan qamishzorlar-u odam bo'yi begona o'tlar o'sadigan, kunduzlari mol boqilib, tappi teriladigan do'ngliklar tekislandi... A.Yo'ldoshev, Daryo.*

TAPPOT shv. q. **taffot**. *Nahotki o'g'li cho'l tappotlari bilan olishishga ketayotganini anglamasa! S.Nurov, Mehriyoy. Hali bo'y cho'zolmay, tappotda qovjiragan giyohni ko'rmagan kishi tomchining qadrini na bilsin! S.Karomatov, Sahro qo'shig'i. Qarshi cho'li, Shamol uvulaydi, ko'chma qumlar girdob soladi, saraton tappoti yuzni kuydirardi. S.Nurov, Durдона. Mehmonning dimog'iga Jarko'cha tuprog'ining hidi uriladi. Huv birda, cho'lda qo'y boqqanda, tappot urib, ko'z ilg'ar-ilg'amas olislarda ko'tarilgan issiq zo'ridan simyog'ochlar ham ikkita-ikkita ko'ringan kun alg'ov-dalg'ov tushday o'tadi. B.Qobul, Oybuloq, Oynabuloq. Tappot changlari — sepki, Tikon — samumlar toshi. Joniga bo'ldi epkin Yomg'ir — osmonning yoshi. I.Otamurod, Yobondagi yolg'iz daraxt.*

TAPT [f. تفت – issiq, qaynoq; ja-zirama] s.f. Taft, harorat.

TAP-TAP Tap I s. ning takrori. *Birin-ketin to'rt kishining otdan tap-tap tushgani eshitildi. H.G'ulom, Mash'al. Chumchuqlar g'ujg'on o'ynab, bazm quradilar, ularning tumshug'idan uzilgan tutlar yerga tap-tap tushib turibdi. Shuhrat, Mashrab.*

TAP-TAQIR Butunlay taqir, birorta ham tuk yoki g'iyoh yo'q. *U [Hoshimjon aka] tap-taqir, yumaloq boshini silab jilmaydi. O.Yoqubov, Bir felyeton qissasi. -Bu tap-taqir dashtni oltin vodiya aylantiramiz, - dedi ishonch va g'urur bilan O'ktam. Oybek, O.v. shabadalar. Chivin to'g'ri uchib kelib, oyog'ini chalishtirganicha manglayi tizzasiga tegguday muk tushib o'tirgan boshqa bir mahkumning tap-taqir qitishlangan kallasiga qo'ndi. X.Do'stmuhammad, Qichqiriq.*

TAPTORTMAS Uyalib, xijolat bo'lmasdan, bemaolol hamma narsani aytaveradigan, surbet. *-Surishtirib ko'ringlar, bu hali birontangning otang bilanmi, enang bilan ham birga o'qigan chiqar, - der edi taptortmas Mahmud. E.A'zam, Guli-guli. Bizga ba'zida juda jizzaki, taptortmas bo'lib tuyuladigan Rauf aka oddiy odamlar oldida juda kamtar va tortinchoq edi. N.Eshonqul, Mendan "men" gacha.*

TAP-TUP "Tap", "tup" va shunga yaqin tovushlarni bildiradi. O'riklar yerga tap-tup tusha boshladi. — Ot tuyoqlari bo'g'i tap-tup qiladi, egar-jabduqlar asta shiriqlaydi. S.Anorboyev, Go'zallik izlab. Aravalar g'iyq etib to'xtadi. Otlqlar tap-tup yerga tushib, bandilarning qo'l-oyoqlarini yechib,

pastga ola boshladilar. X.To'xtaboyev, Yillar va yo'llar.

TAQ I taql. s. Ikki qattiq narsaning bir-biriga zarb bilan urilishidan hosil bo'ladigan tovushni bildiradi. *Yong'oq taq etib toshga urildi. Eshik taq etib yopildi. — Boshliq trubkani yana taq etib qo'ydi. Xuddi katta bir ishni qoyil qilgan odamdek, qandaydir dimog' bilan xo'rsindi. S.Zunnunova, Gulxan. Zokir qo'lidagi qadahni taq etkazib, stolga qo'ydi. P.Qodirov, Uch ildiz.*

Peshonasi taq etib devorga tegmoq O'z bilganidan qolmay, oxiri ishi voy bo'lmoq. *Peshonang devorga taq etib teggandan so'nggina ko'zing ochildi. S.Anorboyev, Oqsoy. Taq (yoki tiq, tuq) etsa, eshikka qaramoq Kimsani intizorlik bilan kutmoq. Muharramning toqati toq, Elmurodning yo'liga ko'zi to'rt edi. Taq etsa, eshikka qarardi. Shuhrat, Shinelli yillar.*

TAQ II q. taqqa. Temurbekning shaxti ko'p baland! Yer-u ko'kni u taq tindirar. M.Ali, Gumbazdagi nur.

TAQA I Ot-ulov tuyog'ini zararlanishdan, sirg'anishdan saqlash uchun tuyoq ostiga mixlab qoqiladigan yarim doira shaklidagi metall buyum. *Otning taqasi. Uddaburon qurbaqaga taqa qoqadi. Maqol. — Qishloq tinchligini buzgan bu yakka ot tuyoqlarining taraq-turuqi, taqalarning toshiarga urilishidan chiqqan yalt-yalt chaqmoq dam o'tmay uzoqlashdi. S.Anorboyev, Oqsoy.*

TAQA II shv. Juftning biri; toqa. *Norboy ota... olti tanob yer-u bir taqa ho'kizga ega bo'ldi. M.Hakim, Buynor. ...bir necha qadam yo'l bosishi bilan qo'lqopning ikkinchi taqasini ko'rib qoldi. "Mushtum".*

TAQAL: taqal qilmoq Biror ishni bajarishga darrov kirishmay, o'ylanib qolmoq, kechiktirmoq; ketga surmoq, galga solmoq; bahona qilmoq. *Tojixon, qo'ying shu vajh-u taqalni.* A.Muxtor, Kumush tola. *Hayallamay jallod, endi boringlar, Taqal qilmay, tezroq borib kelinglar.* "Alpomish". *Yomon xotin ko'p qiladi taqalni, Qirqqa kirmay oqartirar soqolni.* M.Alaviya, O'zbek xalq qo'shiqlari.

TAQALAMOQ Ot-ulov tuyog'iga taqa qoqmoq. [*Xolxo'ja Bo'taga:*] *Menga yigit bo'!! Bir qoshiq qoningdan o'taman. Menga xizmat qil! Otlarni taqalaysan.* S.Ahmad, Hukm. *O'g'linga topilgay qilich-u qalqon, Taqalab bergaysan bir kun otini.* A.Oripov, Tanlangan asarlar. *-E, menga qara, - debdi oxiri Ahmadqul bobomning jahli chiqib. - Nega hadeb tak-tak deysan, men senga otmanmi? Oyog'imni taqalatgani kelibmanmi?* X.To'xtaboyev, Jannati odamlar.

TAQALMOQ 1 Taqamoq fl. o'zl. va majh. n. *Yog'ochning uchi devorga taqalgan. Qayiq borib qirg'oqqa taqaldi. — Hozir suhbat Elchibekka kelib taqaladiganday edi.* A.Muxtor, Tug'ilish. *Suvi ancha tortilib qolgan ko'lning shimoliy etagi qishloq uylarining hovlilariga borib taqalar edi.* M.Ismolliy, Farg'ona t.o. *Kamar bir odam bemalol engashib yura oladigan bo'lib, oxiri qayerga borib taqalishini hech kim bilmadi.* P.Tursun, O'qituvchi.

2 Biror narsaning bitishiga, yuzaga kelishiga qarab qolmoq, u bilan bog'liq bo'lmoq. *Ruxsatnoma yozilgan. Ish suratga taqalib qoldi. Bugun u ham*

tayyor bo'ladi. N.Safarov, Saodatning qissasi. *Ko'p narsa zamonaviy mashina-uskunalarining yetishmasligiga borb taqaladi.* "Mushtum".

TAQAMOQ 1 Juda yaqiniga olib borib, yetkazib, tegizib qo'yimoq; tiramoq. *Stullarni bir-biriga taqab qo'yimoq. — [Mahkam:] Goh qo'lida miltiq, yo'limni to'sadi, goh ko'kragimga minib olib, kekirdagimga pichoq taqaydi...* N.Safarov, Uyg'onish. *Nuri o'z yuzini yigitning yuziga taqadi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

2 ko'chma So'zni, mavzuni biror yerga, masalaga ulamoq, olib kelmoq, ko'chirmoq. *Shunday qilib, Yefim Danilovich gapni yana qurol-yaroqqa olib kelib taqadi.* A.Muxtor, Opa-singillar.

3 Kim yoki nimadandir deb bilmoq, unga bog'lamoq. *Hamma narsani dinga, xudoga taqayverma.* N.Aminov, Suvarak. *Oblast sahro hisobiga taraqqiy etib, kelgusida ikkiga bo'linib ketsa, bu obyektiv qonun, Abbosov. Sen buni menga taqama, bundan ig'vo chiqarishing qiyin.* A.Muxtor, Bo'ronlarda bordek halovat.

Devorga taqamoq Shoshirib, ganjitib qo'yimoq; taslim bo'lishga majbur qilmoq. *Bora-bora Qoracha Hojibning hazillari siyqalashib, hammaning ensasini qotira boshladi. Oysuluv esa yangi-yangi so'zlar, o'xshatishlar topib, raqibini devorga taqab qo'ydi.* M.Osim, O'tror.

TAQAMO'YLOV Mo'ylovi taqa shaklidagi; taqaga o'xshash. *Mansur yonbag'irda so'ppayib-so'ppayib turgan olma nihollarini chetlab va simto'r devorni ko'zdan o'tkazganicha ildamlab borarkan, bir yelkasi tushib ketgan,*

taqamo'ylov, malla kishi qiyshayib chiqib kelardi. Sh.Xolmirzayev, Ozodlik. Berditosh o'rta yoshlardagi sap-sariq, barvasta qomatli, taqamo'ylov kishi edi. I.Zoyir, Qismat o'chi.

TAQASOQOL I Soqoli taqa shaklidagi. -"Besh kun, o'n kun..." emas, hali o'ladigan nodon yo'q! - dedi taqasoqol Yorlaqab ota zaharxanda bilan. -Bir xum singuncha, necha xumcha sinadi, o'rtoq Keldiyor! Niyatni xolis qilish kerak. Mirmuhsin, Ildizlar va yaproqlar.

TAQASOQOL II Uzun-uzun gullari egilib, yarim doira shaklini oladigan yovvoyi cho'l o'simligi. *Taqasoqol, yovshan... ko'karib, yulg'unlar qip-qizil gulladi. A.Muxtor, Davr mening taqdimida.*

TAQATAQ I Hammasi birdan, bita ham qolmasdan; yoppasiga. *Magaztnlar, do'konlar taqataq qulf. — Uylarning eshiklari, derazalari taqataq yopiq. Oybek, Tanlangan asarlar.*

2 Butunlay, tamoman. *Isitma polvonning ishtahasini taqataq bo'g'ib, sillasini quritibdi. M.Aliyev, Betob. Allonning bir juvozi taqataq to'xtadi. A.Muxtor, Qoraqalpoq qissasi. To'rani ko'rib, hamma taqataq to'xtar, ikki bukilib ta'zim qilardi. J.Sharipov, Xorazin.*

TAQA-TAQ taql. s. Bir me'yordagi tez harakatdan, urilishdan hosil bo'ladigan ovoz, shovqinni bildiradi. *Poyezdning "taqa-taq"i kishini mudratardi.*

TAQASHTIRMOQ Bir-biriga taqab, tegizib qo'yimoq, yonma-yon jipslab joylashtirmoq. *Stolni devorga taqashtirib qo'yimoq. — Qizlar birin-sirin kelib, o'rinlari ustiga o'tirdilar. O'rin*

qator va bir-biriga taqashtirib solingan edi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

TAQACHI Taqa yasaydigan va otga taqa qoqadigan usta. *Mo'g'ullar... kerakli qurolsozlar, uzangisozlar, taqachilar, temirchilar, aravasozi, to'quvchilar va boshqa kasb egalari bir chekkaga ajratdilar. M.Osim, O'tror. Qashqarning Sajiya va Hamidiya madrasalari qarshisida hunarmandlar, bo'zchilar, mokichilar, taqachilar yig'ilishgan... I.Sulton, Qoraqush yulduzining siri.*

TAQACHILIK I Taqa yasash va taqa qoqish ishi, kasbi. *Taqachilik arte-li. Taqachilikni o'rganmoq. Taqachilik qilmoq. — Bo'taboy ham ikki kunda taqachilik do'konini tikladi. S.Ahmad, Hukm. Dadam taqachilikni jinidan battar yomon ko'rsa ham, taqa yasashga kirishdi. A.Qahhor, O'tmishdan ertaklar.*

2 tar. Taqachilar ishlaydigan joy; taqachilarning do'koni, ishxonasi joylashgan rasta, ko'cha yoki mahalla. *Baribir, Mahkam tinmadi, taqachilikka tushib, bir cheti uchgan sandon ko'tarib keldi. R.Fayziy, Hazrati inson. Ochil taqachi Madumarni taniydi, kulollar rastasi taqachilikning shunday yonginasida. A.Muxtor, Chinor.*

TAQDIM [a. تقديم — olg'a siljitish; topshirish; taklif kiritish; tavsiya etish; ko'rsatish, namoyish qilish; bir kishini boshqa kishi bilan tamishtirish] Tavsiya, taklif. *Yuqori idoralarning taqdimiga ko'ra ishga tayin etmoq. — Jamoatchilik asosida ishlaydigan rais (oqsoqol) maslahatchilari o'rtasidagi vazifalar taqsimoti, raisning taqdimiga ko'ra, fuqarolarning yig'ini tomondan amalga oshiriladi. Gazetadan.*

Taqdim etmoq (yoki qilmoq)

1) tavsiya etmoq, taklif qilmoq. *Elmurod hammani mukofotga taqdim etganda, o'zini tushirib qoldirgan edi.* Shuhrat, Shinelli yillar; 2) tortiq, sovg'a sifatida bermoq, tortiq (hadya) qilmoq. *Muhiddinning taqdim qilgan sovg'asi Xosiyat xolaning boshini ko'kka yetkazdi.* R.Fayziy, Cho'lga bahor keldi. ...dars vaqtida meni xayol surib o'tirganimni rasmga olibdi... Keyin rasmini menga taqdim etdi. M.Qoriyev, Oydin kechalar.

TAQDIMNOMA [taqdim + noma]

Yozma taqdim. ...jazoning hali o'talماغan qismini yumshoqroq jazo bilan almashtirish to'g'risida... sudga taqdimnoma topshirish huquqi berilsin. Gaze-tadan.

TAQDIMOT [a. تقديمات – "taqdim"

s. ko'pl.] Biror narsani tantanali suratda ko'pchilikka tanishtirish. *Yangi kitoblar taqdimoti.*

TAQDIR [a. تقدير – hisoblab chiqarish,

hajmini belgilash; e'tirof etish; faraz, ehtimol; baholash, qiymat] 1 din. Oldindan belgilab qo'yilgan, peshonaga bitilgan ko'rgilik; yozmish, qismat. *Qora taqdir. Shum taqdir. — -Nima qilardik, bandasining qo'lidan nima keldi... taqdir.* M.Ismoil, Farg'ona t.o. -U ham emas, bu ham emas, — dedi [Kumush], — hammasi xudoning taqdiri! A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Ahmad Husayn quldan badtar ojiz, zabun, hamisha taqdirga itoatkor, g'irt savodsiz bu dehqonning mulohazalariga hayron qoldi. Oybek, Nur qidirib. Komron o'zini bu gaplardan mutaassir bo'lgandek tutib o'tirsa-da, xayoli, taqdirmi, tasodifmi, unga ro'para qilgan boshqa

bir... nasibada edi. X.Do'stmuhammad, Qichqiriq.

Taqdir bo'lib Taqdir yuz berib, nasib etib, peshonada yozilgani bo'lib. *Layloning otasi ham, onasi ham menga o'rganib qolishdi... taqdir bo'lib, Layloning singlisi Masturaga uylandim.* M.Qoriyev, Oydin kechalar. **Taqdir qilmoq (yoki etmoq)** 1) nasib qilmoq, nasib etmoq, buyurmoq. -Xudo taqdir qilgan bo'lsa, bu hunarni ham topamiz, — dedi eshon. S.Ayniy, Doxunda; 2) munosib baholamoq, taqdirlamoq. *Osh o'xshalgan edi. Birinchi oshamdayoq, Mahmud Nigor oyimni taqdir etdi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. **Taqdirga tan bermoq** 1) o'z qismatiga, ko'rgiliklariga xudoning irodasi, xohishi deb, rozi bo'lmoq. *To'xta xola o'zini bosib, ko'z yoshlarini yutib, taqdirga tan berib tura qoldi.* I.Rahim, Chin muhabbat; 2) umuman ko'nikmoq; chidamoq. *Hasratdan, yig'idan zerikkan fuqaro taqdirga tan bergisi kelmeydi.* H.Shams, Oqpadar.

2 Kelgusi hayot; kelajak, istiqbol. *Avval Adolat o'z taqdiridan boshqa hech narsani o'ylay olmasdi. Endi bo'lsa u yolg'iz o'z taqdirini emas, o'ziga o'xshagan yuzlab xotin-qizlarning taqdirini o'ylaydi.* S.Zunnunova, Gulxan. *Aslida, hayajon bilan qizlarning og'ziga ko'z tikar, go'yo o'zining bundan keyingi taqdiri ularning javobiga bog'liqdek, yuragi taka-puka edi.* M.Xayrullayev, Tilla marjon.

3 Kelgusi natija, uning nima bo'lishi, qanday ekani. *Hosilning taqdiri ana shu zovurlarni har yili, hech bo'lmaganda, yil ora tozalab turishga bog'liq.*

Gazetadan. Georgiy Sinyavskiy otasi tuzgan loyihaning taqdiri nima bo'lgani-bil berishni iltimos qilindi. "O'zbekiston qo'riqlari". Hoshim akaning mushohadalariga berilib o'tirsam ham, lekin... xayolim boyagi xatning taqdiri edi. O'. Usmonov, Sirli sohil.

TAQDIRDA bog'li. Shart ma'nosini bildiradi, shart munosabatli gaplarni bog'lash uchun xizmat qiladi. *Hammasi emas, birontasi rost bo'lgan taqdirda ham, men bu gaplarni sizga aytmas edim.* A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. *Agarda ko'nib, xo'p desa-ku xayr; ko'n-magan taqdirda, bu xabarni Otabekka yetkazsak, zora shuning bilan ko'ngli sovib tushsa.* A. Qodiriy, O'tgan kunlar. *Tirik hujayra tashqi muhit bilan mun-tazam aloqada bo'lgan taqdirdagina yashay oladi.* "Fan va turmush".

TAQDIRDOSH Taqdiri bir, bir xil taqdirda ega. *Mana dongdor paxtakor juvon, Ruxsori gulmi, quyosh? Kemi-rarkan visolsiz hijron, Sirqiradim taq-dirdosh.* Zulfiya, Yurak to'liqlari.

TAQDIRLAMOQ Munosib baho, mukofot va sh.k. bilan nishonlamoq, qadriga yetmoq, qadrini qayd etmoq. *Buyuk xizmatlarini taqdirlamoq.* — *Bir kech uning bu fazilatlarini taqdirlagan bo'lib, restoranga taklif etdi.* Shuhrat, Jannat qidirganlar. *Hamid Olimjon-ning... xizmatlarini taqdirlab, uning nomi abadiylashtirildi.* N. Safarov, Olovli izlar.

TAQDIRNOMA [taqdir + noma] Taqdirlash haqidagi hujjat, taqdirlash qog'ozi. "Qibray" dam olish uyi O'zbekiston kurortlar boshqarmasining taq-dirnomasiga sazovor bo'ldi. F. Is'hoqov, Rohatijon. *Eksponatlar orasida G'aniyev-*

ning frontdan yozgan xatlari, jangovar taqdirnomalari, guvohnomalari bor. Ga-zetadan.

TAQILLAMOQ "Taq-taq" etgan tovush chiqarmoq. *Eshik taqilladi.* — *U ko'zini yumdi deguncha, xayolida qora-bayir javlon qilar, taqalarining toshlarga urilib taqillashi quloqlariga eshitilayot-ganday tuyulardi.* H. G'ulom, Mash'al.

Tomog'i taqillamoq q. tomoq.

TAQILMOQ I Taqmoq fl. majh. n. *Ko'krakka taqiladigan nishon.*

TAQILMOQ II 1 Teginmoq; teg-moq. *Eshikning gulf va zanjiri bo'lmay, yuziga yopiq holda turgan bo'lsa ham, u [yigit] eshikka taqilmadi, mashaqqatla-nib, devorga mindi.* A. Qodiriy, O'tgan kunlar.

2 Nutqda, gapda kimsa yoki narsa haqida to'xtamoq, gapirib o'tmoq. *Ma'ru-zachi ko'p masalalarga taqilmadi.*

TAQIM Oyoqning tizzaosti bukila-digan joyi. *Uning o'zi ham sochini ik-kita qilib o'rib, taqimiga tushirib yu-rishni yaxshi ko'rardi.* P. Qodirov, Erk. *Shu zahoti taqimim, umuman, butun ba-danim qichishayotganini payqadim.* H. Shayxov, Tutash olamlar. *-Iya, Obid-jon, — tirjayib gapirdi Qambar, — men o'ylovdimki, uloqni taqimga bosib kela-siz, bu yerda qozon osamiz deb, quruq tomosha deng.* Oybek, Tanlangan asar-lar. [Ovchi] *Bir yonbosh bo'lib, taqimi-ni uqalashga tushdi.* Sh. Xolmirzayev, Ko'kboy.

Sochi taqimini o'padi (uradi).

Uzun sochli. Saodat yoshligida juda chiroyli qiz bo'lgandi. Sochlari taqimini o'pard. Taraganda shamshod taroq ushlagan qo'llari sochini uchigacha yetmasdi. S. Ahmad, Qorako'z Majnun.

Chimildiqda ko'rdim: rafiqam sarg'ishdan kelgan, novcharoq qiz ekan. Sochi, ta'riflanganidek, taqimini o'pmasa-da, belidan pastga tushib turardi. A.Yo'l-dosh, Puankare. ...kampirim qiz edi! Sochlari taqimini uruvchi qiz edi. Sochlari to'lg'onib yuruvchi qiz edi. T.Murod, Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi.

TAQIMLAMOQ Ot ustida o'tirgan holda biror narsani (mas., uloqni) taqimi ostiga bosib olmoq. *Oriyat zo'r narsa. Sen ham maydondasan. Uloq otingning yelkasida turibdi, taqimla. I.Rahim, Ixlos. Uncha-muncha tanani yerdan danga uzib, taqimlay oladi, agar unga o'ramat (hech narsaga kuchi yetmaydigan) otliqlar xalaqit bermasa. A.Suyunov, Oti borming oti bor!*

TAQIMOQ s.t. Aybni bировga ag'darmoq, to'nkamoq, birovdan ko'rmoq. *Modomiki shundoq ekan, rashk to'g'risida bировga ayb taqish qiyin. A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari.*

TAQINCHOQ Uzun, isirg'a, marjon kabi taqiladigan zeb-ziynat buyumlari. *Siz o'sha taqinchoq, dollarga banda, Villadan dunyoga tashlaysiz nazar. Zulfiya. [Dostoyevskiy:] Avval o'zimga yoqqan taqinchoqlardan tanlayman. Anavi, xoch suratli boldoqni, feruza ko'zli to'g'nag'ichni... X.Do'stmuhammad, Yolg'izim – Siz.*

TAQIQ [a. تقيق – uzish, to'xtatish; quloq solmaslik, bo'ysunmaslik] Man, qatag'on. ...P.Qodirov "Yulduzli tunlar" yozilganidan keyin olti yilgacha taqiq va ta'qib sabab bosilmay yotgani haqida hikoya qilgan edi. Gazetadan.

Taqiq qilmoq (yoki etmoq) Taqiq-lamoq. *Taqiq qilingan qo'shiqlarni aytmoq. Beso'roq kirish taqiq etilgan.*

TAQIQLAMOQ Man etmoq, qatag'on qilmoq, taqiq qilmoq. *Chekishni taqiqlamoq. — Bizda yo'q chegara, din-u irq-u rang – Aql taqiqlagan barcha jaholat. G'.G'ulom. Menga zov boshiga borishimni taqiqlab qo'yishgandi uydagilar. Sh.Xolmirzayev, Yo'llar, yo'ldoshlar.*

TAQIQCHILIK s.t. Taqiq ishi. *-Nodon bir kimsa tepamda taqiqchilik qilib tursa, bilmadim, bu yog'i qandoq bo'lar ekan? – deb qo'llarini o'ynatib shikoyat qildi qori. P.Tursun, O'qituvchi.*

TAQIR 1 ot, geogr. Qattiq qatqaloq bilan qoplangan yer. *Tuya quvlasa, shudgora qoch, Ilon quvlasa – taqirga. — Qum uyumlari orasida nuqul gildan hosil bo'lgan maydonlar uchraydi. Bunday joylar taqir deb ataladi. "O'zbekiston geografiyasi". Oqmagani dar-yoning nomidir taqir. A.Oripov, Yillar armoni.*

2 sft. Giyoh o'smaydigan yoki deyarli o'smaydigan; yaydoq, yalang'och. *To'g'ri, olti-yetti yil ilgari bu joylar – Qarshi cho'li taqir yerdan farqi yo'q edi. "O'zbekiston qo'riqlari".*

3 sft. O't-o'lansiz, o't-o'lani yerdan ko'rinmaydigan (o'smagan) darajada. *Qo'nishdagi taqir yalanglikda kuni bilan to'yib o'tilgan qo'y-echkilar kavsh qaytarib yotibdi. S.Anorboyev, Oqsoy.*

4 sft. Sochi, juni, tuki yo'q; tuksiz. ...ba'zi o'rtoqlarning aldamchiligini ko'rganda, taqir dahanimga soqol chiqib ketishiga oz qoldi. "Mushtum". Jamshid shundoq deraza tagida, taqir gilam ustida uxlab qoldi. Sh.Xolmirzayev, Tog'larga qor tushdi. Jozef kameradoshining taqir boshidagi yozuvni

o'qib berayotgandek undan ko'zini uzmay, yana huzur-bahuzur tilga kirdi. X.Do'stmuhammad, Qichqiriq. Yakka-tutlik Yodgor kal... taqirboshlik katta aybday, kuya yegan qozonday telpagini hamisha qoshigacha bostirib yurardi. N.Norqobilov, Tog'dagi yolg'iz odam. Uning [kasalning] poki [ustara] bilan yaxshi qirilgan taqir boshida ko'm-ko'k chakka tomirlari yaqqol ko'zga tashlanar edi. N.Eshonqul, Go'r o'g'li yoxud Hayot suvi.

5 sft. *ko'chma* Hech narsa to'shal-magan; yalang'och. *Taqir yerda ux-lamoq.* — *Yo'ldosh aka taqir sholcha-ga, xuddi sakkiz qavat ko'rpachaga o'tirganday, bamaylixotir yastanib oldi. H.Nazir, Vasiyat.*

6 rvsh. *Sira, aslo; mutlaqo, butunlay. Bu ishdan taqir xabarim yo'q.* — [No-dira:] *Uy anjomlarim, kiyimlarim ko'zimga taqir ko'rinmadi. Hamza, Maysa-raning ishi. -Ko'z tikib turgan yarlari-miz eski ariqdanki suv icholmaydi, ya-angi ariqdan taqir icholmaydi, yana azalgiday qaqrab yotaveradi, — dedi Hasan so'fi. M.Ismoiliiy, Farg'ona t.o. Mumkinmi, aytgin axir? Bu ish yaramas taqir. Q.Muhammadiy.*

7 *Sira qoldirmasdan, tozalab, qir-tishlab. Sochini taqir qirdirgan bir kishi saljilmayib qarab turardi. S.Anorboyev, Oqsoy. U kishi [boy] sho'rvani pishira-di, lekin moytni suzib ichadi, go'shtini yeydi, menga taqir suyak bilan bir kosa jirsiz suv keltiradi. Oybek, Tanlangan asarlar. Sochi taqir olingan bir bolakay nogironlar aravachasida... noma'lum nuqtaga tikilib o'tirardi. A.Yo'ldoshev, Daryo.*

8 shv. *Chala tug'ilgan chaqaloqning terisi.*

Taqiri chiqmoq O't-o'lani yeyilib tugab bo'lmoq. *Mol oralab ketgan ang'izlarning allaqachon taqiri chiq-qan. N.Qobul, Unutilgan sohillar.*

TAQIRBOSH Sochi yo'q, kal. [Ab-duqahhor] *Ibodatini oxiriga yetkazib, ado etgach, o'girilib, ko'zlari chaqchay-gan taqirbosh bir odamni ko'rdi. T.Ma-lik, Oxirat. Silliqsoch kishi bu safar ne-gadir hayratlanmadi, taqirbosh sheri-gining yelkasiga turtib, u bilan zimdan ko'z urishtirdi. A.Obidjon, Ming so'm-lik po'stak.*

TAQIRLAMOQ ayn. **taqillamoq.** *Eshik taqirladi. Uzoqdan aravaning taqirlagan ovozi eshitildi. — Shu payt birdan eshik taqirlab, Alijon kirib keldi. Mirmuhsin, Chiniqish.*

TAQIRLIK Taqir joy, maydon. *Shu kuniyoq uzoq-yaqindagi cho'ponlar ta-qirlikdagi quduq yoniga... odamlar ke-lib turishganini eshitishdi. Mirmuhsin, Me'mor.*

TAQIR-TUQUR 1 taql. s. “Taqir” va shunga yaqin tovushlarni bildiradi. [Ustaxonada] *Bolg'alarning taqir-tuqu-ri, ishchilarning sho'x qahqahalari baralla eshutilib turibdi. Sh.Umurzoqova, Bahorni qutlab. E'zozxon... o'y bilan o'tirganda, yo'ldan maktabga burilgan arava g'ildiraklarining taqir-tuquri eshitildi. H.G'ulom, Mash'al. Qulog'iga tunuka tomning bir me'yorda taqir-tuqur qila boshlagani eshitildi. I.Rahim, Zangori kema kapitani.*

2 *Qaqir-ququr, lash-lush(lar). Har yerda siniq-miniq idishlar, taqir-tuqur-lar, har xil jihozlar ayqash-uyqash bo'lib yotardi. Oybek, Quyosh qoraymas.*

TAQLID [*a. تقلید* – taqlid qilish, ergashish; o'xshatish; qalbakilashtirish] 1 Shaxs yoki narsaning ovozi, xatti-harakati va sh.k. ni iloji boricha aniqlik bilan, o'ziday qilib aytish, bajarish; o'xshatma ovoz, harakat qilish. *Shodon askiyalar, payrov va taqlid Davrani porlalar mitsoli chiroq.* A.Isroilov. *Ming yildirkim, bulbul kalomi o'zgarmaydi, yaxlit hamisha. Ammo sho'rlik to'tining holi o'zgalarga taqlid hamisha.* A.Oripov, Yillar armoni.

2 Ijod, faoliyatda o'zgalarga ergashish, o'zgalalar namunasi asosida ish olib borish. *Taqlid esa, aksincha, boshqa yozuvchiga ko'r-ko'rona ergashish, unda tasvirlangan hayot lavhalarini "o'zlashtirib", mexanik suratda ko'chirishga olib keladi...* G'.Salomov, Tarjima nazariyasiga kirish.

Taqlid qilmoq (yoki etmoq) 1) o'xshatma ovoz, harakat va sh.k. ni hajarmoq, qilmoq. *U qishloq korchalonlari va boyonlarining yurish-turishlarini, qiliqlarini juda do'ndirib taqlid qiladi.* H.Shams, Dushman. *Frislarning odatlari, yurish-turishlarini artistlardek harakatlar bilan jonli taqlid etib, masxara qilar edi.* Oybek, Quyosh qoraymas; 2) faoliyat, ijod va sh.k. da o'zgalarga ergashmoq, taqlidan ish olib bormoq, harakat qilmoq. *Yomonni tanqid qiladi, yaxshiga taqlid qiladi.* Maqol. — *Bola taqlidchi bo'ladi, u... o'z otasiga taqlid qilishga harakat qiladi.* S.Zunnunova, Yangi direktor. **Taqlid so'z yoki taqlidiy so'z tish.** Turli tovush yoki obrazlarga taqlidni bildiruvchi so'zlar. Mas., *taq, gup, sharaq-shuruq, lip-lip, yalt-yalt* va b.

TAQLIDAN O'zgaga o'xshab yoki o'xshatib, taqlid qilib, taqlid tarzida. *Bu odam avval uyatchan qizlarga taqlidan noz qilib, keyin haligi beqasam to'n kiygan juvonga taqlidan o'yinga tushib, hammani kuldirdi.* A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. *Xo'jabekovdan so'ng Saidg'oz so'z oldi. U har vaqtdagidek ko'rimsiz jussasini raisga taqlidan tik-tirgan kulrang kiteliga yashirgan edi.* S.Anorboyev, Oqsoy.

TAQLIDIY Taqlid bilan bo'lgan, taqlid natijasida yuzaga kelgan. *Taqlidiy she'r. Taqlidiy so'z.* — *Tabiatda mavjud tovushlarni qanday eshitsak, shunday taqlidiy so'z yuzaga keladi.* N.Mahmudov, O'zbek tili – xalq ruhining ko'zgusi.

TAQLIDCHI 1 O'zgalarga taqlid qiluvchi, taqlid yo'lidan boruvchi. *Taqlidchi shoir.* — *Bola taqlidchi bo'ladi...* S.Zunnunova, Yangi direktor.

2 ayn. **muqallid** 2. *Shunda Xoliq bulbul bo'lib sayraganda, tog'a tizzasiga urib: "Sendan mana shunaqangi taqlidchi chiqadi. Buni rivojlantir, xo'p-mi?" – degan edi...* Sh.Xolmirzayev, Ukki sayrayapti.

TAQLIDCHILIK 1 O'zgalarga taqlid qilish; taqlidiy yo'l (mas., ijodda). *Bu "modernizm", "taqlidchilik" kasalidir, uni davolash kerak. "Mushtum".*

2 ayn. **muqallid** 1. — *Menga qara, o', katta yigit bo'p qopsan-ku? – dedi [tog'a]. – Balli, balli... O', soqollaring ham sabza urib qopti. Qani, hozir ham taqlidchilik qilasanmi yo tashlab yubor-dingmi? Tashlamaslik kerak, u judaa noyob kasb.* Sh.Xolmirzayev, Ukki sayrayapti.

TAQMAGUL bot. Sertikan, guli mayda yovvoyi atirgul; jingul.

TAQMOQ 1 Bezak buyumlari, medal, qurol va sh.k. ni tananing (kiyimning) biror joyiga o'tkazib, osib yoki bog'lab o'matmoq. *Barmoqqa uzuk taqmoq. Ko'krakka medal taqmoq. Quloqqa isirg'a taqmoq. Bo'yinga marjon taqmoq. Belga qilich taqmoq. Sochga lenta taqmoq.* — Gunafshalar ochildi, chakkangga taq, chakkangga; Atir hidi sochildi, Chakkangga taq, chakkangga. Z.Diyor. *To'g'ridagi devorga Oxunboboyevning chaqmoq telpak kiyib, ko'kragiga qizil lenta taqib tushgan surati yopishtirilgan.* S.Ahmad, Hukm.

2 To'g'namoq, chatmoq. *Ko'ylakka tugma taqmoq. Belbog'ga munchoq taqmoq.*

3 Teshigidan o'tkazib qo'ymoq, o'tkazmoq. *Kecha sutdek oydin. Ignaga ip taqsa bo'ladigan.* Oydin, Ko'ngli to'ldimi, yaxshi yigit.

4 Umuman, bir narsani boshqa narsaga mahkamlamoq. *Olimov tayoqlar tepasiga chillakday ayrilar bog'lab, ularga qizil qog'ozdan varrak qulog'iday shokilalar taqib qo'ydi.* H.Nazir, So'nmas chaqmoqlar.

5 q. **taqimoq.** O'z aybingni birovga taqma. — *Aydingiz, aydingiz, nega tonasiz? Men sizga ayb taqyotganim yo'q-ku!* A.Qahhor, Munofiq. *Bu bitta odamning [Rahmonqulovning] odati. Uni sen kollektivga taqma...* A.Muxtor, Chinor.

TAQOVUL [a. تَقْوِيل – bir-biri bilan tortishish, bahslashish; qarama-qarshi bo'lish; mish-mish tarqatish] s.t. O'zaro mos, muqobil. *Huri bilan ikkovi unga ot ham qo'yib qo'yishgan: o'g'il tug'ilsa, Elbekka taqovul – Sherbek, qiz tug'ilsa, Huriga taqovul – Nuri qo'yishadi.* S.Anorboyev, Oqsoy.

TAQOZO [a. تَقَاظِي – vaqtning o'tishi, tugallanish; sudlanish; ehtiyoj; qat'iy talab (etish)] Biror holatdan, vaziyatdan kelib chiqadigan talab. *Zamon taqozosi. Hayot taqozosi. — Taqdir taqozosi bilan Akmal shaharda yashab qoldi.* M.Hazratqulov, Jur'at. *Kozim endi xizmat taqozosi bilan Shirinbuloqdagi ba'zi ishlarni adolat qilgani ketyapti.* E.Usmonov, Yolqin.

Taqozo qilmoq (yoki etmoq) Shunday bo'lishini talab qilmoq, ko'rsatmoq. *...Me'mor hozirgi yoshlarning ehtiyotkor va puxtaligini ko'rib taajjublanar, zamon shuni taqozo qilayotir, deb o'ylardi.* Mirmuhsin, Me'mor. *...Abdurahmonni topib ayt, bor odamlarni shahardan tezda ko'chirsin, fursat chekinishni taqozo etadi.* S.Karomatov, Bir tomchi qon.

TAQQA Ba'zi narsa, harakat va sh.k. ning birdan, butunlay, batamom yuz berishini kuchaytirib, ta'kid bilan bildiradi. *Otlar ko'prik oldida taqqa to'xtadi. Ariqda suv taqqa to'xtadi. Og'riq taqqa to'xtadi. — Alimardon tormozni taqqa bosdi.* O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Boyvachchaning vajohatini ko'rgan xizmatkorlar turgan joylarida taqqa qotib qolishdi.* K.Yashin, Hamza. *Yomg'ir yog'a boshlasa, ish taqqa to'xtaydi.* H.G'ulom, Feruza. *...osmondan so'nggi tomchilar tushib bo'lib, chaqmoq ham taqqa to'xtadi.* H.Nazir, So'nmas chaqmoqlar.

TAQQOS [a. تَقْوَس – ko'z bilan o'lchash, chamalash; qiyoslash, chog'ishtirish] O'zaro solishtirish, chog'ishtirish; qiyos. *Gul deya atabsan sevgan yoringni, Go'zal tuyulgandir senga bu taqqos.* Uyg'un.

Taqqos qilmoq Bir-biriga qiyos qilmoq, solishtirmoq, taqqoslammoq. *Bu o'zgarishlarni biror narsaga taqqos qilish qiyin. Ellar, yurtlar, odamlar o'zgaradi.* N.Safarov, Olovli izlar.

TAQQOSLAMA 1 Qiyoslash asosidagi. *Taqqoslama jadval.*

2 *mat.* a va b butun sonlarning (a-b) ayirmasi berilgan butun t soniga bo'linishini ko'rsatuvchi munosabat.

TAQQOSLAMOQ Qiyoslammoq, solishtirmoq, chog'ishtirmoq. *Faktlarni taqqoslab ko'rmoq. Taqqoslab bo'lmaydigan yuksak sur'atlar. — U... tor yo'lining har ikki tomonidagi g'o'zalarini taqqosladi.* Oybek, O.v. shabadalar. *U o'zicha har ikki qishloqni bir-biriga taqqoslab ko'rdi.* R.Fayziy, Cho'lga bahor keldi. *Oltmish yil olamni qilib tomosha, Nimani ko'ribman, taqqoslab yozdim.* Shukrullo, Javohirlar sandig'i.

TAQRAVON [f. تخت روان — yuruvchi taxt] shv. ayn. **beshek.** *Taqir-tuqur taqravon, Manim dunyom shu beshek. Undan chiqqanim zamon, Armonlar qoqdi eshik.* Sh.Sulaymon.

TAQRIBAN [a. تقريباً — haqiqatga yaqinroq; taxminan, qariyb] Taqribiy ravishda, taxminan. *Masalani taqriban hal qilmoq. Taqriban hisoblammoq. — Bu majmua taqbiran ming dona bosilib, Buxoro, Eron va Afg'onistongacha tarqalar edi.* H.Muin, Tanlangan asarlar.

TAQRIBIY Juda ham aniq emas, lekin haqiqiy qiymatga eng yaqin. *Taqribiy son. Taqribiy hisoblashlar.*

TAQRIR [a. تقرير — qaror qilish; qaror berish; aniqlashtirish, barqaror qilish; ma'ruza, hisobot; bildirish, xabar berish] esk. kt. 1 Xat, maktub, noma;

yozma asar. *Ammo bu taqrirni... muayyan qatli om soati yetmaguncha... po'shida [yashirin] tutilmog'i ma'quldir.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar. *Ko'p qiziqdir ko'hna moziy taqriri, Ko'p qiziqdir unda xalqlar taqdiri.* O.Matjon.

2 Yozma tahlil; ilmiy tekshirish.

Taqrir bo'lmoq Yozilmoq, yozma holda yaratilmoq. *Navoiy har asarkim taqrir.* Habibiy. **Taqrir qilmoq** (yoki etmoq) 1) yozmoq, xat yozmoq; mak-tub yubormoq. *Mushtum pochcha! Tushimni sizga taqrir qilib... ta'bir aytib berishingizni so'rayman.* "Mushtum"; 2) foyda-ziyoni haqida mulohaza yuritmoq, o'ylab ko'rmoq; tahlil qilmoq. *Azizim, rostgo'y, bir so'zli bo'l, yolg'onni kasb etma, Kishi taqrir etarda chin — chin-u afsona — afsona.* Habibiy; 3) munosib ko'rmoq, loyiq deb bilmoq, qismati, taqdiri deb belgilamoq. *Cho'rilikni mullalar senga qildilar taqrir, Kel, bugun bu zaxmingga ma'rifatni darmon qil.* Hamza.

TAQRIZ [a. تقيز — kesish, qirgish; tanqid; biror kitob (asar)ni maqtab yoki yomonlab yozish] Ilmiy, badiiy va b. turdagi asarga tanqidiy nuqtayi nazardan berilgan yozma baho, tahlil. *Saidiy bunga katta bir taqriz yozib, Ulfatni proletar mafkurasini o'zlashtirib yetmaganlikda aybladi.* A.Qahhor, Sarob. *Ikki yil o'tgach, uning asarlari taqrizlarda, adabiy-tanqidiy maqolalarda tilga olingan bo'ldi.* O.Mo'minov, Xiyobonda-gi uch uchrashuv.

TAQRIZCHI Taqriz yozgan yoki yozadigan shaxs; taqriz muallifi. *Sanjar Siddiqov... tarixchi, publitsist, tarjimon, taqrizchi, san'atshunos, pedagog edi.* X.Yodgorov, Hayot to'lqinlari.

TAQRIZCHILIK Taqriz ishi. *U* [A'zam Ayupov] taqrizchilikning ham-ma turlarida ikki yuzga yaqin katta, kichik maqolalar yozdi. X.Yodgorov, Boqiy umr.

TAQRON 1 O'simliksiz, taqir yer. *Taqron* yerda toynning izi. (Kindik) "To-pishmoqlar". *Shuning* gilamiga o'tir-guncha, borib huv anavi taqron yerga o'tiraman, zaxga o'tiraman. E.A'zam, Kechikayotgan odam. So'ng yulqina borib, hovlining o'rtasiga o'tirib oladi, ikki qo'lida hassaning ikki sinig'i, taqron yerni savalay boshlaydi: -Endi qanday bosh ko'tarib yuraman, dod! Eshitgan el-ulus nima deydi, dod! Shar-manda xotinbozning enasi bo'ldimmi, dod! E.A'zam, Hulo'l. Hovlida o'tirib, zambilg'altakning bo'shagan tirsagini sozladi... hatto sal ovunganday ham bo'ldi, keyin, kech tushganda qara-sa, taqron joyda toq o'zi o'tiribdi... M.M.Do'st, Dasht-u dalalarda.

2 ko'chma Silliq, tuksiz. So-qol-mo'ylovi taqron qirilgan, boshida nasroniy qalpoqcha. E.A'zam, Shovqin.

TAQSIM [a. تقسيم - qismlarga ajratish, bo'lish; taqsimlah; badiha] 1 Qismga, ulushga bo'lish. *Ish taqsimi. Daromad taqsimi. — Qazuv taqsimi* boy uchun ham, kambag'al dehqon uchun ham baravar bo'lib, ming tanob yeri borgan ham, chorak tanob yeri borgan ham bir edi. J.Sharipov, Xorazm.

2 kam qo'll. Bo'lingan qism; ulush. *Ekkanda, tikkanda* g'oyib Hoshimboy xirmonda hozir bo'lar, hosilning uch-dan ikki taqsimini o'ziga olardi. N.Sa-farov, Olovli izlar.

3 esk. mat. Bo'lish amali, bo'lish. *Uch taqsim olti (3/2) ikki bo'ladi.*

Taqsim qilmoq (yoki etmoq, ayla-moq) 1) qismlarga, ulushlarga bo'lmoq, ajratmoq; har joyga, har kimga o'z ulushini, tegishini ajratib bermoq. *Shun-dan so'ng ular o'rtasida ish taqsim qi-lindi. Oybek, Tanlangan asarlar. ...boya jo'yaklarga chm bostib, suv taqsim qila-yotganda, kiyimlari shilta bo'lib ketsa ham, bir og'iz indamadi. O.Yoqubov, Er boshiga ish tushsa. Aslida tuproqni odil tabiat Taqsim aylagan-ku yer yuziga teng. A.Oripov, Yurtim shamoli; 2) mat. bo'lish amalini bajarmoq, bo'lmoq. Be-rilgan sonni beshga taqsim qilmoq. Taq-sim son tlsh. Bo'lak, ulush ifodalay-digan son. Mas., beshtadan, uchtdan.*

4 snt. Naqqoshlikda naqshning ma'lum tartibda takrorlanuvchi bo'lagi. *O'rta Osiyo naqshlari, jumladan, o'zbek milliy naqshlari, asosan, ana shunday takrorlanuvchi taqsimlardan tarkib to-padi. "O'zME".*

TAQSIMLAGICH tex. Mashina, mexanizm, motor va sh.k. da gaz, bug', elektr energiyasi va b. ning yurishi-ni, oqishini tartibga soladigan qism, moslama. ...O'zbekistondan yuborilgan shchitli taqsimlagichlar va vklyucha-tellar ishlab turibdi. Gazetadan.

TAQSIMLAMOQ 1 Taqsim qil-moq. *Daromadni taqsimlamoq. Kadr-larni taqsimlamoq. Sovg'alar bolalarga taqsimlab berildi. — Oson ishda lazzat bo'lmaydi, Adolat. Kunduzi bilan yer taqsimlaymiz. Kechasi qaror yoziladi. S.Zunnunova, Gulxan. Mavlon aka nonushta ustida bugun qilinadigan ish-larni oila a'zolari o'rtasida taqsim-ladi. H.G'ulom, Mash'al. Elmurod... vsvodlarni taqsimlab, tezda okop qa-zishga buyurdi. Shuhrat, Shinelli yillar.*

2 *esk. mat.* Bo'lish amalini bajar-moq, bo'lmoq. *Mingni beshga taqsim-lamoq.*

TAQSIMOT [a. تقسيمات – "taqsim" s. ko'pl.] Bo'lak va ulushlarga ajratish, taqsim ishi; taqsimlash, bo'lish. *Da-romad taqsimoti. Mehnat taqsimoti. Taq-simot mexanizmi. — O'qishni bitir-ganimdan so'ng, taqsimot bo'yicha yubo-rishgandi. O.Mo'minov, Xiyobondagi uch uchrashuv. Nazar suv taqsimoti haqida bosh qotirib o'tirardi. E.Usmo-nov, Yolqin. Taqsimot komissiyasi Komil-jonga rayonga... yo'llanma berganini eshitib, onaning fig'oni falakka chiqdi. D.Nuriy, Osmon ustuni.*

TAQSIMCHA Yassi, yuza idish; likop. *O'choqboshidan bir taqsimchada qovurilgan jigar bilan mayda to'g'ral-gan piyoz yuborishdi. S.Nurov, May-salarni ayoq urmaydi. Nozikxon ikkita chuqur taqsimchada norinni uyib olib kirganda, suhbat bo'lindi. S.Yunusov, Kutilmagan xazina.*

TAQSIR [a. تقيير – qisqartirish, kamaytirish; kamchilik; dangasalik, yalqovlik] *esk.* Amaldorlarga, boy va mullalarga hurmat bilan murojaat shak-li. [Mullado'st:] *Taqsim, bizning toji davlatimiz janobingiz-da. Hamza, May-saraning ishi. -Gapingiz nuqul haqiqat, taqsir, — dedi Olchinbek... K.Yashin, Hamza. Aftidan, tagli-tugli odam bo'lsangiz kerak, keling, sizga taqsirim deb murojaat qilay. O'lis zamonlarda yaxshi odamlar bir-birlariga taqsir deb muomala qilisharkan. N.Eshonqul, Yal-piz hidi.*

TAQ-TUQ "Ta" va shunga yaqin tovush(lar)ni bildiradi. *Taq-tuq qilib*

ishlamoq. G'ildiraklarning taq-tuqi. — Saltanat... poshnasi baland tuflisi bilan polni taq-tuq bosib, davraning o'rtasiga chiqdi. O.Yoqubov, Bir felyeton qissasi.

TAQVIM [a. تقويم – to'g'rilash, tuzatish; baholash; kalendar] 1 *esk.* Sayyora (planeta)larning holat va harakatlarini ko'rsatuvchi yillik jadval; yulduzlar jadvali. *Qishning hukm surish vaqti taqvimga ko'ra adog'iga yetgan bo'lsa-da, sovuq nafasi hukmronlikni davom ettirayotgani sababli tashqari-da turib gaplashish imkoni yo'q edi. T.Malik, Shaytanat.*

2 Yilning barcha oy-kunlari tartibi bilan ko'rsatilib, boshqa turli xil qiziqar-li ma'lumotlar ham berilgan jadval yoki kitobcha. *Stol taqvimi. Yirtma taqvim.*

TAQVIMIY Muayyan davming oy-kunlari tartibi ko'rsatilgan. *Taqvimiy reja.*

TAQVO [a. تقوى – dindorlik, xudo-jo'ylik; xudodan qo'rqish] *din.* 1 Mus-tahkam diniy e'tiqod; xudojo'ylik, din-dorlik. *Eng muhimi, taqvo-yu toat sohib-larida uchraydigan riyo yoki botiniy kibr tasavvufda ildiz-ildizi bilan quriy-di. I.Haqqul, E.Ochil, Ishq va hayrat olami.*

2 Harom-xarishdan hazar qilish, o'zini saqlash, tiyish. [Eshonlarning] *Taqvo emish qilmishlari, Ya'ni shuldir ishlari: Faqir molin chaynarga O'tkir bo'lgan tishlari. Hamza. Umrida taqvo nimaligini bilmaganlar, hatto nomdor kommunistlar ham birdan taqvodor bo'lib qolishdi. N.Eshonqul, Mendan "men" gacha.*

TAQVODOR *din.* 1 Mustahkam diniy e'tiqodli; xudojo'y, dindor. *Eldan burun masjidlarga ketayotgan taqvodor-lardan boshqa ko'chalarda hech zog' yo'q. M.Osim, O'tror.*

2 Harom-xarishdan hazar qiladigan, o'zini saqlaydigan, tiyadigan; pok. *Mulla Mahmudning gapidan keyin ba'zi taqvodorroq kam yerli dehqonlar ham qo'shimcha sifatida bo'lib berilgan tokzordan voz kechishdi. S.Anorboyev, Oqsoy.*

TAQVODORLIK Taqvodorga xos ish, xislat, taqvodor ekanlik. *Bu amir mullalik va taqvodorlik bilan dong'i chiqqan bir kimsa edi. S.Ayniy, Qullar. Yigit, xo'ja oilasining taqvodorligini, fuqaroga qiz berish u yoqda tursin, uning sovchisini ham ostonadan hatlatmasligini bilar edi. M.Ismoiliy, Farg'ona t.o.*

TAQYA [a. طاقية – do'ppi, kalla-po'sh] esk. Sidirg'a matodan tayyorlangan gulsiz do'ppi. *Shoirning boshida uchli ko'k taqyaga silliq o'ralgan ko'r-kamgina salla. Oybek, Navoiy. Birozdan keyin es-hushini yig'ib olib, oyoq tovuishi kelayotgan tomonga qaradi va erkak kishi ekanini bilib, taqya ustidan o'ralgan kichkina shol ro'molini yuziga tortdi. Oydin, Suhbati jonon. Nusrat pochchaga o'xshab, uzun oq ishton-u oq ko'ylakda, ustidan yengil nimcha kiyib olgan. Boshida esa uchli taqya. M.Mansur, Judolik diyori. [Sulaymon-qul bazzoz] Peshvoz chiqqan xotini Oyshabibiga sallasini berib, uning qo'lidagi taqyasini olib, boshiga qo'ndirdi. N.Jaloliddin, Tegirmon.*

TAQYADO'ZI q. taqyatuzi.

TAQYATUZI [taqya + f. تاق – tikuvchi] Xorazmlik ayollarning bosh kiyimiga mustahkamlanadigan taqinchiq, zargarlik buyumi. *Taqyatuzi, asosan aylana, shuningdek, murabba, 6, 8 qirrali shakldor plastinadan tuzilgan, plastina atrofi gir aylanasiga metall, marjon*

va qimmatbaho tosh munchoq va yaproqchalar bilan yakunlanadigan uzun metall zanjirli shokilalar bilan o'ralgan. "O'zME".

TAQCHIL Kam bo'ladigan, kam topiladigan, yetishmaydigan; kamyob, kamchil. *Taqchil mol. Taqchil xomashyo. — Shu inshootlarni ishga tushirish... suv taqchil yerlarni suv bilan ta'minlashmi ancha yaxshilashga... imkon beradi. Gazetadan.*

TAQCHILLIK 1 Yetishmaslik holati, taqchil hol. *Yog'och, taxta taqchilligi. — Respublikamiz sug'orma dehqonchiligida ma'lum darajada suv taqchilligi sezilib turadi. "Fan va turmush".*

2 iqt. Ilgari belgilangan, rejalashtirilgan yoki zarur darajadagi mablag', resurs, tovarlarning yetishmasligi, tanqisligi; defitsit. *Tovarlar taqchilligi. Byudjet taqchilligi.*

TAR I [f. تر – ho'l, nam; yangi, toza] 1: tar meva q. tarmeva. *Ko'proq tar meva iste'mol qilsinlar, ammo Buxoro mevasi janoblarga zararlidir. M.Osim, Ibn Sino qissasi.*

2 shv. Yangi. *Tar ochilgan toza bog'ning gulisan, Enang ham onangning jon-u dilisan. "Rustam". Ardoqladim avaylab tar g'unchadek astoydil... R.Bekniyoz, To'tiyo.*

TAR II taql. s. Ba'zi narsalarning yirtilishida yoki ba'zi asboblarning ishlashida chiqadigan tovushni bildiradi. *Motor tar etib, yana o'chdi. — Alijon isqirt, zil to'shakni uydan olib chiqib, hovlining bir burchagiga uloqtirgan edi, uning bir tomoni tar etib yirtilib, ichidan pul sochilib ketdi. Mirmuhsin, Chiniqish.*

TARADDUD [a. تَرَدَّد — biror qarorga kelolmay turish, ikkilanish; qat'iyatsizlik] 1 Biror ishni, maqsadni amalga oshirish uchun ko'riladigan tayyorlik, bajariladigan xatti-harakat. *Imtihon taraddudi. Safar taraddudi.* — Har ikki tomon ham shu bugundan boshlab to'y taraddudini ko'radigan bo'ldilar. P.Tursun, O'qituvchi.

2 Umuman, biror ish, narsani tayyorlash, amalga oshirish harakati. *Sharq ufqida quyoshning oltin barkashi tepaga ko'tarilganda, okoplarda frontcha nonushta taraddudi boshlandi.* B.Imomov, Hormang, quroldoshlarim. *Elchiyev ham jamg'armasidan yaxlitini ko'tarib, bozor-o'char taraddudiga tushdi.* E.A'zamov, Javob. *Mulla Alimqul eshikdan kirib kelgan mehmon bilan ko'rishish va o'z tagidagi ko'rpachadan joy berish taraddudida asta o'rnidan qo'zg'aldi.* P.Tursun, O'qituvchi.

3 Qat'iyatsizlik, ikkilanish holati; shunday holatda surilgan o'y, fikr-xayol, tashvish, mulohaza. *Uning endigi taraddudi uchrashish yoki uchrashmaslik borasida emas, Ra'noning oldiga ochiqcha borishmi, yashirinchami to'g'risida edi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Men Matlubaning... shabadada to'zg'ib, peshonasiga tushgan mayin sochlarini, taraddud ifodasi jilolanib, parpar yongan katta charos ko'zlarini ko'rdim-u, o'zimdan ranjidim.* O.Yoqubov, Bir felyeton qissasi. *Opa-singil o'zlarini qayoqqa qo'yishlarini bilmay, taraddudga tushib qoldilar, ko'chaga, yo'lga qaradilar.* A.Muxtor, Opa-singillar. [Yo'lchi] *Mehmonxona eshigiga kelib, taraddudda qoldi: kambag'al uchun o'z haqini talab qilish ham qiyin.* Oybek, Tanlangan asarlar.

TARADDUDLANMOQ 1 Biron harakatni amalga oshirishga tayyorgarlik ko'rmoq, shaylanmoq. *Safarga taraddudlanmoq. Bozorga taraddudlanmoq.* — Elchibek o'rnidan turib ketib, qayoq-qadir taraddudlana boshladi. A.Muxtor, Tug'ilish. *Nodira Saodatxonga bir nima demoqchi bo'lib taraddudlandi-yu, negadir aytolmadi.* S.Zunnunova, Yangi direktor.

2 Ikkilanmoq. *Nima qilishini bilmay taraddudlanmoq.* — Menga ham Sattorqul akamning rais bo'lishi ma'qulday tuyuldi-ku, biroq rais bo'lib olgandan keyin meni yana ko'proq ishlatsa kerak, deb taraddudlanib qoldim. G'.G'ulom, Tirilgan murda. *Hakimboyvachcha bu masalada o'zining uzoq vaqt taraddudlanganiga, nihoyat, fursatni qochirganiga afsuslandi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Omonali... quyidagi archazorda qantariqli otlarga va g'or og'zidan ko'tarilayotgan yengil tutunga ko'zi tushgach, biroz taraddudlanib qoldi.* N.Norqobilov, Tog'dagi yolg'iz odam.

TARAF [a. طَرَف — yon, tomon; chet, chekka, uch; qism, bo'lak; guruh, jamoa] 1 ayn. **tomon** 1-4. *U taraf. Bu taraf. Har taraf.* — O'rdaning tashqariqi qismining uch tarafi (janub, sharq, g'arb) binosiz, faqat qo'rg'on devorlarining zinalari edi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. *Kunduzi qum tarafdan iliq, nafasni qaytaradigan shamol esadi.* S.Ahmad, Ufq. *Har ikki taraf, kim-o'zar o'ynagandek, otash maqtoqlar bilan bir-birini o'qqa tutdi.* F.Musajonov, Himmat. *Shuning uchun boshqa o'yinlarni qo'ya turib, majlisning eng qiziq tarafi bo'lib sanalgan lapar aytishga ko'chdilar.* A.Qodiriy, O'tgan

kunlar. ...har ikki taraf o'rtasidagi vaziyat tobora keskinlashib borardi. K.Yashin, Hamza. Aytmedi, so'rasam, gapni boshqa tarafga chalg'itdi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

Tarafini olmoq Tarafdor sifatida harakat qilmoq, biror tomonni himoya qilmoq, qo'llab-quvvatlamoq; u yoki bu tarafga bo'lishmoq. Janjal chiqqan vaqtlarida podsho kambag'allarning emas, boylarning tarafini olar ekan. N.Safarov, Olovli izlar.

2 Kurashbga, bellashuvga, bahslashuvga xohish bildiruvchi shaxs, talabgor. Biror shaharga kelganida, unga [Qulmatqoraga] taraf chiqmay qolsa bormi, bunday shaharning yigitlari yigit hisoblanmasdi. A.Muxtor, Opa-singillar. Ishboshi: -Qani, taraf bormi? - deb, polvonlarni maydonga chaqirganda, nima bo'ldi-yu, tavakkal qilib, o'rnimdan turib ketdim. P.Tursun, O'qituvchi.

Taraf yo'q Bas keladigan, hellasha oladigan, tenglashadigan kishi yo'q. Uning [Valijonning] odamoxunligi, ko'ngilchanligiga taraf yo'q. H.Nazir, Olmos. Gapdan gap chiqarishga senga taraf yo'g'a, xotin. A.Muhiddin, Hadya.

3 folk. Dushman, g'anim. Qashshoqlarga boylar ko'p taraf bo'ldi. Ergash Jumanbulbul o'g'li. Men o'lmasam, taraf bosmas izingni. "Yusuf va Ahmad".

4 ko'm. vzf. (3-sh egalik va ch. k. shaklida). Tomonidan, jihatidan. O'z yonlaridan sarf qilish uchun aqchalari yo'q, hukumat tarafidan beriladigan ovqatning salmog'i yo'q edi. A.Qodiriy, Mehrobdan chayon.

TARAFAYN [a. طرفين - "taraf"] s. ikkilik soni: har ikki taraf] esk. kt. Da'vogar va javobgar yoki bahslashuvchi,

kurashuvchi, olishuvchi tomonlarning har ikkisi; tomonlar, taraflar. Tarafaynlarni so'roq qilmoq. — Tarafayn bir-birlari bilan tanishib ko'rishgandan so'ng, markaz vakili idorani bu yilgi zo'r muvaffaqiyat bilan tabrik qiladi. A.Qodiriy, Obid ketmon. Tarafaynlarning gaplari eshitilgandan keyin, sud hukm majlisiga kirdi. A.Majidiy, Inji ziyoratchi.

TARAF-BATARAF q. tarafmataraf. Dehqonlar, bog'bonlar choyxonalarini to'ldirib o'tirishadi-da, tarafbataraf askiyabozlik qilishadi. B.Rahmonov, Tinib-tinchimas.

TARAFDOR [a. + f. طرف دار - tarafini oluvchi, yoqlovchi, himoya qiluvchi] 1 Bir-biriga qarshi bo'lgan tomonlardan biriga yon bosuvchi, uni qo'llab-quvvatlovchi, himoya qiluvchi shaxs. Musulmonqulga tarafdorlaringiz bo'lsa, tinchlikcha qo'shından chiqib ketsin! A.Qodiriy, O'tgan kunlar. Bobur bu gal yana aldanmaslik uchun shahar ichidagi tarafdorlarining hech biriga xabar bermasdan... tavakkal qilib keldi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

2 Biror g'oya yoki harakatni himoya qiluvchi, shu g'oya, harakat uchun kurashuvchi shaxs, tashkilot va sh.k. Tinchlik tarafdorlari. — Betob bo'lib O'shga kelolmagan Xo'ja Abdullo ham Boburning Samarqandga qo'shin tortib borishiga tarafdor edi. P.Qodirov, Yulduzli tunlar.

TARAFKASH [a. + f. طرف کش - tarafini oluvchi, tarafdor] 1 Biror tomonning tarafini oluvchi; tarafdor. Bedana egalari va ularga pul tikkan tarafkashlarning ko'zlari ola-kula, yuraklari taka-puka bo'lib, nafaslari ichiga tushib ketdi. M.Muhammadjonov, Turmush urinishlari.

2 Qarshi chiquvchi, kurashuvchi, bel-lashuvchi; talabgor. *-Burgutning yigitlari hali kurashda yelkasi yer ko'rmagan polvonlar. Hozir bu polvonlarga Far-g'ona tomonda tarafkash yo'q, - dedi yigit.* S.Ahmad, Cho'l burguti.

3 Taraf-bataraf bo'lib kurashuvchi; guruhboz. *Mening qishlog'imda taraf-kashlar ko'p... Bir-birini kovlaydi.* P.Tursun, O'qituvchi.

TARAFKASHLIK Tarafkash bo'lish, tarafkash bo'lib ish tutish. *Janjal bir nafasda tarafkashlikka aylanib ketdi.* P.Tursun, O'qituvchi. *Shu'ba doirasida bo'lib o'tgan dastlabki mashvarat ochiqdan ochiq tortishuvga, tarafkashlikka aylandi. Pirovardida maxsus hay'at tashkil etildi.* X.Do'stmuhammad, Qichqiriq.

TARAFLAMA: Miqdor bildiruvchi (bir, ikki kabi) so'zlar, shuningdek, har so'zi bilan qo'llanib, shu so'zlar bildirgan miqdoriy nisbatni anglatadi. *Masalani bir taraflama hal qilmoq.* — *Keksa, tanilgan yozuvchi o'sib kelayotgan yosh avlodga hartaraflama ko'maklashuvi kerak.* N.Safarov, Olovli izlar.

TARAFLASHMOQ Tarafma-taraf bo'lib olmoq. *Ijro paytida askiyabozlar o'zaro taraflashib oladilar va so'zning nozik ko'chma, ramziy ma'nolariga tayangan holda jamiyatdagi turli yaramas illatlarni fosh qiladilar.* "Xalq dos-tonlari".

TARAFLI Tarafi, yoni bo'lgan. *Ikki tarafli pichoq. Bir tarafli movut.*

Bir tarafli bo'lmoq U yoqli yoki bu yoqli bo'lmoq; biror tomon foydasiga hal bo'lmoq. *Otabek ish bir tarafli bo'lgunicha o'zining qochmasligi uchun*

kafil berishga majburdir. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. **Bir tarafli qilmoq** U yoqli yoki bu yoqli qilmoq; biror tomon foydasiga hal etmoq.

TARAFMA-TARAF Taraf-taraf bo'lib, tarafarga bo'linib. *Ko'chada Vitya, Sarsenboy, Ostap va qo'shni bolalar tarafma-taraf bo'lib, to'p tepishmoqda.* R.Fayziy, Sen yetim emassan. *Tarafma-taraf bo'lib tortishuvlar, yor-yor aytishuvlarni aytmaysizmi...* R.Rahmon, Mehr ko'zda.

TARAHHUM [a. تَرَخَم - rahm qilish, mehribonlik, marhamat]: esk. kt. Rahm, rahm qilish, marhamat. *Ali Akbarning Mirzoga ishonch-u ixlosi bo'rining qo'yga tarahhumidek ish edi.* A.Hakimov, Ilon izidan. *Hasanalining yuziga padarona tarahhum tusi kirib, keksalarga xos ohangdor bir tovush bilan bekning ustidagi og'ir yukni ola boshladi.* A.Qodiriy, O'tgan kunlar. *Bolajon deyilsa - tabassum tayyor, Mehr-u shafqat tayyor, tarahhum tayyor.* A.Oripov, Yangi she'rilar.

Tarahhum etmoq (yoki qilmoq, aylamoq) Rahm, shafqat qilmoq. *Umid qilamizki... qizimizning ko'z yoshiga tarahhum etib, ayirtirib qo'ysangiz.* Hamza, Tanlangan asarlar. *Aslim so'r-sang - xonzodaman, qaddingdan, Tarahhumlar qilgin mening holima.* "Oy-suluv". *Mung'ayib qoldi sog'inch, armonim, Tarahhum aylab kelsangiz natar.* S.Ochil, Kamolga yetgan ishq.

TARAKA [a. تَرَكَ - qoldirilgan narsa; meros] esk. Taqsimlash, taqsim, bo'lish.

Taraka qilmoq Bo'lib (taqsimlab) bermoq. *Azbaroyiki, sho'rolar kam-bag'alparvar hukumat, deb yig'ganimni ko'pchilik o'rtasida taraka qilmay, hu-*

kumat qo'liga berdim. S.Karomatov, So'nggi barxan. Uylar-ku qurildi, lekin ko'pgina massivlarda ijtimoiy obyektlar uchun qoldirilgan yer maydonlari tara-ka-taqsim qilinganiga nima deysiz?! Gazetadan.

TARAKAN q. suvarak. Qishloqda hamma qo'y yoki mol boqsa, biz na go'sht, na sut beradigan tarakan boqamiz. O.Mo'min, Shaharda kim bor?

TARAKANA, tarkana esk. Taqsimlashdan tegadigan ulush, hissa. Muallimlar... bir haftagacha kelib, tarakanalarini olib ketishlarini tavsiya qilamiz... Chunki Asaka muassasalari-ning... maktablarning ostonasigacha bo'lib olish xayollari bor. "Mushtum".

Tarakana qilmoq ayn. taraka qilmoq q. taraka. "Menga desa, davlat-ingizni yalangoyoqlarga tarakana qilib yubormaysizmi!" deb to'ng'illagan-cha chiqib ketdi. M.Osim, Tilsiz guvoh.

TARAKACHI esk. shv. Meros taqsimlovchi. Yodgor, bir tangasi dasta mirzosining kotibonasiga [xizmat haqi-ga] ketgan oylikka o'zidan bir tanga qo'shib, tarakachiga berdi. S.Ayniy, Doxunda.

TARAKLAMOQ "Tarak-tarak" tovush chiqarmoq. Sovuqdan tishlar taraklardi. — Uzoqda goh-goh avtomat taraklab qo'yardi. Oybek, Quyosh qoraymas. Toshlarining qo'rg'on kunguralariga tegib gumburlashi... mo'g'ullar-ning dahshatli suroni, nog'oralarning taraklashi, karnaylarning g'at-g'uti havoni larzaga keltirdi. M.Osim, O'tror.

TARAL(L)A Beg'am-betashvish aysh qilib yurish; shu tarzda xursandchilik, gasht. To'y bo'lsa, sizga nima g'am, ayajon? Siz ham taralani vang

qo'yib yuravermaysizmi? Hamza, Boy ila xizmatchi. O'ynab-kulib, taralangni tortib yuraver. Senga "churq" etadigan-ning boshi o'nta. G'.G'ulom, Shum bola. Qurilish rahbarlari esa parvoyi palak. "Bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar", deb tarallani vang qilib yuri-shibdi. "Mushtum".

TARAL(L)ABEDOD Beg'am-be-tashvish aysh qilib yurish; xursandchilik, gasht (shu tarzda yuradigan shaxs-larga nisbatan qo'llanadi). *Taralabedod* qilib yurmoq. — Qachon ko'rsang, taralabedod, xursand, xushchaqchaq. Shuhrat, Shinelli yillar. Birovlarning sevgisini xor qilib, boshqa yor topib, taralabedod qilib yuruvchilarning ada-bini berib qo'yish kerak. B.Rahmonov, Yurak sirlari. -Asadni yoshligidan bilardim. Shirintomoq, maishatga suyagi yo'q, taralabedod, — dedi Kamol. H.Nazir, Ko'kterak shabadasi.

TARALMOQ 1 Taramoq 1, 2 fl. majh va o'zl. n. Suv hamma egatga baravar taraladi. — O'rmonjon shoshib chiqib ketdi va biron soatdan keyin ozg'in, sochi o'ng tomonga juda hafsala bilan taralgan... yoshgina bir yigit bilan kirib keldi. A.Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari.

2 Yoyilmoq, tarqalmoq. Qaysi bir uzunquloq orqali bu gap qamish to'z-g'og'iday taralib ketdi. H.Nazir, O'tlar tutashganda. Kumushbibi boshlovchi qizlar bilan uyga kirdi, undan taralgan atir islari bilan uy to'ldi. A.Qodiriy, O'tgan kunlar. O'n ikki o'g'il-qizli ota-onaning dong'i butun mamlakat bo'ylab taraldi. R.Fayziy, Shohi darparda.

3 Har tomonga ketmoq, tarqalmoq. Qizlar musiqiy asboblarni quchoqlab,

qo'rqa-pisa, g'ing demasdan, har yoqqa taraldilar. Oybek, Navoiy. Chipor tovuq ham zo'r tashvish bilan qaqag'lab, taralib yurgan jo'jalarini qanoti ostiga chaqtirardi. A.Muhiddin, Otash qalbli qiz.

TARAM 1 Soch, soqolning taroqdan o'tkazilib silliqlangan har bir tutami, qismi. *Bir taram soch.* — *Sochingiz taramlari ipakdan silliq.* Mirtemir.

2 ko'chma Tolalanib, bo'laklanib, marjon kabi oqqan suv, ko'z yoshi haqida. *Xotinining har ko'zidan yetmish taram yosh to'kilib, yuzginalariga yo'yilib...* "Oysuluv".

TARAMA kam qo'l. Soch turmagi. *Darvoqe, tepakallik ham husn, soch taramasining bir turi, xolos, degan tushuncha bor.* E.A'zam, Pakananing o.k.

TARAMOQ 1 Taroq yoki boshqa biror narsa bilan soch, soqol va sh.k. ning chigilini yozmoq, tekislamoq. *Shundan keyin sochlarini bir tomonga silliq taragan tilla tishli yigit qo'l ko'tardi.* N.Aminov, Suvarak. *Otam o'ylanib goldi. Soqolini barmoqlari bilan taradi.* Oydin, Sadag'ang bo'lay, komandir. *Qorong'ida sokin turgan otning bo'y-nidan quchoqladi, barmoqlari bilan yo'lini taradi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

Yuvib-taramoq Ozoda tutib, parvarish qilmoq. *Men ukalarimni yuvib-tarab, kechqurun bir qoshiq obiyovg'on qaynatib, yetimligini bildirmaslikka urindim.* Oybek, Tanlangan asarlar.

2 q.x. Ariq-jo'yaklarga suvni bir me'yorda taqsimlab oqizmoq, taratmoq. *Jo'yak olingan joylarda tajribakor suvchilar chalangang go'zalarga suv taradilar.* Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli. *Shermat ota ikki gektarlik kartaga suv tarab bo'ldi-da, egatlarni ko'zdan ke-*

chirib, o'qariq bo'yiga chiqdi. H.Nazir, Fasllar.

3 ko'chma poet. Yoymoq, sochmoq. *Qorli tog'lar orqasidan Atlas sochin tarab quyosh, Goh mo'ralab, o'ynatar qosh, Xanda sochar dudog'idan.* G'ayratiy.

Tok(ni) taramoq Tok novdalarini hir-biridan ajratib, taratib, bag'azlarga bog'lamoq. *Bog'bon bog'ga qarolmapti, toklarini tarolmapti...* Y.Shukurov, Asarlar.

TARAM-TARAM Rang yoki boshqa jihatdan uzun-uzun yo'lli, yo'l-yo'l. *Taram-taram olma. Taram-taram tarvuz.* — *Hovlidagi yong'oq va o'riklarining qoramtir barglari va buta oralarini taram-taram qizg'ish nur yoritmoqda edi.* P.Tursun, O'qituvchi. *Uning badanlari qamchi izlaridan taram-taram titilib, momataloq bo'lib ketdi.* A.Po'lat, O'qlar chaqnagan damlarda.

TARAN [r. таран — devorteshar qurol < nem. Tarant — qamal quroli] **1** tar. Qal'a va uning darvozalarini buzishda qo'llanadigan, uzun yo'g'on xodadan iborat, zanjirga osib bog'langan qadimiy harbiy qurol. *Iskandar usti yopiq, g'ildirakli taranlar yasattirdi.* M.Osim, Ajdodlarimiz qissasi.

2 harb. Dushman samolyoti, kemasi yoki tankiga o'z samolyoti, kemasi yoki tanki bilan zarba berish. *O'qlarim tugadi, samolyotimni taranga olib bormoq-daman.* Gazetadan.

TARANMOQ Sochlarini tarab, u yoq-bu yoqlarini tartibga keltirmoq. *Tannoz taranguncha to'y o'tar.* Maqol. — [Elmurod] *Yuvindi, tarandi va so'ng-ra ayvondagi sandalga o'tirdi.* P.Tursun, O'qituvchi. *Yuvinib, taranib, toza kiyingan qiz zargar qo'lidan endigina*

chiqqan uzukka o'xshaydi. Shuhrat, Shinelli yillar.

TARANNUM [a. ترنم – kuylash, ashula aytilish; sayrash, go'zal so'zlash] poet. Kuylash; kuy. *Allalovchi va farahbaxsh nozik tarannum Sevgi mehri bilan meni har nafas quchar. G'ayratiy.*

Tarannum etmoq (yoki qilmoq) 1) kuy ijro etmoq, kuylamoq; 2) ko'chma madh etmoq, maqtamoq, kuylamoq. *Shoirilar she'rlarida tarannum etgan go'zal bog'!* Oybek, Navoiy. *Mardlik senda, harorat senda, Tarannum qil sevgi ertagin.* R. Bobojon.

TARANTAS [r. таратайка < капандас – odam tashiydigan arava turi] esk. Odam tashiydigan to'rt g'ildirakli arava. ...*Chorrahalarida chiroyli tarantastlar, otlari tumshug'iga kiygizilgan to'rvadan suli chaynayapti.* A. Muxtor, Chinor. *Foytun qimmat bo'lgani uchun, endi men tarantas degan uzun aravaga tushdim.* M. Muhammadjonov, Turmush urinishlari.

TARANTUL [lot. Tarantula > Tarentum shahri nomidan] zool. Yerdə uya qurib yashaydigan zaharli o'rgimchak. *Tarantul hajmi katta o'rgimchak... jigarrangli... qornida olovrang dog'lari bor.* Gazetadan. *O'rgimchaklar orasida eng uzoq yashovchi tur tarantul hisoblanadi.* Gazetadan.

TARAQ I taql. s. Ikki quruq narsaning bir-biriga qattiq urilishidan chiqqan tovushni bildiradi. *Taraq etib eshikni yopmoq. — Xola taraq etkazib, bo'sh chelakni yerga qo'ydi.* Gazetadan.

TARAQ II: Ba'zi so'zlar bilan qo'llanib, shu so'z anglatgan narsaning yuqori darajasini bildiradi. *-Pichog'i-*

miz moy ustida deng! Kasod bo'lib qolgan bozorimiz yana taraq bo'lar ekan-da! — dedi kavushdo'z aka Navro'zga. M. Osim, Elchilar. *Bitta-yarimtasi vahimaliroq bir gap eshitdimi, darrov mol narximi oshiradilar. Urush bahona bo'ldi ularga. Bizning xo'jayin-chi? Ishi taraq! Oybek, Tanlangan asarlar. Kayfi taraq Tantiboyvachcha Salimni yupatish uchun ichkilikni mo'l ichirdi. Oybek, Tanlangan asarlar. Birinchi qalin qordan keyinoq qaqqashatqich izg'irinlar bo'lib, hamma yoq taraq muzladi. H. Nu'mon va A. Shorahmedov, Ota.*

TARAQ(A)-TURUQ 1 taql. s. "Taraq" va shunga yaqin tovushlarni bildiradi. ...*olomon bir-biriga aralashib, taraqa-turuqlar, qilichlarning jarangi, otlarning kishnashi dasht sukunati-ni buzib yubordi. Mirmuhsin, Cho'ri. Eshik taraqa-turuq ochilib, ko'n etigini do'qillatgancha, akasi Mo'min kirib keldi. Sh. G'ulomov, Yorqin yo'llar.*

2 ko'chma s.t. Ortiqcha, keraksiz narsa, xatti-harakat kabilar haqida. *Bunaqa taraqa-turuqlarning nima (kimga) keragi bor?!*

TARAQLAMOQ 1 "Taraq", "taraq-taraq" tovush chiqarmoq, taraq etmoq. *Ko'cha tomonida bir narsa taraqladi. Ayol qo'lidagi qoshiqni qo'ydi-da, yugurib deraza oldiga bordi. S. Zunnunova, Gulxan. Eshik taraqlab ochilib, kimdir Munavvarni quchoqladi. S. Anorboyev, Mehr.*

2 ko'chma Ish-faoliyat, narsa va sh.k.ning avjida, yuqori darajada bo'lishini bildiradi. *Taraqlagan uchastkaning bekasiman, Erginamning jondan suygan erkasiman. "Mushtum". -Ish*

taraqlab, pul ko'paygandan keyin, bir-varakay ichki-tashqi dang'illama imorat solaman, – dedi-da, yomongina hovlini ijaraga oldi. Oybek, Tanlangan asarlar.

TARAQQIY [a. ترقى – ko'tarilish, yuksalish, rivojlanish] kam qo'll. ayn. **taraqqiyot**. Agar biz jahd-u jadal qilib, bu jaholat botqog'idan qutulmasak, taraqqiy yo'lini tutmasak... yaqin o'rtada biz musulmonlarning muqaddas yerlarimizni ham bosib oladilar. Oybek, Tanlangan asarlar.

Taraqqiy etmoq (yoki qilmoq, topmoq) O'smoq, rivojlanmoq, yuksalmoq; mukammallashmoq. *Taraqqiy topgan mamlakatlar.* — Qadimda qaysi shahar taraqqiy etib, obod bo'lgan bo'lsa, uning sababini tarix kitoblarida savdo yo'li o'tganligida, deb o'qitiladi. Shukrullo, Javohirlar sandig'i.

TARAQQIYOT [a. ترقیات – yuksalish, olg'a harakatlanish, rivojlanish, o'sish] Rivojlanishning oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga yo'nalgan shakli, uning yuksalishi. *Tarixiy taraqqiyot. Texnika taraqqiyoti. Kishilik jamiyatining taraqqiyot bosqichlari. Fan va madaniyatning taraqqiyot darajasi.* — Mana, taraqqiyot davri kelib, shaharlar qayta qurilmoqda... Mirmuhsin, Me'mor. Mamlakatimizda ishlab chiqaruvchi kuchlar keng ko'lamda rivojlanmoqda, fan-texnika taraqqiyoti avj olmoqda. "Fan va turmush".

TARAQQIYPARVAR [taraqqiy + f. پرور – taraqqiyot tarafdori, himoyachisi] Taraqqiyot tarafdori, taraqqiyot, yuksalish uchun kurashuvchi. *Taraqqiyparvar yozuvchi. Taraqqiyparvar inso-*

niyat. — Uning ["Xurshi" gazetasi-ning] boshqarmasi... Sharif oxund degan taraqqiyparvar bir odamning mehmonxonasidaekan. M. Muhammadjonov, Turmush urinishlari. U ko'pincha taraqqiyparvar ziyolilarga yaqin aloqada bo'ldi. Oybek, Nur qidirib. [Asadulla-xo'jayev:] -Andijonning o'zidan taraqqiyparvarlar yo'q darajada, yangi fikrli va millatparvar yoshlari ham juda kamdir. N. Jaloliddin, Tegirmon.

TARAQQOS [a. ترقاص – sakrash, tipirchilash; o'yinga, raqsga tushish] 1 ayn. qumoy.

2 ko'chma Juda xunuk, ta'viya.

Ta'viyayi taraqqos ayn. ta'viya-taraqqos. *Taraqqos boylamoq folk.* Gijinglab turmoq (ot haqida); noz-ishva qilmoq. G'iro't Avazni ko'rib, uchadigan qushday, har ko'zi tarkashday, yulduzni ko'zlab, taraqqos boylab o'ynay berdi. "Balogardon".

TARATMOQ 1 **Taramoq** fl. ort. n. *Sochini taratmoq. Jo'yaklarga suv taratmoq.*

2 Yoymoq, sochmoq, tarqatmoq. *Kabobpazning yelpig'ichi moviy dudlar bilan yoqimli hid taratadi. Sh. Toshmatov, Erk qushi. Osmonni to'ldirib uchgan qushlarni aytib: ular ham huzur bag'ishlab, Ko'korol ko'kida yoqimli kuylar taratar edi. H. Nazir, So'nmas chaqmoqlar. Saxiy yoz quyoshi olamga nur taratadi, qabriston ham ko'm-ko'k...* Gazetadan.

TARASH 1 **Taramoq** fl. har. n. *Sochni tarash. Suvni tarash. Tarash mashinasi.* — La'li ishvali ko'zlari bilan unga har qancha termulib boqmasin, bek o'z oti bilan, uning... yolini tarash bilan mashg'ul. H. G'ulom, Mash'al.

TARASH II [f. تراش – kesish; qirish, qirtishlash] Kesish, yo‘nish, qirtishlash, qirib tekislash. *Idishlar qurib, tarashdan chiqqan, [Qulmuhammad] gilvata quyardi.* Mirmuhsin, Cho‘ri.

TARASHA [f. تراشه – silliqlangan, tarashlangan narsa; yog‘och payrahasi, qirindisi] 1 Yorib maydalangan o‘tin. *Quruq tarasha. Tarasha tayyorlamoq.* — *Ko‘mir yo‘qligidan, tarasha cho‘g‘i tanchani birpas bozillatib so‘ngan edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Keyin u ayvondagi samovarni puflab, o‘txonasiga tarasha tashlay boshladi.* A.Muxtor, Davr mening taqdirimda.

2 *ko‘chma* Quruq, qattiq narsa yoki qotma odam haqida. *Uning qo‘llari bami soli tarasha.*

3 Shunday qotma, “quruq” odamning ismiga qo‘shib aytiladigan laqab. *-Polvon, bas, Hamzaxonni charchatib qo‘ymaylik, – dedi Mahmud tarasha...* K.Yashin, Hamza.

Tomdan tarasha tushganday Kutilmagan(da), birdan, to‘satdan; o‘ylamay-netmay. *Xoliqning tomdan tarasha tushganday gaplari tag‘in kulgimni qistatdi.* H.Nazir, Bir tup g‘o‘za. *Qiziq, tuppa-tuzuk yigit, u yo‘q-bu yo‘q, tomdan tarasha tushganday... birdan sovchi yuborgani qanaqasi.* O.Yoqubov, Bahor kunlaridan birida.

TARASHLAMOQ 1 Silliq, tekis qilib olmoq, qirmoq (soch, soqol, jun va sh.k. ni). *-Siz, – dedi Azmiddin, kalta, siyrak soqolini po‘rim tarashlagan Bo‘ronbekka qarab...* H.G‘ulom, Mash‘al. *O‘n olti yoshidan beri soqol oldiradigan sermo‘y Ochil hozir uch kunda bir yuzini tarashlardi.* P.Qodirov, Uch ildiz.

2 Yo‘nib, qirib va b. yo‘l bilan ishlov bermoq, silliqilamoq. *Inson qo‘li bilan tarashlanganday silliq, to‘rtburchak xarsanglar bu yerda juda ko‘p.* S.Anorboyev, Oqsoy. *...yigit o‘zidan uch-to‘rt qadamcha narida g‘isht tarashlab o‘tirgan kekxa odamga o‘zga tilda bir nima dedi.* Mirmuhsin, Me‘mor.

3 *ko‘chma* Qirib-qirtishlab, butunlay yo‘qotmoq, yo‘q qilmoq. *Nasibani allaqachon ko‘nglimdan tarashlab tashlaganim uchun ham indamay qo‘ya qolarim.* O.Yoqubov, Tilla uzuk.

TARANG [f. ترنگ – o‘q otilganda kamon ipidan chiqadigan tovush] 1 Qattiq tortilgan, solqa yoki burushiq joyi qoldirilmasdan kerilgan. *Tarang tortilgan arqon.* — *Nafisa ko‘rdiki, ip juda tarang tortildi, endi shirt etib uzilib ketishi mumkin.* Shubrat, Jannat qidirganlar. *Bu tor, tarang kiyimda uning kelishgan qomati yanada bo‘rtib turardi.* S.Siyoyev, Otliq ayol.

2 To‘lishib silliq tortgan, tekis. *Tarang siynalar qora koftaga sig‘may, qo‘sh cho‘qqiga aylangan.* S.Siyoyev, Otliq ayol. *Bir necha kun ichida Nodirjonning eti ustuxoniga yopishdi, enli, tarang peshonasida ajinlar paydo bo‘ldi.* A.Muhiddin, Chap cho‘ntak.

3 *ko‘chma* Ayrim so‘zlar bilan qo‘llanib, narsa, holat kabilarning yuqori darajasini, so‘nggi chegarasini bildiradi. *Uning butun vujudi hayajon bilan tarang tortilgan edi.* P.Qodirov, Uch ildiz. *...uning uyatchan ko‘zlariga ko‘zi tushib, tarang asablari birdan bo‘shashib ketdi.* S.Nurov, Narvon. *Salomxonadagi tarang vaziyat biroq yumshagandek bo‘ldi.* S.Siyoyev, Yorug‘lik. *Nizomjon*

ana shu oilada, hamisha tarang ro'zg'or ichida o'sdi. S.Ahmad, Ufq.

Tarang qilmoq 1) tarang holga keltirmoq. *Arqonni tarang qilmoq;* 2) yalintirish va sh.k. maqsadda rozi bo'lmashlik, ko'nmaslik. *Shunday paytlarda Huri juda ochilib ketar, gali kelganda, hech tarang qilmay, qo'lidan kelganini ko'rsatar edi.* F.Musajonov, Huri. *Kelinni aravada olib kelishayotganlarida, guzarlarda to'sishardi... sovrin tilab, atayin tarang qilishardi...* R.Rahmon, Mehr ko'zda.

TARANGLAMOQ Tortib yoki keriib, tarang holga keltirmoq. *Dorni taranglamoq. Dutorning ipini taranglamoq. Matoni taranglab, gul tikmoq.* — *Uchastka etagidagi ikki yigit simni taranglab, belgi qilingan tugmachani nazorat chizig'iga baravarladi.* R.Rahmon, Tinib-tinchimas.

TARANGLASHMOQ 1 Tekis, silliq, tarang holga yetmoq. *Yigitali suvdan ruhi yengil tortib chiqdi, taranglashgan badanlarida qayta bardamlik paydo bo'ldi.* D.Nuriy, Osmon ustuni. *Lekin burgan poyasi mustahkam edi, chiltvir taranglashib, itning tomog'ini bo'g'ib qo'ydi.* M.M.Do'st, Darvoza yonidagi it.

2 Ziddiyatli holat yuzaga kelmoq. *Erkin institutni tamomlab, ilmiy ish bilan shug'ullana boshlagan paytda munosabat yanada taranglashdi.* Gazetadan.

Asabi taranglashmoq Qattiq asabiy-lashmoq, avzoyi buzilmoq. *...boyvachcha goh asabi taranglashib, miltig'ini qo'lga olar, goh bo'shashib, yoniga qo'yardi.* S.Yunusov, Kutilmagan xazina. *Balandlikka ko'tarilayotgan Suyar Su-*

yunning tajang asablari taranglashdi, yuzini ter bosdi. M.Safarov, Ayrixox.

TARANGLIK 1 Qattiq tortilgan holat. *Ipning taranligi. Arqonning tarangligi.*

2 Noqulay, yoqimsiz, ziddiyatli holat, vaziyat. *Bo'g'izda tiqilib, o'rtada to'lib turgan nafasni faqat sərbast gap bilan, o'rtadagi taranglikni yo'qotuvchi erkin so'z bilan o'nglash mumkin edi.* M.Ismoil, Farg'ona t.o.

3 O'jarlik, qaysarlik. — *Yo'q, Sherali Nazarovich, — dedi hamon tarangligidan tushmagan Rasuljon, — to'g'ri aytdingiz.* J.Abdullaxonov, Xonadon. — *Keling, mug'ombirlikni qo'yding! — Muhayyo ovozi bir parda balandlatdi. — O'zingiz ham jon-jon deb turibsiz-u, taranglikka balo bormi!* A.Asil, Tashnalik.

TARBIYA [a. تربیه — rivojlantirish; parvarish qilish, o'stirish; o'rgatish; ilm berish] 1 Ta'lim, axloq-odob va sh.k. ni o'rgatib, singdirib, insonni voyaga yetkazish, ulg'aytirish, o'stirish. *Internat tarbiyasida o'sgan bola.* — *Abdurahmon... otasi o'lib, onasi va ota tomonlari tarbiyasida qoldi.* A.Qodiriy, Mehrobdan chayon. *Qiz o'n olti yoshgacha bu oilada, muzika muallimi bo'lgan kambag'al amakining tarbiyasida o'sdi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

2 Insonda ish-hunar, odob-axloq va sh.k. ni shakllantirish, rivojlantirishga, uning jamiyatda yashashi uchun kerak bo'lgan xislatlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan ish-amallar majmuyi va shu yo'l bilan singdirilgan odob-axloq, xislat, fazilat kabilarning o'zi. *Siyosiy tarbiya. G'oyaviy tarbiya. Maktab tarbiyasi. Tarbiyasi buzuq odam. Tarbiyasi yaxshi bola.* — *Yosh*

VZNOS [r. “вносить”, “внести” s. dan – to‘lash, to‘lov] q. *badal*. A’zolik *vznosi*. Kabinetda *vznos* qabul qiladigan qiz o‘tirgan edi. P.Qodirov, Uch ildiz.

VYORSTKA [r. “верстать” s. dan – sahifalash] *poligr.* 1 Bosma qolip tayyorlash jarayoni; terilgan matn va unga tegishli boshqa unsurlardan gazeta, jurnal yoki kitob sahifalarini shakllantirish; sahifalash. *Uning [kitobning] muqovasi, titul varag‘i... e’tiborsizlik va didsizlik bilan vyorstka qilinibdi*. Gazetadan.

2 Tayyor qilingan sahifa va undan olingan nusxa. *Vyorstkani o‘qimoq*.

VZVOD I [r. “взводить” s. dan – yuqori ko‘tarish] *harb.* Rota, batareya tarkibiga kiradigan kichikroq bo‘linma. *Tankchilar vzvodi. Avtomatchilar vzvodi. — Elmurodning vzvodi ham batalyon bilan ikki haftalik dala mashqiga chiqqan edi*. Shuhrat, Shinelli yillar.

VZVOD II Qurolning tepkini ko‘tarishga imkon beruvchi kichikroq moslamasi.

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATI

V JILD

Muharrir Habib Abdiyev
Badiiy muharrir Dilmurod Jalilov
Musahhihlar Adolat Mustafoyeva, Saydaliyeva Muxlisa
Kompyuterda sahifalovchi Umida Valijonova